

ZOKIRJON SAIDBOBOYEV

TARIXIY GEOGRAFIYA



ZOKIRJON SAIDBOBOYEV

TARIXIY GEOGRAFIYA

*O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

lga
va
ini
diy

lar
asi
ori
gan
el
ixi
ligi

do
lab
rgi
una
qin
aro

rga
di.
cur
xiy
va
de-

63.2
S21

Saidboboyev, Zokirjon.

Tarixiy geografiya: tarix bakalavriyat yo'nalishi talabalari uchun darslik / O. Bo'riyev; O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: Noshir, 2010 - 224 b.

ББК 63.2я722

Darslikda tarixiy geografiya va tarixiy kartografiya fanlarining shakllanishi va taraqqiyoti masalalari, shuningdek, O'rta Osiyoning qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar bo'lgan tarixiy geografiyasi mavjud tarixiy, geografik manbalar va ilmiy adabiyotlar doirasida yoritilgan.

Mas'ul muharrir:

Tarix fanlari nomzodi, dotsent **O. BO'RIYEV.**

Taqrizchilar:

Tarix fanlari doktori **Sh.S. KAMALIDDINOV,**
Geografiya fanlari nomzodi, dotsent **A. EGAMBERDIYEV.**



SO‘ZBOSHI

Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida erkin demokratik tafakkurga ega bo‘lgan va mustahkam milliy g‘oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a‘zolarini tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining o‘rni jiddiy ravishda ortmoqda.

1998 yilning iyulida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida“gi Qarori e‘lon qilinib, unda respublikamiz tarixchi olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida mamlakatimiz va chet el olimlarining eng qadimdan hozirgi kungacha o‘zbek xalqi tarixi bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotlarini tahlil qilish ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mintaqamizning Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim savdo yo‘llari tutashgan yerda joylashganligi bois bu hududdan ko‘plab sayyohlar, savdogar va sarkardalar o‘tishgan. Tarixan hozirgi O‘zbekistonning hududi shunday joy bo‘lganki, bu yerda ko‘hna savdo yo‘llari (mashhur Buyuk Ipak yo‘li) tutashgan, jo‘shqin tashqi aloqalar va turli etnik jarayonlarning bir-birini o‘zaro boyitishi jarayoni kechgan.

Yuqoridagi masalalarni chuqurroq o‘rganish va talaba yoshlarga yetkazish maqsadida „Tarixiy geografiya“ darsligi tayyorlandi. Mazkur darslik O‘zbekistonda dastlabki tajribalar asosida mazkur o‘quv fanidan tayyorlangan qo‘llanmadir. Uning vazifasi tarixiy geografiya fani, uning maqsad va vazifalari, O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tarixiy geografiyasi haqida asosiy tushunchalar berishdan iborat.

Darslikda asosiy e'tibor tarixiy geografiya va tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti masalalari, shuningdek, O'rta Osiyo olimlarining mazkur fanlarning rivojiga qo'shgan hissalarini batafsil yoritishga harakat qilindi. Tarixni o'rganishda turli yozma manbalar bilan birga tarixiy kartalar hamda ulardagi ma'lumotlar ham asosiy manbalardan biri bo'lganligi bois tarixiy kartografiyaga alohida bob ajratildi. O'lkamizning qadimgi davrlardan hozirgi zamonga qadar bo'lgan tarixiy geografiyasi mavjud tarixiy, geografik manbalar va ilmiy adabiyotlar doirasida yoritildi.

Talabalarning fan yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash maqsadida har bir bob oxirida savol va topshiriqlar hamda manbalardan ma'lumotlar keltirildi. Bundan tashqari bakalavriat yo'nalishi talabalariga ushbu fandan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borilishini hisobga olib, mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari berildi.

Muallif kelajakda darslikni takomillashtirish yuzasidan berilgan barcha maslahat va tavsiyalar uchun avvaldan minnatdorchilik bildiradi.

I BOB.

TARIXIY GEOGRAFIYANING VAZIFALARI VA ASOSIY BO‘LIMLARI. UNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

1. Tarixiy geografiya fani haqidagi ilmiy qarashlar

Tarixiy geografiya fan tarmog‘i sifatida qadimdan shakllangan tarix va geografiya fanlaridan ancha yosh sanaladi. U fan sifatida bir necha yuz yildan beri mavjud. Uning taraqqiyot tarixi tarixiy-geografik adabiyotlarda qisqacha berib o‘tilgan. Jumladan, S.M.Seredoninning kitobida bu fan to‘g‘risidagi ma’lumotlar Kiyev Rusi va Moskva davlati tarixiy geografiyasi misolida tahlil etilgan, xolos¹. G‘arb adabiyotida ham tarixiy geografiya tarixi bo‘yicha ilmiy asarlar juda kam. Avstriyalik taniqli olim Vimmerning tadqiqotida qadimgi dunyo va Germaniya, qisman Fransiya tarixiy geografiyasi bo‘yicha asarlar biroz sharhlangan².

Fransuz olimi Dejardenning yirik mashhur asarida Galliya tarixiy geografiyasiga doir adabiyotlar tahlil etilgan³. Ammo Vimmerning ham, Dejardenning ham kitoblarida tarixiy geografiyaning rivoji haqidagi ma’lumotlar unchalik ko‘p emas.

Ingliz ilmiy adabiyotida Bekerning bu sohaga oid maqolasi ingliz tarix va geografiya assosiasiyasining Oksford bo‘limi qo‘shma yig‘inida o‘qilgan bo‘lib, unda so‘nggi yuz yil ichida tarixiy geografiya bo‘yicha ingliz olimlarining tadqiqotlari ko‘rib chiqilgan⁴.

¹ Qarang: *Seredonin S.M. Историческая география.* - Петроград., 1916.

² *Wimmer. Historische Landshaftskunde.* - Innsbruck., 1885.

³ *Desjardins. Geographie historique et administrative de la Gaule Romaine.*- Paris., 1876-1878.

⁴ *Baker. The last hundred years of historical geography // History.* December. 1936. Vol. XXI. №83.

Ilmiy adabiyotlarda uzoq vaqt davomida tarixiy geografiyaning shakllanishi va unga omil bo'lgan sabablarni asoslovchi ilmiy xulosalar deyarli yo'q edi. Holbuki, ilmiy adabiyotlarda bu masala ancha oldin qo'yilgan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarining yirik nemis tarixchisi Geeren (1760–1842 yillar) 1785 yilda Volterning tarixiy g'oyalarini davom ettirib, tarixiy geografiyaning shakllanishi va asosiy bosqichlari haqida to'xtalib o'tdi. Geeren o'z fikrlarini mualliflar jamoasi tomonidan nashr etilgan qadimgi dunyo tarixiga doir kitobida bayon etgan¹.

Geeren *qadimgi dunyo tarixiy geografiyasining asoschisi* deb Niderlandiyaning Leyden universiteti professori Klyuvernini (XVII asrning birinchi choragi) tan olgan.

Geeren tarixiy geografiya fani taraqqiyoti tarixini *uch bosqichga bo'ladi*:

1. Klyuverdan Sellariusga qadar;
2. Sellariusdan D'Anvilga qadar;
3. D'Anvildan Gatterer va Mannertga qadar.

Geeren tarixiy geografiyaning ilmiy fan sifatidagi taraqqiyotiga galliyalik olim Xristofor Sellarius hissa qo'shganligini ham alohida uqtirgan.

XIX asrda Geerening fikrlari boshqa tadqiqotchilar tomonidan bir necha bor takrorlandi. 40-yillarda Forbiger qadimgi geografiyaga oid darslik kitobida Klyuver va Sellariusni tarixiy geografiyaning haqiqiy asoschilari deb hisoblagan².

70-yillarda Bursian mashhur nemis kishilari hayoti lavhalari nashr etiladigan „Allgemeine Deutsche Biographie“ kitobiga yozgan Klyuver haqidagi biografiyasida ham uni tarixiy geografiyaning asoschisi deb ta'riflagan. 80-yillarda Vimmer ham yuqorida ko'rsatilgan asarda bu fikrni takrorlagan.

Klyuver haqida 1891 yilda geograf olim, professor Parch tomonidan maxsus monografiya e'lon qilingach, uning (Klyuver-

¹ Handbuch der alten Erdbeschreibung von d'Anville zum Gebrauch seines Atlas Antiquus in 12 Landkarten verfasst.

² Forbiger. Handbuch des alten Geographie. T.I.-Leipzig., 1842. S. 477.

ning) tarixiy geografiya asoschisi ekanligi haqidagi qarashlar yana ham ko'paydi. Nemis olimi Gettner Parchning fikrlariga qo'shilib, Klyuvern *tarixiy geografiya asoschisi* deb ataydi.

Sho'rolar hukmronligi davridagi adabiyotlardagi bu haqdagi dastlabki qarashlar 1937 yilda S.Rudniskiy va 1939 yilda V.P.Bu-dyanovlar tomonlaridan bildirilgan.

Shunday qilib, tarixiy geografiyaning paydo bo'lishi va vaqti haqidagi eski an'analar mavjuddek ko'rinsa-da, aslida haqiqat boshqacharoq.

1930 yilda belgiyalik olim Van der Linden Birinchi xalqaro tarixiy geografiya kongressi ochilishidagi kirish nutqida boshqacha nuqtai nazarni, ya'ni XVI asrning ikkinchi yarmida dunyoning ilk tarixiy atlasini yaratgan flamand olimi A.Orteliyni tarixiy geografiyaning asoschisi deb baholadi. Xuddi shunday qarashlar 1935 yilda geografiya fanlari tarixi bo'yicha yirik italyan mu-taxassisi Almadja tomonidan „Italyan ensiklopediyasi“ga Orteliyga bag'ishlab yozilgan maqolada ham bildirildi.

Amerikalik Garri Barnes 1938 yildagi asarida XII asr ingliz muarrix va geografi Jerald de Barri o'z davrida tarixiy geografiya bilan jiddiy qiziqqanligi hamda „Irlandiya topografiyasi“ va „Uels bo'ylab sayohat“ nomli asarlarini yozganligini ma'lum qilgan¹.

Yuqoridagi noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida ko'plab ilmiy anjumanlar tashkil etilgan. 1930 yilda Belgiyada tarixiy geografiyaga bag'ishlangan maxsus xalqaro kongressda Belgiya, Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya, Ispaniya, Polsha va Gollandiyadan kelgan olimlar ishtirok etishdi. Kongressdagi yetti seksiyada jami 55 ma'ruza o'qilgan.

1950 yilda sobiq Ittifoq tarixiy geografiyasi bo'yicha maqolalar to'plami nashr etila boshlandi (qarang: „Voprosi geografii“, №20).

1932 yilda London iqtisodiyot maktabida Angliya tarix va geografiya jamiyatining munozarasida tarixiy geografiya fani maxsus muhokama qilingan. Muhokama tarixiy geografiya fani

¹ Barnes H. A History of Historical Writing., 1938.

to'g'risidagi fikrlarga bir qator aniqliklar kiritdi¹. Tarixiy geografiyaga siyosiy chegaralar tarixi, tarixiy jarayonlarga tabiat ta'sirlari, shuningdek, tarixiy jarayonlarning geografik hodisalarga ta'siri va alohida mintaqalarning geografiyasini o'rganish, geografik kashfiyotlar, geografik fanlar tarixi kabi bo'limlarni kiritish ilgari surilgan. Bu yerda tarixiy geografiyaga oid yangi bo'limlar bilan birga geografiya tarixi ham qo'shib ketganligini farqlash kerak.

Qabila va urug'lar, xalqlarning biror hududda joylashishi va o'z tarixi davomida bu hududlarning o'zgarishi, mustamlakalar natijasida yangi xalqlarning kelib joylashishi kabi masalalar tarixiy geografiya bo'limi sifatida M.K.Lyubavskiyning Rossiya tarixiy geografiyasiga oid asarida tilga olib o'tilgan².

Ba'zan tarixiy geografiya fanining mazmunini aniqlashtirishda chalkashliklarga ham yo'l qo'yilgan. Masalan, A.A.Spitsin tarixiy geografiyani „...tarixning bo'limi bo'lib, mamlakatning hududi va aholisini, tabiiy-geografik tavsifini, qisqa qilib aytganda, uning tarixiy manzarasini o'rganadi“, – deb yozgan³.

S.M.Seredonin yuqorida nomi keltirilgan asarida tarixiy geografiya avvalo aholi, chegaralar, yo'llarni (mustamlaka, savdo-sanoat, harbiy) o'rganishini ta'kidlagan.

S.K.Kuznetsov 1907-1908 yillarda Moskva arxeologiya institutida tarixiy geografiyaga oid kursida rus tarixiy geografiyasi, umuman, uning o'zi tushuncha sifatida juda noaniq va qorong'u bir mavzu ekanligini uqtirgan⁴.

Bu haqdagi fikrlar keyinroq ham ko'p bildirilgan. 1932 yilda Gilbert: „Tarixiy geografiya“ atamasi tarixchi uchun ham, geograf uchun ham umuman tushunarsiz. Bu atama orqali paydo bo'lgan

¹ Muhokama materiallari haqida qarang: What is historical geography?// „Geography“. №95. Vol. XVII. Part I. March. 1932.

² Любавский М.К. Историческая география. Россия в связи с колонизацией - М., 1909.

³ Спыцин А.А. Русская историческая география. - Петроград., 1917. - С. 1.

⁴ Кузнецов С.К. Русская историческая география - М.,1910. - С. 1.

asarlar bir-biridan tavsifi va maqsadi jihatidan o'zaro keskin farq qiladi“, – deb yozgan¹.

1937-yilda mashhur fransuz olimi Mark Blok o'zining G.K.Darbi boshchiligidagi ingliz olimlarining kitobiga (*An Historical Geography of England before A.D. 1800. Edited by Henry Clifford Darby.-Cambridge.: University Press. 1936.*) bergan taqrizida: „*Bizning lug'at „Tarixiy geografiya“ kitobi va uning mazmuniga oid to'liq tasavvurni berish uchun hali mukammal emas*“, – deb ta'kidlagan².

Sho'rolar davri adabiyotlarida hatto tarixiy geografiya fanining mavjudligi to'g'risidagi fikrlar rad etib kelindi. P.G.Saar tarixiy geografiyaning o'rganish ob'ekti yo'qligini va faqatgina tabiiy-tarixiy geografiyagina mavjud bo'lib, u geografik muhitning o'zgarish tarixini o'rganadi, deb ta'kidlaydi³.

Ammo V.K.Yatsunskiy mazkur fanning maqsad va vazifalari haqida o'tgan asrning 40–50-yillarida qator tadqiqotlar chop etib, tarixiy geografiyaning prinsipial qonun-qoidalarini batafsil tahlil etgan⁴. Ularda tarixiy geografiya tarixiy fan sifatida o'tmish geografiyasi va tabiiy-tarixiy geografiyasini o'rganadi, degan fikrlar ilgari surilgan. V.K.Yatsunskiyning bu mulohazalariga qarshi fikr bildirgan L.A.Goldenberg tarixchilar tabiiy-tarixiy geografiya muammolarini o'rganishga tayyor emasliklarini bildirdi⁵. L.A.Goldenberg tarixiy geografiyadan tabiiy-tarixiy geografiyani ajratgan holda uni shunday ta'riflaydi: „*Tarixiy geografiya – tarixiy fan bo'lib, o'tmish xalqlarning tarixiy-iqtisodiy (aholi va xo'jalik)*

¹ Gilbert. What is Historical geography? //“Scottish Geographical Magazine“, 1932, №3.

² Annales d'histoire economique et sociale. 1937, Mars, №44.

³ Саар П.Г. Источники и методы исторического исследования. - Баку., 1930.

⁴ Яцунский В.К. Предмет и задачи исторической географии //“Историк-марксист“ 1941, №5; *shu muallif*: Историческая география как научная дисциплина//“Вопросы географии“. 1950, №20; *shu muallif*: История географических знаний и историческая география СССР. - М., 1953;

⁵ Голденберг Л.А. О предмете исторической географии// Изв. ВГО. 1971, № 6.

hamda siyosiy-tarixiy geografiyasini tarixiy-geografik muhit bilan bog'lab o'rganadi"¹. Bir tomondan L.A.Goldenberg mazkur ta'rifiga tarixiy etnik geografiyani kiritmagan. Bu esa noto'g'ridir.

O'tgan asrning 70-yillarida tarixiy geografiyaga bag'ishlangan asarda mazkur fan tabiiy, aholi, xo'jalik (tarixiy-iqtisodiy) va siyosiy-tarixiy geografiyaga bo'linishi, tabiat va inson o'rtasidagi muosabatlar, tabiiy shart-sharoitning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, tabiat in'omlaridan insonning foydalanishi kabi masalalar o'rganilishi mumkinligi ilgari surilgan². Bunday katta hajmdagi ishlarni ilmiy tadqiq etish uchun avvalo tarix, qolaversa, geografiya fanidan yaxshigina boxabar bo'lish zarur.

Bir guruh olimlar esa geografik kashfiyot va sayohatlar tarixini geografiya tarixigagina emas, tarixiy geografiyaga ham qo'shib o'rganish zarurligini uqtirishadi³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash o'rinliki, tarixiy geografiya haqidagi ilmiy qarashlar xilma-xildir. Tarixiy-geografik muammolarni hal etishda esa hamon ikkita yo'nalish — **tarix** va **geografiya** mavjud. Tarixiy geografiya bu fanlarning tutash chegarasida bo'lib, tarixga ham, geografiyaga ham oid deyish mumkin.

2. Tarixiy geografiyaning vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari

Biz umumta'lim maktablarida O'zbekistonning, dunyoning *tabiiy, iqtisodiy, siyosiy va aholi* geografiyasini o'rganamiz. Xo'sh, tarixiy geografiya ulardan nimasi bilan farqlanadi?

¹ Yuqoridagi asar. — S. 67.

² Дробижев В.З., Ковальченко И.Д., Муравьев А.В. Историческая география СССР. - М., 1973. - С.3.

³ Гольденберг Л.А. О предмете исторической географии // Изв. ВГО. 1971, №6; Белов М.И. О разработке теории советских историко-географических исследований // Первая Всесоюзн. научн. сессия по историч. географии. - М., 1974.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, tarixiy geografiya fani to‘g‘risida XX boshlariga qadar ilmiy adabiyotlarda aniq tasavvur mavjud emas edi. G‘arbda ham Rossiya, qolaversa, O‘zbekiston tarix va geografiya fanida ham bu sohada hozirga qadar turli qarashlar mavjud. Vaholanki, qadimdan toki hozirgi kungacha yaratilgan ko‘plab tarixiy asarlar mazmunini tarixiy-geografik ma’lumotlar tashkil etadi.

Hozirda tarixchi va geograf olimlar tarixiy geografiya bilan tarix o‘rtasidagi farqni juda yaxshi tushunadilar. Geografiya tarixi (ko‘pincha uni *geografik bilimlar tarixi* ham deb atashadi) geografik kashfiyotlar va sayohatlar, shuningdek, geografik tasavvurlar, umuman ajdodlarimizning geografik dunyoqarashlari tarixini o‘rganadi. Tarixiy geografiya fani esa o‘tmishni geografiya bilan bog‘lab o‘rganadi. Shu tariqa zamonaviy geografiya va tarixiy geografiya bitta ob‘ektning farqli jihatlarida tadqiq etadi. Zamonaviy geografiya mazkur ob‘ektning hozirgi holatini o‘rgansa, tarixiy geografiya uning o‘tmish tarixidagi o‘zgarishlarini tahlil qiladi. Hatto nomidan ham bilinib turibdiki, bu fan o‘tmishi davrning geografiyasini o‘rganuvchi fandır. Bu fan „geografiya tarixi“ fanidan farqli o‘laroq (geografiya tarixi fani geografiya fanining paydo bo‘lishidan to rivojlanishiga qadar o‘rganadi) jamiyatning turli davrlarida rivojlanish sharoitini o‘rganuvchi aniq geografiyani tashkil etadi. Tarixiy geografiya alohida tumanlardagi ishlab chiqarishning turli davrlarda o‘sishi haqidagi ma’lumotlarni aniqlashtiradi. Yoki tarixiy voqea-hodisalarning bo‘lib o‘tgan joylarini, geografik shart-sharoitlarini tahlil qiladi. Tarixiy geografiya fani muammolarini tarix fani o‘rganadi, ammo shu bilan birga uni geografiya fanidan ham ajratib bo‘lmaydi, chunki geografiya fanida ochilayotgan yangi ilmiy ma’lumotlar tarixiy geografiya fani uchun muhimdir. Tarixiy geografiya fanining materiallari tarixiy kartografiya fanining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy geografiya fanining rivojlanishi esa tarix fanining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Tarixiy geografiya tarixiy bilimlarning asosiy tarmog‘i bo‘lib, usiz tarixiy jarayonlar geografiyasini o‘rganib bo‘lmaydi. Tarixiy

geografiyasiz tarix haqidagi tasavvurimiz to'liq va mukammal shakllanmaydi.

Geografiya fanining muammolari tarixiy geografiya fani oldida turgan muammolar bo'lishi mumkin, ammo o'tmishning aniq geografiyasi bo'lishi mumkin emas. Tarixiy geografiya o'tmish tarixning aniq geografiyasini o'rganadi.

Demak, tarixiy geografiya fani tarix fanlari sirasiga kirib, insoniyat tarixini o'tgan davrlar geografiyasini o'rganadi. Bo'lib o'tgan voqea-hodisalarning tarixini haqiqiy baholash uchun o'sha davrning tarixiy geografiyasini yaxshi bilish kerak. Bu O'zbekiston, qolaversa, O'rta Osiyo tarixini obyektiv, ilmiy asoslangan holda o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarixiy geografiya zamonaviy geografiya kabi o'z bo'limlariga ega bo'lib, asosan, *to'rt yirik bo'limdan tashkil topgan:*

1. Tabiiy-tarixiy geografiya.
2. Aholi tarixiy geografiyasi.
3. Xo'jalik (tarixiy-iqtisodiy) geografiyasi.
4. Siyosiy-tarixiy geografiya.

So'nggi bo'limga ichki va tashqi chegaralar geografiyasi, siyosiy ma'muriy bo'linishlar, shaharlar va qal'alar joylashishi, shuningdek, tarixiy voqealar, harbiy yurishlar yo'nalishlari, muhorabalar kartalari, milliy-ozodlik harakatlari geografiyasi ham kiradi.

Tabiiy-tarixiy geografiya esa o'tgan bir necha ming yillar davomida deyarli o'zgarishsiz qolgan. Kishilik jamiyati, insoniyat sivilizasiyasining rivojlanishi uchun tabiat o'zgarishlarini o'rganish muhimdir, chunki daryolar o'zanining o'zgarishi, vodiylarning yo'qolib ketishi, sug'orish tizimlarining paydo bo'lishi, ko'l va dengizlar chegaralarining o'zgarishi, o'rmonlar hayvonot dunyosi ba'zi turlarining yo'q bo'lib ketishi insoniyat tarixining o'zgarishiga sabab bo'luvchi omil bo'lishi mumkin.

Qadimdan aholi qulay geografik shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hududlarda istiqomat qilib kelgan. Jumladan, Qadimgi Misr aholisi uchun Nil, Xitoy uchun Xuanxe va Yanszi, Ikki daryo oralig'idagi

xalqlar uchun Dajla va Frot, O'rta Osiyo aholisi uchun esa Amudaryo va Sirdaryoning qanchalik muhim ahamiyat kasb etganligini alohida keltirish mumkin. Tabiiy geografiya ma'lum bir hududda aholining kelib joylashishi yoki u yerlarni tark etishiga ham sabab bo'ladi. Bularning barchasini tabiiy-tarixiy geografiya bo'limi tadqiq etadi.

Ma'lum bir mintaqa yoki davlatning aholisi, u joylashgan hududlar, aholining etnik tarkibi va soni kabi masalalarni aholi tarixiy geografiyasi o'rganadi. Davlatning taraqqiy etishida aholining va ishlab chiqaruvchi kuchlarning soni hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar biror davlatning tarixini o'rganmoqchi bo'lsak, tarixiy-iqtisodiy va xo'jalik geografiyasini o'rganishimiz ham kerak bo'ladi. Chunki iqtisodiy munosabatlar va xo'jalik turlarining mukammalashib borishi, savdo-sotiqning taraqqiy etishi natijasida jamiyatlarning ham rivoji kuzatiladi yoki aksincha.

Tarixiy geografiyani o'rganish mobaynida turli xil muammolarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, X-XII asrlarda *qora-xoniylar davlati* hududlarining o'zgarib turishi, XVII-XVIII asrlarda *ashtarxoniylar davlati* chegaralarining o'zgarib turishi, **Amir Temur** davridagi muhim voqealar bo'lib o'tgan joylar, XIII-XIX asrlardagi hozirgi AQSh hududlarida aholining tarqalishi va joylashishi, XVIII asrning ikkinchi yarmi-XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi Qo'qon va Xiva xonliklarining asosiy savdo yo'llarining yo'nalishlari, chor Rossiyasi mustamlakasi bo'lgan Turkistonning siyosiy-ma'muriy ishlari kabi muammolardir.

Biror davlatning iqtisodiy va siyosiy tarixiy geografiyasini o'rganishda avvalo mazkur davlatning iqtisodiy va tarixiy geografiyasining rivojlanishini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Masalan, O'rta Osiyo, AQSh, Rossiya imperiyasi, Fransiya, Xitoy, Germaniya, Hindiston va boshqa davlatlarning XVIII asrdan XX asrning boshigacha bo'lgan davrdagi tarixiy geografiyasini o'rganishda siyosiy va iqtisodiy geografiya elementlarini birinchi

bo‘lib o‘rganib chiqish kerak. **Bular** — *aholi soni*, uning *milliy tarkibi*, *aholining joylashishi*, uning *qaysi hududlarda yashaganligi*, *davlatlar chegarasi*, *hududdagi ichki ma‘muriy tuzilishlardan* iborat bo‘lishi mumkin. Muammoning eng qiyin tomoni — bu o‘rganilayotgan hududning iqtisodiy geografiyasiga oid ko‘rsatkichlarning qayd qilinishi, ya‘ni *ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi* va *joylashishini* ko‘rsatishdir.

Shundan so‘ng iqtisodiy va siyosiy geografiyaning asosiy o‘zgarishlari tahlilini qilish mumkin. Bunga masalan, AQShda 1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi davri, chor Rossiyasidagi islohotlargacha va islohotlardan keyingi davrlar, Germaniyaning qo‘shilishidan oldingi va keyingi davrlar kiradi.

Tarixiy geografiya fanining muhim vazifalaridan biri bu — o‘tmishdagi davlatlar siyosiy chegaralarini, tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan joylarni aniqlash, shaharlar topografiyasini o‘rganishdan iborat. Tarixiy geografiyaning bu qismi siyosiy voqealar, urushlar bayoni va ularning davlatlar chegaralarini o‘zgarishidagi o‘rnini, hukmdorlar faoliyatini o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda voqea-hodisalarni chuqur anglab yetish uchun tarixiy geografiya juda kerak. Masalan, urushlar va ularning oqibatlarini to‘liqroq tushunish uchun qo‘shinlar harakati, jangning borishi va bo‘lib o‘tgan joylarini o‘rganish kerak bo‘ladi. Bu jihatdan tarixiy geografiya bir qator tarixiy fanlar — *paleografiya*, *xronologiya*, *metrologiya* va *geraldika* kabi fanlar qatorida turadi. Shuningdek, tarixiy geografiyaning mazmuni, ayniqsa hozirgi zamon nuqtai nazaridan qaraganda kengroqdir. U ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, milliy-ozodlik harakatlarini kengroq o‘rganadi. Tarixiy geografiyani tarixiy jarayonlarni o‘rganuvchi keng mazmunli tarix fanining bir bo‘limi desak adashmaymiz.

Tarixiy geografiya avvalo tarix fanini o‘rganish uslublariga tayanadi. Bu haqqoniylik, xolislik va davriylik uslublariga asoslanib, voqealarni yanglish va xatolarsiz, mukammal yoritishdan iborat. Tarixiy geografiyani o‘rganishda qator tarixiy va geografik manbalardan ham o‘z o‘rnida samarali foydalanish zarur.

3. Tarixiy geografiyaning fan sifatida shakllanishi

Tarixiy geografiya fan sifatida XVI asrda G'arbiy Yevropada vujudga keldi. Uning shakllanishida ikki yirik tarixiy voqea, ya'ni G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XV–XVI asrlarda gumanizmning paydo bo'lishi va Buyuk geografik kashfiyotlar katta ta'sir ko'rsatgan. Uyg'onish davrida odamlarda antik davrga bo'lgan qiziqish kuchaygan. Antik dunyoga qiziqish odamlarning antik davr geografiyasi bilan shug'ullanishga olib keldi. Tarixiy geografiya fanida birinchi bor yaratilgan asar „Qadimgi dunyo atlası“ edi. Uni XVI asrning ikkinchi yarmida flamand geografi A.Orteliy¹ yaratgan edi. U o'z asariga ilova tarzida zamonaviy dunyo atlasini keltirgan edi. A.Orteliy o'z kartalarini qadimgi dunyo haqidagi qisqacha ma'lumotlar bilan keltirgan. A.Orteliyning asaridan so'ng tarixiy geografiya ilmiy fan sifatida vujudga keldi. A.Orteliyning yozishiga qaraganda, uning ishlari „Tarix nazarida geografiya“ edi. Aytib o'tish o'rinliki, A.Orteliyning o'zi antik mualliflar ma'lumotlarini tanqidiy nuqtai nazarsiz qabul qilgan va shu ma'lumotlar asosida o'z kartalarini tuzgan. A.Orteliyning bu kamchiligini XVII asrda Leyden (Niderlandiya) universiteti professori Klyuver tuzatdi. U qadimgi Italiya va qadimgi Germaniyaning tarixiy geografiyasi bo'yicha ikkita yirik asar yozgan.

Tarixiy geografiyani rivojlantirish uchun XVII-XVIII asr fransuz tarixchilari va shu davr fransuz geograflari Sansonlar, V.Dyuval J.B.D'Anvillar ham katta hissa qo'shdilar. Ular qadimgi dunyo tarixiy geografiyasi bilan birga o'rta asrlar tarixiy geografiyasini ham o'rgandilar. XIX asrning ikkinchi yarmidan

¹ Orteliy Abraxam (Ortelius, Oertel) (1527-1598 yillar), flamand (Belgiya va Niderlandiyadagi katolik diniga e'tiqod qiluvchi xalq) kartografi. U 1570 yilda geografik matnlardan va 53 ta kartadan iborat „Dunyo teatri“ nomli atlasini nashr ettirgan. Asar to'ldirishlar bilan bir necha bor qayta nashr qilingan.

tarixiy ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy ma'lumotlarni o'rganish hisobiga boyib bordi. Bu yo'nalish bo'yicha ko'zga ko'rinarli qilingan ishlardan biri 1936 yilda Kembrijda G.K.Darbi rahbarligidagi ilmiy jamoa tomonidan nashrdan chiqarilgan Angliyaning tarixiy geografiyasi to'g'risidagi asarni keltirishimiz mumkin¹. Bu asar Angliyaning 1800 yilgacha bo'lgan tarixiy geografiyasiga bag'ishlangan.

G'arbiy Yevropada tarixiy geografiya faniga A.Orteliy, F.Klyuver, J.B. D'Anvil, G.K.Darbi kabi olimlar katta hissa qo'shganlar.

Rossiyada esa tarixiy geografiyaning asoschisi V.N.Tatishev² hisoblanadi. I.N.Boltin ham mazkur fanning rivojlanishiga katta e'tibor qaratgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan tarixiy geografiya sohasida tadqiqotlar olib borgan N.N.Barsov Kiyev Rusi geografiyasini o'rgandi.

XX asr boshida Peterburg arxeologiya instituti va Moskva universitetida tarixiy geografiya o'qitila boshlandi. Talabalarga mazkur fan asoslarini Peterburgda S.M.Seredonin va A.A.Spitsin, Moskva universitetida esa M.K.Lyubavskiy o'qishgan. A.N.Nasonov esa qadimgi Rus tarixiy geografiyasiga oid „Rus yeri“ nomli ilmiy tadqiqotini 1951 yilda Moskvada nashr ettirgan. M.N.Tixomirov „Rossiya XVI asrda“ nomli fundamental tadqiqot yaratgan (Moskva, 1962 yil). I.A.Golubsovning ilmiy tadqiqotlari asosan tarixiy kartografiya rivoji masalalariga bag'ishlangan. M.V.Vitov, V.K.Yatsunskiy, V.Z.Drobijev, I.D.Kovalchenko, A.V.Muravev, L.A.Goldenberg, M.I.Belovlar tarixiy geografiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yozishgan.

¹ An Historical Geography of England before A.D. 1800. Edited by Henry Clifford Darby.-Cambridge.: University Press. 1936.

² Tatishev Vasiliy Nikitich (1686-1750 yillar), rus tarixchisi va davlat arbobi. 1720-1722 hamda 1734-1737 yillarda Uralda davlat zavodlarini boshqargan. 1741-1745 yillarda esa Astraxan gubernatori bo'lgan. Etnografiya, tarix va geografiyaga doir, shuningdek, mashhur „Rossiya tarixi“ asari muallifi.

O‘zbekistonda tarixiy geografiyaga doir tadqiqotlar asosan Sh.Kamaliddinov, O.Bo‘riyev tadqiqotlarida uchraydi. Sh.Kamaliddinov Janubiy Sug‘d, Toxaristonning tarixiy geografiyasini IX-XIII asr boshlardagi arab tilidagi manbalar orqali tadqiq etib, alohida monografiya yozgan¹.

O.Bo‘riyevning „Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo“ nomli asarida (Toshkent, 1997 yil) esa Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ma‘muriy-hududiy bo‘linishi, tabiati, xo‘jaligi, xalqaro aloqalari geografiyasi va toponimiyasi haqida so‘z yuritiladi.

4. Tarixiy geografiyani o‘rganishda yordamchi tarixiy fanlarning o‘rni

Yuqorida qayd etilganidek, tarixiy-geografik tadqiqotlar tarix faniga asoslanadigan manbalarga tayanadi. Tarixiy geografiya uchun qimmatli bo‘lgan manbalarga aholi ro‘yxatlari, xo‘jalik hisob-kitob daftarlari, yilnomalar, qadimgi geografiyaga oid kitoblar kiradi. Tarixiy geografiya uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan manbalar bu *arxeologik*, *toponimik*, shuningdek, *antropologik* manbalar hamda yordamchi tarixiy fanlarning ma‘lumotlari kiradi.

Arxeologiya (arxeo-qadimgi va logos-fan) — jamiyat hayoti va insoniyat faoliyatini moddiy ashyolar, qadimgi yodgorliklar asosida o‘rganadi. Jumladan, mehnat qurollari, taqinchoq, turli idishlar hamda alohida qo‘rg‘on va qal’alarni o‘rganish asosida qadimgi va o‘rta asrlar tarixiy geografiyasining xo‘jalik va etnik ma‘lumotlariga ega bo‘lish mumkin. Arxeologik qazish ishlari natijasida to‘plangan ashyolar yozma manbalarda uchramaydigan ma‘lumotlarni qo‘lga kiritishimizga imkon beradi.

¹ Bu haqda batafsil qarang: *Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв.* - Т.: Узбекистон. 1996.

Toponimika (yunoncha topos-joy, onoma-nom) – joy nomlari to‘g‘risidagi fandır. *Toponimika* deganda joy nomlarini o‘rganadigan fanni, *toponimiya* deganda esa geografik nomlar yig‘indisi tushuniladi. Toponimiya bir necha turga bo‘linadi: *gidronimiya*, ya‘ni daryo, dengiz, ko‘l, soylar, jilg‘alar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari; *oronimiya*, ya‘ni yer yuzasining relef shakllari – tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari: *oykonimiya* (yunoncha „uy“), polinimiya (yunoncha „shahar“), yoki *urbonimiya* (lotincha „shahar“), ya‘ni qishloq hamda shaharlarning nomlari. Bundan tashqari xalq urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar *etnotoponimlar* deyiladi; kishilarning ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa *antrotoponimlar* deb atash mumkin.

Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko‘llar, tog‘lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o‘rganar ekan, bu fan geograflarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy ma‘lumot beradi.

Xalqlar biror hududdan turli sabablarga ko‘ra ko‘chib ketishsa ham, daryolar ko‘llar, shaharlarga ular bergan nomlar saqlanib qolgan. Toponimika xalqlarning qaysi millatga tegishli ekanini aniqlab beradi. Geografik nomlar kartaning eng muhim elementi bo‘lib, biror mamlakat yoki o‘lka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

Joyga nomni kishilar beradilar. Har bir joyning bir necha xususiyati bo‘lishi mumkin. Ana shu xususiyatlardan qaysi birini tanlash jamiyatning talabiga, uning taraqqiyot darajasiga bog‘liq.

Xalqlar turli joylarga ko‘chganlarida yangi yashash joylariga o‘z nomlarini beradilar, ko‘proq o‘zlari oldin istiqomat qilgan joylarining nomini yangi yashash joylariga ham beradilar. Toponimlarning ana shu muhim xususiyatlaridan biri ularning takrorlanib turishidir. Bu holni biz AQSh shaharlarining Yevropa-ning turli davlatlari shaharlari nomi bilan atalganligida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, AQShning birgina o‘zida 8 ta Moskva, bir

necha Odessa degan shahar va aholi maskanlari bor. Dunyoda 10 ga yaqin Samarqand bo‘lganligi ma’lum. Zarafshon vodiysida bir necha Toshkent qishlog‘i bo‘lgan. Nomlar „ko‘chib“ yuradi.

O‘zbekistonda takrorlanadigan nomlar juda ko‘p. Ularning hammasini ham boshqalarga nisbat berib qo‘yilgan nomlar deyish xato. Agar biror qishloq nomi ko‘p yerlarda uchrasa, u avvalo etnonim, ya’ni biror millat, urug‘, qabilaning nomi bo‘ladi. Masalan, Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Urganji, Mitan Arab nomli qishloqlar etnotoponimlardir. Atamalar ham joy nomlari tarkibida takror-takror uchraydi. *Rabot, buloq, quduq, soy, suv, qum, tosh, gaza, tangi, qopchig‘ay, tog‘, dahana, arna, tepa* kabi atamalar ana shular jumlasidandir. Toponimlarning ana shunday takrorlanib turishi ularni tasniflab o‘rganish ishini osonlashtiradi.

Joy nomlarini turlicha tasnif qilish mumkin. *Agar toponimlarni etimologiyasi jihatdan tasnif qilsak*, 1) etimologiyasi hammaga ravshan bo‘lgan toponimlar (Uchquduq, Beshariq, Navoiy, Paxtakor va hokazolar); 2) ma’nosi etimologik tadqiqotlar yordamida ochib beriladigan toponimlar (Jizzax, Shopurkom, Buxoro, Norin va hokazolar); 3) mazmunini hozircha izohlab berish qiyin bo‘lgan toponimlarga (Arsif, Zomin va hokazolar) ajratish mumkin.

Tarixiy geografiyani o‘rganishda qator yordamchi tarixiy fanlarning uslublariga tayaniladi. Ularning manba va ma’lumotlari tarixiy geografiya fani uchun keng qo‘llanilishi mumkin.

Jumladan, **antropologiya** fani ma’lumotlari orqali esa xalqlarning kelib chiqishi, uning turli irq'larga oidligi masalalari ilmiy hal etiladi. O‘rta Osiyo xalqlarining ham turli irq'larga oidligi ana shu fanning uslublari yordamida aniqlangan. Jumladan, tog‘lik tojiklar antropologik tip jihatidan *yevropoid* irq'iga, qozoq va qirg‘izlar esa *mongoloid*, o‘zbek va tojiklar esa *har ikki irq'ga* ham oidligi ma’lum. O‘zbeklarda yevropoid irq'ining belgilari kuchli.

Genealogiya (yunoncha genealogia-shajara) — shajaralar tuzish, urug‘ va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxslarning tarixi va qarindoshlik aloqalarini o‘rganadi. Siyosiy tarixiy

geografiya uchun genealogiyaning katta ahamiyati bor. Hukmdorlar va sulolalar tarixini o'rganishda, ularning haqiqiy qon-qarindoshlik aloqalarini tiklashda genealogiya uslublaridan foydalanish zarur.

Geraldika (lotincha heraldus-jarchi, gerald) – gerbshunoslik, dastlab XIII-XIX asrning birinchi yarmigacha dvoryan, sex va yer mulklarining gerblarini tuzish bilan geraldlar shug'ullanganlar (geraldika atamasi shundan olingan). XIV asrdan boshlab gerbchilar ustaxonalari tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan. Bora-bora uylar, tarixiy yodgorliklar, davlat bayroqlari, pullar va harbiy qurollarga gerb suratlarini tushirish rasm bo'lgan. Geraldika moddiy madaniyat yodgorliklarini hamda gerbli va ramzli yozma manbalarni o'rganadi hamda tarixiy-geografik tadqiqotlar uchun ijtimoiy xususiyatlar, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni o'rganishda yordam beradi. Arxeologik qazishlar O'zbekistonda ham qadimdan *muhrlar, tangalar va buyumlarga, shahar, davlat, urug'* yoki *hunarmandchilik* uyushmalarining gerb suratlarini tushirish keng tarqalganligini ko'rsatadi. Tamg'alarga tushirilgan turli ramzlar yordamida davlat yoki ma'lum mintaqaning tabiiy-geografik joylashuvi, asosiy xo'jalik shakli, siyosiy tuzumi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Ular ajdodlarimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini, davlatlar va sulolalar tarixini oydinlashtirishga xizmat qiluvchi nodir manbalardan biridir.

Diplomatika (yunoncha diploma-ikki buklangan hujjat) – yordamchi tarix fani bo'lib, tarixiy hujjatlar va yozishmalarni o'rganadi. Diplomatika XIV-XV asrlarda ilmiy asosda rivojlana boshladi va bu jarayon XIX asrga qadar davom etdi. *Diplomatikada maxsus tarmoqlar*: imperator va qirollar yorliqlari diplomatikasi, papalar yorliqlari diplomatikasi, shaxsiy hujjatlar diplomatikasi shakllandi. Mazkur hujjatlar orqali siyosiy-tarixiy geografiyaga oid ma'lumotlarni qo'lga kiritishimiz mumkin. O'zbekistonda asosiy diplomatika hujjatlari O'zbekiston Markaziy Davlat Arxivi va FA Sharqshunoslik institutida to'plangan.

Metrologiya (yunoncha metron-o'lov, logos-ta'limot) - o'lovlar, ularning bir xilligini ta'minlash usullari va vositalari hamda talab etilgan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan. Tarixiy metrologiyada asosan, o'tmishdagi, ayniqsa, turli davrlarda aholining xo'jalik munosabatlarida mavjud bo'lgan xilma-xil o'lov birliklari hozirgi zamonaviy metrik o'lovlar tizimiga aylantiriladi. Bu orqali esa iqtisodiy tarixiy geografiyaga doir ma'lumotlar yanada oydinlashadi.

Numizmatika (lotincha numisma-tanga) — yordamchi tarix fani bo'lib, tanga-chaqalar va pul munosabatlari tarixini *tangalar, tanga-chaqalar* yordamida o'rganadi. Tangalarni to'plash (kolleksiyasi) XIV asrdan boshlangan. Numizmatika fan sifatida XIII asrda paydo bo'lgan. Numizmatik materiallar yordamida siyosiy, iqtisodiy-tarixiy geografiyaga doir ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Tangalarda u zarb etilgan joy va uning qiymati, qachon va qaysi hukmdor yoki podsho tomonidan zarb etilganligi o'sha davrga doir siyosiy va iqtisodiy bilimlarimizni boyitadi.

O'zbekistonda yozma yodgorliklarning aksariyati arab yozuvida bo'lganligi sababli arab paleografiyasi bir qadar rivojlangan. Tarix fanining muhrlarni o'rganuvchi yordamchi sohasi **sfragistika** (yunoncha sphragis-muhr) XVIII asrda diplomatikaning bo'limi sifatida shakllana boshlagan. Uning vazifasi hujjatlarni tasdiqlash hamda ularning haqiqiylikini aniqlashdan iborat bo'lgan. XIX asr oxiridan sfragistikaning qadimgi davlat muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi tarixini o'rganadigan fan sifatida yangi davri boshlangan. Sfragistika davlat apparatidagi islohotlarni aks ettiruvchi muhrlarni xronologik tavsiflash asosida rivojlanib bordi. Sfragistika materiallari *tarixiy-geografik* ma'lumotlarni, *geraldika, numizmatika, onomastikani* o'rganishda, qadimgi arxivlarni aniqlashda muhim manbadir. O'rta Osiyoda muhrlar shahar hokimi, mingboshi, noib, qozi, mufti muhri va boshqalarga bo'lingan.

Xronologiya (yunoncha xronos-vaqt va logos-ta'limot) - vaqt o'lovlari haqidagi fan. U 2 xil xronologiyaga bo'linadi: 1)

astronomik (matematik) xronologiya; 2) texnik (tarixiy) xronologiya.

Astronomik xronologiya — osmon hodisalarini turli astronomik vaqt doirasida o'rganadi. Tarixiy xronologiya - yordamchi tarixiy fan bo'lib, yozma va arxeologik manbalardagi aniq vaqtlarni o'rganadi. Qadimdan xalqlar tabiat hodisalarini kuzatib, qiyin matematik hisob-kitob orqali vaqtni o'lchashgan.

Qadimdan xalqlar Oy, Quyosh, Oy-Quyosh kaledarlaridan foydalanishgan. Bu kalendarlardagi vaqtlarni hozirgi kalendarga ko'chirish va tarixiy voqealar, muhim jang va qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan sanalarni to'g'ri aniqlash uchun ham xronologiya fani qonun-qoidalaridan foydalaniladi.

5. O'rta Osiyo olimlari asarlarining tarixiy geografiya uchun ahamiyati

Xorazmiy. O'rta asrlarda xalifa Ma'mun tashkil qilgan „Bayt al-hikma“ („Donishmandlar uyi“)da buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy ham faoliyat ko'rsatgan. Xalifa Ma'mun o'sha davrda yer yuzining batafsil kartalarini tuzish to'g'risida topshiriq bergan. „Dunyo kartalari“ aslida yaxlit atlas bo'lishi kerak edi. Atlas tuzish ishi bilan 70 ga yaqin olim shug'ullangan, ularga esa Muhammad Muso al-Xorazmiy boshchilik qilgan.

Bu kartalar yig'indisi „Ma'mun dunyo kartasi“ nomi bilan ham yuritilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, uni tuzish ishlari 840 yillarga yaqin tugallangan bo'lsa kerak.

Xorazmiyning mazkur kartalar munosabati bilan yozilgan „Surat al-arz“ kitobi o'z davrida juda mashhur bo'lgan, undan hamma bilimdonlar foydalanishgan. „Xorazmiy geografiyasi“ nomi bilan mashhur bo'lgan ta'limot olimning ayni shu asariga asoslangan.

Kitobning taxminiy mazmuni quyidagicha: kitob bir necha o'nlab kartalar va ularga berilgan izohnomalardan iborat bo'lgan. Shularning hammasi „Kitobu surat al-arz“ deb atalgan. „Arz“ so'zi

— yer, dunyo ma'nosida, „surat“ - umumiy qiyofa, ko'rinish ma'nosini anglatga ham, ko'pincha „geografiya“ so'zi o'rnida ishlatilgan; shuning uchun kitobning nomi „Yerning surati“ yoki „Geografiya“ deb tarjima qilingan. Kitobning ikkinchi nomi: „Kitobi rasm ar-rub al-ma'mur“ („Ma'muraning rasmi“, „Aholi yashaydigan chorak rasmi“).

Bu asarning faqat bir nusxasi topilgan, uning ham ko'p betlari yo'qolib ketgan ekan. Qo'lyozma 1878 yilda Qohirada topilgan, bir necha yildan so'ng Strasburg shahridagi kutubxonaga o'tib qolgan. Izohnomalar to'la saqlangan. Izohlar asosan zij tarzida, ya'ni raqamlar jadvali tarzida yozilgan. Har sahifada ikki qator jadval berilib, unda dunyoning turli mintaqalari iqlimlar bo'yicha joylashtirilgan va koordinatalari ko'rsatilgan. Jami 537 ta eng muhim joyning nomi, g'arbdan sharqqa qarab ketma-ket yozilgan. Avvalo shaharlar birma-bir aytib o'tilgan, so'ngra tog'lar (203 nom), dengizlar va orollarning nomlari, eng oxirida daryolar alohida-alohida yozilgan.

Jayhoni. X asrda Buxoro somoniylar davlatining poytaxti edi. 914 yili hokim Ahmad ibn Ismoilning vafotidan so'ng uning go'dak o'g'li — shahzoda Nasr ibn Ahmad taxtga o'tirdi, ammo davlatni boshqarishga yoshlik qilganidan butun ishni ulug' vazir, ayni vaqtda buyuk geograf Abu Abdulla Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr Jayhoniylar bajardi.

Jayhoniylar IX asr oxirida (870 yillarda) tug'ilgan. 914 yildan umrining oxiri — 942 yilgacha vazirlik qilgan. Fanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan bu ajoyib siymo o'zining yuksak lavozimidan ilm-fan manfaatlarini uchun foydalana bilgan, xususan, geografik mashg'ulotlarga va sayohatlarga homiylik qilgan: mashhur Abu Zayd Balxiyni qo'llab-quvvatlagan, Arabistondan Buxoroga kelib qolgan va shu yerda xizmat qilgan geograf va shoir Abu Dulafni Xitoy, Tibet, Hindistonga sayohatga yo'llagan, sayyoh ibn Fadlonni 921 yili sentyabrda Buxoroda mehmon qilgan (ibn Fadlon X asr arab sayyohi bo'lib, Bag'doddan Eron-Buxoro-Xorazm-Ural orqali Volgagacha yetib borgan).

Jayhoniylar fanning bir qancha sohasiga oid asarlar yaratgan, jumladan, dunyo geografiyasidan taxminan 907-922 yillar oralig'ida katta hajmli asar yozgan. Arab geografi Muqaddasiy (947-1000 yillar) kutubxonada Jayhoniylarning yetti jildlik geografiya kitobini ko'rganligini e'tirof etgan. Bu kitobning „Kitob al-masolik val-mamolik“ („Masofalar va mamlakatlar kitobi“) deb atalganligi Abu Rayhon Beruniylarning „Osori boqiya“ asarida aytib ketilgan. Uning „Kitob al-masolik fi ma'rifat al-mamolik“ („Mamlakatlarni bilishda masofalar kitobi“) deb atalganligi ham bizga ma'lum.

„Kitob al-masolik val-mamolik“ X-XII asrlarda juda mashhur bo'lgan, eski geografik adabiyotlarda hurmat bilan tilga olinib turgan.

Jayhoniylar geografiyasining yana bir xususiyati shundaki, urf-odatlar va udumlar yozma manbalardan, jumladan Ibn Xurdodbeh asaridan foydalanish bilan birga, talay geografik ma'lumotlarni bevosita turli mamlakatlardan kelgan odamlar bilan suhbatlashib yig'ar ekan. Muqaddasiylarning yozishicha, Jayhoniylar chet ellik sayyohlar, mehmonlar bilan suhbatlashganida ulardan mamlakatlari, bu mamlakatlarga boradigan yo'llar, savdo-sotiqdan olinadigan foyda haqida surishtirgan, yulduzlarning balandligi, buyumlardan soya tushishi, falakning aylanishi to'g'risida ular bilan fikr olishgan. Hatto, Rus, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarga maktublar yo'llab, maktubda urf-odatlar va udumlar, u yerlardagi aholi, urf-odatlar, saroy va devon tartib-qoidalari to'g'risida surishtirgan. Jumladan, Tunkat bilan Xitoyning poytaxti oralig'idagi masofa 140 kunlik yo'lga teng ekanligini elchilardan surishtirib olgan (Tunkat shahri Ohangaron vodiysida bo'lgan).

Jayhoniylar asarida Sharq mamlakatlariga katta e'tibor berilgan. Unda Markaziy Osiyo va O'rta Osiyo, Hind vodiysi, turk qabilalari, Uzoq Sharq to'g'risida yangi ma'lumotlar bor. Jayhoniylar asari G'arb mamlakatlari to'g'risida asarlar yozgan Sharq mamlakatlari uchun asosiy manba bo'lishi bilan birga, ularga Sharq to'g'risida ham boy ma'lumot bergan.

Narshaxiy. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy X asrning birinchi yarmida (899-959 yillar) Buxoroda yashagan tarixchi olimdir. U 944 yilda Buxoro viloyatining tarixi to'g'risida arab tilida „Tahqiqi al-viloyat“ nomli ajoyib asar yozgan.

„Tahqiqi al-viloyat“ kitobini ba'zan „Axbori Buxoro“, „Buxoro tarixi“, ko'pincha, „Narshaxiy tarixi“ deb ham ataganlar. „Tarix“da Buxoro to'g'risida turli rivoyatlar va hikoyatlar, hokimlarning hayoti va urushlar yozilgan. Ammo biz uchun uning geografik tomoni – Buxoro viloyatining tabiati, shahar topografiyasi, qishloqlari, boyligi, sanoati va aholisi to'g'risidagi ma'lumotlar juda muhimdir.

Narshaxiy Buxoro viloyatidagi shaharlarni ham qisqacha ta'riflagan: „*Afshina katta bir shahar bo'lib, qal'asi bor. Bir necha qishloqlar unga qarashlidir. Odamlar u joyni tabarruk deydilar. Haftaning muayyan bir kunida u yerda bozor bo'ladi*“. „Karminada mullalar va shoirlar ko'p bo'lgan. Qadimda Karmanani bad'iyon xurdak (kichkina tog'ora, kichik obdasta) deb ataganlar. Buxorodan to Karminagacha 12 toshdir“.

Asarda bulardan tashqari, Buxorodagi katta yong'in, viloyatdagi ariqlar, ekinlar, masofalar to'g'risida ham mukammal ma'lumotlar bor. Joy nomlari bilan bir qatorda geografik atamalar ham uchraydi.

„Hudud al-olam“. „Hudud al-olam“ („Kitobi hudud al-olam minal mashriq ilal mag'rib“) asari 983 yili Amudaryoning chap sohilidagi Juzjon viloyatida (Balxdan g'arbda) yozilgan bo'lib, shu viloyatning hokimi amir Abul Xoris Muhammad ibn Ahmadga bag'ishlagan. Fors-tojik tilidagi bu asarni o'z zamonasida ham, XIX asr oxirigacha ham shu nom bilan biror kimsaning eshitgani yoki tilga olgani ma'lum emas; urf-odatlar va udumlar hatto biron ro'yxatda ham qayd qilinmagan. Biroq, u tamomila noma'lum asar bo'lmasa kerak, chunki, birinchidan, asar yozilganidan 300 yil keyin, ya'ni 1258 yilda qayta ko'chirilgan ekan; demak, urf-odatlar va u XIII asrgacha qo'ldan-qo'lga o'tib yurgan. Ikkinchidan, kitob, ehtimol, boshqacha nom bilan ham atalgandir. Ammo u ilmiy ahamiyati jihatidan Sharq geografik adabiyotining

durdona yodgorliklaridan biridir, xususan, O‘rta Osiyo va Afg‘onistonda geografik bilimlar tarixi uchun qimmatli manbadir.

Asar jami 60 bob (maqola) dan iborat bo‘lib, muqaddimadan keyin quruqliklarning chegaralari, dengiz va qo‘ltiqlar, orollar (jaziraho), tog‘lar va ular bag‘ridagi ma‘danlar, daryolar, cho‘llar va qumlar, so‘ngra jahondagi viloyatlar (nohiyathoi jahon) ning ta‘rifi berilgan. Qo‘lyozmaning asl nusxasida sarlavhalar va mashhur joylarning nomlari qizil siyohda yozilgan.

“Hudud al-olam“ asarida jahondagi barcha mamlakatlarning ta‘rifi berilgan *geografik, etnografik va iqtisodiy* ma‘lumotnomadir.

Chunonchi, „Hudud al-olam“ning noma‘lum muallifi xurosonlik bo‘lganligidan, asarda hozirgi Tojikiston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston, Afg‘oniston yerlari mukammal tasvirlangan. Uning dunyo to‘g‘risidagi ta‘riflari Sharqning boshqa geograflari asarlaridagiga o‘xshash bo‘lsa-da, original va mustaqil mulohazalari ko‘p.

Beruniy. Sharqshunoslarning taxminicha, Beruniy 150 tacha asarning muallifidir. Ba‘zi sharqshunoslar, u 180 tacha kitob yozgan, degan fikrda. Sharqshunoslarning eng keyingi hisobiga ko‘ra, Beruniy asarlari quyidagicha taqsimlanadi: *astronomiyaga oid asari* — 70 ta, *matematikaga oidi* — 20 ta, *geografiya-geodeziyaga oidi* — 12 ta, *kartografiyaga oidi* — 4 ta, *iqlim va ob-havoga oidi* — 3 ta, *mineralogiyaga oidi* — 3 ta, *falsafaga oidi* — 4 ta, *fizikaga oidi* — 1 ta, *dorishunoslikka oidi* — 2 ta, tarix, *etnografiyaga oidi* — 15 ta, *adabiyotga oid asari* 28 tadir.

Beruniy asarlari orasida geografiyaga doir maxsus kitoblar anchagina; uning astronomiya va boshqa sohalarga bag‘ishlangan kitoblarida ham geografik ma‘lumotlar ko‘p. Beruniyning uzunliklar va kengliklar, Yer yuzidagi odamlar yashaydigan mamlakatlarning chegaralarini aniqlash, suratga tushirish, havoning isishi va sovishi sabablari to‘g‘risidagi asarlari ham bo‘lgan; u Ptolemey „Geografiya“siga qisqacha sharh ham yozgan.

„Osori boqiya“ („Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya“- „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“) taxminan 1000 yilda, Abu Rayhon Jurjon (Kaspiy dengizining janubi-sharqidagi shahar)da yashaganida yozib tamomlangan. Bu asar 1879 yil ingliz tiliga, 1943 yil fors tiliga, 1957 yil rus tiliga, 1968 yil o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Asarda turli xalqlarning *kalendar tizimi, oy va muchal nomlari, bayramlari, Oy manzillari*, juda ko‘p *meteorologik, fenologik va tarixiy ma’lumotlar, qabilalar va joylarning nomlari* yozilgan. Yevropalik sharqshunoslar bu asarni qisqacha „Xronologiya“ deb ataydilar.

„Kartografiya“ („Tastih as-suvar va tabtih al-quvar“) 10 varaqdan iborat risola bo‘lib, xorazmshoh Abul Abbos Ma‘munga bag‘ishlangan. Risolaning kirish so‘zida *astronomiya, kartografiya va geografiyaning amaliy ahamiyati* tushuntirilgan.

„Geodeziya“ („Kitobu tahdidi nihoyot al-amokin li tashih masofat al-masokin“ – „Turar joylarning oralaridagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash haqida kitob“). Bu kitobning bittagina qo‘lyozma nusxasi mavjud. Unda „23 rajab 426“ yozuvi bor; bu-1025 yil 20 oktyabr degani. Kitob shu yili yozib tugatilgan. Aslida Beruniy uni 1017 yilda Xorazmda yoza boshlab, Kobulda davom ettirgan va G‘aznada nihoyasiga yetkazgan.

Kitobning uchinchi bobida dunyo geografiyasi bayon etilgan-shaharlarning kengliklarini aniqlash, iqlimlarga bo‘lish, ularning chegaralari, okeanlar, dengizlar va orollarning taqsimlanishi bayon etilgan, shimolda yashaydigan isu va yugra qabilalari tilga olingan.

Kitobning beshinchi bobi joylarning geografik uzunligini aniqlash usullariga bag‘ishlangan. Umuman, bu kitobda taklif qilingan va amalda qo‘llanilgan o‘lchash uslublari, asboblari o‘rta asrlarda eng ilg‘or usullar va eng ma‘qul asboblar bo‘lgan. Beshinchi bobning oxirida ko‘pgina misollar keltirilgan; jumladan, Bag‘dod bilan Ray, Ray bilan Jurjon, Jurjon bilan Bolxon oraliqlaridagi meridian farqini aniqlash usuli, Balx va Jurjoniya shaharlarining uzunlik va kengliklariga asoslanib

Omul (Chorjo‘y)ning uzunlik va kengligini aniqlash usuli, Balx bilan Buxoro orasidagi masofani ularning kenglik va uzunliklariga qarab aniqlash usullari va hokozolar berilgan. Olim bir qancha joylarning kenglik va uzunliklarini shu usullarda aniqlagan.

„Hindiston“ („Kitobi fi tahqiqi molil hind min maqola Maqbulat fil aql au marzula“ – „Hindlarga maxsus narsalarni tushuntirish kitobi“) ni olim 1020 yilda yoza boshlab, 1030 yilda tamomlagan.

Geografiya uchun bu kitobning ahamiyati katta. Unda umumiy geografik ma‘lumotlar (Yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, quruqlikning chegarasi, dengiz va quruqliklar, suv ko‘tarilishi va qaytishi, boshlang‘ich meridian tarixi) bilan birga, Hindiston tabiatining mufassal ta‘rifi (tog‘lari, daryolari, shaharlari, qabilalari, hayvonoti va hokazo), tom ma‘nosi bilan Hindiston tabiiy geografiyasi bor. Undagi etnografik ma‘lumotlar, din, falsafa, urf-odatlar ta‘rifi mufassal va haqiqiydir.

Qoshg‘ariy. Mahmud Qoshg‘ariyning umumiy turkiy tillarni o‘rganish, turkiy til shevalarining qiyosiy grammatikasini tuzish, folklor va etnografiya sohasidagi xizmatlari benihoya kattadir. Shu bilan birga, u turli tabiiy fanlar atamashunosligini yaratishga va geografiya faniga ham katta hissa qo‘shgan. Mahmud Qoshg‘ariy mashhur „Devonu lug‘atit turk“ asarini bundan IX asr avval yozib qoldirgan bo‘lib, u qimmatli tarixiy-geografik va toponimik manba hisoblanadi.

Qoshg‘ariyning geografiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) „Devon“da berilgan tabiiy geografik atamalar va ularning izohi;

2) „Devonu lug‘atit turk“ka ilova qilingan dunyo kartasi;

3) „Devon“da uchraydigan joy nomlari va ularning izohi;

4) O‘rta Osiyoda uchraydigan ayrim qabilalarning joylashishi haqidagi „aholi geografiyasi“ga doir ma‘lumotlar;

5) „Devon“dagi astronomik ma‘lumotlar, kalendar tizimi - muchallar va ularning tarixi.

Yoqut Hamafiy. Sharq mamlakatlari va Sharqning ulug' namoyandalari to'g'risidagi ikkita shoh asarning muallifi Yoqut Hamafiydir. Uning „Mu'jam al-buldon“ („Mamlakatlar lug'ati“) nomli asari 10 jilddan va „Mu'jam al-udabo“ („Adiblar lug'ati“) asari 7 jilddan iborat.

Yoqutning „Mu'jam al-buldon“ asari hozirgi til bilan aytganda, dunyoning geografik va toponimik lug'atidan iborat. Lug'atda har bir mamlakatga, shahar, tog', daryo va qishloqqa berilgan izohlar bilan bir qatorda, aholiga doir, shu yerda yashagan atoqli shaxslar, shu yerdagi ziyoratgohlar, yodgorliklar, ob-havo sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham ko'p.

Hofizi Abru. Hofizi Abruning asl ismi sharifi - Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfilloh al-Havofiy (1362-1431 yillar). U o'zining xizmat faoliyatini Amir Temurning sayohatlaridan birida *munshiy* vazifasidan boshlagan va umrining oxirigacha temuriylarning saroy tarixchisi bo'lgan. U ko'p marta sayohatga chiqqan, ko'p joylarni ko'rgan.

1414 yil Hirot hokimi Shohruxga arabcha yozilgan jug'rofiya kitobini taqdim qilishgan. Bu „Kitob al-masolik va al-mamolik“ („Yo'llar va mamlakatlar kitobi“) edi. Uni „Ashkol al-aqolim“ („Iqlimlar surati“) deb ham atashgan.

Hofizi Abruning geografik merosi asosan ikki sohada yorqin ko'rinadi: geografik tasvir (matn) va „suratlar“ – kartalar chizishda.

Asarning mundariyasi quyidagicha: dastlab olamning umumiy bayoni berilgan, yetti iqlimning qismlari ta'riflangan. Uning ketidan okeanlar, dengizlar, ko'llar va tog'lar, so'ngra ayrim viloyatlar (Arab diyori, Mag'rib, Rum, Arman, Iroq, Xuziston, Xuroson va boshqalar) ning „masofalari“, ya'ni yer maydoni va tabiiy sharoitlari bayon etilgan. Eng oxirida yirik shaharlar (Hirot, Marv, Balx, Mashhad va boshqalar) ta'riflangan.

Bobur. Zahiriddin Muhammad Boburning jahonga „Boburnoma“ nomi bilan mashhur bo'lgan shoh asari bo'lib, u

esdalik-xotira shaklidagi asardir. O'zining bayon uslubi bilan „Temur tuzuklari“ni eslatadi. Kitobda Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hitori shodmon, Chag'oniyon, Kobul, Xuroson poytaxti Hirot hamda Shimoliy Hindistonning XV asr ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi o'ttiz yilligida ijtimoiy-siyosiy ahvoli batafsil yoritilgan.

Asar mazmunini shartli uch qismga bo'lish mumkin:

1. Farg'ona va Movarounnahr voqealari davri (1494-1504 yillar).
2. Kobul va Xuroson voqealari davri (1504-1525 yillar).
3. Hindiston voqealari davri (1525-1530 yillar).

Siyosiy voqealar bayonidan tashqari, asar geografik hamda etnografik ma'lumotlarga boy. Undan Farg'onaning turk-mo'g'ul qabilalari, ko'chmanchi o'zbeklar qo'shini tuzilishi, Movarounnahr, Xuroson va Hindiston xalqlarining urf-odatlarini, hayvonoti, o'simliklari, parrandalari va boshqalar to'g'risida tafsilotlar o'rin olgan. Shuningdek, asarda bir qancha joy nomlarining etimologiyasini Boburning o'zi tushuntirib o'tgan.

Savol va topshiriqlar

1. *Tarixiy geografiya fanining vazifalari nimalardan iborat?*
2. *Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari nimani o'rganadi?*
3. *Tarixiy geografiya fanining shakllanishi va taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?*
4. *O'zingiz yashayotgan hududning tarixiy-geografik sharhini tayyorlang.*
5. *Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi tarixiy fanlarning tutgan o'rnini aniqlang.*
6. *O'rta Osiyo allomalarining tarixiy-geografik asarlari va ularning asosiy mazmuni haqida nimalarni bilasiz?*
7. *Tarixiy-geografik manbalardan O'rta Osiyo tarixiy geografiyasiga doir ma'lumotlar to'plang.*

Mavzuga doir manba

“Tarixiy geografiya“ atamasi turli fanlar – geografik kashfiyotlar tarixi va geografiya fanlari, siyosiy chegaralarning o‘zgarish tarixi va tarixiy voqealarga geografik omillarning ta’sirini o‘rganadi. Bularning barchasi tavsif etiluvchi mavzular bo‘lib, atamani muhokama etishni boshlashga o‘rin yo‘q. Dalillar hali ham tarixiy geografiya tarixiy fan ekanligini, bir tomondan esa geografik bilimlar sirasiga kirishini ko‘rsatib turibdi. Professor E.J.R.Teylorning so‘ziga asoslanib: „*Geograflar o‘tmishni o‘rganib, ularning fanining mazmuni ham aynan shuning o‘zidir*“, — deyish mumkin. Tarixiy geografiya geografiyaning o‘tmishini qayta tiklaydi hamda voqealar kechishining maqsadlarini ta’minlab, biror mintaqaning davriy ketma-ketlik asosidagi taraqqiyotini yoritadi. Bu kuzatuvlar alohida shaxsning tadqiqoti bo‘lishi va ko‘plab hajmdagi fanlarning hamkorligiga sabab bo‘lishi mumkin.

*(An Historical Geography of England before
A.D. 1800. Edited by Henry Clifford Darby. - Cambridge.:
University Press. 1936)*

Mavzuga doir manba

...Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma‘muraning kanorasida voqe bo‘lubtur. Sharqi Qoshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma‘mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas. Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo

Shohruxiyag‘a mashhurdir, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston soru borur. Turkistondin xeyli quyi-roq bu daryo tamom qumg‘a singlar, hech daryg‘a qotilmas.

Yetti pora qasabasi bor; beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonibida. Janubiy tarafidagi qasabalar bir Andijon-durkim, vasatta voqe bo‘lubtur, Farg‘ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijon-ning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo‘lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo‘rg‘onidin so‘ngra mundin ulug‘roq qo‘rg‘on yo‘qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo‘lubtur. To‘qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal‘aning girdo-girdi xandaqning tosh yoni sangrezalik shohroh tushubtur. Qal‘aning girdo-girdi tamom mahallottur. Bu mahalla bila qal‘ag‘a fosila ushbu xandaq yoqasi-dog‘i shohruhtur. Ovi qushi dog‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg‘ovulni uskunasini to‘rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahar va bozorisida turki bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur.

...Yana bir O‘sh qasabasidir. Andijonning sharqi janubiy tarafidur, sharqqa moyil. Andijondin to‘rt yig‘och yo‘ldur. Havosi xo‘p va oqar suyi farovondur. Bahori bisyor yaxshi bo‘lur. O‘shning fazilatida xeyli ahodis vorid bo‘lubtur. Qo‘rg‘onning sharqi janubiy bir mavzun tog‘ tushubtur, Baroko‘hg‘a mavsum.

...Yana bir Marg‘inondur. Anijonning g‘arbidadir, Andijondin yetti yig‘och yo‘ldur. Yaxshi qasaba voqe bo‘lubtur, pur ne‘mat: anori va o‘rugi asru ko‘p xo‘p bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, «dona kalon» derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor. Samnon anorlarig‘a tarjeh qilsa bo‘lur. Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichiga mag‘z solib quruturlar, «subhoni» derlar, bisyor lazizdur. Ovi qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta bo‘lur. Eli sorttur va mushtzan va pursharu sho‘r eldur. Jangaraliq rasmi Movarounnahrda shoye‘dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg‘inoniydur. Sohibi «Hidoya» Marg‘inonning Rushdon otliq kentidindur.

Yana bir Isfaradur, ko'hpoyada voqe bo'lubtur. Oqar suvlari, safoliq bog'chalari bor. Marg'inonning g'arbi janubidadur. Marg'inon bila Isfara orasi to'qquz yig'och yo'ldur. Musmir daraxtisi bisyordur, vale bog'chalarida aksar bodom daraxtidur. Eli tamom sort va ko'hiydur. Isfaraning bir shar'isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunlig'i taxminan o'n qari bo'lg'ay, balandlig'i ba'zi yeri kishi bo'yi, pastlig'i, ba'zi yeri kishining belicha bo'lg'ay, oynadek har nima mun'akis bo'lur.

Isfara viloyati to'rt bo'luk ko'hpoyadur: bir Isfara, yana bir Vorux, yana bir So'x, yana bir Hushyor. Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxong'a shikast berib, Toshkand va Shohruxiyani olg'on mahalda, ushbu So'x bila Hushyor ko'hpoyalarig'a kelib, bir yilga yovuq tanqislik bila o'tkarib, Kobul azimati qildim.

Yana bir Xo'janddur. Andijondin g'arb sorig'a yigirma besh yig'och yo'ldur. Xo'janddin Samarqand ham yigirma besh yig'och yo'ldur, qadim shaharlardindur. Shayx Muslihiddin va Xoja Kamol Xo'jandtindurlar.

Mevasi farovon va bisyor yaxshi bo'lur. Anori yaxshiliqqa mashhurdur. Nechukkim, «sebi Samarqand» derlar va «anori Xo'jand» derlar. Vale bu tarixda Marg'inon anori ko'p ortuqdur.

Qo'rg'oni baland yerda voqe bo'lubtur. Sayhun suyi shimol jonibidin oqar. Qo'rg'ondin daryo bir o'q otimi bo'lg'ay. Qo'rg'on bila daryoning shimol tarafida bir tog' tushubtur. Munug'il otaliq, derlarkim, bu tog'da feruza koni va ba'zi konlar topilur. Bu tog'da bisyor yilon bor.

...Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur. Nechukkim Andijon suyi O'shdin kelur, Aysi suyi Kosondin kelur. Yaxshi havoliq yerdur. Safoliq bog'chalari bor.

*(Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-
Т.: Юлдузча. 1989)*

II BOB.

TARIXIY KARTOGRAFIYA VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI. TARIXIY KARTOGRAFIYANING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

1. Karta va kartografiya haqida qisqacha tushuncha

Karta — bu tarixiy hujjat bo‘lib, voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, sodir bo‘lgan voqealar, vayron bo‘lgan va yana tiklangan shaharlar, daryo o‘zanlarining o‘zgarishi, unutilgan qadimgi sug‘orish inshootlari, xalqlar tarixini hududlar bilan bog‘lab o‘rganadi.

Antik davrda kartalar uchun maxsus atama bo‘lmagan. Rim imperiyasida kartografik tasvirlarni tabula (doska) deb atashgan. Keyinroq ilk o‘rta asrlarda karta lotincha „mappa“ (dastlab polotno qismi yoki dastro‘mol ma’nosini anglatgan), „mappa mundi“ shaklida esa (dunyo kartasi) o‘sha davrda Yerning barcha kartalariga nisbatan qo‘llanilgan. Kartografik tasvirlarga nisbatan „karta“ so‘zining qo‘llanilishi Uyg‘onish davrida lotinchadan „charta“ (varaq, qog‘oz) so‘zidan, o‘z navbatida u qadimgi yunon tilidagi „xartes“ (papiirusdan tayyorlangan qog‘oz) so‘zidan olingan. Bu so‘z ilk bor Portugaliyadagi XIV asr kartalarida uchraydi. Karta so‘zi aslida lotincha „chartes“ — xartes so‘zidan olingan bo‘lib, yozuv uchun mo‘ljallangan papiirus varag‘i degan ma’noni bildiradi.

Zamonaviy kartalar mazmuniga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. Umumgeografik kartalar (gidrografiya, rel’ef, sanoat, siyosiy-ma’muriy bo‘linishlarni o‘z ichiga oladi).

2. Maxsus kartalar. Maxsus ma’lumotlar keltirilgan (masalan, iqtisodiy) kartalar.

Masshtabiga ko‘ra esa kartalar uch guruhga bo‘linadi:

1. Yirik masshtabdagi kartalar: 1:200000 va undan yirik.

2. O'rtta masshtabdagi kartalar: 1:300000 dan 1:1000000 gacha.

3. Kichik masshtabdagi kartalar: 1:1000000 dan kichik.

Hozirgi zamon kartalarida quyidagi element (unsur)lar mavjud:

1. Hidrografiya: suv inshootlari (dengiz, daryo, ko'l, kanal, sun'iy suv omborlari, buloqlar, quduqlar) ni o'z ichiga oladi.

2. Aholi punktlari: shahar, shahar tipidagi posyolka, qishloq aholi maskanlari kiradi.

3. Aloqa yo'llari: temir yo'llar, yo'llar, suv yo'li (dengiz va daryo), havo yo'llari.

4. Sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy madaniy ob'ektlar: sanoat korxonalari, foydali qazilmalar, aerodromlar, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy, tarixiy ob'ektlar kiradi.

5. Relief: past-tekisliklar.

6. Siyosiy-ma'muriy chegaralar: davlat va ma'muriy birliklarning chegaralari mavjud.

Ilmiy bilimlar va fan yo'nalishlari juda tez rivojlanayotgan hozirgi zamonda kam o'rganilgan „aralash“ sohadagi fan tarmoqlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tahlil qilish uchun avvalo tarixiy jarayonlarni, tarix va geografiyani, qolaversa, tarix va kartografiyani, chuqurroq bilish talab etiladi.

Kartografiya taraqqiyoti asrlar davomida shakllangan oddiy chizmalardan toki aniq ishlangan kartalar yaratilishiga bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Kartalar mazmuni jihatidan boy bo'lishi mumkin. Katta bir kartaning mazmunini 100 sahifalik jiddiy ilmiy matnga tenglashtirish mumkin.

Kartografik materiallarga faqatgina kartografik tasvirlar kiribgina qolmay, bir qator tadqiqotchilar, ayniqsa, tarixchilar adabiy matnlar ham kartalar tuzish uchun manba bo'lishi mumkinligini uqtiradilar.

Kartografiya ancha kengroq tushuncha bo'lib, u tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligini (ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini) kartografik tasvir, tasvirli belgilar vositasi bilan tasvirlashni va tadqiq qilishni o'rganuvchi fandır. U dastlab

ovchilik va baliqchilik keng tarqalgan hududlarda shakllangan. Kartografiya qadimgi fanlardan bo‘lib, bu fan to‘g‘risidagi dastlabki ta‘rifni („kartografiya“ atamasisiz) milodiy II asrda yunon olimi **Klavdiy Ptolemey** bergan.

“Kartografiya“ atamasi dastlab XVI asrda uchrab, geografik kartalar ishlashning ilmiy va amaliy sohalarida qo‘llanilmagan.

Kartografiyaning taraqqiyotini avvalo insoniyatning jamiyatdagi moddiy ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi bilan bog‘lash to‘g‘riroq. Bu taraqqiyotni ma‘lum ijtimoiy sharoitlardan, tabiat va yer munosabatlaridan tashqarida tushunish noto‘g‘ridir. Tarixiy tadqiqotlarning asosini insoniyat jamiyatining taraqqiyoti asosidagi faktik ma‘lumotlar tashkil qilsa, kartografiya tarixi uchun esa karta va geografik ilmlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Karta bosib chiqarishgacha bo‘lgan davrdagi ko‘plab qadimgi kartalar turli sabablar, ya‘ni yong‘inlar, namgarchilik va materialining to‘zib ketishi natijasida bizgacha yetib kelmagan.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida kartografiyaning o‘rni haqida aniq bir fikr mavjud emas. Ba‘zilar uni texnik fanlar qatoriga qo‘shsalar, ba‘zilar esa aniq fanlar qatoriga, yana ba‘zilar *kartografiya geodeziyaning bir qismi* deb qarasalar, boshqalar informatikaning bir bo‘limi deyishadi. Boshqa toifa esa uni *geografik fan* deb biladi. Nima bo‘lganda ham uning aniq mohiyatini tarixiy tahlilsiz anglab yetish mushkil.

Ibtidoiy jamoa davridanoq qadimgi odamlar ilk kartalarni yaratishgan. Masalan, geograf **Frits Redinger** „Shveysariyadagi tarixdan avvalgi kartografik rasmlar“ nomli asarida Shveysariyadagi g‘orlardan topilgan ikkita suyak plastinkani o‘rganish natijasida, plastinkalardagi tasvirlar o‘sha joyga oid asosiy yo‘llar kartasi ekanligiga amin bo‘lgan.

Qadimgi tarixiy kartografiyaga oid ilmiy adabiyotlarda karta va kartografiyaning shakllangan davri haqida aniq va to‘la javob yo‘q. Ma‘lumki, bizgacha yetib kelgan kartografik tasvirlar miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oiddir. Ular orasida Shimoliy Italiyaning Kamonika vodiysidan topilgan bronza davri (miloddan

avvalgi II ming yillik o'rtalari)ga oid kartografik tasvirlarda dalalar, so'qmoqlar, irmoqlar va sug'orish inshootlari aks ettirilgan.

Qadimgi karta-tasvirlar loy taxtachalar, papirus va pergamentlarga chizilgan bo'lib, bizgacha boy tarixiy ma'lumotlarni olib kelgan. Miloddan avvalgi 2300 yillarda qadimgi bobilliklar ilk ibtidoiy kartalarni chizganlar. Unda yerning ba'zi qismlari o'z aksini topgan edi. Shuningdek, kartalar yaratish boy madaniyatli qadimgi xalqlar — *ossuriyaliklar*, *misrliliklar* va *finikiyaliklarda* eramizdan bir necha ming yil avval shakllangan.

Yerning shar shaklida ekanligi qayd etilgan sanani ko'plab olimlar asrlar mobaynida o'rganishib, uni miloddan avvalgi V asrda yashagan faylasuf **Parmenid** nomi bilan bog'lab kelishdi. XIX asrda tarixchi va geograf olimlar Yerning shar shaklida ekanligi haqida g'oya **Pifagorga** (miloddan avvaalgi VI asr) tegishli deb da'vo qilishardi.

XX asrda esa bir qator G'arb tadqiqotchilari — Gyutri, Xeydel, Tomson va boshqalar yangi g'oya miloddan avvalgi V asrdan erta paydo bo'lmaganligi va u haqdagi ishoralar **Platonning** (miloddan avalgi 427-347 yillar) "Fedon" dialogida uchrashini ta'kidlaganlar. Ammo XX asrdagi ba'zi tadqiqotlarda bu g'oyani yana „qadimiyroqqa“ — Pifagor davrigacha surishga urinishlarni kuzatishimiz mumkin.

Antik manbalarda qadimgi yunon kartalari haqida bir qator ma'lumotlar uchraydi. Gerodotning yozishicha, Milet hukmdori Aristogorning Sparta podshosi Kleomon bilan muloqoti chog'ida uning qo'lida mis doskali karta bo'lib, unda butun yer kurrasi, "hamma dengiz va daryolar" aks etgan.

Shuni unutmashlik kerakki, antik davrning yirik tarixchilarining ko'pchiligi geograf, shuning bilan birga kartograf bo'lishgan. Ular orasida Evdoks, Dikearx, Efor, Eratosfen, Pompeniy Mel, Ptolemeylar alohida o'rin egallaydi.

Quldorlik tuzumi davrida karta tuzish ancha rivojlandi. Kartografiyaning ilmiy manbalari antik Yunonistonda shakllandi. Yunonlar Yerning shar shaklida ekanligini va uning hajmini

aniqlashga uringanlar. Ular tomonidan kartografik proyeksiyalar va meridian-parallellar to'ri ishlab chiqilgan. Bunda ular Yerning shar shaklida ekanligini hisobga olganlar.

Tarixchi **Gerodot** o'z davrida (miloddan avvalgi 484-425 yilar) Yerning tasviri haqida yozib qoldirgan bo'lsa-da, antik geografiya Klavdiy Ptolemey (milodiy 90-168 yillar) asarlarida kengroq tahlil qilingan. Uning 8 kitobdan iborat „Geografiyadan qo'llanma“ asari kartografiya ilmida qariyb 14 asr mobaynida yirik manba bo'lib xizmat qildi. U qisqacha „Geografiya“ deb atalib, 8 ta kitobdan oltitasida Yerning tasviri bayon etilgan.

Qadimgi Rimda kartalar harbiy va ma'muriy maqsadlar uchun amaliyotda keng qo'llanilgan. Rimning iqtisodiy va siyosiy hayoti olis viloyatlar va qo'shni mamlakatlarning transport aloqalariga bog'liq bo'lgan. Rim imperiyasini bog'lab turgan yo'llar tarmog'i o'lchab chiqilgan, so'ngra esa ularning kartalari tayyorlangan.

Rimdagi kartografiya asosan ikki yo'nalishda rivojlangan. *Birinchisi* — yunon kartografiyasi an'analarini davom ettirgan bo'lib, yunonlar, ayniqsa, Klavdiy Ptolemey tadqiqotlari asosida, *ikkinchisi* aynan Rim yo'nalishi, ya'ni amaliy muhandislik asosida taraqqiy etdi. Ta'kidlash joizki, rimliklar muhandislik geodeziyasi asoslarini yer o'lchash ishlari vositasida olib borishdi. Rim kartografiyasi ana shunisi bilan ham muhim va o'ziga xosdir.

Rimda kartografiya ishlari bilan yer o'lchovchilar (agrimensor'ob) shug'ullanib, milodiy birinchi asrlarda argimensor bir vaqtning o'zida ham kohin, ham harbiy va geometr bo'lib, Senat va xalq ularga katta vakolatlarni bergan. Agrimensorlar o'ziga xos an'ana hamda qoidalar asosida faoliyat ko'rsatgan. Ular Rimda ijtimoiy xizmat vakillari sanalib, imperatorlar ularning faoliyatini yuqori baholaganlar. Hatto huquqshunos va notiqlardan tashqari yer o'lchovchilar ham professor unvoniga sazovor bo'lishgan hamda har xil majburiyatlardan ozod etilgan. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki, Rimda yer o'lchash va uni kartalarga tushirish san'at darajasiga ko'tarilgan.

O‘z amaliga ko‘ra rimlik yer o‘lchovchilar turli xil nomlarga ega bo‘lishgan: **terminorum custodes** — chegaralar qo‘riqchisi, **mensores** — o‘lchovchilar, agrimensores-mensores-yer o‘lchovchilar.

Rimda ushbu kasb egalarining maxsus maktablari va qadimgi geodezik asboblari mavjud bo‘lgan.

2. Tarixiy kartalar

Tarixiy kartalar, asosan, o‘tmishdagi voqea va hodisalarni tasvirlab, jamiyat tarixidagi muhim voqelarning geografiya bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi.

Tarixiy kartalar qadimgi madaniyat o‘choqlari, davlatlar, ijtimoiy harakatlar, savdo yo‘llari va hokazolarni ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Tarixiy kartalar arxeologik, etnografik, tarixiy-iqtisodiy, siyosiy-tarixiy, harbiy-tarixiy va tarixiy-madaniy kartalarga bo‘linadi. Bu tarmoqlar orasida tarixiy kartalar umumiy ham bo‘lib, tarixiy jarayonlarni bir butunlikda tasvirlaydi. Alohida hollarda esa voqea va hodisalar yoki fakt (dalil)larning alohida tomonlarini ko‘rsatadi. Ular mustaqil (ma‘lumot beruvchi va o‘quv kartalari hamda atlaslar) yoki bezakli ahamiyatga ega bo‘lgan kartalarga bo‘linishi mumkin.

Dastlab tarixiy kartalar Abraxam Orteliyning „Qadimgi dunyo geografiyasi atlası“ (1579 yil)ga kiritilgan. So‘ngra Sansonlar, V.Dyuval (XVII asrning ikkinchi yarmi) atlaslarida tarixiy bo‘limlar paydo bo‘ldi. XVIII asrda esa J.B.D’Anvilning tarixiy kartalari chop etildi.

XIX-XX asrlarda bir qator G‘arb mamlakatlarida milliy tarixiy atlaslar chop etildi. Ularda aholining joylashuvi, ma‘muriy-siyosiy bo‘linishlar, shuningdek, iqtisodiy va madaniy tarixga oid kartalar mavjud edi (AQSh, Fransiya, Finlandiya). Tarixiy atlaslar Chexoslovakiya va Bolgariyada ham nashr etilgan.

Rossiyada tarixiy kartalar XVIII asrning birinchi choragida, aniqrog'i, 1700-1721 yillardagi Shimoliy urushda rus harbiy qo'shinlarining janglariga bag'ishlangan plan, karta, sxema va ularning sharhiga bag'ishlangan matnlarning 1713 yildan chop etilishi bilan boshlangan. Har bir matnga bezakli jang plani va qal'alarning tasviri berilgan gravyura ilova qilingan. Keyinroq qo'lda chizilgan harbiy-tarixiy kartalar juda ko'plab tarqalib, ular quruqlik va dengizda olib borilgan janglarda erishilgan g'alabalarga bag'ishlandi. 1793 yilda ilk bor «Rossiya imperiyasining tarixiy kartalari» nashrdan chiqdi.

XIX-XX asr boshlarida atlas va alohida kartalar chop etilib, ularda siyosiy, harbiy va iqtisodiy jarayonlar o'z aksini topdi. Ular jumlasiga „I.Axmatovning Rossiya davlatining Karamzin tarixiy asarlariga asoslanib tuzilgan tarixiy, xronologik va geografik atlas“ (I-II qismlar, 1829-1831 yillar), N.I.Pavlishhevning „Rossiya tarixiy atlas“ (1845 yil), Y.Y.Zamislovskiyning „Rus tarixiga oid o'quv atlas“ (1865 va 1887 yillar) va A.Ilinning 1868 yilda chop etilgan „Rus tarixi bo'yicha o'rta va quyi o'quv muassasalari uchun o'quv atlas“ni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Rossiya imperiyasida iqtisodiy va xo'jalik masalalarini qamrab olgan karta va atlaslar Ichki ishlar vazirligining aholini ro'yxatga olish boshqarmasi, Savdo vazirligi va boshqa muassasalar tomonidan muntazam nashr etilib borilgan. Etnografik tarixga doir kartalar 1851 yilda P.I.Keppen va 1895 yilda A.F.Rittix tomonidan tayyorlanib, chop etilgan.

Rossiya imperiyasida nashr etilgan harbiy-tarixiy kartalar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular 1799, 1805-1815, 1828-1829, 1853-1856, 1877-1878 va 1904-1905 yillarda chor qo'shinlari olib borgan yirik harbiy urushlarni, shu bilan birga chegaralar hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan harbiy harakatlarni ham tavsiflovchi kartalar sifatida baholanishi mumkin.

Hozirgi zamon tarixiy kartalari faqatgina tarixiy voqea va hodisalar va dalillarnigina aks ettirib qolmay, balki ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham tasvirlaydi.

Sobiq sho‘rolar tuzumi davrida K.V.Kudryashovning «Rus tarixiy atlası» (1928 yil), K.V.Bazilevich, I.A.Golubsov va M.A. Zinovyevlarning «SSSR tarixi atlası» (1-3 qismlar, 1948-1950 yillar) va boshqa yirik tarixiy atlaslar yaratilgan. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng sobiq sho‘rolar tuzumi ostidagi ittifoqdosh respublikalarda ham nashr etilgan atlaslarda tarixiy kartalar mavjud edi.

Harbiy tarixiy voqealarga doir kartalar L.G.Beskrovniyning „Rus harbiy tarixiga oid karta va sxemalar atlası“ (1946 yil), „Zobit atlası“ (1947 yil), „Dengiz atlası“ (3 jild, 1958 yil)da o‘z aksini topgan.

Tarixiy kartalar keng ko‘lamda 1953-1956 yillarda chop etilgan ko‘p jildli „SSSR tarixi lavhalari“, 1966-1971 yillardagi „Qadimgi davrdan to hozirga qadar SSSR tarixi“da, 1955-1969 yillardagi „Jahon tarixi“, ensiklopedik nashrlar va alohida tarixiy tadqiqotlarda berib borilgan. O‘rta va oliy o‘quv muassasalari uchun ham ko‘plab o‘quv kartalari va atlaslar nashr etilgan. Kartalarning qadimiyligi unga tarixiy manba ahamiyatini berib, manbashunoslik tahlili tamoyillarini qo‘llashni talab etadi. Shuningdek, mazkur manbalar turi alohida tadqiqot usullarini qo‘llagan holda nafaqat tarixiy, balki umumiy geografik bilimlarni ham egallagan bo‘lishlikni taqozo qiladi. Tarixiy kartalarni o‘rganish va ularni yaratish uslubiyatini ishlab chiqishni o‘rganuvchi fan tarmog‘i tarixiy kartografiya deb ataladi.

3. Tarixiy kartografiya

Tarixiy kartografiya — ilmiy fan bo‘lib, u asosan tarixiy kartalar va atlaslarni tuzish, ularning uslubiyatini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Kartografik uslubning tarix fanida qo‘llanilishi tarixiy kartalardan keng foydalanishga, tarixiy-geografik monografiyalar, maqolalar, darsliklar, qo‘llanmalar yaratilishiga olib keldi. Tarixiy kartalarda tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar, tarixiy davrlarni tavsiflovchi jarayonlar, shuningdek, geografik

oqibatlar ko'rsatib o'tiladi. Umumiy tarixiy kartalar bu jarayonlarni yanada to'liqroq ko'rsatishga, ochib berishga harakat qiladi. Tarixiy kartalarning turli xillari bo'ladi: *tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-siyosiy, tarixiy etnografik, arxeologik, milliy-ozodlik harakati, dehqonlar qo'zg'oloni, inqilobiy harakatlar, harbiy-tarixiy, madaniyat tarixi* bo'yicha va boshqa kartalar kiradi. O'quv-tarixiy kartalar o'rta va oliy maktablarda o'qitilayotgan tarixiy davrlarga mos bo'ladi.

Tarixiy kartografiyaning rivojlanishi har doim tarixiy geografiyaga bog'liq bo'lib kelgan. 1579 yili Abraxam Orteliy geografik atlasga uchta tarixiy kartadan iborat qo'shimcha tuzdi. Orteliyning bu qo'shimchasi keyinchalik 1603 yili 38 ta kartadan iborat bo'lgan antik davrning geografik atlasini tuzilishiga sabab bo'ldi.

XVII asrning ikkinchi yarmida fransuz geograflari Sansonlar va V.Dyuval atlaslarida ham tarixga oid kartalar bo'limi bor edi. XVIII asr oxirida fransuz kartografi J.B. D'Anvil tomonidan tayyorlangan tarixiy kartalar bosilib chiqdi. Orteliydan tortib to XIX asr oxiriga qadar tuzilgan kartalarda xalqlarning hududiy joylashishi, siyosiy chegaralar, harbiy yurishlar, janglar, tarixiy voqealar bo'lib o'tgan hududlar, geografik sayohatlar yo'nalishlari aks ettirilgan edi. Shuningdek, A.Orteliy va V.Dyuval tomonidan tuzilgan kartalarda afsonaviy voqea-hodisalar va Injildagi rivoyatlar tasvirlangan. Masalan, avliyo Pavel va Ibrohim payg'ambarning sayohati, troyalik Eneyning dengiz sayohati, Odisey yurgan yo'llar tasvirlangan. Keyinroq kartalarda tarixiy-iqtisodiy ma'lumotlar ham qayd qilina boshlangan.

Tarixiy kartalar tuzishda tarixiy davrlar ko'pincha chalkashib ketgan, milliy-ozodlik harakatlari aks ettirilmagan. Ba'zi tarixiy kartalarda ma'lumotlar ataylab buzib ko'rsatilgan. Masalan, 1910 va 1936-1938 yillarda Germaniyada chop etilgan Pusger atlasida, avvalo buyuk davlatchilik shovinizmi va keyinroq fashistcha g'oyalar avj olishi bilan kartalardagi nemis va slavyan yerlari o'rtasidagi chegaralar sun'iy ravishda sharqqa surilib berilgan.

XX asrning ilmiy tarixiy kartografiyasiga ikkita muhim yoʻnalish xosdir. Birinchi yoʻnalishga yuksak darajada detallashtirilgan kartalar kirib, ularda aholining maʼmuriy, baʼzi holda cherkov tomonidan boʻlinishigacha boʻlgan aniq dalillar aks ettirilgan. Bunday kartalar turiga 1895 yilda chop etilgan Fabrisiusning nemis atlas, Rixterning 1906 yilgi Avstriya atlas, A.A.Bekmanning 1913-1938 yillarda chop etilgan Niderlandiya atlas kiradi. Ikkinchi tur kartalariga detallashtirilishi unchalik yuqori boʻlmagan, ammo faqatgina tarixiy-siyosiy emas, balki tarixiy-iqtisodiy, madaniyat tarixiga oid maʼlumotlar ham aks ettirilgan kartalar kiradi. Bunday kartalar sirasiga 1926 yil chop etilgan Aubinning nemis atlas, Pollin tahriri ostida 1932 yilda chop etilgan AQSh atlas („Qoʻshma Shtatlar tarixiy-geografik atlas“)ni misol qilib keltirishimiz mumkin. 1956, 1958, 1962 yillarda esa Myunxenda oʻquv mashgʻulotlariga doir „Katta tarix atlas“ chop etilgan.

Rossiya imperiyasida tarixiy kartografiya rivojlanishining dastlabki bosqichi XVIII asrning birinchi choragiga toʻgʻri keladi. Bu davrdagi tarixiy va tarixiy-geografik asarlarga tarixiy kartalar ilova qilina boshlandi. „Rossiya imperiyasining tarixiy kartasi“ birinchi bor 1793 yilda chop etilgan.

Tarixiy kartografiya rivojlanishida 1958 yil Polshada bosilib chiqqan Plos voyevodligi tarixiga oid atlasning alohida oʻrni bor. Bunday atlaslar ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlarini aniq tasvirlab beradi. Zamonaviy tarixiy kartografiya rivojlanishining muhim elementi – bu tarixni aniq davrlashtirish, turli tarixiy jarayonlarni toʻla aks ettirish, tarixiy jarayonlarning iqtisodiy tomonini ochib berishdir.

Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, shoʻrolar tuzumi davrida Oʻrta Osiyo tarixiga doir bir qator tarixiy kartalar tuzilgan boʻlsa ham, ammo ularning ichida Oʻrta Osiyoni chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga doir kartalar yoʻq edi. Shuningdek, kartalar nashr qilinganda koʻproq *yevrosentrik* nuqtai nazardan yondashilgan edi.

O'rta Osiyo hududlari bo'yicha tarixiy kartalar faqat katta tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan hollardagina yaratilgan. Masalan, mo'g'ullarning O'rta Osiyoni bosib olishiga doir tarixiy kartalar mavjud bo'lsa-da, ammo Amir Temur davlati haqida tarixiy kartalar umuman yaratilmagan. Tarixiy atlas va kartalarda XV-XVIII asrlardagi O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlarning faqat Rossiya imperiyasi bilan aloqador bo'lgan qismlarigina aks ettirilgan, ular ham ham aniq detallashtirilmagan edi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid siyosiy-ma'muriy, tarixiy kartalar kam yaratilgan bo'lsa-da, demografik, hududlarning iqtisodiy tarixiga oid kartalar esa deyarli bo'lmagan.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng Turkiston general-gubernatorligi va yarim mustaqil Buxoro amirligi va Xiva xonligining o'sha davrga oid ba'zi kartalari mavjud.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixiy kartalar soni ko'paydi. O'rta Osiyoning eng rivojlangan davri bo'lgan temuriylar davriga bag'ishlangan kartalar to'plami chop etildi. Shu bilan birga O'zbekiston tarixiy kartografiyasi oldida ko'plab ilmiy muammolar turibdi. Birinchi galdam zamonaviy talablarga mos bo'lgan O'zbekiston xalqlari tarixining butun davrlarini qamrab olgan tarixiy atlas yaratish zarur. Bu borada dastlabki qadamlar ham tashlandi. 1999 yilda „O'zbekiston tarixi atlas“ nashrdan chiqdi (O'zbekiston tarixi atlas.-O'zgeodezkadastr, 1999). Endi uni yangi ilmiy ma'lumotlar asosida to'ldirib, mukammallashtirib borish zarur.

O'zbekiston xalqlari tarixiga oid kartalar mavjud bo'lsa-da, tarixiy- geografik, tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-demografik kartalarni yaratish o'zbekistonlik olimlarning birinchi galdagi vazifasidir.

4. O'zbekistonda kartografiya fani tarixi

XX asrga qadar respublikamiz hududini kartografik jihatdan o'rganilganlik ancha past bo'lgan. Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin iqtisodiy jihatdan muhim bu o'lkani kartaga

olish ishlari boshlandi. Zotan, hududning ichki qismlari hali ham yaxshi o'rganilmagan, manbalar yetarlicha darajada to'liq va aniq bo'lmagan, plan olish asboblari, kartografik tasvirlash usullari va karta ishlash texnikasi rivojlanmagan edi.

1934 yili O'rta Osiyo va Qozog'istonda yagona bo'lgan Toshkent kartografik fabrikasi tashkil etildi. Unga davlat muassasalari va jamoat tashkilotlarini mavzuli, siyosiy-ma'muriy va ma'lumotnoma kartalari bilan, shuningdek, maktab o'quvchilarini o'quv karta va atlaslar bilan ta'minlashdek katta vazifa yuklatildi. Ko'p o'tmay alohida sug'oriladigan tumanlar qishloq xo'jalik kartalari, O'zbekistonning ma'muriy kartasi va O'rta Osiyo xalqlari milliy tillarida o'quv kartalari tuzildi va nashr etildi.

Mintaqa, xususan O'zbekiston hududi tasvirlangan kartografik materiallar o'sha yillari nashr etilgan sobiq Ittifoqning katta-kichik va qishloq xo'jaligiga oid maxsus qomuslari tarkibida ham berilgan.

1939-1940 yilari barcha O'rta Osiyo respublikalarining devoriy siyosiy-ma'muriy, tabiiy va iqtisodiy kartalari tayyorlandi va chop etildi. Ular ichida, ayniqsa, O'zbekiston va Turkmanistonning qishloq xo'jalik kartalari alohida ajralib turadi. Ularda qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, ekilayotgan g'o'za navlarining joylanishi, davlat xo'jaliklari va ularning ixtisoslashuvi ko'rsatilgan. Belgilar usuli bilan foydali qazilma konlari, muhim industrial markazlar va gidroelektrostansiyalar ko'rsatilgan.

Urushdan keyingi yillarda kartograflarning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligida, boshqaruv va rejalashtirish organlarini zarur kartografik materiallar bilan ta'minlash, ilg'or xo'jaliklar va ilmiy tadqiqot muassasalarining yutuqlarining targ'ibot qilish hamda amaliyotga joriy etilishini tezlatish edi.

1963 yili respublikamizning birinchi „Tabiiy-geografik atlas“ chop etildi. Atlasning formati 44x30 sm, asosiy kartalarning masshtabi 1:3500000 va 1:500000, iqlim kartalari 1:7500000 va 1:10000000 masshtablarda tuzilgan.

1968 yili O'zbekiston Yer tuzish va loyihalash instituti tomonidan O'zbekistonning yagona dastur asosida bir-biri bilan

o'zaro bog'langan, bir-birini o'zaro to'latadigan ixtisoslashgan aniq maqsadli «Devoriy qishloq xo'jalik kartalari» tizimi tayyorlandi va nashr etildi. Mazkur tizim masshtabi 1:1000000 bo'lgan 21 ta kartadan iborat bo'lib, ularda respublikamiz qishloq xo'jaligiga atroflicha kartografik tavsif berilgan. Barcha kartalarning mazmuni turli xil diagrammalar, grafiklar va jadvallar bilan to'ldirilgan.

1980 yili O'zbekistonning birinchi „O'quv-o'lkashunoslik atlası“ chop etildi. Mazkur atlas keng jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. U respublikamiz geografiyasi, tarixi va madaniyatini o'rganishda o'quvchilarga yordamchi qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

1983 yili respublikamiz poytaxti Toshkentning 2000 yillik yubileyi munosabati bilan kompleks „Toshkent geografik atlası“ chop etildi. Atlasning formati 25x35 sm, asosiy kartalarining masshtabi 1:400 000 va 1:650 000. Atlas kirish va 6 bo'limdan iborat bo'lib, u 48 ta karta va sxemalarni o'z ichiga olgan. Atlas Leningrad shahrining (1977 yil) tarixiy-geografik atlasidan keyin sobiq Ittifoqda nashr qilingan ikkinchi shahar atlası hisoblanadi.

1982-1985 yillari ikki qismdan iborat umumiy kompleks geografik ilmiy-malumotnoma „O'zbekiston atlası“ chop etildi. Mazkur atlasning umumiy hajmi va mazmunining qamroviga ko'ra milliy atlasga yaqin deb hisoblash mumkin. Atlasning formati 61x42 sm, asosiy kartalarining masshtabi 1: 2 500 00 va 1: 3 500 000. Atlas 28 ta alohida-alohida bo'limdan iborat bo'lib, unda 322 ta ko'p rangli karta berilgan. Atlasni loyihalashtirish va kartalarni tuzishda mualliflar asosiy e'tiborini tizimli yondashgan holda respublikamizning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, xalq xo'jaligi va uning tarmoqlari, madaniyati va tarixining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolib, ularning haqiqiy holatini aks ettirishga qaratdilar. Mazkur atlas sobiq Ittifoqda chop etilgan barcha kompleks ilmiy-malumotnoma atlaslardan farq qilib, O'zbekiston qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'ı – paxtachilikka alohida bo'limda birinchi marta to'liq kartografik tavsif berildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, respublika rahbariyati mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, ishlab

chiqarish kuchlaridan oqilona foydalanish va uni butun mamlakat hududi bo'ylab ilmiy asosda to'g'ri joylashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilish, aholining o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish, uning hududida geodeziya va kartografiyaga oid faoliyatni keng ko'lamda, aniq reja va ilmiy asosda tashkil etishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Shu maqsadda 1997 yilning 25 aprelida „Geodeziya va kartografiya to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida geodeziya va kartografiyaga oid faoliyatning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning geodeziya va kartografiya mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

O'tgan qisqa muddat ichida respublikamizning 1:1000000 va 1:1500000 masshtabli qator devoriy siyosiy-ma'muriy, tabiiy, ekologik, umumiyqisodiy, iqlim va aholi kartalari chop etildi.

1999 yili O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining buyurtmasiga binoan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining geografiya fakulteti jamoasi umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun „O'zbekiston geografik atlasini“ nashrga tayyorladi.

5. Antik davr mualliflarining O'rta Osiyoga doir kartografik tadqiqotlari

Qadimgi davrda Gerodot, Strabon, Klavdiy Ptolemey va boshqa antik mualliflarning asarlaridagi O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar ushbu hududlar haqidagi dastlabki tarixiy-kartografik ma'lumot hisoblanadi.

Chunonchi, **Gerodot** (miloddan avvalgi 484-425 yillar) o'zining „Tarix“ kitobida Kaspiy dengizidan sharqda bepoyon kengliklar mavjudligi haqida ma'lumot beradi. U Kaspiy (Girkan)

dengizini yopiq havza deb, uning ko‘lami haqida shunday fikr yuritadi: „*Uzunligini eshkakli kemada 15 kunda, kengligini esa hammasi bo‘lib 8 kunda suzib o‘tish mumkin*“.

Gerodot massagetlarning yerlari haqida ham fikr yuritib, ular „*Kaspiy dengizidan sharqda, quyosh chiqish yo‘nalishida joylashgan*“, deb yozadi. Uning Baqtriya va Xorazm haqidagi ma‘lumotlari ham qiziqarlidir.

Gerodot ma‘lumotlariga tayanib, Dj.Tomson, V.Fedchina, V.Dementyev, O.Andryushenko kabi olimlar antik davr tarixiy kartalarini yaratganlar. Dj.Tomson Kaspiy dengizining kengligini uzaytirib yuborgan, bu esa Gerodot yozganlariga mos tushmaydi. V.Dementyev, O.Andryushenkolar Araks (Amudaryo)ni birmuncha to‘g‘riroq chizganlar, lekin uning Kaspiyga quyiluvchi irmog‘i tasvirlanmagan. Shuningdek, baqtriyaliklar yurti ham aks etmagan. V.Fedchina tiklagan kartada Gerodot tilga olgan „botqoqlik va ko‘llar“ mavjud hududlar tasvirlangan bo‘lsa-da, biroq baqtriyaliklar va massagetlar yerlari chizilmagan.

.Yana bir yunon olimi **Ktesiy** (miloddan avvalgi V-IV asrlarda yashagan yunon olimi. Kichik Osiyoning Knid shahridan bo‘lib, miloddan avvalgi 414 yildan boshlab ahamoniylar podshosi Artakserks II saroyida tabib bo‘lib xizmat qilgan. Shu vaqt mobaynida u O‘rta Osiyoning qadimgi davlatlari va shaharlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumot to‘plagan. Asosiy ma‘lumotlarini o‘zining „Persiya tarixi“ kitobida yozib qoldirgan bo‘lib, uning kattagina bir qismi Baqtriya tarixiga bag‘ishlangan). Uning qayd etishicha, qariyb barcha xalqlar satrapliklarga bo‘lingan bo‘lib, faqatgina sak qabilalarigina satrapliklarga kirmagan.

Ktesiy davrida Baqtriya sharqdagi yirik va ahamiyatli satrapliklardan biri bo‘lgan. Baqtriya yerlaridagi kumush konlari haqida gapirib, Ktesiy ushbu zaminning chuqur yer qatlamlarida ushbu metallning ko‘pligini yozadi.

Ktesiyga ko‘ra, sharqda yirik Shimoliy dengiz (Kaspiy dengizi) bo‘lib, dengiz bo‘yida girkanlar va ularning qo‘shnisi *darbiklar* istiqomat qilganlar. Ulardan ham sharqda esa *parfiyalik* va

barkaniyaliklar, xoramney va karmoniylar istiqomat qilishgan. Baqtriya tekisliklariga esa g'arbdan faqatgina kichik tog' yo'li orqali o'tish mumkin bo'lgan. Baqtriya yerlari Tanais daryosidan Hind daryosi bo'ylarigacha bo'lgan yerlarni egallagan. Tanais Baqtriya yerlarini Yevropadan Hind esa Hindistondan ajratib turgan. Ktesiy tasavvuriga ko'ra, Tanais Hind daryosiga qarama-qarshi bo'lib, Pont (Qora) dengiziga quyilgan.

O'rta Osiyo haqidagi keyingi ma'lumotlar Aleksandr Makedonskiy yurishlari (miloddan avvalgi 329-327 yillar) davrida to'plandi.

Keyinroq antik davrning yirik geograf olimi **Strabon** milodiy I asrda 17 kitobdan iborat „Geografiya“ asarini yaratdi. U miloddan avvalgi V asrdan-milodiy I asrgacha bo'lgan barcha geograf va tarixchilarning asarlaridan tanqidiy foydalandi.

„Geografiya“ning XI kitobida O'rta Osiyoning Parfiya va Girkaniya kabi o'lkalari, Araks, Oks (Amudaryo), Yaksart (Sirdaryo), Politimet (Zarafshon), Epard (Murg'ob) daryolari haqida, shuningdek, kitobda O'rta Osiyoda yashovchi *sak, so'g'd, skif, massaget* qabilalari haqida ham ma'lumotlar bor. Amudaryo-ning suvlari esa botqoqliklarga emas, „suvlar mamlakati“ga singishi haqida yozilgan. „Suvlar mamlakati“, Shimoliy dengiz deganda Strabon Orol dengizini tushungan, Amudaryoning bir o'zani Girkan qo'ltig'iga quyiladi, deb o'ylagan.

Strabon Yaksart va Oks daryolari bo'ylarida yashovchi qabilalarning joylashuv holatiga ham to'g'ri baho bergan. U Parapamiz (Hindikush) tog'larining shimoliy tarmog'ini Imaus (Pomir) tog'lari deb tushungan. Strabonga ko'ra, O'rta Osiyoda massaget qabilalarining bir qismi tog'larda, yana bir qismi tekisliklarda, uchinchi qismi botqoqliklarda, to'rtinchi qismi esa ana shu botqoqliklardagi orollarda istiqomat qilganlar.

Strabon tilga olgan tog'lar Orol dengizi va Kaspiydan sharqdagi tog'lar, ya'ni Tyanshan va Pomirni, vodiy deganida esa Amudaryo va Sirdaryo oralg'idagi yerlarni nazarda tutgan.

Qadimgi dunyoning geografik hamda kartografik bilimlarini umumlashtirgan mashhur olimlardan biri milodiy II asrda yashagan yirik kartograf olim **Klavdiy Ptolemey**dir. Uning „Geografiyadan qo‘llanma“ asari antik davrning o‘ziga xos geografik ensiklopediyasidir. Ptolemey mazkur asarning birinchi bobida geografiyaning vazifalari va dunyo kartasini tuzishda qanday kartografik proyeksiyani qo‘llash lozimligini bayon etgan. Umuman, bu asarni dunyoning geografik atlasida ham bo‘ladi. Ptolemey bu asaridan tashqari 27 ta kartani o‘z ichiga olgan dunyo atlasini tuzdi.

Osiyo Ptolemey «Geografiya»sining V-VII boblarida 12 ta kartada berilgan, 48 ta viloyatga bo‘lingan. Uning atlasidagi yigirma ikkinchi kartada O‘rta Osiyo hududlari ham aks ettirilgan. Ushbu karta tahlili bo‘yicha S.A. Vyazigin, B.P. Ditmar, V.V. Latishevlar maxsus shug‘ullanishgan.

Mashhur rus geografi I.V. Mushketovning fikriga ko‘ra Ptolemeyning bu kartasida Turkiston to‘g‘risida hatto XVIII asrning birinchi yarmidagi yevropalik olimlarning tasavvurlariga qaraganda ham kengroq va to‘g‘ri ma‘lumotlar bor.

Ptolemeyga qadar barcha yunon muarrixlari Kaspiy dengizini Dunyo okeanining qo‘ltig‘i deb, noto‘g‘ri tasavvurga ega edilar. Ptolemey ana shu mavjud xato tasavvurni inkor qilibgina qolmay, uning noto‘g‘riligini isbotlab ham bera oldi.

Ptolemey kartasida Yaksart (Sirdaryo), Politimet (Zarafshon), Oks (Amudaryo va uning irmoqlari), Ox (Tajan) va Marg (Murg‘ob) daryolari, boshqa ko‘plab kichik daryolar bor. Biroq O‘rta Osiyoning yirik daryolari Kaspiy dengiziga quyiladigan qilib tasvirlangan. Kaspiy dengizi esa sharqdan g‘arbga cho‘zilib chizilgan.

Kartada tarixiy hududlar (So‘g‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona), xalqlar (xorazmliklar, zariasplar, massagetlar) shaharlar (Tribaktra, Astkana, Xaraxarta, Marakanda, Turkana, Antioxiya-Marg‘iyona) aks ettirilgan. Shuningdek, kartada Sirdaryo va Amudaryoning o‘rta oqimlari oralig‘idagi hudud Transoksiana deb atalgan.

Klavdiy Ptolemey kartasi yana shu jihatdan ahamiyatli, unda Oʻrta Osiyodagi davlatlar chegaralab berilgan. Bundan tashqari, Ptolemey kartasi etnografik jihatdan ham ahamiyatli: kartada 12 qabila (xorazmlilar, toxarlar, massagetlar va hokazo) ajratib koʻrsatilgan.

Oʻrta Osiyo togʻlar orasidagi bir vodiya koʻrsatilgan: janubda Paropamis togʻlari, sharqda meridional choʻzilgan Imaus (Pomir) togʻlari bor.

Shunday qilib, antik davr olimlarining Oʻrta Osiyo haqidagi deyarli yetti asr mobaynidagi, yaʼni Gerodotdan Ptolemeygacha boʻlgan kartografik tasavvurlari keyinroq ancha ilmiy tadqiqotlar bilan boyib bordi.

6. XIII-XIX asrlarda Gʻarbiy Yevropada Oʻrta Osiyo haqidagi tarixiy-geografik va kartografik maʼlumotlar

XIII asrga kelib Gʻarbiy Yevropa kartografiyasida tub burilish davri boshlandi. Matn shaklidagi maʼlumotlar grafik tasvirlar — kartalarga koʻchdi. Sharqiy mamlakatlarga sayohat qilgan koʻplab sayyohlarning Oʻrta Osiyo haqidagi maʼlumotlari kartografik xarakterga ega.

XIII asrda papa Innokentiy IV ning Chingizxon huzuriga yuborgan elchisi fransiskan monaxi **Plano Karpini** 1246 yilda Rossiyaning janubi, Oʻrta Osiyo hududlaridan oʻtib Qoraqurumga boradi. Aynan uning Oʻrta Osiyo haqidagi maʼlumotlari Yevropa uchun Markaziy Osiyoga eltuvchi quruqlik yoʻllari haqida batafsil manba boʻlib xizmat qildi.

Plano Karpini Tatariya (Oʻrta Osiyo)ning geografik holatini quyidagicha taʼriflaydi: „...*sharqda xitoylarning, shuningdek, solangliklarning (Manchjuriya) yerlari, janubdan sarrasinlar (Afgʻoniston, Eron), janubi-gʻarbdan guirlar (moʻgʻullar), gʻarbdan naymanlar viloyati; shimolda esa okean bilan chegaralangan*“

Plano Karpini oʻzining sayohat yoʻnalishi haqida bayon qilib, komanlar yurtidan soʻng, qangʻitlar (qangʻlar) yeri boshlanishini,

suv kam bo'lganidan odamlar bu yerlarda kam yashashini, u yerdan bisermanlar yurtiga qarab yo'l olganliklarini, ushbu yurtda kattagina daryo bo'lib, uning nomini bilmaganliklarini, lekin uning bo'yida Yankent, Barchin, Ornas va o'zlari bilmagan yana boshqa shaharlar borligi haqida yozgan.

Plano Karpiniga ko'ra, O'rta Osiyoda ulkan tog' tizmalari mavjud bo'lib, ular janubdan Ierusalim va Baldax (Balx?) gacha tutashib ketgan. Bu kabi noaniq ma'lumotlar Karpinining hisobotida ko'p uchraydi, uning ma'lumotlarida ilmiylik bo'lmasada, ammo Yevropa faniga O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlari haqida ma'lumot bergani bilan qimmatlidir. Sayohatnomasiga ilova tarzida karta ham tuzgan, lekin u yo'qolgan bo'lsa kerak.

Ikkinchi bir elchi **Vilgelm de Rubruk** (Rubrukvis) mo'g'ullar davlatiga fransuz qiroli Lyudovik IX tomonidan jo'natilgan bo'lib, o'sha davrda fransuzlar oltinchi salib yurishida ishtirok etishayotgan edi. Rubruk Akradan 1252 yilning bahorida yo'lga chiqib, dengiz orqali Konstantinopolga keladi. Ammo bu yerda u 1253 yilning mayigacha qolib ketadi.

Shundan so'ng u Qrimga keladi. Uning sayohat yo'nalishi Karpinikiga juda o'xshaydi. Itil daryosidan Ural daryosigacha yo'l bosib, Sirdaryo havzasiga keladi va bu yerdan janubi-sharqqa yo'l oladi. Yetti kun davomida tog' yo'llaridan, ehtimol Olatovning shimoli-g'arbiy qismidan o'tib, Talas daryosi vodiysi va Kenchat shahriga yetib keladi. Bu haqda Rubruk shunday yozadi: „*Men ushbu tog'lar haqida so'rab, uning Kavkaz tog'larining davomi ekanligini bildim. U g'arb va sharqdan Kaspiy dengizi bilan tutashgan. Itil daryosi quyiluvchi ushbu dengizdan o'tganimizni ham bildim*“. Rubruk bu yerda antik geograflar fikriga qo'shilib, Tyanshanni Kavkaz tog'lari bilan bog'lab, Olatovni Kavkaz tog'larining davomi. deya xato fikr yuritgan.

Ammo Rubrukning Markaziy Osiyo haqidagi boshqa geografik ma'lumotlari qimmatlidir. Masalan, Talas vodiysidagi sug'orish inshootlari va dehqonchilik madaniyati haqida yozib, quyidagilarni ta'kidlaydi: „*Tog'dan (Talas tizmalaridan) katta daryo (Talas)*

boshlanadi, u butun mamlakatni suv bilan ta'minlaydi... Bu daryo hech qanday dengizga quyilmaydi, yerga singib, ko'p botqoqliklarni paydo qiladi“.

Rubrukning Kaspiy dengizi haqidagi ma'lumotlari ham qiziqarlidir: „*Dengiz uch tomonidan tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, shimoliy qismi tekisliklarga tutashgan... Dengizni 4 oyda aylanib chiqish mumkin. ...U okeanga tutashuvchi ko'rfaz emas yoki hech bir yeri okeanga tutashmaydi. Hamma tomoni quruqlik bilan chegaradosh*“.

Rubruk Yevropa adabiyotida ilk bor Markaziy Osiyo relefining xususiyatlarini tog'lar bilan bog'lab ochib berdi. Ma'lumotlari shunisi bilan ahamiyatliki, u o'zi ko'rgan narsalari haqida yozgan.

G'arbiy yevropaliklar Osiyoga faqatgina diplomatik yoki missionerlik maqsadlarida emas, balki savdo-sotiq manfaatlari nuqtai nazaridan ham sayohat qilganlar.

1295 yilda venesiyalik sayyoh **Marko Polo** Osiyoga qilgan sayohatini o'zining „Dunyoning rang-barangligi haqidagi kitob“ (qisqacha Marko Polo „Kitob“i) deb nomlangan asarida yozib qoldirgan.

1271-1272 yillarda Marko Polo savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish maqsadida Qoraqurumga yo'l oladi. U va sheriklari Akra-Mosul-Bag'dod-Basra-Ho'rmuz-Kirmon-Sabzavor-Balx-Qoshg'ar yo'nalishi bo'yicha Qoraqurumga Xubilayxon huzuriga kelishadi. Marko Polo bir necha yil uning saroyida xizmatda bo'ladi va 1294-1295 yillarda yana Ho'rmuz-Kirmon-Tabriz-Tarabzun orqali o'z yurtiga qaytadi.

Marko Poloning „Kitob“ida O'rta Osiyo shaharlari va geografik manzillari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Kitobning IV bo'limida Marko Polo sahrolar osha Buxoroga yetib kelganliklari va shahar haqida yozadi: „...*Shahar katta, ulug'vor. Butun mamlakat ham Buxoro deb ataladi. U yerda Baroq podsholik qiladi. Persiya (Eron) ga qaraganda Buxoro juda yaxshi shahar hisoblanadi*“. Amudaryoni Marko Polo Jon va Geyjon nomlari bilan tilga oladi va uni Gleveshelan dengiziga quyilishini

yozadi. Undan boshqa bir dengizgacha borish uchun 12 kun kerak bo‘ladi, deganida Orol dengizini nazarda tutgan, deb aytish mushkul. Chunki uning g‘arb yoki sharqda ekanligi yozilmagan.

Marko Polo o‘z kitobida Samarqand shahri haqida ham qimmatli ma‘lumotlar bergan.

XIV-XVI asrlarda Marko Poloning „Kitob“i Yevropa kartograflari uchun manba sifatida xizmat qildi. Uning Markaziy Osiyo haqidagi geografik ma‘lumotlari 1320 yilda tuzilgan Petr Viskonti, 1375 yildagi Katalon va 1459 yilgi Fra Mauroning doiraviy kartalarida o‘z aksini topdi.

XVI asrda ingliz savdogari **Antoni Jenkinson** tomonidan tuzilgan karta ham qimmatlidir. U 1562 yilda Londonda chop etilgan bo‘lib, „Jenkinsonning 1562 yilgi Rossiya kartasi“ deb nomlangan. Jenkinson O‘rta Osiyoga 1558-1599 yillarda kelgan bo‘lib, uning yo‘li Mang‘ishloq yarim orolidan boshlangan; so‘ngra Xivaga, u yerdan esa Buxoroga kelgan. Jenkinson o‘zi o‘tgan yo‘llar haqida yozma hisobot qoldirgan va bir qancha joylarning geografik kengliklarini aniqlagan.

Jenkinson kartasidagi izohli yozuvlar ham e‘tiborga loyiq. Kartadagi Samarqand shahri yaqinida quyidagi ma‘lumot keltirilgan: „*Samarqand Tatariyaning doimiy poytaxti bo‘lib kelgan; hozirda u xarob, qadimgi vayronalar bilan qorishgan bir holda. U yerda Temur dafn etilgan bo‘lib, u o‘z davrida turk imperatori Boyazidni asirga olgan edi*“. Ushbu matndan bilishimiz mumkinki, Jenkinson Tatariya deb O‘rta Osiyoni tushungan.

Yevropada XVI asrdagi flamand kartografiya maktabining yirik vakili **Abraxam Orteliyning**(1527-1598 yillar) kartalar tuzish sohasidagi ishlari ham diqqatga sazovordir. U XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon savdo markazlaridan biriga aylangan Antverpen shahrida ijod qildi.

1570 yilida Orteliy o‘zining 70 kartadan iborat dunyo atlasini chop qildiradi. Orteliy tuzgan atlasning 27-kartasi „Alexandri Magni Macedonis expedito“ („Buyuk Aleksandr Makedonskiyning yurishlari“) deb nomlanib, unda Aleksandr Makedonskiyning

harbiy yurishlari natijasida uning mustamlakasiga aylangan mamlakatlar aks ettirilgan. Kartada O'rtasiyo hududi ham aks ettirilgan bo'lib, hozirgi Samarqand eski nomi Marakand deb ko'rsatilgan, Oks va Yaksart daryolarining Kaspiyga quyilishi berilgan. Orol dengizi umuman ko'rsatilmagan. Karta rasmlar va Aleksandr Makedonskiyning tangalari bilan bezatilgan.

Orteliyning yana bir kartasi Tatariya deb atalib, uning hajmi 35x47 sm. bo'lib, O'rtasiyo hududida Orol dengizi ko'rsatilmagan. Faqatgina Kaspiy dengizi (Mae Saspium, et Hyrcanum) dumaloqroq, kengroq shaklda berilgan. Sharq tomondan unga Sirdaryo (kartada — Chesel-Qizil) va janubdan Amudaryo (Abiamu) quyilgan. Amudaryoning o'ng tomonidan unga quyiluvchi va kartada nomlanmagan irmog'i bo'yida Samarqand shahri bo'lib, unda shunday yozuvlar bor: „Samarkand Magni Tamber quonda sedes“ („Samarqand buyuk Temurning taxti joylashgan shahar“). Har holda XVI asrning ikkinchi yarmida ham Temur shaxsi yevropaliklarning diqqat markazida turganligini ushbu ma'lumotdan ham bilishimiz mumkin.

1664-1665 yillarda Moskvaga gollandiyalik **Nikolay Vitsen** (1641-1717 yillar) tashrif buyuradi. U keyinroq Amsterdam burgomistri bo'lgan. Nikolay Vitsen XVII asrning 70-yillarida Moskvada yashovchi gollandlar bilan o'rnatgan mustahkam aloqasi natijasida Tatariyaning ilk kartasini yaratishga kirishadi. Kartada Orol dengizi (More Sieneie) juda kichik shaklda tasvirlangan bo'lib sharqdan unga nomsiz bir daryo quyilgan. Sirdaryo esa yuqorida tasvirlangan bo'lib, uning janubida yana bir kichik daryo hosil bo'lib, uning bo'yida Taskun (Toshkent) va Nesaph (Nasaf) shaharlari ko'rsatilgan. Oroldan shimoli-g'arbga tomon ikki daryo: sharqqa tomon nomsiz daryo va uning bo'yida Samarqand, ikkinchisi esa Arsan daryosi (Arsan flu).

1685 yilda Dansigda tug'ilgan va sharq tillarini yaxshi bilgan doktor **Daniil Gotlib Messersmidt** Pyotr I tomonidan 1716 yilda ruslar xizmatiga taklif etilgan. Maxsus shartnomaga ko'ra

D.G.Messersmidt Sibirga 7 yillik ekspeditsiyaga jo'natiladi. Unga ushbu hududlarni o'rganish vazifasi yuklatiladi.

1720-1727 yillarda Sibir va Uralda tadqiqotlar olib borgan bu olim shartnomada ko'rsatilgan barcha vazifalarni hatto nozik jihatlarigacha aniq bajaradi. Unga bir muncha vaqt asirlikda yurgan shved zobiti **Tabbert** (ruslar asirligidan Shvesiyaga qaytgach, Stralenberg nomi bilan mashhur) yordam bergan. D.G.Messersmidt O'rta Osiyoda bo'lmagan bo'lsa-da, uning kundaligidan Buxoro va Turkiston shaharlarining kartografik planlari topilgan. Planlarning birida Buxoro shahri to'g'ri uchburchak shaklida aks ettirilgan. Unda bozor, madrasa va ark asosiy o'rin egallagan. Turkiston shahri esa planda aniq proporsiyasi buzilgan shaklda berilgan. Ko'plab ko'chalar, karvonsaroy va suv saqlovchi quduqlar ham aks ettirilgan.

D.G.Messersmidt bilan birga sayohat qilgan **F.I.Stralenberg** 1730 yilda Leypsigda nashr etgan kitobiga Rossiya kartasini ham ilova qilgan bo'lib, bu karta ham o'sha yili Stokgolmda nashr etilgan. U F.I.Stralenberg Rossiyadan o'z.vataniga qaytgach, 1721 yilda chizib tugatilgan edi. F.I.Stralenberg kartasidagi ko'plab nomlar O'rta asr arab va O'rta Osiyo mualliflarining manbalaridan olingan. Masalan, birgina Sirdaryo daryosi Tanais, Yaksart, Sayhun va Sir nomlari bilan tasvirlangan. F.I.Stralenberg kartada Amudaryodan Isfaratog' tog'larigacha bo'lgan hududlarni „Uzbekiya“ („O'zbekiston“) deb ko'rsatgan.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tarixi uchun 1728 yilda golland kartografi **Abraxam Maas** tomonidan Sankt-Peterburgda tuzilgan qo'lyozma karta ancha qimmatli hisoblanadi. Karta „Kaspiy dengizi va atrofidagi manzillar, shuningdek, o'zbeklar mamlakatining ...yangi kartasi“ deb nomlangan. Kartani yaratishda Maas 1723 yilgi rus elchiligining sharqiy mamlakatlarga sayohati davomida tuzilgan katta shakldagi rus kartasidan foydalanganligini yozgan. Abraxam Maas qo'lyozma kartasi asosida 1735 yilda „Kaspiy dengizi va o'zbeklar mamlakati“ deb nomlangan karta yaratgan. Ushbu karta 1735 yilda Nyurnberg shahridagi mashhur

„Homannische Erben“ („Goman merosi“) nashriyoti tomonidan chop etilgan.

O'sha davrda G'arbiy yevropaliklar tomonidan nashr qilingan O'rta Osiyo kartalari ichida **Iogann Mattias Xazning** „Rossiya imperiyasi va umum Tatariya“ kartasi ham ancha ahamiyatlidir. Bu karta 1739 yilda chop qilingan. Kartada Darg'on-ota (Amudaryoda)dan Chu daryosi va Jung'oriyagacha bo'lgan hududlar yirik harflar bilan „Usbek“ („o'zbek“) degan etnotoponim ostida berilgan.

XIX asrning 40-yillarida nemis olimi **A.Gumboldt** tomonidan „Markaziy Osiyoning tog' tizmalari va vulqonlari“ nomli kartasi yaratildi. Karta A.Gumboldtning „Markaziy Osiyo“ nomli kitobiga ilova qilingan edi. A.Gumboldtning kartasida O'rta Osiyo hududlarini butunligicha aks ettirilgan.

XIX asr o'rtalarida ingliz olimi **Genri Yul** Amudaryoning yuqori oqimini tadqiq etish maqsadida ushbu hududga keladi. Sayohati va tadqiqotlari natijasida o'z kitobi va kartasini yaratadi. Muallif avvalo XIX asrgacha o'tgan barcha sayohatchi va tadqiqotchilarning Amudaryo, uning yuqori oqimiga qilgan sayohatlari tarixini batafsil yoritib bergan.

1877 yilda Berlinda nemis olimi **Fridrix Ferdinand fon Rixtgofenning** Xitoyga bag'ishlangan to'rt jildli monografiyasi e'lon qilindi. Ushbu kitobning har bir jildi ma'lum bir fan tarmog'iga bag'ishlangan bo'lib, u asosan Xitoy va unga qo'shni davlatlarning tadqiqoti bilan bog'liq holda yaratilgan. Muallif o'z monografiyasiga „Markaziy Osiyo“ kartasini ilova qilgan. Chunki kartasiz ushbu hududlar haqidagi asardagi ma'lumotlar quruq gap bo'lib qolar, yevropalik kitobxonlar o'lkaning geografik o'rni haqida sayoz tasavvurga ega bo'lib qolishlari mumkin edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida mashhur fransuz geografi va sayyohi **Elize Reklyuning** (1830-1905 yillar) „Umumiy geografiya. Zamin va odamlar“ nomli 19 jilddan iborat kitobi nashr etila boshlandi. E.Reklyu „Umumiy geografiya“sining V-X jildlari Osiyo mamlakatlariga bag'ishlangan bo'lib, VI jildida O'rta

Osiyo xonliklari haqida batafsil ma'lumot berilgan va turkman cho'llari, Xiva xonligi, Orolbo'yi hududlari aks ettirilgan kartasini ilova qilgan. Karta rangli ishlangan bo'lib, aholi punktlari aniq ko'rsatilgan. VII jildidagi „Xitoy, Yaponiya va Koreya“ kartasida esa O'rta Osiyoning Buxoro amirligi hududlari, Toshkent va Farg'ona vodiysi ham ko'rsatilgan. Bu karta ham rangli ishlangan bo'lib, amirlik hududlari, Rossiya imperiyasiga bo'ysunuvchi Turkiston viloyatlari ham chegaralab berilganligi diqqatga sazovordir.

Nemis sharqshunos professori **Vilgelm Siversning** „Osiyo“ deb nomlangan monografiyasi 1896 yilda Sankt-Peterburgda rus tilida nashr etiladi. Kitob ko'plab illyustrasiyalarga boy bo'lib, 16 ta kartani ham o'zida jamlagan. Ularning barchasida O'rta Osiyo hududlari aks ettirilgan bo'lsa-da, ular orasida „Osiyoda koloniya (mustamlaka) mulklarining o'sishi“ nomli karta ahamiyatlidir.

1894-1896 yillarda fransuz olimi **M.J. Shaffanjon** Markaziy Osiyo va Sibirga sayohat qiladi. U boshchilik qilgan ekspedisiya asosan ilmiy tadqiqotlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Ekspedisiya natijalarini Parijda 1899 yillarda kitob qilib nashr ettirgan. Muallif o'zi bosib o'tgan shaharlarni ham kartaga tushirgan. Bu ekspedisiyaning Batumidan boshlanib, Vladivostokgacha davom etgan yo'nalish kartasidir. Kartaga O'rta Osiyoning faqatgina Ashxobod, Marv, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Verniy kabi shaharlari tushgan.

XIX asr oxirlarida nemis olimi **Fridrix fon Gelvald** to'rt jilddan iborat „Zamin va uning xalqlari“ nomli asarini yaratdi. Asarning ikkinchi jildida O'rta Osiyo, aniqrog'i Rossiyaga tobe Turkiston o'lkasining geografik o'rni, aholisi, urf-odatlar haqida boy ma'lumotlar berilgan. Asarning so'ngida „Osiyo“ kartasi ilova qilingan bo'lib, unda O'rta Osiyo hududi antik davr mualliflarining kartalarida ko'rsatilgani singari juda oddiy, sxematik tarzda berilgan bo'lsa-da, Xiva, Buxoro xonliklari hududlari chegaralab ko'rsatilgan.

7. Rossiyada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy-kartografik ma'lumotlar

Rossiyada O'rta Osiyo haqida XVI asr oxirigacha to'plangan ma'lumotlar ilk geografik-kartografik hujjat — „Книга Большому Чертежу“ („Katta Chizmaga Kitob“) da o'z aksini topgan edi (1627 yil). Unda tavsiflangan jami 1500 geografik nomning 50 tasi O'rta Osiyoga tegishli ekanligi ham o'sha davrda O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar Rossiya siyosiy va ilmiy doiralarini qiziqtirganligini ko'rsatadi.

Mashhur rus kartografi **Semyon Remezov** 1683-1685 yillar orasida yaratgan ancha mukammal Sibir „Chizmasi“da ham O'rta Osiyoga doir ma'lumotlarni tasvirlashda asosan „Книга Большому Чертежу“ dan foydalangan.

XVIII asr boshlariga kelib Rossiya O'rta Osiyo hududlarida o'zining mavqeini mustahkamlashga intildi. Bu hududlarda joylashgan xonliklar Rossiya imperiyasining Hindistonga kirib borishida qo'ningoh vazifasini o'tashi kerak edi. Bu davrda Hindistonga O'rta Osiyo orqali yaqin yo'l qidirilishi rus geografik hamda kartografik tadqiqotlarining asosiy vazifasi bo'lib turardi. Bu vazifani bajarishda **Pyotr I** ning faoliyati asosiy hal qiluvchi o'rin egalladi.

1714 yilda Pyotr I Kaspiy dengiziga poruchik knyaz **Bekovich-Cherkasskiy**ni jo'natadi va unga bu yerdan Xivaga borish topshirig'i yuklatildi.

1715 yilning aprelida Bekovich-Cherkasskiy Kaspiyning sharqiy qirg'oqlariga yetib keladi. O'rta Osiyo va Kaspiy dengizining ilmiy kartalarini tuzish aynan 1715 yildagi Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasiga tegishlidir.

1720 yilda Rossiyada Kaspiy dengizining birinchi bosma kartasi chop etildi. Unda dengizning sharqiy sohillaridagi ko'rfazlar noto'g'ri aks ettirilgan edi. Ushbu karta 1719 yilda **F.I. Soymonov**ning dengizning g'arbiy va janubiy qismlarida olib borgan kartografik suratga olish ishlari orqali amalga oshirilgan bo'lsa-

da, avval Bekovich-Cherkasskiy tomonidan aks ettirilgan ko'rfazlar kartada berilmagan edi.

XVIII asrning birinchi yarmidagi eng katta va muhim ilmiy samara bergan sayohat **Dmitriy Gladishev** va **Ivan Muravin**larning 1740-1741 yillardagi Xiva sayohatidir. Bu sayohat hisobotining to'la matni va kartasini 1850 yildagina mashhur sharqshunos Ya.Xanikov nashr ettirgan.

1752 yilda esa **I.Krasilnikovga** mavjud manbalar asosida Orenburg guberniyasining yangi bosh va 10 ta maxsus kartasini tuzish topshirig'i berilgan. I.Krasilnikov tuzgan kartalarning ikkitasi O'rta Osiyo hududlari haqida ma'lumot beradi.

Keyinroq rus harbiysi, general-mayor **Yakov Bouver**, XVIII asr oxirida polkovnik **Ivan Lyutovlar** ham O'rta Osiyoga oid kartalarini yaratganlar.

1794-1795 yillarda Timofey Burnashev bilan birga Aleksey Beznosikov Buxoroga tashrif buyurishib, o'lka haqida boy ma'lumotlar yig'ishdi. Aleksey Beznosikov esa O'rta Osiyoga doir to'rta karta tuzgan.

XVIII asrning oxirlarida, aniqrog'i, 1799 yilda Rossiyada Kartalar Deposi tashkil etildi. Bu muassasaning asosiy vazifasi Rossiya va unga tutash O'rta Osiyo hududlarining harbiy-topografik kartalarini tuzish va to'plashdan iborat edi.

1812 yilga kelib, Kartalar Deposi — Harbiy-topografik Depo deb qayta nomlandi va uning faoliyat doirasi ancha kengaytirildi. Depo Harbiy vazirlikka bo'ysunar edi.

XIX asrda Rossiya imperiyasining o'sib borayotgan paxtani qayta ishlash, ip-gazlama sanoati uchun xom ashyo bozorlari va ulkan hududlar kerak edi. Shu sababli rus hukumati O'rta Osiyo bilan savdo va diplomatik aloqalarni mustahkamlash yo'llarini qidira boshladi.

Ana shunday ulkan siyosiy, harbiy hamda iqtisodiy manfaatlarni qondirish maqsadi rus hukumatining O'rta Osiyo hududida kartografik izlanishlar olib borishini tezlashtirdi. O'lkaning Rossiyaga chegaradosh hamda ruslarga noma'lum bo'lgan qismlariga

jo'natilgan missiyalarning bosh maqsadi — bu yerlar haqida mukammal ma'lumot beruvchi kartalarni yaratish edi.

O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy va markaziy qismlari haqida ilk ma'lumotlarni 1819 yilda Rossiya harbiylarining topshirig'i bilan Krasnovodskdan Xivagacha sayohat qilgan kapitan **N.Muravyov** bergan. Uning elchiligining asosiy vazifasi turkmanlar bilan aloqa o'rnatish va ularning hududlaridan Xiva, Buxoro va Shimoliy Hindistonga savdo yo'llarini ochishga qaratilgan edi.

N.Muravyov avvalo Kaspiy dengizini ko'zdan kechirib, uning janubi-sharqiy qirg'oqlarini tasvirga tushirdi va Xivaga sayohat qildi. 1822 yilda o'z sayohati natijalarini nashr ettirib, unda O'rta Osiyo tabiati haqida bir qator qimmatli ma'lumotlar beradi. 1821 yilda N.Muravyov yana O'rta Osiyoga tashrif buyuradi hamda Krasnovodsk va Balxan qo'ltiqlarida tadqiqotlar olib boradi. Ushbu hududlarning mukammal kartasi yaratildi.

1820-1821 yillarda Buxoroga **A.Negri** boshchiligidagi rus elchilari tashrif buyuradi. Unda Bosh shtab zobitlaridan **G.K.Meyendorf**, **V.D.Volxovskiy**, **A.K.Timofeyev**, tabiatshunos **X.Pander** va sayyoh **E.A.Eversmann** ishtirok etgan. Ekspedisiya natijasida 50 verstli masshtabdagi karta yaratildi hamda 5 astronomik nuqta belgilandi (shu jumladan Buxoro shahrining koordinatalari ham). Karta ilk bor sayohat tavsifi bilan 1826 yili Parijda **K.Meyendorf** tomonidan nashr ettirilgan.

1833 yildan 1846 yilga qadar Orenburg o'lkasi va unga tutash O'rta Osiyo hududlarida qator tadqiqotchilar ish olib bordilar. Ularning faoliyati asosan O'rta Osiyoning shimoliy hududlari va Xiva, Buxoro davlatlarining ma'lum qismini qamrab olgan edi. Kartografik tasvirga olish ishlari harbiy qismlarda harbiy topograflar tomonidan olib borildi. 1841-1855 yillarda Orol dengizidan shimolga va shimoli-sharqqa tomon yo'nalishda va Sirdaryoning quyi oqimlarida alohida manzillar va yo'nalishlar turli masshtabli tasvirga olindi.

Ular orasida o'sha davrning tarixiy-kartografik ma'lumotlarini o'zida to'plagan tadqiqotchi **Ya.V. Xanikov** hisoblanadi. U 12 yil

davomida O'rta Osiyoning shimoli-g'arbiy tumanlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ib, aholi manzillarining to'la jadvalini tuzdi. Jadval astronomik aniqliklar va Xiva xonligiga tashrif buyurgan sayohatchilar ma'lumotlari asosida tuzilgan edi.

1843 yil Xiva xonligiga polkovnik **G.I. Danilevskiy** missiyasi jo'natildi. Bu ekspeditsiyada ham topograflar ishtirok etib, Xiva xonligining kartalarini chizishgan.

1858 yilning o'zida birdaniga uchta ekspeditsiya tuzilib, sharqshunos **N.V. Xanikov** boshchiligidagi savdo ekspeditsiyasi Qoshg'ar (janubi-sharqiy Turkiston)ga va diplomatik ekspeditsiyalar Xiva hamda Buxoro xonliklariga yuboriladigan bo'ldi. Bu ekspeditsiyaga Londondagi rus harbiy agenti, O'rta Osiyoga hujum qilish siyosatining tarafdori, polkovnik **N.P. Ignatev** boshchilik qildi.

Missiyaning Xiva va Buxoroda yetti oy mobaynida olib borgan faoliyati natijasida bo'lajak asosiy janglar haqidagi batafsil harbiy kartalar ishlab chiqildi, joylarning topografik tasvirlari olindi.

XIX asrning o'rtalarida Orol dengizi bo'ylari, Sirdaryo, Amudaryo deltalarida harbiy dengizchi **A.M. Butakov** boshchiligida ekspeditsiya faol tadqiqot olib bordi. Ekspeditsiya hududning to'la topografiyasini o'rgandi, 1852 yilda esa A.M. Butakov dengizda paroxod qatnovini tashkil qiladi.

O'rta Osiyoni chor Rossiyasi istilo etgach, rus harbiylari bosib olgan hududlarni boshqarish va yangi harbiy harakatlarni olib borish hamda kartalar tuzishning markazlashgan idorasini tashkil etish maqsadida 1867 yil 25 noyabrda Turkiston Harbiy okrugi qoshida Harbiy-topografik bo'lim ochishadi. Bo'lim O'rta Osiyoning barcha mintaqalarini muntazam ravishda o'rganib, ilmiy asoslangan aniq kartalarini yaratishni boshladi. Bo'lim ochilgunga qadar 1984 ming kv. km. maydonni egallagan O'rta Osiyo hududi deyarli tadqiq etilmagan edi.

O'rta Osiyoning ma'muriy hududiy va boshqaruv manfaatlaridan kelib chiqib, suratga olish va kartalar yaratish bo'limning bosh vazifasi etib belgilandi.

XIX asrning 60-yillaridagi asosiy tadqiqotlar O'rtta Osiyo sharqidagi tog' oldi va tog'li tumanlar hududlariga qaratildi. Tyanshanning tog'li tumanlari haqida ilk ma'lumotni 1856 yilda yurtimizga kelgan **P.P. Semenov-Tyanshanskiy** berdi. Uning asosiy maqsadi Yevropa faniga hali noma'lum bo'lgan Tyanshan (Xon-Tangri) tog'lari tizimiga kiruvchi o'lkaning tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosini tekshirib, ilmiy yangilik olib kirish edi. U Tyanshanga 1856-1857 yillar orasida ikki marta safar qildi va haqiqatdan geografiya fani uchun qimmatli ma'lumotlar to'pladi. 1888 yilda O'rtta Osiyoga yana sayohat qilgan P.P.Semenov-Tyanshanskiy bu gal Kaspiyorti, Samarqand va Sirdaryo viloyati bo'ylab qator ekspeditsiyalarni amalga oshiradi.

1864-1868 yillarda Tyanshanning janubiy tumanlaridan Issiqko'lgacha sayohat qilgan **N.A. Seversov**, P.P. Semenov-Tyanshanskiyning ma'lumotlarini to'ldirdi. Ushbu hududlarning aniq ishlangan kartasi ham aynan N.A.Seversov tomonidan yaratilgan.

1858 yil aprelida N.A.Seversov Qo'qon xonligi hududlariga qilgan ekspeditsiyasi davrida asirlikka tushib qoladi. Bu haqda u alohida kitob chop qilgan bo'lib, unda Sirdaryoning quyi oqimlari aks ettirilgan karta ham berilgan.

1869 yilda janubiy Tyanshan hududlarida tadqiqot olib borgan **V.A. Kaulbars** esa Norin va Talas vodiylarida 33 punktdan ortiq manzilni taxminiy suratga oldi hamda mazkur hududlarning kartasini yaratdi.

1868 yilda markazi Samarqand shahri bo'lgan Zarafshon okrugi tashkil etilgach, O'rtta Osiyoning janubi-sharqida ham suratga olish ishlari jonlandi. Bu ishlarda **A.P. Fedchenko** ham ishtirok etdi. U ishtirok etgan ekspeditsiya 1869 yilda Samarqandga, so'ngra Kattaqo'rg'on, Jom, Shahrisabz, Mag'yon va Kishtut daralaridan o'tib, Iskandarko'lgacha bo'lgan masofani bosib o'tishdi. A.P.Fedchenko o'z ishlarining yakuniy natijalari o'laroq, instrumental suratga olishlar asosida Zarafshon vodiysi, aniqrog'i, uning janubiy qismining aniq kartasini tuzishni maqsad qilgan.

1871 yilda esa Qo‘qon xonligiga sayohat qilgan A.P.Fedchenko Janubiy Tyanshan, Farg‘ona, Oloy, Pomir geografiyasi bo‘yicha fanga boy va qiziqarli materiallar berdi. Qo‘qon xonligiga qilgan sayohati davrida to‘plangan ma‘lumotlar asosida A.P.Fedchenko ushbu hududning kartasini yaratdi. U „Qo‘qon xonligi va Amudaryoning yuqori oqimi“ deb nomlanib, unda bu davrgacha noma‘lumligicha qolgan ushbu hududlar tasviri berilgan edi.

Rossiyaning o‘lkani harbiy yo‘l bilan zabt etish harakatlari aks ettirilgan harbiy kartalar XIX asrning ikkinchi yarmida eng ko‘p yaratilgan bo‘lib, chor ma‘muriyati shu yo‘l bilan O‘rta Osiyo hududlari haqida yaxshiroq tasavvur hosil qilib borgan. Masalan, Rossiya imperiyasi harbiylarining o‘lkadagi istilochilik harakatlariga rahbarlik qilgan M.A.Terentev, N.I.Grodekov, V.N.Zaysevlarning asarlarida harbiy kartalar ilova qilingan.

M.A. Terentevning „Karti i plani k istorii zavoyevaniya Sredney Azii“ kitobidagi jami 23 ta kartaning barchasi O‘rta Osiyoning istilo etilishi bilan bog‘liq harbiy-tarixiy kartalardir.

Xivaning egallanishiga doir asar muallifi, rus harbiysi **N.I. Grodekov** o‘z kitobiga ushbu hududlarning kartasini ilova qilgan bo‘lib, unda Kaspiy dengizidan sharqda joylashgan Xiva mulklari batafsil aks ettirilgan.

1897 yilda Toshkentda Rus Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi tashkil etildi. Bo‘lim o‘lkaning geografik tadqiqotlari bilan birga kartalar tuzish ishlari bilan ham shug‘ullangan.

Yuqoridagi ekspedisiyalar faqat ilmiy muammolarni hal qilibgina qolmay, balki o‘z kartografik ma‘lumotlari bilan Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatiga yordam ham berganlar.

8. O‘rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari

Xorazmiy. O‘rta asrlarda zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma VIII-IX asrlarda yashab ijod etgan Muhammad Muso al-Xorazmiyning kartografik tadqiqotlari qimmatlidir. Al-Xorazmiy

xalifa Ma'mun tashkil qilgan „Bayt-ul-hikma“ („Donishmandlar uyi“)da ham faoliyat ko'rsatgan. Xalifa Ma'mun o'sha davrda yer yuzining batafsil kartalarini tuzish to'g'risida topshiriq bergan. „Dunyo kartalari“ aslida yaxlit atlas bo'lishi kerak edi. Atlas tuzish ishi bilan 70 ga yaqin olim shug'ullangan, ularga esa Muhammad Muso al-Xorazmiy boshchilik qilgan.

Bu kartalar yig'indisi „Ma'mun dunyo kartasi“ nomi bilan ham yuritilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, uni tuzish ishlari 840 yillarga yaqin tugallangan bo'lsa kerak.

Xorazmiyning mazkur kartalar munosabati bilan 837-847 yillar oralig'ida yozilgan „Surat al-arz“ („Yer surati xaqidagi kitob“) asarida hatto Klavdiy Ptolemeyning „Geografiya“ kitobini tanqidiy tahlil qilgan. „Surat al-arz“ (arab tilida) 1926 yilda avstriyalik geograf Gans Mjick tomonidan nashr qilingan va shu asosda o'zbek tiliga o'girilib chop etilgan.

Xorazmiyning kitobi bilan birga uning to'rtta kartasi ham bizgacha yetib kelgan. Ular orasida Azov dengizi havzasi hududlari aks ettirilgan karta qimmatlidir. Ushbu karta shimolga tomon yo'nalishda berilgan bo'lib, Xorazmiygacha va undan keyingi geograflarning kartalarida ushbu dengiz janubga tomon yo'nalishda chizilgan.

Xorazmiy Nil daryosi kartasida ushbu daryo oqimini yaxshi bilishini ko'rsata olgan. Kartada iqlim chegaralari ham aks ettirilgan.

Xorazmiyning uchinchi kartasi — „Qimmatli yoqutlar oroli“ deb atalib, bunda hamma tomoni tog'lar bilan qurshalgan bir orol tasvirlangan.

Nihoyat to'rtinchi kartada dengiz qirg'oqlarining turli shakllari berilgan.

Xorazmiyning „Surat al-arz“ asari G'arb va Sharq kartograflari uchun keyingi asrlarda ham qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Undagi O'rta Osiyoga oid ma'lumotlar haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Beruniy. Mashhur qomusiy olim Beruniy kartografiya faniga ham ulkan hissa qo'shgan bo'lib, uning 10 varaqdan iborat „Tastih

as-suvar va tabtih al-quvar“ (qisqacha „Kartografiya“) asari xorazmshoh Abul Abbos Ma‘munga bag‘ishlangan. Risolada osmon globusini yasash to‘g‘risida gapirilgan. Shuningdek, geografik karta haqida bunday deyilgan: „Yer kurrasini sathga o‘tkazishda esa shahar va qishloqlarning uzunlik va kengliklarini, dengizlar, buloqlar, daryolar, qumliklar, tog‘lar, konlar, tepaliklar, qiyalik va soyliklarni bayon etadigan „Jo‘g‘rafiya“ kitobiga ehtiyoj tushadi va bu kitobdagiga qarab ularning (belgilari) ishlanadi“.

Beruniyning bizgacha etib kelgan yana bir geografik-kartografik „Qonuni Mas‘udiy“ („Al-Qonun al-Mas‘udiy fil hay‘a van nujum“ – „Astronomiya fanida Mas‘ud ismiga yozilgan qonun“) nomli yirik asari bo‘lib, uni muallif umrining oxirgi yillarida yozgan. Tadqiqotchilarning fikricha, asarining qo‘lyozma nusxalari 10 tacha bo‘lsa kerak. Asar jami 12 maqoladan iborat bo‘lib, har bir maqola bir necha bobga bo‘lingan.

5-maqolaning 9-10 boblari geografiya uchun juda muhimdir. Bu boblarda dengiz va quruqliklar chegaralanib, yetti iqlim taqsimoti hamda dunyodagi 603 joyning geografik koordinatalari berilgan. Shularga asoslanib, dunyoning geografik kartasi tuzilsa, Beruniyning yer yuzini qanday tasavvur etganligi ayon bo‘lar edi, biroq uzunlik belgilari va boshlang‘ich meridian ma‘lum bo‘lmaganligidan bunday karta tuzish bir muncha mushkuldir.

O‘ninchi bob „Shaharlarning uzunlik va kengliklarini jadvallarda ko‘rsatish haqida“ deb nomlanib, Beruniy unda shaharlarning bir-biriga nisbatan vaziyatlariga va oralaridagi masofalar taqozasiga qarab tuzatishga urinadi.

Afsuski, jadvalni tuzishda Beruniy ko‘p mehnat qilgan bo‘lsa-da, beruniyshunos olimlarning fikricha, qo‘lyozmani ko‘chirgan xattotlar raqamlar va nomlarda ba‘zi xatoga yo‘l qo‘yganlar, buning ustiga „Qonuni Mas‘udiy“ni ruscha va o‘zbekcha tarjima qilganda ham qo‘lyozmalarda yo‘l qo‘ygan xatolarga e‘tibor berilmagan. Pirovardida jadval sahifalarida talay xatolar o‘tib ketgan.

Beruniyning yana bir geografik-kartografik asari „At-tafhim“ („At-tafhim li avoili sinoat at-tanjim“ – „Nujum san‘atining avvalini

tushuntirish“) kitobi 1030 yilda ikki tilda: arab hamda forsha yozgan yirik asarlaridan biridir. Ushbu kitobga dunyo kartasi ham ilova qilingan. U kitobning barcha nusxalarida bor, ammo ularning har biri har xil. Beruniyga ko‘ra, Yer shar shaklida bo‘lib, uning yarmi ma‘lum (Sharqiy yarimshar) va yarmi noma‘lum (G‘arbiy yarimshar) bo‘lgan. Yerning shimoliy (ikki) choragidan biri quruqlik bo‘lganligidan uning *hamqutr* (diametrial qarama-qarshisidagi) choragi ham quruqlik bo‘lishini taxmin qilgan Beruniy u yerning yangi qit‘a (Amerika) ekanligini XI asr boshidayoq „Hindiston“ asarida yozib qoldirgan.

Olim o‘z asarida yer yuzasining tuzilishi, dengiz va quruqlik to‘g‘risida gapirib: „*Yerning choragi ma‘muradir. Ma‘murani g‘arb va sharq tomonidan Muhit okeani, yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonidan Muhit okeani (Atlantika va Tinch okeani) o‘rab turibdi. Bu Muhit okeani, yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo‘lish mumkin bo‘lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan ikkala yoqdan (g‘arb va sharqdan).ajratib turadi*“, — deb yozadi.

Qadimgi yunon olimlarining asarlarida, jumladan mashhur geograf Eratosfenning kitobida dunyo 7 qismga bo‘lingan va har biri „klimat“ deb atalgan. Yunon olimlarining kitoblari arab tiliga tarjima qilinganda „klimat“ so‘zi o‘rniga „iqlim“ so‘zi ishlatilgan.

Shuni unutmash kerakki, dunyoning 7 qismga bo‘linishi qadimgi yunon fanining xizmati emas, bu O‘rta Osiyo va Xurosondan chiqqan tushunchadir. Buning qisqacha tarixi Beruniyning „at-Tafhim“, „Qonuni Mas‘udiy“ va „Geodeziya“ kitoblarida bayon etilgan. Aniqrog‘i, Sharq geografiyasida dunyoning tabiati turlicha bo‘lgan qismlari „iqlim“ so‘zi bilan atalgan.

Beruniyning olamning geosentrik va geliosentrik nazariyalarini bir qatorga qo‘yishi o‘sha davrda arab olimlari o‘rtasida hukm surgan Ptolemey sistemasiga nisbatan olg‘a tashlangan kattakon qadam bo‘ldi.

Al-Balxiy. O‘rta asrlar O‘rta Osiyo kartografiyasiga doir nodir yodgorliklardan biri balxlik geograf olim Abu Zayd Ahmad ibn

Saxl al-Balxiyning (850 yilda tavallud topgan) „Islom atlası“ hisoblanadi. Sharqshunoslarning taxminlariga ko‘ra, „Islom atlası“ somoniylar davlatining alohida viloyatlarining chizma tasvirlaridan tashkil topgan. Faqatgina X asrga kelib al-Istahriy va ibn Havqal tomonidan biroz zamonaviylashtirilgan.

Mahmud Qoshg‘ariy. O‘rta Osiyoning eng sharqida – Issiqko‘l va Qoshg‘arda yashagan, umrining ko‘p yillarida „Rumdan Chingacha“ – O‘rta yer dengizi bo‘ylaridan Xitoygacha bo‘lgan mamlakatlarni kezzgan, qabilalar va ularning tilini o‘rgangan olim Mahmud Qoshg‘ariy bo‘lib, u „Devonu lug‘otit turk“ asariga doiraviy dunyo kartasini ilova qilgan.

Ushbu kartani chet el olimlaridan K.Miller va A.German, sho‘rolar davrida I.Krachkovskiy, I.Umnyakov, S.Umurzakov va boshqalar o‘rganganlar. H.Hasanov tadqiqotlari „Devonu lug‘otit turk“ga ilova qilingan dunyo kartasining muallifi ham Qoshg‘ariyning o‘zi ekanligini isbot etdi.

Qoshg‘ariy kartasi doira shaklida bo‘lib, hozirgi yarimsharga to‘g‘ri keladi. Kartaning arabcha bosma nusxasining diametri 24 sm, o‘zbekcha nusxasini 18 sm.

Najib Bakron. Xurosonlik olim Muhammad ibn Najib Bakron o‘z davrining o‘qimishli kishisi bo‘lib, geografiya, astrologiya va kartalar tuzish san‘atini puxta egallagan, tarix va tibbiyotdan xabardor olim sanalgan. 1209 yilda dunyo kartasini tuzib, unga „Jahonnoma“ asarini ilova qilgan. „Jahonnoma“ni va kartani tuzishda Najib Bakron, asosan yozma manbalardan, chunonchi: Xurdodbeh, Istahriy, Nasriddin Tusiy kitoblaridan, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisravning asarlaridan foydalangan.

Afsuski, muallifning noyob kartasi yo‘qolib ketgan. Hozir uning „Jahonnoma“ nomli sharhi izohigina mavjuddir.

„Jahonnoma“ matnida 600 tagacha joyning nomi tilga olingan, lekin kartaning o‘zida bundan ham ko‘proq bo‘lsa kerak.

Banokatiy. XIV asr boshidagi ijodiy mehnati bilan shuhrat qozongan shoir, tarixchi va geograf olim Fahriddin Abu Sulaymon Banokatiy 1317 yilda umumiy tarix va geografiyadan asar yozib

qoldirgan. Asarning to‘liq nomi „Ravzat ulul al-bob fi tavorix al-akobir va ansob“ („Ulug‘ kishilarning tarixi va nasabi bobida donishmandlar bog‘i“) deb atalib, ko‘pincha „Tarixi Banokatiy“ nomi bilan yuritiladi. Shu kitobning geografiyaga taalluqli 7-bobida Hindiston, Armaniston, Eron, Rum, Xitoy, mo‘g‘ul, arab va yahudiy yerlarining ta‘rifi berilgan. Unda iqlimlar sxemasi ham berilgani bilan ahamiyatlidir.

Hofizi Abru (1362-1431 yillar) 1414 yilda Hirot hokimi Shohruhga arabcha yozilgan geografiya kitobini taqdim qilgan. Bu „Kitob al-masolik va al-mamolik“ („Yo‘llar va mamlakatlar“) kitobi edi.

Shohruh Hofizi Abruga bu kitobni fors tiliga tarjima qilishni buyurgan. Hofizi Abru tarjima jarayonida unga o‘zining ko‘rgan-bilganlarini va boshqa kitoblardan o‘qiganlarini ham qo‘shgan, shu tarzda yangi bir asar yaratgan va unga „Zubdat at-tavorix“ („Tarixlar qaymog‘i“) deya nom bergan.

Hofizi Abruning bu asari ilmiy geografik asar bo‘lib ajoyib kartografik merosning katta ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Asarda har bir geografik matnning oxiriga surat ilova qilingan („surat“ so‘zi qadimga lug‘atlarda *chizma*, *karta*, *sxema*, *tasvir* deb tushuntirilgan).

Suratlar ichida eng qimmatlisi, shubhasiz, dunyo kartasidir. Dunyo kartasining muhim tomonlaridan biri *gradus* to‘g‘ri chizilganligidir. Kartaning o‘lchami 34-45 santimetr bo‘lib, kitoblarga ilova qilingan. Kartalar ichida bunchalik katta sharq kartasi kamdan kam uchraydi. Asarning Britaniya muzeyidagi nusxasida 46 ta nom, Toshkentdagi nusxasida esa 62 ta nom yozilgan.

Uch globus. Beruniy yerning sharsimonligiga qat‘iy ishonganligini o‘z asarlarida bir necha bor ochiq, ravshan aytgan. Beruniy sayyoramizni aniq tasavvur etish bilan birga, uning tasvirini ham yaratmoqchi bo‘lgan. U yaratgan globusning diametri nihoyatda katta bo‘lgan; u aytgan „10 cho‘zim“ taxminan 5 metr keladi. Bu globus Xorazmda yasalgan.

Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu Sharq olamidagi dastlabki globus bo'lishi bilan birga, eng birinchi bo'rtma (relefli) globus ham bo'lgan.

Ikkinchi globus haqida sharq muarrixlarining asarlarida eslatib o'tilgan, xolos.

Jumladan, Abdurazzoq Samarqandiy Samarqand observatoriyasida „yer sharining iqlimlariga ajratilgan, tog'lar, dengiz, sahrolar va hokazolarga ajratilgan tasviri“ mavjudligini yozgan.

Uchinchi globus bizgacha yetib kelgan, hozirda Samarqanddagi muzeylardan birida saqlanayotgan globus bo'lib, uning muallifi mashhur ma'rifatparvar Hoji Yusuf Mirfayozov (1842-1924 yillar) bo'ladi. O'z davrining o'qimishli olimi sifatida u Sharq va Yevropa mamlakatlarida bo'lgan. Musiqa, she'riyat, dorishunoslikdan yaxshigina xabardor bo'lgan.

U yasagan globus mahkamlangan ostlik bilan 117 sm ni, atrofi 160 sm ni, masshtabi 1 sm da 250 km ga to'g'ri keladi. Graduslari to'g'ri bo'lib, parallel va meridianlari har 15 gradusdan so'ng qora chiziqlar bilan, tropik va qutb doiralari qizil chiziqlar bilan ajratilgan.

Globusda qariyb mingga yaqin geografik nomlar tushirilgan. Ularning 90% i o'zbek, 10% i tojik tilida.

Globus keng ekvatorial belbog' bilan o'ralgan bo'lib unda 12 ta burj: Arslon, Ho'kiz, Qisqichbaqa, Chayon, Baliq va boshqalar ko'rsatilgan.

Savol va topshiriqlar

- 1. Kartografiya va tarixiy kartografiya fanlari nimani o'rganadi?*
- 2. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?*
- 3. O'rta Osiyo hududlari aks ettirilgan tarixiy kartalar haqida ma'lumot to'plang.*
- 4. O'rta Osiyo olimlarining kartografiya faniga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?*

Mavzuga doir manba

Nikola Sanson (1600-1667 yillar) asli Fransiyaning Abvil shahridan bo'lib, fransuz kartograflari maktabining asoschisi hisoblanadi. U serqirra kartograf sifatida 300 dan ziyod karta yaratgan. N.Sanson o'z faoliyatini harbiy muhandis sifatida boshlagan bo'lsa-da, biroq Galliyaning antik davri kartasini yaratib, yirik noshir Melchoch Taverniyerning e'tiboriga tushib qolganidan so'ng kartografiya sohasiga qiziqib qoladi.

1643 yillar chamasi Sanson o'z kartalarini chop eta boshlaydi. Keyinroq noshir Per Mariyette bilan hamkorlikda ishladi. Nikola Sanson dastlab Abvilda turib faoliyat yuritgan bo'lib, keyinroq Parijga ko'chib o'tadi. U yerda 1640-1643 yillarda M.Taverniyerning „Teatr“ nomli atlas uchun Italiya, Ispaniya, Germaniya, Britaniya va Fransiyaning kartalarini tuzadi.

1658 yilda Nikola Sanson tuzgan kartalarni Per Mariyette bezatgan hamda nashr etgan. Ularning har biri kartalarning yarmiga mualliflik huquqini saqlab, so'ngra alohida ham chop ettirganlar. Nikola Sanson 1665 yilda 166 ta kartadan iborat boshqa nashrni, 1666 yilda 181 kartadan, 1667 yilda to'ldirishlar bilan 200 kartadan iborat atlas chop ettirilgan. 1667 yilda ularga Gilom Sansonning 17 ta kartasi to'ldirilib nashr etilgan.

(Tooley's Dictionary of Mapmakers. Vol. 2. 2001)

III BOB.

O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA VA ANTIK DAVRDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

1. O'rta Osiyoning tosh asri manzilgohlari tarixiy geografiyasiga tavsif

Qadimgi tosh asri uch davrga bo'linadi: *ilk paleolit, o'rta paleolit va so'nggi paleolit*. O'rta Osiyodagi qadimgi tosh asri manzilgohlari va ularning madaniy qatlamlaridan topilgan ashyolarga qarab hukm chiqarilsa, bu o'lkaga odamlar juda erta kelib o'rtnasha boshlaganligini bilish mumkin.

Ilk paleolit davri manzilgohlari Seleng'ur g'ori va Ko'lbuloq makonidan topib o'rganilgan. Farg'ona vodiysining So'x tumanida joylashgan Seleng'ur g'oridan tosh qurollar va odamnikiga o'xshash suyaklar topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Seleng'ur topilmalarining yoshi 1 million yildan ziyodroqdir. Ko'lbuloq makoni hozirgi Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududida bo'lib, Chotqol tog'ining janubiy yonbag'rida, Qizil olma soyining chap sohilidagi Ko'lbuloq degan manzilda joylashgan.

Ilk paleolit davri manzilgohlariga Tyanshan etaklaridagi Onarcha (Qirg'iziston) hamda Pomir etaklaridagi Qoratov (janubiy Tojikiston) makoni ham kiradi. Bu davrda aholi asosan, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganligini topilgan har xil ashyoviy buyum va suyak qoldiqlari tasdiqlaydi.

Ilk paleolit davri odamlari kichik daryo bo'ylari va buloqlar yonida o'zlariga makon qurganlar. Iqlim issiq bo'lganligidan turarjoylarga ham ehtiyoj bo'lmagan.

O'rta paleolit davriga oid dastlabki yodgorlik Teshiktosh g'or makonidan topilgan. Bu makon Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yonbag'ridagi

Turgandaryoning Zavtashgansoy darasida joylashgan. G'or shimoli-sharqqa qaragan bo'lib, kengligi old qismida 20 metr, chuqurligi 21 metr va balandligi 9 metrdir. Teshiktosh g'orini kavlash natijasida 5 ta madaniy qatlam borligi aniqlangan. Madaniy qatlamlardan 2859 ta toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Ularning xo'jaligida ovchilikning o'rni katta bo'lgan. Teshiktoshliklar yashagan Boysun tog'lari yovvoyi mevalarga boy bo'lgani bois, aholi termachilik bilan ham shug'ullangan.

Boysundagi yana bir g'or-makonlardan biri Amir Temur g'oridir. U Teshiktosh g'oridan uzoq bo'lmagan yerda joylashgan. Bu manzilgohdan topilgan mehnat qurollari ham odamlarning ovchilik hamda termachilik asosida kun kechirishganidan guvohlik beradi.

Keyingi davrda arxeologlar Surxondaryo vodiysining turli joylaridan, xususan, To'palang daryosi bo'ylaridan o'rta paleolit davri kishilarining mehnat qurollarini topganlar. Demak, bu davr kishilari — *neandertallar* faqatgina Boysundagina yashamay, balki butun Surxon vohasiga tarqalgan ekanlar.

Farg'ona vodiysi va unga tutash tog'lik tumanlar ham ibtidoiy odamlar yashashi uchun hamma qulayliklarga ega bo'lgan. Shuning uchun vodiylar va uning tog'li tumanlarida tosh asri kishilarining makonlari uchraydi. Farg'ona shahri yaqinidagi Oloy tizma tog'larining shimoliy yonbag'ridagi So'x va Obishir bo'yidagi o'rta paleolit davri yodgorliklari shular jumlasidandir.

Qo'shni Tojikiston hududida ham o'rta paleolit davri yodgorliklari keng tarqalgan bo'lib, ulardan eng mashhurlari Og'zikipichik, Oqjar, Qora-Bura, Qayroqqum, Semiganj, Ko'xi-Piyoz, Baypazin kabilardir.

Turkmanistonda tosh asri manzilgohlari kamroq topilgan. Buni avvalo, Turkmaniston bilan O'rta Osiyoning boshqa, xususan, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston o'rtasida tabiiy sharoit jihatidan katta tafovut mavjudligi bilan izohlash mumkin. Barcha davr kishilari kabi tosh asri odamlari ham tabiiy sharoit, oziq-

ovqat va xom ashyo imkoniyati yaxshi bo'lgan joylarda istiqomat qilganlar.

Qirg'izistonda tosh asri manzilgohlarining eng mashhurlari Tosson va Georgiy Bugor makonlari sanaladi. Shuningdek, Janubiy Qirg'izistondagi Isfara daryosi vodiysidagi Xo'jag'ayr degan joydan ham o'rta tosh asri madaniyatiga mansub manzilgoh topilgan.

Janubiy Qozog'iston yerlaridan ham ilk tosh asriga oid makonlar bilan birga o'rta tosh asri yodgorliklari ham topib o'rganilgan. Ularga Qorasuv, Sari Arka, Takali, Shabakti va boshqa manzilgohlarni kiritish mumkin.

O'rta paleolit davriga kelib qadimgi odamlar O'rta Osiyoning keng hududlariga tarqala boshlaydilar. Bu davda odamlarning turmush tarzida va mehnat qurollarida yangi unsurlar paydo bo'ladi. Qurollarning turlari ko'payadi. Bu davrning ijtimoiy hayotdagi eng muhim xususiyati shundaki, bu davrda ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tila boshlandi. Hozirgi zamon odamlariga o'xshash odamlar paydo bo'lishi uchun zamin hozirlandi.

O'rta paleolit davri O'rta Osiyo hududlarida tabiiy iqlim o'ziga xos bo'lib, yozda ob-havo iliq va quruq, qishda esa sovuq va namgarchilik bo'lgan. Bu davrning o'rtalari va oxirlariga kelib shimoldan ulkan muzlikning siljib kelishi natijasida iqlim tamoman o'zgaradi. Natijada qadimgi odamlar turmush tarzida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Sovuq iqlim tufayli odamlar ko'proq g'orlarga joylasha boshladilar. Janubdagi kichik tuyoqli issiqsevar hayvonlar qirilib ketib, *shimol bug'ulari*, *mamontlar*, *ulkan ayiqlar* paydo bo'ladi. Bu esa jamoa bo'lib ovchilik qilishning paydo bo'lishiga turtki berdi.

Undan tashqari sovuq iqlim tufayli o'rta paleolit davri odamlari olovni kashf etdilar hamda sun'iy olov chiqarish va uni saqlashni o'zlashtirdilar. Bu esa mintaqamizdagi qadimgi odamlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

So'nggi paleolit bosqichi miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga olib, O'rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ortiq makonlar ochilgan. Ulardan biri Ko'lbuloq makoni Ohangaron shahridan 10-12 km. g'arbda bo'lib, Chotqol tizmasining janubiy yonbag'ridan chiqadigan Qizilolma soyining chap sohilidagi qiradir ustida joylashgan. Shuningdek, Toshkentning g'arbidagi Bo'zsuv I makoni ham so'nggi paleolit davriga oid ekanligi aniqlangan.

Samarqand shahrining markazida Siyobcha soyining o'ng sohilidan so'nggi paleolit davriga oid Samarqand makoni topib o'rganilgan. Bu manzilgoh madaniy qatlamlaridan gulxan qoldig'i, ko'mir parchalari, hayvon va o'simlik qoldiqlari topilgan. Bu topilmalar mazkur manzilgohda istiqomat qilgan kishilarning ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi.

So'nggi paleolit davriga doir makonlarga Xo'jag'or (Farg'ona vodiysi), Shug'nov (Pomir etaklari), Qorakamar (Tojikiston), Achisay (Qozog'iston) yodgorliklari kiradi. Bu davrda odamlar tog'li hududlarda yashabgina qolmay, vohalar bo'ylab ham tarqala boshladilar. Tekisliklarda daryo va ko'llar bo'ylarida joylashib, qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'linadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo bo'lib, ular ayrim urug'larni birlashtirib, urug' jamoasini tashkil etadilar.

Miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar *mezolit* (o'rta tosh) asri deb atalib, bu davrga oid yodgorliklarga Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg'ona vodiysi), Markaziy Farg'ona, Bo'zsuv, Qo'shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma, Darai sho'r (Tojikiston) kabilar kiradi.

Machay g'or – makoni Hisor tizmasining biri – Ketmonchopti tog'ining yonbag'rida Machay daryosining o'ng sohilidagi Yuqori va O'rta Machay qishloqlari oralig'ida joylashgan. G'ordan topilgan mehnat qurollari va paleontologik materiallar miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklarga mansub ekanligi aniqlangan.

Obishir I g'or – makoni Haydarkon shaharchasida 4–5 km g'arbda, Obishir V g'or-makoni esa undan 200 metrcha g'arbda joylashgan. Har ikki g'or – makondan topilgan ashyolarga asosanib, Haydarkon – So'x vohasidagi mezolit davrining ibtidoiy qabilalari *baliqchilik*, *ovchilik* va *termachilik* bilan shug'ullangan, deyish mumkin.

Mezolit davriga kelib yer yuzidagi ulkan muzliklarning chekinishi natijasida iqlim o'zgardi va u hozirgi davrdagiga ancha o'xshab qolgan edi. Muzlikning chekinishi O'rta Osiyoda haroratning ko'tarilishiga hamda hayvonot va o'simlik dunyosida ham o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Bu davrda odamlar o'q-yoyni kashf etdilar. Eng katta yutuqlardan yana biri yovvoyi hayvonlar – it, qo'y, echki kabilarning qo'lga o'rgatila boshlanib, xonakilashtirilishidir. Mezolit davriga kelib O'rta Osiyoning ba'zi joylarida termachilikdan dehqonchilikka va ovchilikdan chorvachilikka o'tishning ilk kurtaklari paydo bo'la boshladi.

O'rta Osiyo tarixida *neolit* davrining (yangi tosh asri) yuqori chegarasi miloddan avvalgi VII, quyi chegarasi V-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu davr O'rta Osiyoda uchta: Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Joytun makoni Turkmanistonning Ashxobod shahridan 25 km. shimoldagi tepalikda joylashgan bo'lib, bir necha uydan tashkil topgan. Har bir uyda 5-6 kishidan iborat oila yashagan. Joytun qishlog'ida 30 ga yaqin uy bo'lib, ularda 150-180 kishi istiqomat qilgan, degan farazlar bor. Joytunliklar miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda yashab, asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanganlar. Ularda *ona urug'i* hukm surib, xo'jalikda ayollarning mavqei baland bo'lgan.

Kaltaminor madaniyatiga oid makonlar Xorazmning sobiq Kaltaminor kanali o'zanidagi manzilgohlardan iborat. Ular ovchi va baliqchilarning qadimgi yodgorligi sanalib, Jonbos-4 nomini olgan. Bu yerda 120 nafargacha odam yashagan. Shuningdek, bu madaniyatga oid yodgorliklar quyi Zarafshon va Qashqadaryo

etaklaridagi Darvozaqir, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong‘isho‘r, Poykent makonlarini o‘z ichiga olgan.

Hisor madaniyatiga oid yodgorliklar O‘rta Osiyoning sharqiy hududlaridan, Hisor-Pomir tog‘larida topib o‘rganilgan bo‘lib, ularning umumiy soni 200 dan ziyod (Tutqovul, Soysayyod, Quyi Bulyon, Darai Sho‘r, Gaziyontepa va hokazolar). Hisor madaniyatiga oid yodgorliklar miloddan avvalgi V-III ming yilliklarga oiddir. Aholi sopol idishlar yasab, asosan *chorvachilik*, *ovchilik* va qisman *termachilik* bilan shug‘ullanganlar.

O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda neolit davri qabilalari dehqonchilikka o‘tadi. Bu ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning qaror topganligidan dalolat beradi. Tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli markaziy, shimoliy va sharqiy viloyatlardagi qabilalar ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanishda davom etdilar hamda uzoq vaqt rivojlanishdan orqada qolgan. Neolit davri muhim kashfiyotlaridan biri *kulolchilik*, *tikuvchilik* va *to‘quvchilik* bo‘ldi.

2. O‘rta Osiyoning eneolit, bronza va ilk temir davri manzilgohlari tarixiy geografiyasi

Tosh va bronza davrlari o‘rtasidagi davr *eneolit* (mis-tosh) deb ataladi. U miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiri-III ming yillikning boshlarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda mis tez eruvchanligi va egiluvchanligi tufayli xo‘jalik hayotda ustunlik qila olmadi. Ishlab chiqarishda avvalgidek tosh qurollar asosiy bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham bu davr mis tosh asri deb yuritiladi. O‘rta Osiyoning shimoli-sharq dashtlarida va Orol dengizi sohillarida ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo‘jaliklari rivojlandi. Buxoro vohasidagi Lavlakon, Beshbuloq makonlari va Zamonbobo qabristonining eng pastki qatlamlari eneolit davriga oiddir.

Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km g‘arbda joylashgan Sarazm qishlog‘i xarobasi muhim arxeologik yodgor-

likdir. U dehqonchilik qabilalarining O'rta Osiyo shimoli-sharqiga yoyilganligidan dalolat berib, qadimgi dehqonchilik aholisining geografik chegaralarini ham ko'rsatadi. Sarazm qishlog'i xarobasi 90 gektar maydonda joylashgan 10 ta tepalikdan iborat.

Shimol tomonda Qoraqum cho'li, janubi-g'arbda Kopetdog' bilan chegaralangan Turkmaniston yerlari quruq va issiq iqlimli o'lkadir. Joytun madaniyati asosida Anov I-II va Nomozgoh I-III davrlariga mansub eneolit zamoni madaniyati keng tarqalgan. Janubiy Turkmaniston hududida eneolit davriga oid ko'plab makon-tepa topilgan. Ularning asosiy qismi Ashxobodga yaqin joyda va Geoksyur vohasida (quyi Murg'ob va Tajan daryolari orasida) joylashgan. Geoksyur vohasi 8 ta qadimgi qishloqdan iborat. Olimlarning fikricha, vohada 4000-5000 kishi istiqomat qilgan. Eneolit davrida hayot kechirish uchun ancha keng hududlar o'zlashtirilgan. So'nggi eneolit davrida dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan qabilalar quyi Murg'obda ham tarqaladi. Murg'ob vodiysida kanal-ariqlar qazib, suv chiqarish imkoni bo'lgan joylarda sug'orib ekiladigan dehqonchilikning turli shakllari vujudga keladi. Bu hududlarda ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyoti darajasi yuqori bo'lgan. Sug'orma dehqonchilik va chorvachilik xo'jalikda muhim o'rin tutgan. Eneolit davri odamining eng katta ishlab chiqarish g'alabasi — irrigatsiya va sug'orish texnikasi rivoj topgan davr bo'ldi.

O'rta Osiyoda *bronza davri* miloddan avvalgi III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bronza — mis bilan qalay qotishmasidan iborat. Bu davrda dehqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosiy sohalari bo'lgan. Metalldan ishlangan qurollar qadimgi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirgani bois O'rta Osiyo cho'llarida yashagan qabilalar boshqa aholidan ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi. Chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi dastlabki mehnat taqsimotidir. Bu jarayon miloddan avvalgi II ming yillikda yuz berdi.

Janubiy Turkmanistonda bronza davriga oid madaniyat ikki bosqichga bo'linadi. Bulardan birinchisi Nomozgoh IV-V ilk va rivojlangan bronza davri bo'lib, miloddan avvalgi III ming yillikning o'rtalari-II ming yillikning birinchi yarimiga mansubdir. Yodgorliklari asosan g'arbda Qizil Arvat shahridan boshlab, sharqda Tajan daryosi va quyi Murg'ob bo'ylarigacha tarqalgan. Ikkinchisi Nomozgoh VI so'nggi bronza davri bo'lib, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmiga oiddir. Uning yodgorliklari Kopetdog' atrofi va quyi Murg'ob vohasida joylashgan. So'nggi bronza davrida Janubiy Turkmanistonning turli hududlariga O'rta Osiyoning shimoliy dashtlaridan kelib chiqqan chorvador qabilalar tarqalgan.

Surxondaryo, Zarafshon vohasi va Xorazmda ham bronza davri yodgorliklari topilgan. Surxondaryo issiq iqlimli o'lka bo'lib, shimol, shimoli-g'arb va sharqda Hisor, Ko'hitog', Bobotog', janubda Amudaryo bilan chegaralangan. Qadimgi sug'orish yerlari tog' tizmalariga yaqin joylashgan. Bu hududdan Sopollitepa, Jarqo'ton manzilgohlari topib o'rganilgan.

Quyi Zarafshonning bronza davri yodgorliklari Zamonbobo ko'li yaqinidan topilgan bo'lib, Zamonbobo madaniyati nom bilan ataladi. Zamonboboliklar chaylasimon kulbalarda istiqomat qilib, *dehqonchilik* va *xonaki chorvachilik* bilan shug'ullanganlar. Shuningdek, hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan, kulolchilik, bronzani eritib, har xil ashyolar yasash va toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

Bronza davriga oid yana 50 dan ziyod yodgorliklar Xorazmdan topilgan bo'lib, ular *Tozabog'yob madaniyati* nomi bilan ataladi. Shuningdek, Xorazmdagi so'nggi bronza davriga oid yodgorliklar Amirobod madaniyati nomi bilan mashhur bo'lib, miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga oiddir.

O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi buyumlar miloddan avvalgi IX-VIII asrlar oid bo'lsa-da, ulardan ko'pi miloddan avvalgi VII-VI asrlar bilan sanalashtirilgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklardan Janubiy Turkmanistonda

46 ta qadimiy qishloq xarobasi ma'lum, bunday xaroba Surxondaryoda 8 ta, Qashqadaryoda 7 ta topilgan. Quyi Murg'obda Yoztepa, Arvalitepa, Ko'hnatepa, Uchtepa, Surxondaryodagi Kuchuktepa, Bandixon I va Qiziltepa, Qashqadaryodagi Yerqo'rg'on, Chiroqchitepa va Sangirtepa ham shunday xarobalar sirasiga kiradi. Yodgorliklarning eng qadimgi madaniy qatlamlari *temir asriga* o'tish davriga xosdir.

Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida Farg'ona vodiysida Chust madaniyati rivojlanadi. Namangan, Andijon va O'sh (Qirg'iziston) viloyatlarida ko'plab qadimgi makonlar topib o'rganilgan. Chust, Dalvarzin, Ashkoltepa, Boztepa, Chimboy va boshqalar shular jumlasidandir.

Temir qurollarning keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu jarayon yanada rivoj topgan ishlab chiqarish usuliga o'tilishiga zamin hozirladi. Urug' jamoasi o'rnini hududiy qo'shnichilik jamoasi egallay boshladi.

3. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari va davlat birlashmalari

O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi qabilalar uyushmalari haqida aniq fikrlar mavjud emas. Shunday bo'lsa-da, miloddan avvalgi VI-V asrlarda o'lkamizda istiqomat qilgan yirik qabila uyushmalarining joylashgan hududlarini aniqlash imkoni bo'lgan.

Ulardan eng yirigi **sak** qabilalari bo'lib, ular uchta qabilaviy birlashmadan tashkil topgan: *xaumavarka saklari*, *tigraxauda saklari* va *tiaytaradaraya saklari*.

Xaumavarka saklari asosan O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lgan.

Yirik qabilalardan yana biri tigraxauda saklari (o'tkir bosh kiyimli saklar) bo'lgan. Antik davr tarixchilari tigraxauda saklarini massagetlar bilan ham tenglashtirganlar. Bu qabila birlashmasi miloddan avvalgi VI-V asrlarda G'arbiy Osiyoning

juda katta hududida: Amudaryoning quyi oqimlaridan hamda Sirdaryoning o'rtta va quyi oqimlaridan to Orol dengizining shimoligacha bo'lgan bepoyon cho'llarda ko'chib yurganlar (sak-massagetlarning asosiy qismi dastavval Orol dengizining janubi-sharqida, Oks (Amudaryo) va Yaksart daryolarining oralig'ida joylashgan bo'lgan). Miloddan avvalgi IV-III asrlarda ularning hududi birmuncha kengayib, Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohillaridan to Qozog'istonning markaziy mintaqalarigacha bo'lgan katta kengliklarda ko'chib yurganlar. Antik davr muallifi Strabon o'zidan oldingi tarixchilarning asarlaridan foydalanib: „*Kaspiy dengizidan boshlab ko'pchilik saklar dayl deb ataladi, bulardan sharqda yashovchi qabilalar massagetlar va saklar deb nomlangan, qolganlari esa umumiy nom bilan skiflar deb atalgan*“, — deb yozgan. Strabon bu axborotida sak-massagetlarning hududi naqadar keng bo'lganligi bilan bir vaqtda ularning jamoa hayotini ham tasvirlab, bir qancha qabilalar va qabila ittifoqlaridan yirik etnik uyushma tuzilganligini ham aniq ko'rsatadi. O'sha davrlarda massaget saklari yirik qabila uyushmasi bo'lib, tarkibiga bir necha qabila uyushmalari, jumladan, *dahlar, derbeklar, sakaruklar, apasiaklar, assiylar, augallar* va boshqalar kirgan.

Tiaytaradaraya (dengiz orqasida, dengizning nari tomonida yashovchi) saklari ham qadimgi yirik qabila birlashmalaridan sanalgan. Bu saklarning kelib chiqishi asli Kaspiy dengizining shimolida, Ural tog'oldi mintaqalarida yashovchi massaget qabilalaridan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Saklar xo'jaligida *chorvachilik* katta o'rin tutgan. Bu qabilalar qoramol, mayda chorva hamda otlarni ko'paytirganlar. Yillar davomida chorvadorlar yangi yem-xashak maydoni topish uchun harakat qilganlar, o'troq hayot ular uchun muhim sanalmagan.

Dashtlar, sahrolar va Amudaryo bo'ylarida massaget qabilalari yashaganlar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi VI –IV asrlardagi o‘troq aholi va ko‘chmanchi sak, massaget qabilalari O‘rta Osiyo aholisining keyingi asrlardagi etnik taraqqiyotiga zamin tayyorlab bergan.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayoni ahamoniylargacha bo‘lgan davrda deb hisoblaydilar. Ilmiy adabiyotlar O‘rta Osiyoda ahamoniylargacha bo‘lgan davrda *quyidagi davlat uyushmalari haqida so‘z yuritadi:*

Aryoshayyona – O‘rta Osiyodagi qadimgi viloyatlar uyushmasi.

Aryonamvayjo. „Katta Xorazm“ yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati.

Qadimgi Baqtriya davlati.

O‘rta Osiyoning janubida joylashgan o‘nlab yangi tipdagi vohadavlatlar so‘nggi bronza va ilk temir davrida ba‘zan yirik siyosiy birlashmalar – podsholiklarga birlashar edi. O‘rta Osiyo janubida bular Baqtriya va „Katta Xorazm“ edi. Yirik podsholiklarning tashkil topishida ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari tashqi sub‘ektiv omillar ham muayyan o‘rin tutgan. Mazkur omillardan biri Mesopotamiyaning urushqoq davlatlari – Midiya, Ossuriya, Mitaniya tomonidan solingan xavf edi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar asosida ushba ro‘yxatga Sug‘diyoni ham kiritish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ba‘zi tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, ahamoniylardan oldin xorazmliklar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo‘nalishda, Kopetdog‘ yonbag‘irlarida joylashganlar. Xorazm davlatining markazi Marv va Hirot atrofida bo‘lib, bu davlatni forslar egallaganlaridan so‘ng xorazmliklar quyi Amudaryo – hozirgi Xorazm viloyatiga ko‘chib borganlar deb faraz qilingan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, miloddan avvalgi VI asrda qadimgi forslar xorazmliklarni janubdan quyi Amudaryo yerlariga siqib chiqarganlar.

S.Tolstov, Ya.G‘ulomovlar ushbu nazariyaga qarshi bo‘lib, xorazmliklar O‘rta Osiyoning janubidan ko‘chib kelmaganlar, Xorazm davlati quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq

vujudga kelgan, deb xulosa qilganlar. Bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm viloyati hududidan ancha keng bo'lgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri qalin va mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Bunday markazlar atrofida ko'plab dehqonlar qo'rg'onchalari, bog'lar va dalalar joylashgan edi. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlangan. Shaharlarda savdo-sotiq qizg'in kechgan.

O'rta Osiyo hududida miloddan avvalgi VII asrda tashkil topgan eng qadimgi davlat birlashmasi Qadimgi Baqtriya davlatidir. Baqtriyaliklarning yurti Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli-sharqi, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashib, turli yozma manbalarda Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika deb tilga olingan. Bu davlat hududida hozirda Qiziltepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir va Afrosiyob shahar xarobalari topilgan. Dastlab Baqtriya tarkibiga Marg'iyona va Sug'diyona ham viloyat sifatida kirgan bo'lishi mumkin. Bu davrda aholi nisbatan zich joylashgan o'troq vohalarda dehqonchilik jadal rivojlangan. Bu vohalar hosildor tog'oldi tekisliklarida yoki daryo etaklarida joylashgan bo'lib, nisbatan dehqonchilik uchun qulay sharoitga ega bo'lgan.

Uy-qo'rg'onlar va ayrim qishloqlarda yashovchilarning asosiy mashg'ulotlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlashdan iborat bo'lgan. Yer haydab dehqonchilik qilish, anhor qazib daryolardan suv chiqarish, kanal va ariqlarni doimo tozalab turish, sun'iy sug'orish ishlarini yo'lga qo'yish, don ekish, chorva uchun xashak bo'ladigan o'simliklarni o'stirish, hayot manbai bo'lib qoladi.

Ayrim uylarning ichida maxsus ustaxonalar qoldiqlari topib tekshirilgan. Bu ustaxonalarga oila a'zolari toshdan yog'ochdan, loydan qamishdan, charmdan va teridan xo'jalikka, ro'zg'orga kerakli buyumlarni ishlab chiqarganlar. Masalan, toshdan ishlangan dehqonchilik qurollari (o'roqlar, yoruchoqlar, hovonchalar), sopol idishlar, chiroqlar, urchuq boshlari, bo'yra

va teri to'shamlari kabilar uy hunarmandchiligi mahsuloti hisoblangan. Uy hunarmandchiligi buyumlari va qurollari bilan bir qatorda shahar markazlarining hunarmandchilik ustaxonalarida sopol idishlar, metall qurollar, zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarilgan.

Qishloq jamoalari o'rtasida mahsulot ayirboshlashda "pul" vazifasini kulolchilik va temirchilik buyumlari, oziq-ovqat va chorva mahsulotlari bajargan. Qishloq jamoalarida yetishtirilgan mahsulotlarning asosiy qismi shu joyning o'zida, ya'ni ayrim jamoalar o'rtasida iste'mol qilingan. Yetishtirilgan mahsulotning ma'lum qismlarini bozorga olib borish xo'jalikda yoki ro'zg'orda maxsus qurollar (buyumlar, kiyim-kechaklar) zaruriyatidan kelib chiqqan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning turli hunar kasblariga bog'liq bo'lgani uchun mahsulotning ortiqcha qismini ayirboshlash an'anasi yanada rivojlangan. Savdo asosida an'anaviy xo'jaliklar va hunar turlari taraqqiy etgan. Bu jarayon ishlab chiqarishni jadallashtirgan.

Tashqi savdo (viloyatlar mamlakatlar o'rtasida)da pul o'lchovini xom ashyo, qimmatbaho hunarmandchilik buyumlari (metall idishlar, yaroq-aslahalar, zeb-ziynatlar), qimmatbaho tosh, oltin va kumushlar bajargan. O'rta Osiyodan boshlanadigan savdo yo'llari Qadimgi Sharq mamlakatlariga olib borgan. Shu yo'llar orqali Baqtriya tog'larida qazib chiqarilgan *lojuvard*, Xorazmda *feruza*, Sug'diyonada *oltin* va *qalay*, *yilqi* va *tuyalar* Eron, Mesopotamiya va Old Osiyo bozorlariga olib borilgan. Ktesiy xabariga ko'ra, Baqtriya *oltin* va *kumush* konlariga boy bo'lgan. Ossuriya podsholigining savdogarlari bronzadan ishlangan idishlarni, yaroq-aslahalarni oltin va kumushga almashtirganlar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi VII –VI asrlarda ilk temir davriga o'tilishi bilan O'zbekistonda dastlabki yirik davlatlar vujudga keldi, shaharlar barpo etilib, dehqonchilik, hunarmandchilik jadal sur'atlar bilan rivojlandi.

4. Ahamoniylar hukmronligi va Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi

Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalariga kelib, podshosi Kir II Bobil O'rta Osiyo hududidagi davlat (Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona va Misrni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Ahamoniylar va viloyatlarni boshqalar) va

Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont ko'ra, miloddan avvalgi 545-539 yillarda Kir II viloyatlari va O'rta Osiyodagi Xorazm, Baqtriya va o'ziga bo'ysundiradi. Lekin shuni ta'kidlash lozim Osiyoni qay tarzda bosib olganligi to'g'risida aniqlik ma'lumotlar saqlanmagan. Kir II ikkinchi yurishi mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchragan va ko'chmanchi massagetlar tomonidan tortilgan. Jangda mor etilgan. Massagetlarga To'maris boshchilik qilgan. Kir II halok bo'lgan.

Miloddan avvalgi 522 yil Doro I ahamoniylar taxtiga o'tirdi. U taxtga o'tirishi bilanoq bosib olingan ko'pgina viloyatlarda qo'zg'olonlar ko'tariladi. 522 yil oxirida Marg'iyonada ko'tarilgan Frada qo'zg'oloni Baqtriya satrapi Dodarmish tomonidan ayovsiz bostirildi. Miloddan avvalgi 519-518 yillar saklar Sog'diyonida ayovsizligida qo'zg'olon ko'taradi. Lekin bu qo'zg'olon harbiy bostiriladi.

Doro I ning saklarga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun ahamoniylar butun davlatni alohida viloyat - satrapliklarga bo'ladi. Bu so'z forscha „xshatra“ - „viloyat“ so'zidan kelib chiqqan.

Viloyat boshlig'i – satrapga cheklanmagan hokimiyat berilgan edi. Satraplarning ko'pchiligi ahamoniylar sulolasi vakillari edilar. Har bir satrap o'z viloyatining lashkarboshisi hisoblanardi. U faqat shohga bo'ysunardi. Barcha qo'shinlarga shoh qo'mondonlik qilgan.

O'rta Osiyoning bosib olingan viloyatlari uch satraplikka bo'lingan. Ular *baqtriyaliklar, egllar, saklar, kaspiyliklar, parfiyaliklar, so'g'diylar va xorazmliklarning* yerlari bo'lgan. Har bir satraplik

yillik xiroj to'lagan. Bundan tashqari qaram xalqlar saroy va haramlar qurilishiga ham safarbar etilgan. Xirojni *kumush* bilan, chorvadorlar *chorva* bilan, hunarmandlar o'z mahsuloti bilan, *kiyim, teri* bilan to'laganlar.

Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Amudaryodan o'ta boshladi. Aleksandrning jangchilari bu to'siqdan o'tib oldilar. Qo'shinlar qarshisida esa Navtaka (Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi), Maroqand turar edi.

Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Maroqandni egalladilar. Aleksandr qo'shinlarning bir qismini qoldirib, o'zi esa Qurushkat (Kiropolis) shahrini bosib olish uchun asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg'oqlari sari ketadi. Rivoyatga ko'ra, bu shaharga fors shohi Kir II asos solgan ekan.

Sug'diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga ko'tarildi. Tez orada sug'diyalarga baqtriyaliklar, sak va massagetlar qo'shiladilar. Qo'zg'olonga iste'dodli rahbar va qo'mondon **Spitamen** boshchilik qiladi.

Ancha qo'shin to'plagan Spitamen Maroqandni qurshovga oldi. Aleksandr qamalda qolganlar uchun mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Qadimda „Politimet“ deb ham atalgan Zarafshon daryosi bo'yida makedonlarga pistirma qo'ygan Spitamen dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o'zi qo'zg'olonni bostirishga o'tlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitamen qamalni to'xtatadi, o'z qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi. Saklar va massagetlarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yidagi Xo'jand yaqinida bir tayanch manzil barpo etish to'g'risida buyruq beradi. Bu qal'a Aleksandriya Esxata (Uzoq Aleksandriya) deb ataldi. Aleksandr Maroqandda garnizon - himoya kuchlarini qoldirib, asosiy qo'shinlari bilan qishlov uchun Zariasp (Baqtriya)ga jo'nadi. O'sha yilning bahorida Aleksandr qo'zg'olonni bostirish chorasini ko'radi. O'z lashkarlarini uch qismga bo'lib, Sug'diyonaning u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholining 120 ming nafarini qirib tashlaydi.

Miloddan avvalgi 328 yil kuzida Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo‘lib o‘tdi. Kuchlar teng bo‘lmaganidan Spitamen yengilib, tag‘in cho‘lga chekinadi. O‘sha yerda ko‘chmanchi qabilalar boshliqlari uni xoinlarcha o‘ldiradilar.

O‘rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urindi, biroq uncha katta bo‘lmagan hududni: Marg‘iyona, Baqtriya, Sug‘diyona va hozirgi Bekobod va Xo‘janddan iborat Sirdaryo bo‘ylarini bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg‘ona mustaqilliklaricha qoldilar.

Spitamen qo‘zg‘oloni bostirilishiga qaramay, yunon-makedon qo‘shinlari birinchi bor qator mag‘lubiyatga uchradilar.

Yunon-makedon qo‘shinlarining bosqinchilik yurishlari O‘rta Osiyo yerlarini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirilib ketdi. Ko‘plab shaharlar vayron etildi.

Yunon tarixchilarining yozishicha, makedoniyalik Aleksandr O‘rta Osiyoda 12 ta shahar qurdirgan. Bu shaharlar uning nomi bilan Oksdagi Aleksandriya, Aleksandriya Esxata, Marg‘iyona Aleksandriyasi va hokazo tarzida atalgan. Ularning ba‘zilari vayron etilgan Sug‘diyona va Baqtriya shaharlari o‘rnida, boshqalari esa tayanch qal‘a sifatida yangidan qurilgan. Bu shaharlarda yunon-makedon piyoda, otliq askarlari joylashdi. Miloddan avvalgi 324 yildan boshlab bu askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va Sug‘diyona yoshlari hisobiga to‘ldirilgan.

5. Miloddan avvalgi IV asr oxiri-milodiy IV asrning boshlarida O‘rta Osiyoning siyosiy va iqtisodiy geografiyasi

Miloddan avvalgi 323 yilda Aleksandr Makedonskiy o‘lgandan keyin makedoniyalik mahalliy zodagonlar O‘rta Osiyo xalqlarining siyosiy birligini yo‘qotish maqsadida mamlakatni mayda bo‘laklarga bo‘lib tashlaydilar.

Miloddan avvalgi 312 yilda Iskandarning sarkardalaridan biri bo‘lgan Salavkaga Bobil (Mesopotamiya) va uning sharqidagi

mamlakatlar topshiriladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, u o'zi hukmronlik qilayotgan mamlakatlarning chegaralarini kengaytirib, Sirdaryo va Hind daryosi naryog'idagi yerlarni ham egallaydi, shu tariqa **salavkiylar** sulolasini boshlab beradi.

Yunon-makedoniyaliklar harbiylarning Baqtriyada va Sug'dda bir yarim asr davom qilgan hukmronligi mahalliy aholi madaniyatini boyitishga yordam bermadi. O'sha zamondan bizga yetib kelgan juda kam miqdordagi yodgorliklar O'rta Osiyoda yunonlar ta'siri tarqalganligidan dalolat beradi.

Salavkiylarga qarshi xalq ommasining kurashi asta-sekin kuchayib borganligi natijasida miloddan avvalgi III asr o'rtalarida **Yunon-Baqtriya** davlati ajralib chiqadi. Bu davlat quldorlikka asoslangan bo'lib, salavkiylarning Baqtriyadagi vorisi Diodot tarafidan asos solingan. Markazlashgan monarxiya shaklidagi Yunon-Baqtriya davlati tepasida podsho turgan. Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hokimlar davrida (Yevtidem, Demetriy, Yevkratid) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olinadi. Davlatning poytaxti Shimoliy Afg'onistondagi Baqtro shahri edi. Davlat bir necha satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ma'lum darajada mustaqil bo'lgan. Yuksak darajadagi iqtisodi, hunarmandchiligi, shaharlari bilan mashhur bo'lgan. Ellin madaniyati va mahalliy madaniyatning qo'shilishidan o'ziga xos madaniyat yaralgan. Mahsulot-pul munosabatlari yuksak bo'lgan. Pul tizimi *kumush* va *bronz*a tangalari bo'lib, *attik* (tetra-draxma) tangalaridan iborat bo'lgan.

Miloddan avvalgi II asrning so'nggi choragi (ba'zi manbalarda aytishlaricha, miloddan avvalgi 166 yil)da Yunon-Baqtriya podsholigi *sak* va *yuechjilar* qabilalari tomonidan istilo qilingan. Yunon manbalarining yozishicha, bu davlatga turli qabilalar tomonidan barham berilgan. Xitoy manbalarida esa Yunon-Baqtriya podsholigini faqatgina yuechji qabilalari istilo qilgan deb yozilgan.

Miloddan avvalgi II asr boshlarida ko'chmanchi qabilalar **Qang'** davlatini barpo qiladilar. Ushbu davlatlar haqida ilk ma'lumot

Chjan Szyan (miloddan avvalgi 128 yil) yozma manbalarida uchraydi. Qang' davlati tarkibiga O'rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi yerlari (Baqtriyadan tashqari) kirgan.

Poytaxti Bityan shahri bo'lgan. Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, Qang' davlati aholisi 600000 kishini tashkil etgan. Qo'shindagi askarlar soni esa 120000 harbiydan iborat bo'lgan. Aholisini *qang'lar* deb yuritishgan. Qang' davlati konfederatsiya shaklida bo'lib, unga miloddan avvalgi I asr — milodiy I asrda 5 ta mustaqil mulklar kirgan. *Bu mulklar quyidagilar:*

1. Suse (Kesh, hozirgi Qashqadaryoning sharqiy qismi).
2. Fumu (Zarafshon vodiysi).
3. Yuni (Choch-Toshkent vohasi).
4. Gi (Ehtimol, Buxoro).
5. Yuegan (Urganch, Xorazm).

Bu mulklar umum Qang' davlati podshosiga bo'ysungan. Ular o'zlarining tangalarini zarb qilganlar.

Miloddan avvalgi I asr va milodiy I asrlarda Qang' davlati iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan davlat edi. Davlatning asosiy aholisi o'troq va yarim o'troq bo'lib, uning hududida ko'chmanchi chorvadorlar ham yashar edi. O'troq aholi asosan vodiya yashab, *dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik* bilan shug'ullanib kelgan.

Vohada yashovchi o'troq aholi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug'ullangan. Yozma manbalarda qang'arlarning sut-qatiqlari mo'lligi va ko'plab zotli otlari borligi alohida ta'kidlab o'tiladi. Qang'arlarning eng ashaddiy dushmanlari *usun* qabilalari edi. Miloddan avvalgi II-I asrlarda usunlar Xitoy imperatorlari bilan yaqinlashib, *xunlar* va *qang'arlar* bilan kurash boshlaydilar. Lekin qang'arlar ularni o'z hududlariga yaqin yo'latmaganlar. Milodning III asriga kelib Qang' davlati bir necha mustaqil mulklarga bo'linib, davlat sifatida barham topdi.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Xitoy manbalarida *keng, boy* va *ko'p aholili* deb eslatilgan **Dovon** davlatini tarixchilar Farg'ona deb hisoblaydilar. Bu davlat haqidagi ilk ma'lumotlar Chjan Szyan

(miloddan avvalgi 128 yil) yozma manbalarida uchraydi. Dovon, shubhasiz, Fargʻonaning xitoycha talaffuzidir. Davlatning poytaxti Ershi shahri boʻlgan. Davlatning hududlari Toshkentgacha borib, davlat boshida hukmdor turgan. Davlat boshqaruvida yoshi ulugʻ kishilarning yigʻini katta ahamiyatga ega boʻlib, ular hatto hukmdorlarni ham oʻzgartirishlari mumkin boʻlgan.

Chjan Szyan maʼlumotlariga qaraganda, Dovon aholisi bir necha yuz ming kishi boʻlib, 70 dan ortiq katta va kichik shaharlar boʻlgan.

Iqtisodda asosiy oʻrinni qishloq xoʻjaligi egallagan. Dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi aholi *arpa*, *sholi*, *beda* kabi turli ekinlar ekkanlar. Shuningdek, ular *uzumchilik* bilan ham shugʻullanganlar. Vinoni katta sopol xumlarda uzoq vaqt saqlashni ham bilganlar.

Oʻz davrida Dovon davlati “afsonaviy“ va „samoviy“ otlari bilan shuhrat qozongan. Dovon argʻumoqlari mamlakatdan tashqarida ham, ayniqsa, Xitoyda juda qadrlangan.

Miloddan avvalgi 104-102 yillarda Dovon bilan Xitoy oʻrtasida urushlar boʻlib oʻtgan. Xitoyliklar bu yerda oʻz hokimiyatlarini oʻrnatgach, qaytib ketganlar. Lekin fargʻonaliklar ular qoldirib ketgan hukmdorni agʻdarib tashlab, oʻz hokimiyatlarini oʻrnatadilar. Fargʻonaliklar Xitoyga har yili samoviy otlar berish majburiyati evaziga oʻz mustaqilliklarini saqlab qolganlar.

Miloddan avvalgi II-milodiy IV asrlarda asrlarda Oʻrta Osiyoning katta qismi, Afgʻoniston, Shimoliy Hindiston va boshqa bir qator yerlarni oʻz ichiga olgan **Kushon imperiyasi** Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Miloddan avvalgi I asrga kelib katta *yuehji* uyushmasidagi Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchayib va hududi kengayib bordi.

Podsho Vima Kadfiz davrida kushonlarga Hindistonning kattagina qismi boʻysunadigan boʻldi. Kanishka I davrida esa Kushon podsholigi oʻzining rivojlangan pallasini boshdan kechirgan. Oʻrta Osiyoda kushonlarning shimoliy chegaralari

O‘zbekiston janubidagi Hisor tog‘ tizmalaridan o‘tgan hamda tog‘li dovonda (Darband) chegara devorlari qurilgan.

Kushon davri iqtisodi haqida gap ketar ekan, uning tangalariga to‘xtalib o‘tish joizdir. Bu tangalar davlatda rivojlangan pul tartibi bo‘lganligidan darak beribgina qolmasdan, mahsulot-pul munosabatlari rivojlanganini ham ko‘rsatadi.

Kushon davlatida qishloq xo‘jaligi ham yuksak darajada bo‘lgan. Tekisliklarda sug‘orma dehqonchilik bilan birgalikda chorvachilik ham rivojlanadi.

Kushon podsholigi *teokratik davlat* bo‘lib, podsho mamlakatning bosh kohini ham hisoblangan. Podsholik satrapliklarga bo‘linib, satraplar bir muncha mustaqil siyosat olib borganlar.

6. Buyuk Ipak yo‘li: asosiy yo‘nalish va tarmoqlariga tarixiy-geografik tavsif

Qadim zamonlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, jamiyat taraqqiyotining bronza davridan ham avval hududlarni bir-biriga bog‘lovchi o‘zaro ixtisoslashgan savdo yo‘llari mavjud bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Buyuk Ipak yo‘li tashkil topmasdan avval O‘rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun turli-tuman yo‘llar mavjud bo‘lgan.

Eng qadimgi yo‘llardan biri miloddan avvalgi III-II ming yillikda vujudga kelan „**La’l yo‘li**“dir. U Pomir tog‘laridan boshlanib, Eron va Old Osiyo hamda Misr orqali o‘tgan. Pomirdan olinadigan yarim nodir *la’l toshi* (lojuvard) Qadimgi Sharq mamlakatlari zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon la’li ishlatilgan buyumlar Misr fir‘avnlari maqbaralaridan ham topilgan.

Boshqa biri Eron ahamoniylari sulolasining yo‘li bo‘lib, „**Shoh yo‘li**“ deb atalgan. U miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini, O‘rta yer dengizi bo‘yidagi Efes, Sard shaharlarini Eron poytaxtlaridan biri – Suza bilan bog‘lab turgan.

Tag'in bir yo'l Eron, Baqtriya orqali Sug'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududidan o'tgan va Oltoygacha borgan. Uning umumiy uzunligi 2400 km.ni tashkil etgan.

XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan edi. Bu yo'l miloddan avvalgi II asrda vujudga kelgan va „Buyuk meridianal yo'l“ deb atalgan. Bu yo'lga „Buyuk Ipak yo'li“ degan nom 1877 yilda nemis geografi **F.Rixtqofen** tomonidan berilgan.

Xitoy, O'rta Osiyo, Hindiston va Yaqin Sharq mamlakatlarini savdo orqali o'zaro bog'lagan, qadimgi Xitoydan O'rta Osiyo, Hindiston, Eron va Yaqin Sharq mamlakatlariga asosan ipak olib ketilganligi uchun uni *Ipak yo'li* deb atashgan. Buyuk Ipak yo'li milodiy XVI asrgacha (suv yo'llari ochilgunga qadar) Sharqni G'arb bilan bog'lab, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li haqidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi 138 yili Xitoy imperatori Udining topshirig'i bilan O'rta Osiyoga yuborilgan elchi va sayyoh Chjan Szyan sayohatnomasida uchraydi. Ipak yo'li Xuanxe (Xitoy) daryosining o'rta oqimida joylashgan Sian shahridan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan. Bu yerda u ikkiga ajralib, biri shimoli-g'arbga, ikkinchisi janubi-g'arbga yo'nalgan.

Shimoliy yo'l Turfon orqali Torim vohasiga, u yerdan Qoshg'ar, Farg'ona vodiysiga, undan keyin Sug'dning markazi Samarqandga va Marg'iyonaga (Marvga) yo'nalgan. Janubiy yo'l Xo'tan, Yorkent va Pomir tizma tog'lari orqali o'tib, Baqtriyaning poytaxti Zariaspga (Balxga) borgan. Balxda janubiy yo'l ikkiga ajralib, biri Hindistonga, ikkinchisi g'arbga yo'nalgan va Marvda shimoliy yo'l bilan tutashgan. Ipak yo'li Marvdan Parfiyaning poytaxti Niso shahri, Eronning Gekatampil, Apaliya va Ekbatana (Hamadon) shaharlari orqali Mesopotamiyaga borgan, u yerda Ktesifon va Bag'dod shaharlaridan o'tib, Dajla (Tigr) daryosining o'ng qirg'og'i bo'ylab shimolga yo'nalgan va Nisibin hamda

Antioxiya shaharlari orqali Damashqqa borgan. Damashqdan Tir shahri bilan Quddusga va Misrga yo‘nalgan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoyga har xil *gazlamalar, gilamlar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar*, Baqtriya va Dovondan *ot va tuyalar* olib borilgan. Bu yo‘l tufayli Xitoyning O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo va tashqi aloqalari I-II asrlardayoq ancha kengaygan. Har yili Xitoydan katta savdo karvonlari elchilar bilan G‘arb mamlakatlariga jo‘natilgan, ayni vaqtda G‘arbdan ham shu taxlitda karvonlar kelgan.

Ipak yo‘li uzoq va mashaqqatli bo‘lganligi sababli Xitoyning G‘arb mamlakatlari bilan bevosita aloqa olib borishi mumkin bo‘lmagan. Shuning uchun ham Buyuk Ipak yo‘li orqali olib borilgan savdo-elchilik aloqalarida osiyoliklar, ayniqsa sug‘diylar, baqtriyaliklar, parfiyaliklar va eroniylar katta rol o‘ynaganlar. III-VI asrlarda Ipak yo‘li Xitoydan Hindistonga borib ziyorat qiluvchi budda monaxlariga katta xizmat qildi. X asrlarda Xitoy bilan arab xalifaligi va Vizantiya o‘rtasida savdo va elchilik munosabatlarining kengayishi natijasida Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati oshdi. XIII-XIV asrlarda Ipak yo‘li mo‘g‘ullar imperiyasining chekka o‘lkalarini Mo‘g‘uliston bilan bog‘lashda katta rol o‘ynadi.

Buyuk Ipak yo‘li O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatdi: shaharlar kengaydi, hunarmandchilik va madaniy hayot rivojlandi. IV asrda vujudga kelgan Xitoy chinnisozlik maktabi nodir buyumlar tayyorlagan. Xitoy chinnisi haqida Beruniy ma‘lumotlar yozib qoldirgan.

O‘rta Osiyodagi kabi oyna tayyorlash texnologiyasi V asr o‘rtalarida Xitoyda ham tarqalgan. Xitoyda nafis qog‘oz tayyorlash usuli Turkistonga ham yetib kelgan va bu sohada Samarqand mashhur bo‘lgan.

Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati jahon jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otmoqda. YuNESKO Bosh konferensiyasining XXIV sessiyasi 1989-1997 yillarga mo‘ljallangan „Ipak yo‘li - muloqot yo‘li“ deb nomlangan keng ko‘lamdagi tadqiqot ishlarini amalga

oshirish bo'yicha qaror qabul qildi. Shu qaror asosida tuzilgan ekspedisiya O'rta Osiyoning tarixiy taraqqiyoti jarayonini o'rganish bo'yicha katta tadqiqot ishlari boshlab yubordi.

Savol va topshiriqlar

1. *O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa va qadimgi davr tarixiy tarixiy geografiasining xususiyatli jihatlari nimalardan iborat?*

2. *Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlarining O'rta Osiyo tarixiy geografiasiga ta'sirini aniqlang.*

3. *Spitamən qo'zg'oloni haqida nimalarni bilasiz?*

4. *O'rta Osiyoda salavkiylar davlati hukmronligi va Yunon-Baqtriya podsholigi tarixiy geografiasini nimalari bilan ahamiyatli sanaladi?*

5. *Kushon podsholigi tarixiy geografiasini haqida ma'lumot to'plang.*

6. *Kartadan Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'nalish va tarmoqlarini ko'rsating.*

Mavzuga doir manba

...Doro forslar davlatini 20 viloyat (okrug) ga bo'lib chiqdi. Forslar uni *satrapiya* deb atashadi. Shoh mazkur satrapliklarni tashkil etib, ularga hukmdorlar tayinladi va har bir qabila to'lashi uchun o'lpon miqdorini belgiladi. Ko'plab qo'shni xalqlar bitta satraplikka, ba'zan yaqin qo'shnilaridan tashqari uzoq satrapliklardagi xalqlarga qo'shilganlar. Satrapliklarning har yilgi o'lpon miqdori quyidagi tarzda belgilangan: kimki o'lponni kumush bilan to'lasa, shoh unga Bobil talanti og'irligini tayin qilgan; kimki oltin bilan to'lasa, unda *evbey* og'irligini tayin qilgan. Bobil talantining og'irligi 78 *evbey minini* tashkil qiladi. Kir, so'ngra Kambis shoh bo'lgan davrda hech qanday o'lpon yig'ilmas, faqatgina ixtiyoriy hadyalar berilgan.

...Kaspiylar, pavsiklar, pantimatlar va doreytlar birgalikda 200 talant to‘lagan: bu o‘n birinchi okrug. Baqtriyaliklardan egllarga qadar o‘lpon 360 talantni tashkil qilgan; bu o‘n ikkinchi okrug.

...Saklar va kaspiylar 250 talant to‘lagan; bu o‘n beshinchi okrug. Parfiyaliklar, xorazmiylar, sug‘diy va oriylar 300 talant to‘lagan: bu o‘n oltinchi okrug.

(Геродот. История в девяти книгах. Перевод и примечания Г.А.Стратановского. — Л., 1972)

...Baqtriya tabiati boy va xilma-xildir. Ba’zi joylarda ko‘plab daraxt va uzumzorlar bo‘lib, sharbatli hosil beradi. Hosildor yerlarni ko‘plab suv manbalari bilan sug‘orishadi. Tuprog‘i unumli yerlarda bug‘doy ekilib, qolgan yerlarni yaylov uchun qoldirishadi. Bu mamlakatning ko‘p qismini ekinsiz cho‘llar tashkil etib, suvsizlikdan qarovsiz viloyatlarda odam ham, o‘simlik ham yo‘q.

...Yeri unumdor joylarda odam ham, otlar ham ko‘p. Shuning uchun Baqtriyada 30 000 otliq bor. Mazkur viloyatning poytaxti Baqtra shahri bo‘lib, Parapamis tog‘lari etaklarida joylashgan. Uning devorlari yaqinidan Baqtra daryosi oqib o‘tadi. Uning nomiga shahar va viloyat nomi berilgan.

(Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Под ред. В.С.Соколова - М.: МГУ. 1963)

IV BOB.

O'RTA OSIYONING O'RTA ASRLARDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

1. Eftalitlar va turk xoqonligi siyosiy-tarixiy geografiyasi

V asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga ko'chmanchi **eftalit** qabilalari kirib kelishadi. Bu yangi qabilalar ittifoqi 50-yillarda ancha mustahkamlandi. Ularning 456 yilda Xitoyga o'z elchilarini yuborishi ham buning tasdig'idir. Eftalitlarning janubga siljishi sosoniylar Eroni bilan to'qnashuvlar keltirib chiqardi. Bu urushda ham eftalitlar g'alaba qozonib, sosoniylar eftalitlarning o'lpondoriga aylanib qoladi. Eftalitlar sosoniylar bilan birga kurash jarayonida O'rta Osiyoning janubiga siljiy boshlagan. Ular 467-470 yoki 480 yillarda Sug'dni bosib olishadi va keyin Sharqiy Turkistonga qarab siljishadi. 479 yilda Turfon, 490-497 yillarda Urumchi, 497 va 507 yillar oralig'ida Karashara, Xo'tan va Qoshg'ar eftalitlar davlati tarkibiga kiradi va VI asrning boshlarida butun Sharqiy Turkiston eftalitlar qo'l ostida birlashadi.

Eftalitlar davlati hududlari haqida Xitoy solnomalari va arab-fors tarixchilari asarlarida ma'lumotlar uchraydi. Ularga tayangan holda eftalitlar davlatiga O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkiston, Gandxara va V asrning ikkinchi yarmida Shimoliy Hindistonning boshqa bir qancha viloyatlari ham kirganligini bilishimiz mumkin. Bu davlat o'z hududiga ko'ra kushonlar davlatidan ham katta edi.

Kushonlar davridagi kabi eftalitlar zamonida ham saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Xitoy manbalariga ko'ra, taxt otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa, o'sha taxtga o'tirgan. Demak, ana shu nomzodni aniqlab taqdim etadigan qandaydir bir kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash

sulolaning mo'tabar namoyandalari hamda saltanat arkonlaridan iborat bo'lgan bo'lsa ham ehtimoldan xoli emas. Eng muhimi eftalitlar davrida davlat qonunlar asosida boshqarilganini alohida ta'kidlash lozim. Rumlik Prokopiy (VI asr) „Eftalitlar davlatni qonunlar asosida boshqaradilar“, deb yozarkan, ushbu qonunlar turkiy tuzuklar bo'lgani, shubhasizdir.

Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, bunday ulkan saltanatni boshqarishda yuksak darajada faoliyat ko'rsatuvchi markaziy hokimiyatga erishish qiyin. Shuning uchun Shimoliy Hindiston hududlarida va, ehtimol, boshqa ba'zi viloyatlarda ham boshqaruv mahalliy xonadonlar (sulolalar) tomonidan olib borilgan. Davlatchilik tarixida foydalanib kelingan satraplik boshqaruvi, ya'ni markaziy hokimiyat noiblari orqali idora etish usuli bu vaqtda o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lishi kerak

Eftalitlar davrida davlatning poytaxti qayerda bo'lganligi haqida ham aniq ma'lumotlar yo'q. Ba'zilar Boykentni (Poykand) ko'rsatsa, boshqalari Badaxshonda deb biladilar. Shu o'rinda ba'zi bir tarixiy an'analar yodda tutilsa yomon bo'lmaydi. Masalan, ilgari ko'rib o'rganganimizdek, kushonlar poytaxti bir muddat Sug'diyonada joylashgan va keyinchalik ma'lum sabablarga ko'ra Peshovarga ko'chirilgan. Shunga o'xshash eftalitlar markazi ham avval Baqtriyada, so'ngra sosoniylar xavfi uzil-kesil yo'qqa chiqqach hamda saltanat chegaralari Sharqiy Turkiston hisobiga ham kengaygach, poytaxt Boykentga ko'chirilgan bo'lsa kerak.

VI asrda Oltoy hududlarida davlat tuzilmalari tashkil topa boshlaydi. Bu davlat birlashmalaridan biri **turk xoqonligi** bo'lib, O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi. Bu davlat asoschisi Bumin avval *tele* qabilalarini birlashtirib, so'ngra *jujanlarga* qattiq zarba beradi. Ularni inqirozga uchratib, Mo'g'uliston va Oltoy hududlarida davlat tuzadi. Shu yili, ya'ni 551 yilda Bumin *yabg'u* unvonini oladi va shu davrdan boshlab turk hoqonligi rasmiy e'tirof etiladi. Davlat hududlarining kengayishi Buminning vorisi Mug'an (553-572 yillar) davriga to'g'ri keladi. Istilochilik yurishlarining g'arbiy yo'nalishiga Mug'anning ukasi Istemi

boshchilik qildi. Albatta turklarning janubga siljishida eftalitlar bilan to'qnashuvlar kelib chiqishi aniq edi. Turklar va eftalitlar o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar VI asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. Ular dastlab O'rta Osiyoning shimoliy qismida to'qnashgan edilar.

Turklar Eron bilan eftalitlarga qarshi ittifoq tuzadi va ikki tomonlama qurshovda qolgan eftalitlar turklarga yaxshi qarshilik ko'rsata olmaydi va Buxoro yaqinidagi hal qiluvchi jangda yengilishadi. Katta Kultegin bitiktoshida: „*ular* (Mug'an va Istemi) *Temir-kapig'gacha o'z xalqini yoyishdi*“ degan yozuvlar bor. Temir kapig', ya'ni Temir Darvoza Boysun tog'idagi Sug'd va Toxariston oralig'idagi o'tish joyi edi. Demak, turklar janubda mana shu hududlargacha etib kelgan. Turk xoqonligining sharqdan-g'arbgacha bo'lgan chegarasi esa Koreyadan Qora dengiz bo'ylarigacha cho'zilgan edi. Lekin bu davlat u darajada mustahkam bo'lmay balki, urug'-qabilachilik sababli ham 603 yilda ichki nizolar tufayli ikkiga: *g'arbiy* va *sharqiy* turk xoqonligiga bo'linib ketadi.

Turk xoqonligi davri o'lkamiz boshqaruvi haqida so'z ketganda, ikki jihatga e'tibor qaratishimiz lozim. Birinchidan, mamlakatimiz ham tobe bo'lgan umuman xoqonlikning boshqaruv tizimi va ikkinchidan, mahalliy (an'anaviy) boshqaruv uslubining saqlanganligi.

Xoqonlik ikkiga bo'linganida ham oliy hokimiyatni o'z xoqonlari boshqarishgan. Qadimgi turkiy va xitoy manbalarida mansablardan *shad* (sha) va *tutun* ko'p uchraydi. Tutun ham merosiy hisoblangan. Tutunning lug'aviy ma'nosi *tutib turmoq* ekanligi nazarga olinsa, u holda uni sohibining vazifasi oydinlashganday bo'ladi. Zero, xitoy manbalariga ko'ra tutun hukmdorning joylardagi noibi, vakili, nazoratchisi vazifasini ado etgan (tutib turmoq, ya'ni nazoratda tutib turmoq). Tutunlarning mahalliy hokimlar faoliyati ustidan nazorat qilib turishlaridan tashqari soliq yig'ish tadbirlarida ham ko'z-quloq bo'lib turganlarini eslatib o'tish kerak. Shadga kelsak, xitoy manbalarida

yoziqishicha, *eng oliy mansablardan* hisoblanib, shunga yarasha saroy marosimlarida hukmdorning o'ng tomonidan joy olgan. Qadimgi turkiy yozuvlar va xitoylik mualliflar guvohliklari bilan tanishish shu xulosaga olib keladiki, *shad* va *jabg'u* (yabg'u) mazmunan bir-biriga g'oyatda yaqin mansab (unvon) hisoblangan. Bu har ikki unvon hukmdorning eng yaqinlariga berilgan. Masalan, Qutluqxon (vafoti 693 yil) o'zini xon deb e'lon qilgach, ukalaridan Muchurga shad, Tuzilbekka esa jabg'u unvonlarini beradi. Bilgaxon (vafoti 734 yil) ham taxtga o'tirguniga qadar kichik shad unvonida bo'lgan. Ko'rinib turganidek, xoqonlik o'z davri uchun murakkab boshqaruv tizimiga ega bo'lgan.

Biz yuqorida xoqonlikning asosiy markaziy boshqaruv tizimi bilan bog'liq tomonlarini ko'rib chiqdik. Xoqonlik tartibidagi ko'plab mahalliy mulklar (viloyatlar)dagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi birday emasligini ta'kidlagan holda, shuni aytish mumkinki, ulardagi boshqaruv xoqonlik markazidan farqli bo'lishi, tabiiy. Zero, ko'chmanchi madaniyat vakili bo'lmish turkiylar o'z qo'l ostilaridagi o'troq xalqlar turmush tarzi, ichki an'anaviy boshqaruvi masalalariga moslasha, aralasha olmasliklari turgan gap edi. Bunga o'xshash holat bilan biz keyinchalik mo'g'ullar bosqini va hukmronligi yillarida o'lkamizdagi boshqaruv masalalarini yoritishda ham to'qnash kelamiz.

Bundan tashqari xoqonlik markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (saltanat osoyishtaligini saqlash himoya qilish va davlat hududini kengaytirish, soliq tizimining muntazam ishlab turishiga erishish, ichki va tashqi savdo aloqalarini tegishli darajada ta'minlash, davlatlararo siyosiy-elchilik munosabatlarni olib borish va hokazo) bilan mashg'ul bo'lib, mahalliy darajadagi jarayonlar uchun ma'lum ma'noda erkinlikka yo'l qo'yilgan. Albatta, bunda joylardagi xususiy jihatlar ham inobatga olingan. Shuning uchun ham Farg'ona, Sug'diyona, Shosh, Xorazm, Toxariston, Shimoliy Hindistonda boshqaruv ishi, asosan, mahalliy siyosiy kuchlar (sulolalar) tomonidan amalga

oshirib borilgan. Lekin markaz tomonidan ularni nazorat qilish ishi bilan tutunlar mashg'ul bo'lganlar.

Xitoy mualliflariga ko'ra, Sug'diyonada mahalliy Kan sulolasining mavqei kuchli bo'lib, ularga sakkiz hokimlik (mulk) tobe bo'lgan.

Sug'diyona hukmdori *ixshid* unvoniga, tobe hokimliklar boshliqlari ham o'z unvonlariga ega bo'lganlar (masalan, Kesh hokimi *ixrid* unvoni bilan mashhur bo'lgan). Boshqaruvni uch amaldor (vazir) amalga oshirgan. Toxaristondagi ahvol ham xuddi shu kabi bo'lgan. Toxariston hukmroni *jabg'u* unvoni bilan, unga tobe hokimlar esa (Xuttalon, Qubodiyon, Shug'non, Chag'oniyon va boshqa mulklar boshliqlari) o'z mahalliy unvonlari bilan tanilganlar. Masalan, Chag'oniyonni *chag'onxudotlar* boshqarganlar. Shoshdagi ahvol ham 605 yilga qadar xuddi shunday kechgan bo'lsa-da, ammo shu yili Sheguyxon (vafoti 618 yil) bu yerni boshqarishni shahzodalardan Fuchjiteginga topshiradi. Xorazmga kelsak, bu yerni, ilgari tilga olinganidek, mahalliy *afrig'iylar* sulolasi namoyandalari boshqarganlar.

2. Xo'jalik va savdo munosabatlari

Mintaqa shaharlari tarixida V asr oxiri – VI asr boshlari katta jonlanish yillari bo'lgani ma'lum. Ayniqsa, kichik shaharlarning tezlik bilan o'sib borishi, hashamatli binolar bo'lgan alohida-alohida qo'rg'onlarning yuzaga kelishi va ko'payishi Xorazm, Sug'diyona, Shosh va Baqtriya viloyatlarida keng kuzatildi. Bunda iqtisodiy-savdo munosabatlarning izchil yo'lga qo'yilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Mintaqamizning an'anaviy iqtisodiy imkoniyatlari (dehqonchilik, sun'iy sug'orish, chorvachilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar) bu davrda ham o'z ravnaq yo'lida to'xtamaganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Manbalarda bu borada yuksak muvaffaqiyatlarga erishilganligi haqidagi ma'lumotlar talaygina.

Ayniqsa, savdo-sotiq gurkirab rivoj topgan. Bir tomondan, ulkan mintaqaning siyosiy jihatdan yaxlitligi, ikkinchi tomondan Sharq va G'arb mamlakatlariaro iqtisodiy-savdo munosabatlari oralig'ida bo'lib kelish ichki va tashqi savdo ishlarining yanada taraqqiy etib borishida qulay sharoit yaratib bergan. Bu esa o'z o'rnida yo'l, qatnov, ta'minot, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayib borishiga yo'l ochgan. Tashqi savdoda *ipak, lok, bo'yoqlar, rangli shishalar, qimmatbaho toshlar, arg'umoq otlar, matolar, shirinliklar, qurol-yaroq* kabi noyob mahsulotlar bozori chaqqon bo'lgan. Shuni ham nazarda tutish lozimki, Buyuk Ipak yo'lining har ikkala yo'nalishining (shimoliy - Turfon, Qoshg'ar, Farg'ona, Sug'diyona, Marg'iyona; janubiy - Xo'tan, Yorkent, Pomir, Baqtriya) *eftalitlar* saltanati hududidan o'tishi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Turk xoqonligi davrida o'lkaning dehqonchilik, hunarmandchilik, quruvchilik, savdo-sotiq, konchilik kabi sohalardagi taraqqiyoti yuqori bo'lgan. Chunki mamlakatimizning tabiiy-geografik, ko'p asrlik tajribaviy imkoniyatlari nechog'liq bo'lgani ham ma'lum. Farg'ona, Sug'diyona, Xorazm, Baqtriya (Toxariston) kabi viloyatlarda dehqonchilikning barcha turlari mavjud bo'lgan. Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalmikor yerlar imkoniyatlaridan foydalanib *bug'doy, arpa, sholi, mosh, tariq, no'xot, qovun, tarvuz* kabi o'simliklardan yuqori hosil olganlar. *Paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik, uzumchilik* kabi sohalar ham o'tgan asrlar kabi munosib darajada o'sib borganini o'rta asr tarixchilari qayd etib o'tganlar. Masalan, bir yerda o'lkada yetishtiriladigan paxtaning yuqori sifat darajasi ta'kidlansa, boshqa bir yerda uzumchilik, xususan, vinochilik borasidagi mirishkorlar tajribasi yuqori baholangan.

Bog'dorchilikda *shaftoli, o'rik, olchaning* bir necha turlari, *yong'oq, pista, bodom* va boshqa qator meva navlaridan ham sifatli, ham yuqori hosil olingan. Shifobaxsh o'simliklardan ham keng foydalanilgan.

Qadimdan qazilma boyliklari bilan mashhur o'lkamizda bu davrda ham konchilikdagi faoliyat susaymagan. *Oltin, temir, navshadil, kumush, qo'rg'oshin, mis, margimush, tuzning bir necha xili, turli qimmatbaho toshlar, shifobaxsh qotishmalar* Sug'diyona, Shosh, Farg'ona, Toxariston kabi viloyatlarda qazib olingani manbalarda aniq ko'rsatilgan. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko'lami va sifati o'z-o'zidan keyingi uch tarmoq: *hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq* ravnaqi uchun katta turtki bo'lgan. Shuning uchun ham bu vaqtda *metallsozlik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik* kabi kasbkorlar keng quloch yozib borgan. Ularning rivojiga oid misollar juda ham ko'p.

Zargarlarning nafis bezaklari, taqinchoqlari, temirchilarning dehqon, quruvchiga yo bo'lmasa oddiy bir ro'zg'orga zaruriyatlarni (bolta, o'roq, mix, qaychi, zanjir, kalit), qurolsozlarning harbiylarga, zodagonlarga, ishqibozlarga yasab bergan puxta va noyob qurol-aslahalari, turli hajm va maqsadda ishlov berilgan sopol idishlar, paxta, jun, ipak matolar, qog'oz o'rnida ishlatga bo'ladigan darajada sayqal berilgan terilar va ko'plab mahsulotlarni sanash mumkin.

Yuqoridagi sohalar jonlanishi bilan quruvchilik kengayib boravergan.

Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tab kelgan o'lkamiz savdo ahli siyosiy makonning kengayishidan unumli foydalanib, o'z faoliyatlarini yanada jonlantirib yuboradilar. Ilgari xalqaro savdo asosan Xitoy-Turkiston—Eron orqali g'arbiga tomon yo'nalishda olib borilgan bo'lsa, endilikda Kaspiy dengizi hamda Shimoliy Kavkaz yo'lidan hiam unumli foydalana boshlandi. O'lkaning asosiy savdo hamkorlari bo'lib Xitoy, Eron, Hindiston, Vizantiya kabi mamlakatlar hisoblangan. Bu mamlakatlarga *to'qimachilik, ipakchilik* mahsulotlari, *qimmatbaho toshlar*, ulardan ishlangan *buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg'umoqlar*, bir necha xil *tuz, vino, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boyliklarining* bir qancha turlari olib borib sotilgan.

3. O'рта Osiyo arab xalifaligi tarkibida

VI asrning oxiri – VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yangi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lib, markazlashgan davlat birlashmasi vujudga keldi. Bu jarayonda shu davrda Muhammad payg'ambar tomonidan asos solingan islom dini birlashtiruvchi vazifani bajaradi. Muhammad payg'ambar vafotidan so'ng, ya'ni 632 yildan so'ng uning o'rniga davlatni xalifalar boshqaradi va bu davlat tarixga **arab xalifaligi** nomi bilan kiradi. Arab xalifaligi istilochilik yurishlari olib borib, tez orada Yaqin va O'рта Sharqning boy viloyatlarini bosib oladi. Shu bilan birga arablar sosoniylar hududlariga ham yurishlar qilib, 651 yilda Marvga etib keladi va bu yerda sosoniylarning so'ngi hukmdori Yozdigard III o'ldirilib, bu sulola hukmronligiga chek qo'yiladi. Mazkur hududda markazi Marv bo'lgan Xuroson noibligi tashkil topadi va keyinchalik bu markaz arablarning O'рта Osiyoni istilo qilish maqsadidagi yurishlariga bevosita boshchilik qiladi. Arablar Amudaryoning shimolidagi yerlarni Movarounnahr, ya'ni *daryo ortidagi yerlar* deb atashadi. Ularning Movarounnahrdagi faoliyati *ikki bosqichga* bo'linadi:

1. Birinchi bosqichda arablar Movarounnahrda faqat talonchilik va raqiblarning kuch-qudratini aniqlash maqsadida yurishlar olib borishadi.

2. Ikkinchi davrida arablar Movarounnahr hududlarida istilochilik yurishlarini olib borishadi.

Arablarning Movarounnahrn istilo qilishi 704 yilda Xuroson noibligiga tayinlangan Qutayba ibn Muslim faoliyati bilan bog'liq. Qutayba o'z faoliyatini 705 yilda Balxni va uning atroflarini bosib olishdan boshlaydi. Mazkur hududlarni bosib olgan Qutayba 706 yilda Poykandni istilo qiladi. Arablarning keyingi yurishlari Buxoroga qaratilgan bo'lib, 708-709 yildagi urushlardan so'ng Buxoro ham arablar qo'l ostiga o'tadi. Qutayba Samarqand yurishiga tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda Xorazmda aka-uka xorazmshohlarning taxt uchun kurashlari natijasida ichki nizolar

vujudga kelganidan xabar topadi. Bu yerda xorazmshohning ukasi Xurzod boshchiligidagi xalq g'alayoni vujudga kelgan edi. Qutayba xorazmshoh so'roviga binoan qo'zg'olonni bostiradi. Xorazmshoh esa Qutaybaga tobelik bildiradi va shu bilan 711 yilda Xorazm ham arablarning vassalligiga aylantiriladi. 712 yilda Qutayba Xorazm va janubiy viloyatlardan olingan qo'shimcha qo'shin bilan Samarqandga tashlanadi. Bir oylik qamaldan so'ng Samarqand ham arablar qo'l ostiga o'tadi.

713 yilda Qutayba bosib olgan hududlaridan 20 ming qo'shin to'plab, qo'shin safini kengaytiradi hamda Ustrushona va Xo'jand orqali Farg'onaga yurish qiladi. U Choch, Xo'jand, Kosonni zabt etib, 714 yilda Isfijobga yurish qiladi. 751 yilda esa Farg'ona vodiysi to'liq egallanib, Qoshg'argacha etib borishadi. Xuddi shu yili xalifalik taxtiga Qutaybaning g'animi Sulaymon o'tiradi. Sulaymonga qarshi qo'zg'olon ko'targan Qutayba arab askarlari tomonidan o'ldiriladi va shu bilan arablarning sharqqa yurishi ham to'xtaydi.

Arablarning istilochilik yurishi O'rta Osiyo uchun bir qancha salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Yillar davomida yaratilgan boy madaniy meroslar barbod qilinib, shahar va qishloqlarga o't qo'yildi. Ko'plab sug'orish inshootlarining barbod qilinishi va mahalliy aholi vakillarining halifalik qo'shini tarkibiga olinishi, urushlarda berilgan qurbonlar oqibatida mamlakatda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj tufayli mamlakat xo'jaligi butunlay izdan chiqdi. Mamlakatda mavjud oltin-kumush zahiralar va boshqa qimmatbaho buyumlar xalifalikka tashib ketildi.

Movarounnahr VIII asrning o'rtalariga qadar, qarshilik ko'rsatishiga qaramay, arab xalifaligining muhim viloyatlaridan biri sifatida uning tasarrufiga uzil-kesil o'tadi.

Xalifa davlatni boshqarishda *vazir ul-uzaro* (ulug' vazir)ga tayangan. Harbiy ishlar, umuman, harbiy qo'shinlar amir ul-umaro qo'li ostida edi. Xalifa turli masalalarni *devon ad-dar*, ya'ni kengashda ko'rib chiqar edi. *Devon ad-dar* uchta asosiy devonga bo'lingan, ular *devon al-mashriq*, *devon al-mag'rib* va

devon al-xarajdan iborat bo'lgan. Movarounnahrda tegishli masalalar *devon al-mashriqda* hal etilar edi.

Xalifa viloyat noiblarini lavozimiga tayinlash yoki bo'shata olish huquqiga ham ega edi. Xalifalikning huquqiy masalalari Qur'oni Karim va Payg'ambar ko'rsatmalari, nasihatlariga asoslangan holda ko'rib chiqilgan.

Dehqonlarning arab zodagonlari bilan qon-qarindoshlik rishtalarini bog'lashi, ularga katta imtiyoz berar edi. Birinchidan, ular o'z hukmronlik mavqelarini saqlab qoldilar, ikkinchidan, ma'lum miqdorda xalifa xazinasiga soliq berish bilan o'z yerlarini ixtiyorlarida qoldirdilar. Ijaraga berish kuchayishi bilan ularning ijtimoiy nufuzi *kadivarlarga* nisbatan ancha yuqori pog'onaga ko'tarildi. Dehqonlarning qaramog'idagi kam sonli qullar ham ozodlikka chiqib ijarachiga aylandilar.

Xalifa davlat yerlarini shaxslarga *iqta* tariqasida tuhfa qilgan. Davlat yerlari ayrim harbiy yo'l boshchilar va amaldorlarga umr bo'yi yoki merosiylik tariqasida berilgan. Biroq yerlarning asosiy egasi xalifa sanalar va u iqtadorlardan *ushr* olish huquqiga ega edi. Xalifa islom davlati hududida musulmon yoki zimmiylar yerlarini *iqta* tariqasida berishga haq-huquqi yo'q edi, chunki bu yerlardan u xiroj olib turgan.

Shunday qilib, VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Sug'diyonada buxorxudotlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi.

4. Arab istilochilariga qarshi xalq harakatlari

Madaniyatning oyoq osti qilinishi va zulm hamda arab tili va yozuvi, xalifalik qonun va qoidalarining zo'rlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Bunday qo'zg'olonlardan biri 720 yilda Sug'dda boshlandi. Qo'zg'olonga Samarqand ixshidi **Gurak** va Panjikent hokimi **Divashtich** boshchilik qiladilar.

Sug'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari ham keladi. Sug'ddagi barcha hokimliklar aholisi isyon ko'taradi. Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari arablarga katta zarba beradilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan harbiy qismlargina katta o'lpon va e'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqlaydilar.

721 yilda Said Xaroshiy Xurosonga noib qilib tayin etiladi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan nom qozongan edi. Unga sug'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish topshiriladi. Said Xaroshiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida Gurak boshliq Sug'd mulkdorlarining bir qismi arablar tomoniga o'tadi. Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Farg'onaga chekinishga majbur bo'ladi. Xo'jandda bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olonchilar yengiladi. Sulh tuzilgach, katta mablag' evaziga omon qolgan 400 savdogardan tashqari, deyarli barcha qo'zg'olonchilar xiyonatkorona qirib tashlanadi.

Divashtich boshliq qo'zg'olonchilarning ikkinchi guruhi ham yuqori Zarafshonda Obgar qal'asida qamalga olinadi. Omon qoldirish sharti bilan qo'lga tushirilgan Divashtich Arbinjonga olib borilib, qatl etiladi.

Xo'jandda qo'zg'olonning yengilishi hamda Divashtichning fojeali mag'lubiyatlaridan keyin Said Xaroshiy Movarounnahr shahar va qishloqlarida jazo choralarini kuchaytiradi. Mahalliy hokimlar uni daf etish choralarini izlaydilar. 723 yilda arablarga qarshi Farg'ona hokimi qo'shin tortadi. Unga Shosh, Nasaf va turklar yordamga boradilar. Ittifoqchilar dushmanga qattiq zarba berib, uni Xo'janddan to Samarqandgacha ta'qib qilib boradilar.

Xalifalikning soliq siyosatiga qarshi 725 yilda Xuttalonda, 728 yilda esa yana Sug'dda qo'zg'olon avjiga chiqadi. Xuroson noibi ko'p urinsa-da, ammo bu harakatni bostira olmaydi.

Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros islom dinini qabul qilganlardan *xiroj* va *jiz* 'ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Shubhasiz, bu aholini tinchlantirishga qaratilgan vaqtinchalik tadbir edi. Shunga qaramasdan u o'z samarasini berdi. Zodagon dehqonlarning ko'pi o'z *chokarlari* va *kadivarlari* bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga o'tadilar. Shu tariqa Sug'dda arablar o'z mavqelarini bir muncha mustahkamlab oladilar. Biroq bu bilan xalifalikning sharqida vaziyat bo'shshamaydi. 736-737 yillarda Toxariston va Sug'dda yana qo'zg'olon ko'tariladi.

Arablar, ayniqsa, 737 yilda tang ahvolda qoladilar. Xuroson va Movarounnahrning noibi va amirlari bir necha bor o'zgartiriladi. Xurosonning yangi noibi Nasr ibn Sayyor mamlakatda o'z mavqeini mustahkamlab olish maqsadida moliya islohoti o'tkazadi. Islomni qabul qigan kishilar *jiz*'yadan ozod etilib, barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi. Yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar *xiroj* to'lashi shart qilib qo'yiladi.

VIII asrning 70-80-yillarida Movarounnahrda juda ulkan xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olonchilar oq rangdagi kiyim kiyganligi uchun tarixda u „oq kiyimlilar“ qo'zg'oloni deb ham shuhrat qozonadi. Bu qo'zg'olonning rahbari **Muqanna** (boshi va yuziga yoping'ich tashlab yurgani uchun unga shunday nom berilgan) edi.

Qo'zg'olon 776 yili boshlanadi. Muqanna o'zning 36 ta muridi bilan Amudaryodan o'tib, Kesh viloyatiga yo'l oladi. Buxorxudot Tug'shoda uni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som qal'asini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Muqanna ta'limoti umumiy mulkiy tenglik va arablarni O'rta Osiyodan haydab chiqarish g'oyalarini targ'ib etar edi.

Muqanna ta'limoti Sug'd, Iloq (Ohangaron), Shoshda ham yoyila boshladi. Qo'zg'olonda turli ijtimoiy guruhlar vakillari qatnashib, ularni bir fikr istilochilarni mamlakatdan haydab

chiqarish, mustaqil davlat barpo qilish g'oyasi bilrlashtirib turar edi.

Qo'zg'olonga zarba berish uchun xalifa Abu Ja'far 776 yilda Jabroil ibn Yahyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda yuboradi. Biroq Jabroil qo'zg'olonchilardan yengiladi. U katta talofatlar berib, bazo'r Samarqandga etib keladi. 10000 askar bilan Jabroilga yordamga yuborilgan Uqba ibn Salim Kesh va Samarqand oraliq'ida, 14000 kishilik qo'shin Termiz yaqinida qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor keltiriladi. Natijada Chag'oniyon qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi.

Qo'zg'olon markazi Narshaxda, Buxoro atrofida joylashadi. Shu yili Narshax yaqinida Buxoro hokimi Husayn ibn Muvozz va Samarqand noibi Jabroilning birlashgan qo'shini o'rtasida to'rt oy jang bo'ladi. „Oq kiyimlilar“ bu jangda qo'llari avval ustun keladi, keyinchalik son jihatdan ko'p bo'lgan arablar Narshax qal'asi devori ostidan uzunligi 50 gazli chuqur qazib, uni qulatib qal'aga kiradilar. Narshax qal'asi arablar tomonidan egallanadi. Kesh va Samarqand endilikda qo'zg'olonning asosiy markazlariga aylanib qoladi.

Kurashning oxirgi bosqichi Kesh vohasi (Qashqadaryo) da juda avj oladi. Muqanna qarorgohi bo'lgan Som qal'asini qamal qilish Xaroshiyga topshiriladi. Uzoq vaqt qamaldan so'ng muqannachilar taslim bo'ladilar (VIII asrning 80-yillari boshlarida).

O'z davrining eng qudratli davlati bo'lgan xalifalikni larzaga solgan Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon shu tariqa tugaydi.

5. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahrda mustaqil davlatlar va ularning siyosiy tarixiy geografiyasi

Arab xalifaligida VIII asr oxiri — IX asrning boshlariga kelib siyosiy va ijtimoiy hayotda vujudga kelgan tanazzullar oqibatida zaiflashuv yuzaga keldi. Bu vaqtda xalifalar xalq g'alayonlarini bostirishda mahalliy zodagonlardan foydalanadi va bu zodagonlar

xizmatlari evaziga biror viloyatning noibi qilib tayinlangan. Bu esa mahalliy zodagonlarni davlat boshqaruv ishlarida qatnashishi uchun imkon beradi. Xuddi shunday jarayonlar vaqtida Xurosonda mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan Tohir ibn Husayn Xuroson noibligiga o'tiradi. Bu voqea 821 yilda yuz berib, Tohir xalifa Ma'munni taxtga chiqishiga yordam bergan edi. Tohir tez orada xalifa nomini xutbadan chiqartirib tashlaydi va bu uning mustaqillikni e'lon qilishini bildirar edi. Bu yangi sulola 873 yilgacha davom etib, mazkur yilda yana bir mahalliy sulola safforiylar tomonidan tor-mor qilinadi.

IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda *somoniylar sulolasi* paydo bo'ldi. Bu sulola asoschisi Somon bo'lib, uning xalifalik oldidagi xizmatlari evaziga nabiralarga Movarounnahrning turli viloyatlari noiblik sifatida beriladi. Nuhga *Samarqand*; Ahmadga *Farg'ona*; Yahyoga *Shosh* va *Ustrushona*; Ilyosga *Hiro*t beriladi. Somoniylar sulolasi noiblariga dastlab Ahmad, 864 yilda uning vafotidan so'ng esa o'g'li Nasr boshchilik qildi. 873 yilda Buxoro aholisining taklifiga binoan bu hudud ham somoniylar boshqaruviga o'tib, unga Nasrning ukasi Ismoil noib qilib tayinlanadi. Ismoil Nasrga bo'ysunmay mustaqil siyosat yurgiza boshlaydi. 886 yilda Nasr va Ismoil o'rtasida jang bo'lib, Ismoil yengiladi. Lekin ikki yildan so'ng bo'lib o'tgan keyingi to'qnashuvda Ismoil g'alaba qozonadi va 892 yilgacha, ya'ni akasining vafotigacha rasmiy ravishda somoniylar hukmdori sifatida e'lon qilinmaydi. Ismoil taxtga o'tirgach, mamlakatda harbiy, davlat boshqaruvi sohalarida islohotlar o'tkaziladi. Ismoil Somoniy 900 yilda Buxoro yaqinida safforiylar qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi va Xuroson ham somoniylar davlati tarkibiga kiradi.

Somoniylar davlati ikki ulkan mamlakatni — Movarounnahr va Xurosonni o'z ichiga olgan. Movarounnahrda Amudaryo shimolidagi yerlar kirgan. Shulardan Buxoro, Samarqand Sug'di Istaravshan, Choch. Iloq, Farg'ona, Kesh, Nasaf viloyatlari siyosiy va madaniy, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan edi. Daryolarning yuqori oqimi viloyatlaridan Chag'oniyon, Xuttalon, Qubodiyon,

Ahorun, Shumon, Vashgird, Rasht, Kumed, Badaxshon, Karon, Shikinon, Vaxon, Ro'shon qisman somoniylarga tobe' edilar. Xuroson Amudaryoning janubida joylashgan Balx, G'uzg'onon, Garjiston, Marv, Hirot viloyatlarini o'z ichiga olgan.

Somoniylar xalifalikdagidek hukmronlik tizimini o'rnatdilar. Davlat tepasida amir turgan. Amirlikning ma'muriy tizimi quyidagicha bo'lgan: *dargoh* (amir saroyi) va *devon* (davlat idorasi). Saroydagi eng ulug' mansabdor *hojibi buzurg* (ulug' hojib) bo'lib, unga saroy ahliga ko'z-quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan edi. Undan keyin *sohibi meros* (saroy soqchilari boshlig'i) turgan.

Dargohning xo'jalik ishlari bilan vakil shug'ullangan. Davlat boshqaruvi Buxoro Registoni atrofida joylashgan o'nta devon qo'lida bo'lgan.

Devoni vazir, yoki *xojayi kalon*. U barcha: ma'muriy, siyosiy va xo'jalik muassasalarini nazorat qilgan. Vazir barcha harbiy kuchlarni ham boshqargan. Uning ixtiyorida *hisobchilar*, *munshiy* va *kotiblar*, *daftardorlar* bo'lgan.

Devoni amid elchilik va muhim davlat ishlarini boshqargan. U *devoni rasoyil*, *devoni insho* ham deyilgan.

Devoni sohibushrot — sipohiylarni va shoh saroyini moddiy jihatdan ta'minlagan. Yiliga to'rt marta sipohiylariga maosh berilgan. Sohibushrot harbiy intizomni ham ta'minlab turgan.

Devoni sohibbarid — davlat elchilari va viloyat hokimlari ustidan maxfiy nazorat ishlarini boshqargan. Uning har viloyatda o'z amaldorlari bo'lgan.

Devoni muhtasib — bozorlarda tarozi va narx-navoni, keyinchalik aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilib turuvchi muassasa. Tartibbuzar va o'g'rilar joyida jazolangan. Muhtasib o'z vakillari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.

Devoni mushrif (nazorat qiluvchi) xazina kirim-chiqimi va boshqa muhim davlat ishlarini nazorat qilgan. Bundan tashqari *devoni qozi*, *devoni ziyo*, *devoni mamlakai xos* (davlat mulklarini boshqargan), *devoni vaqf* mavjud bo'lgan. Barcha devonlarning

viloyat va shaharlarda bo‘limlari bo‘lib, hokimlarga bo‘ysungan. Faqat *devoni barid* muassasalari markaziy davlatga bo‘ysungan. Xuroson sipohiyolari bevosita amir va vazirga tobe bo‘lgan. Shaharlar maxsus raislar tomonidan boshqarilgan. Amaldorlar orasida ruhoniylarning nufuzi yuqori bo‘lib, ular shayxulislomga itoat qilganlar.

Seyiston, Xorazm, Garjiston, G‘uzg‘on, G‘azna, Xuttalon, Chag‘oniyon, Isfijob kabi viloyatlar o‘z hokimlari tomonidan boshqarilib, markazga xirojni muntazam to‘lab turmaganlar. Ular markaziy hokimiyatdan mustaqil bo‘lishga intilganlar.

Somoniylar qo‘shinlari muntazam va mahalliy hokimlar qo‘lidagi ixtiyoriy yollangan lashkardan tashkil topgan edi.

996 yilda qoraxoniylar Movarounnahrda tomon navbatdagi hujum boshlaydilar. Ularga Nasr ibn Ali boshchilik qiladi. Nuhga yordam berish uchun Sobuqtakin Chag‘oniyon, G‘uzg‘on va Xuttalon hokimlarining birlashgan qo‘shinlaridan iborat katta kuch bilan Keshga etib keladi. Nuhning ham o‘z qo‘shini bilan unga qo‘shilishini talab qiladi. Bu somoniylar amirining hukmdorlik huquqlarini mensimaslik va ochiqdan-ochiq unga qarshi chiqish edi. Nuh, shubhasiz, bundan bosh tortadi va farmoyish yuborib, Sobuqtakinni Buxoroga chaqirtiradi. Bunga javoban Sobuqtakin qo‘shin yuborib Buxoroni egallaydi. So‘ngra u qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Natijada ular o‘rtasida shartnoma tuzilib, unga muvofiq Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo‘liga o‘tadi. Sobuqtakin esa Amudaryodan janubdagi yerlar, shu jumladan Xurosonga hukmdor bo‘lib oladi. Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismigina beriladi, xolos. Biroq ko‘p vaqt o‘tmay qoraxoniylar Buxoroni bosib oladilar. Garchi somoniylar to 1005 yilgacha Samarqand va Buxoroni qaytarib olishga uringan bo‘lsalar-da, ammo 999 yilda Buxoroning Nasr Eloqxon tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topgan edi. Shunday qilib, X asr oxirida somoniylar davlati o‘rnida ikkita yangi davlat tashkil topdi: biri Qoshg‘ardan Amudaryogacha cho‘zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh,

Farg'ona va qadimgi Sug'dni o'z ichiga olgan qoraxoniylar davlati bo'lsa, ikkinchisi shimoliy Hindistondan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlarni qamrab olgan *G'aznaviylar* davlati edi.

1017 yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etilib, o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Xorazm ko'p vaqt o'tmay (1044 yil) *Saljuqiylar* davlatiga qaram bo'lib qoldi. Xorazmning mustaqillik uchun kurashi XII asrning ikkinchi choragidan boshlanadi. Saljuqiylar davlatining kuchsizlanishi natijasida bu davrda Xorazm o'z mustaqilligini yanada mustahkamlaydi. XIII asrning boshlarida esa xorazmshohlar saltanati tasarrufidagi o'lka va viloyatlar hududlarining kengligi, Sharq davlatlari o'rtasida saltanat sohibqironlarining nufuzi jihatidan u buyuk davlat hisoblanardi. Xorazm va Movarounnahrdan tashqari hozirgi Afg'oniston yerlari va Eronning kattagina qismi ham uning tasarrufida edi. Davlat qangli-qipchoq va turkmanlardan tuzilgan muntazam qo'shinga ega edi. Bu qo'shinning umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, qo'shin boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aristokratiya, mustavfiy (daftardor hisobchilar) qozilar va ko'pgina saroy mansabdorlaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turardi. Yuqori amaldorlarning ko'pchilik qismi yirik yer-suvlarga ega bo'lgan mulkdor oqsuyak tabaqani tashkil etardi. Ko'pgina mansablar odatda, o'rta asrlar jamiyati sharoitida keng tarqalgan, ota-bobodan meros bo'lib o'tar edi. An'anaviy tusga kirgan bu hol davlat mansabdorligi eng munosib shaxslarni tanlab qo'yish imkoniyatidan mahrum qilar edi. Mansabdorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z vazifalarni tashlab ketar va podshoga itoatsizlik qilib, o'zboshimchalik bilan o'z bilganlaricha yo'l tutar edilar. Shunday qilib, sirdan juda kuchli, nufuzidan buyuk ko'ringan xorazmshohlar davlati siyosiy jihatdan unchalik mustahkam emas edi.

6. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi

Somoniylar davrida katta yer egalari — dehqonlarning nufuzi ortib, ko‘pincha bir dehqon qo‘lida katta yer maydonlari, butun bir viloyat bo‘lgan. Ziroat bilan shug‘ullanuvchi ziroatkor *kadivar* deyilgan. Yirik yer egasi yerida ishlaydigan ijarachi *barzigar* deb atalgan. Xo‘jalikda qo‘l mehnatidan ham foydalanilgan. Somoniylar davlati aholisining asosiy qismini ziroatchilar tashkil etgan. Keyingi o‘rinda hunarmandlar va savdogarlar turgan.

XI-XII asrlarda yuz bergan siyosiy voqealar Movarounnahr jamiyat hayotida ham o‘zgarishlar yasadi. Alohida mulklarning boshqaruvi, ma‘muriy idoralar somoniylar davridagi tartiblarga muvofiq kelar, ijtimoiy mansab va martabalardagi farq katta emas edi. Ijtimoiy tuzumda mavqei ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar — dehqonlar qatlami qoraxoniylar davriga kelib o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. O‘rta Osiyo ko‘hna zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab siyosat maydonida yuz bergan sulolalar o‘rtasidagi taxt almashuvi, eng ta‘sirli jihati esa ko‘chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarning o‘troq aholi hududlarini ishg‘ol etishidir.

Somoniylar zamonida mazkur sulola uchun xos markazlashgan davlat tuzumidan qoniqmagan aslzoda dehqonlar qoraxoniylarni qo‘llab-quvvatlagan edilar. Yirik xonadon sohiblari qoraxoniylar hokimiyatda uzoq davr turisha olmaydilar va vaqti kelib biz hududimizning asosiy hukmdorlari bo‘lib qolamiz, deb o‘ylashgan edi. Ularning bunday rejalarini tushungan *yag‘mo* va *chigillarning* boshliqlari zodagonlarni quvg‘in qila boshladilar. Buning oqibatida keksa boy qatlam vakillari o‘z ekinzorlari, uy-joylari, mulklari va boyliklaridan mahrum bo‘ldilar. Dehqon degan nom endilikda faqat oddiy jamoatchiga nisbatan aytiladigan bo‘lib qoldi. Aslzodalar o‘zlarining daromad manbai — yer-mulkdan mahrum bo‘la boshlagan sari oddiy jamoachi ziroatkorlar ijarachilarga aylana bordilar. Bu paytda yerlar egasiz va qadsiz bo‘lib qoldi. Unumdor

joylar yaylovlarga aylandi. Biroq keyingi voqealar jarayonida Movarounnahr ijtimoiy hayotida jonlanish yuz berganligi haqida ma'lumotlar bor.

XII asrlarda, ayniqsa, shaharlar kengayadi, aholining soni ko'payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjid, madrasa, minora va hammomlar kabi ko'plab imoratlar qad ko'taradi. Shahar ichi va uning atrofida savdo va hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar va bozorlar barpo etiladi. Bu davrda shaharlarda, ayniqsa, *kulolchilik*, *shishasozlik*, *misgarlik* va *chilangarlik* rivoj topadi. XI-XII asrning sirli, koshinkor va qabortma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlar, naqshinkor mis idishlari o'zining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turardi.

Hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada qoraxoniylar va ularning viloyat hokimlari eloqxonlar tomonidan kumush va misdan ko'plab chaqa va tangalar zarb qilinadi. O'sha vaqtlarda Bolasog'un, Taroz, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo'lgan. Movarounnahr va Xurosonda qoraxoniylarning oltin, kumush va mis chaqa-tangalari hamda dinorlari bilan bir qatorda hatto saljuqiylar, xorazmshohlar hamda g'aznaviylar tomonidan zarb qilingan tangalar ham muomalada yurgan.

Demak, XI-XII va XIII asr boshida Movarounnahr va Xurosonda mahsulot-pul munosabatlari nihoyatda rivoj topib, u mamlakatning deyarli hamma uzoq va yaqin viloyatlarini qamrab olgan edi.

XI asrda Movarounnahrda qoraxoniylar davlatining tashkil topishi bilan *qarluq*, *o'g'uz*, *jig'il*, *yag'mo* va boshqa turkiy qabila

va urug'larning Shosh, Farg'ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turkiy aholi bilan o'troq hayotga ko'chish jarayoni jadallashadi. O'troq dehqon va hunarmand aholi bilan aralashib, dehqonchilik va shahar madaniyatining boy tajribasi va an'analari o'zlashtirildi. Natijada turkiy tilda so'zlashuvchi aholi Movarounnahrning asosiy nufuzlaridan biriga aylandi.

7. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini va unga qarshi ozodlik harakatlari

1219 yilning kuzida Chingizxon o'g'illari Chig'atoy, O'qtoy va Jo'ji bilan birga Xorazmshohga qarshi yurish boshladi. Uning jami askari 200 mingga yaqin edi. Chingizxon qo'shini qadimgi yo'l bilan Ili daryosi bo'ylab Shimoliy Farg'onadan o'tib, Janubiy Qozog'istonda Sirdaryo bo'yida joylashgan O'tror shahri ustiga yurish qildi. Bu shahar yaqinida butun kuchlarini to'plab, Movarounnahrni qisqa muddat ichida zabt etish uchun uni to'rt qismga bo'ldi. Uning bir qismini o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'tronni qamal qilib turish uchun qoldirdi. Ikkinchi qismiga Jo'ji boshliq etilib, u Sirdaryo etagi tomon yuborildi. Unga Sig'noq, O'zgan, Jand, Yangikent shaharlarini bosib olishni buyurdi. Besh ming kishilik uchinchi qo'shin Oloqnuyon hamda Suketucho'rbiy ismli sarxanglari qo'mondonligida Sirdaryoni o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqimida joylashgan Binokat va Xo'jand shaharlari tomon yuborildi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlar bilan dashtliklar orqali Buxoroga tomon askar tortdi.

Chingizxonning katta o'g'li Jo'ji boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilari reja bo'yicha Sirdaryoning yuqori qismidagi yerlarni egallashi lozim edi. Bosqinchilar ma'lum muddatdagi qamaldan so'ng Sig'noq va Borchilig'kent shaharlarini egallaganidan so'ng mustahkam qal'a hisoblangan Xo'jandga hujum boshlaydilar. Mo'g'ullar 20000 nafar qo'shin va 50000 chog'li asirga tushgan hasharchilarni Xo'jand atrofiga yig'adilar. Xo'jand hokimi Temur Malik asli turkiy sarkardalardan bo'lib, xorazmshohlar davlatida

nom chiqargan, sulton va uning oilasiga tanish bo'lgan shaxs edi. Mo'g'ullarga qarshi tura olish mumkin emasligini sezgan Temur Malik (malik - hokim ma'nosida) taxminan ming nafar askari bilan Xo'janddan bir kilometr naridagi Sirdaryoning mo'jzagina orolida joylashib oladi. Qulay strategik ahamiyatga ega bo'lgan orolga mo'g'ullar o'qlari, palaxmon toshlari yetib bormas edi. Temur Malik buyrug'iga ko'ra, 12 ta qayiq yasatilib, o'q o'tmasligi, yonib ketmasligi maqsadida bu qayiqning usti namat bilan qoplanib, sirka shimdirilgan loy bilan suvab chiqiladi. Temur Malik uzoq vaqt mudofaa uchun endilikda orolchada turish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, bor oziq-ovqat zahirasi va askarlarini 70 ta kemaga joylab, tunda daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Mo'g'ullar ikki sohil bo'ylab Temur Malik kemalariga to'xtovsiz hujum uyushtirar edilar. Hatto Binokat bo'yida daryoning u sohilidan bu sohiliga zanjir ham tortib qo'yadilar. Uzoq, uzluksiz jang bilan ular Jandga qadar yetib keladilar. Mo'g'ul sarkardasi Ulus Idi Borchilig'kent va Jand yaqinida manjaniqlar (tosh otar zambaraklar) o'rnatib, qayiqni bir-biriga tutashtirib, sarkarda yo'lini to'sadi. Uzoq janglardan so'ng Temur Malik Urganchga yetib keladi va Urganch himoyasida qatnashib, Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi.

1220 yilning 16 fevralida Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar qo'shini Buxoroni egallaydilar.

Buxoroni zabt etgach, Chingizxon Samarqandga tomon yo'l oladi va 1220 yilning mart oyida Movarounnahrning eng ulug' va muhim shahrini ham egallaydi.

1221 yilning boshlarida endigina Xorazm davlatining sultoni deb e'lon qilingan Jaloliddin Manguberdi garchi Xorazm mudofaasiga jiddiy kirishsa-da, ammo unga qarshi sobiq Jand noibi qochqin Qutlug'xon boshliq qipchoq lashkarboshilari tomonidan uyushtirilgan fitna uni Temur Malik bilan Xurosonga jo'nashga majbur etadi. Chunki bunday vaziyatda poytaxtga tomon bostirib kelayotgan yovuz dushmanga qarshi Urganch mudofaasini sira ham tashkil qilib bo'lmas edi. Shu sababli tez

vaqt ichida shahzodalar O'zloqshoh va Oqshohlar ham Urganchni tark etib, qochib ketadilar. Poytaxt taqdiri o'ta qo'rqqoq va amalparast amir Humortakin qo'lida qoladi. O'zini u sulton deb e'lon qilib, Urganchni mo'g'ullardan himoya qilishga va'da ham qiladi. Urganchdek katta shaharni qamal qilish uchun shimoldan Jo'ji, Buxoro tomondan Chig'atoy va O'qtoy askarlari bostirib keldi. 1221 yilning qishida 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari Urganchni qamal qilib, hujum boshlaydi. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va zirhli qurollarining ustunligiga qaramay o'z ona shahri mudofaasiga g'oyat baland ruh bilan kirishadilar. Lekin Urganch ham tez orada mo'g'ullar qo'lga o'tadi.

Mo'g'ul hukmdorlarining mislsiz jabr-zulmi, aholining xo'rlik va qashshoqlik domiga tashlanishi, soliqlarning haddan ziyod o'sishi mehnatkash aholining tinka madorini quritib yubordi. Aholi ichida mo'g'ullarning zo'ravonligi va istibdodiga qarshi norozilik harakati tobora kuchayib, bu norozilik, ayniqsa, 1238 yilgi Mahmud Torobiy qo'zg'olonida o'z aksini namoyon qildi. Bu ozodlik qo'zg'oloni 1238 yil Buxorodan 3 farsax (taxminan 7-8 km) uzoqlikdagi Torob qishlog'ida boshlandi. Bu qo'zg'olonida mo'g'ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli og'irlashgan hunarmand, dehqon va kambag'al aholi faol qatnashadi. Qo'zg'olonga esa asli Torob qishlog'idan bo'lgan g'alvir yasovchi hunarmand usta Mahmud Torobiy boshchilik qiladi.

Mahmud Torobiy avval o'z qishlog'ida istilochilar zulmi, bedodligiga qarshi otashin chaqiriqlar bilan chiqadi. Shu paytda Sherozdan kelgan harbiy anjomlar ortilgan karvon qo'zg'olonchilarning qurollanishiga yordam beradi. Qo'zg'olon kuch-qudrati oshib borayotganligining, xalq qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib borayotganligini ko'rgan mo'g'ul no'yonlari Movarounnahr hokimi Mahmud Yalavochnan yordam so'rashga majbur bo'ladilar. Mahmud Torobiy o'zining ko'plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo'l oladi. Buxorolik *aqoid* (diniy ilm) olimi,

mashhur shayx Shamsiddin Mahbubiy ham qo'liga qurol olib, o'z safdoshlari bilan qo'zg'olonchilar safiga qo'shiladi.

Darhaqiqat, Mahmud Torobiy Buxoro ahliga muruvvat namunalarini ko'rsatdi. Buxorodan qochgan mo'g'ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panohtopgan edilar. Bu yerda ular ma'lum kuch to'plab, Mahmud Torobiy ustiga harbiy yurishni boshlaydilar. Bundan xabardor bo'lgan Mahmud Torobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo'liga katta harbiy kuch bilan chiqadi. Ikki o'rtadagi qattiq jangdan so'ng istilochilar yengilib, orqaga chekindilar. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni to Karmanagacha quvib bordilar. Ushbu jangda mo'g'ullarning 10000 ta kishisi qirib tashlandi. Lekin bu zafarli jangda qo'zg'olonchilar rahbari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiylar ham halok bo'ldilar. Qo'zg'olonchilar endilikda shahid ketgan Mahmud Torobiyning o'rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylaydilar. Lekin bu yangi rahbarlarning tajribalari yo'q, ularni xalq yaxshi tanimas, omma ichida ular nufuzga ega emas edilar. Bu esa qo'zg'olonning borishiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Oradan bir hafta o'tmay mo'g'ullarning Elduz nuyon va Chag'an qo'rchi boshchiligidagi yangi qo'shini qo'zg'olonni bostirish uchun yetib keldi. Ikki tomonlama jangda Mahmud Torobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan oshiq jangchi halok bo'ldi.

8. Mo'g'ul (Chig'atoy) ulusi davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi

Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni Chingizxon hali hayotlik chog'idayoq o'g'illari va nabiraloriga taqsimlab berildi. Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo'yi, Xorazm va Darbandgacha bo'lgan o'lka Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'ji va uning vafotidan keyin esa nabirasi Botu qo'liga topshirildi. Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrga

uning ikkinchi o'g'li Chig'atoy ega bo'ldi. Chingizxon o'zi tug'ilib o'sgan Mo'g'ulistonni, shuningdek, Xitoyni uchinchi o'g'li va vorisi O'qtoyga berdi. Kenja o'g'li Tuluga esa Xuroson, Eron va Hindiston tegdi. Shunday qilib, mo'g'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlab, *udel* asosida boshqarishga kirishdi.

Shu tariqa XIII asr boshlaridayoq Chig'atoy tasarrufiga berilgan Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda Chig'atoy ulusi tashkil topdi. Bu feodal davlat XIV asrning 40-yillariga qadar yashaydi.

XIII asrning 70-80-yillariga kelib, Movarounnahrda astasekinlik bilan bo'lsa-da, shahar hayoti, xususan hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshladi. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa, mahsulot va pul munosabatlarining tiklanishida Ma'sudbek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U Movarounnahrning 16 ta shahar va viloyatlarida, jumladan Samarqand, Buxoro, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqardi. Ikki asr mobaynida Movarounnahrda kumush tangalar zarb qilinmaganligini nazarga olinsa, Ma'sudbekning pul islohoti tufayli mamlakatda mahsulot va pul munosabatlari tiklanib, shaharlar qisman bo'lsa-da ichki hayotining jonlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

XIV asrning birinchi yarmida yana bir chig'atoy xon Kebekxon davlatni idora etish tuzilishini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida ma'muriy hamda pul sohasida islohot o'tkazadi. Kebekxonning islohoti bo'yicha davlat viloyatlarga bo'linib, ular mo'g'ulcha „tuman“ deb yuritiladi. Ammo ma'muriy islohot mahalliy hokimliklar va bekliklarga barham bermaydi, balki ularga moslashadi. Kebekxon joriy qilgan ma'muriy bo'linish, garchi qadimiy an'analarga barham bera olmagan bo'lsa-da, u Movarounnahrda feodal davlatni mustahkamlashda ijobiy o'rin tutdi.

Kebekxon davrida ichki savdo-sotiqni tartibga solish, qo‘shni davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini yaxshilash uchun butun mamlakatda yagona pul joriy qilinadi. Kebekxon ikki xil pul: *kumush tanga* — „dinator“ va *mayda kumush tanga* „dirham“lar zarb etadi.

Chig‘atoy ulusi davrida O‘rta Osiyoda yerga bo‘lgan egalikning *to‘rt xili mavjud edi*:

1. Mulki devon — davlat yerlari,
2. Mulki inju-xon — noiblar va ularning avlodlari tasarrufidagi yerlar.
3. Mulki vaqf — masjid, madrasa, xonaqoh, mozor va maqbaralar ixtiyoridagi yerlar.
4. Mulklar — xususiy yerlar.

Mulklarning kattagina qismi harbiy ma‘murlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo‘lib, ular „iqto“ yoki „suyurg‘ol“ yerlari deb yuritilgan. Yirik yerlarda qaram bo‘lib ishlovchi dehqonlar esa „kadivar“ deb yuritilgan.

9. Amir Temur va temuriylar davlati tarixiy geografiyasi

Chig‘atoy ulusi davrida Movarounnahrdagi o‘zaro nizolar va tarqoqlikni tugatish maqsadida Amir Temur kurash boshlaydi. 1365 yilda Movarounnahr hukmdori deb tayinlangan Ilyosxoja qo‘shinlari bilan Temur va Husaynning ittifoqchi qo‘shinlari o‘rtasida Chirchiq daryosi bo‘ylarida bo‘lib o‘tgan jangda Ilyosxoja qo‘shinlarining qo‘li baland keladi va u Xo‘jand, Jizzax shaharlarini egallab, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandda bu paytda *sarbadorlar* harakati maydonga chiqib, mo‘g‘ullarning qo‘shiniga qarshi qaqshatqich zarba beradi. Ilyosxoja avval Samarqandni, so‘ngra esa butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Bundan xabar topgan Amir Temur va Amir Husayn Samarqandga keladilar. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay Amir Temur va Amir Husayn

o'rtasidagi munosabat keskinlashib, nizoga aylanadi. Amir Temurning nufuzi ortib borayotganidan xavfsiragan Amir Husayn Balxga qaytib, uning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. 1370 yilda Amir Temur Balxga yurish qilib, Amir Husaynni taslim qiladi.

1370 yilning 10 aprelida **Amir Temur Movarounnahr hukmdori** deb e'lon qilinadi.

Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib olgach, o'z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalo 1370 yilning may oyida Samarqandga qaytib shaharni tiklaydi. Maxsus qo'shin tuzib, davlat chegaralarini kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni birlashtirib, o'ziga bo'ysundiradi.

Mo'g'ullar davrida Xorazm ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat bo'lgan janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'ysungan. 1371 yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi.

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik hamda o'zaro nizolarga barham berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Keyinroq Shibirg'on viloyati, Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladilar.

Yigirma yil (1371-1390 yillar) mobaynida Amir Temur Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari ustidan g'alaba qozondi.

1395 yilda Shimoliy Kavkazning Tarak daryosi bo'yida Amir Temur va Oltin O'rda xoni To'xtamishxon qo'shini o'rtasidagi jangda Amir Temur g'alaba qozonadi va Oltin O'rda hokimiyatiga chek qo'yiladi.

1381 yilda Hirot, Saraxs, Jom shaharlari, keyinroq esa Eronning katta qismi Amir Temur hokimiyatiga bo'ysundiriladi. Uch yillik (1386-1388 yillar) harbiy yurishlar natijasida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi

yerlar egallanadi. 1392-1396 yillardagi besh yillik urush davomida Amir Temur G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egallaydi.

1398-1399 yillarda Amir Temur Hindistonga yurish qilib, bu hududni ham o'z tasarrufiga kiritadi.

1399-1404 yillardagi yetti yillik urush davrida esa Shomning Xalab, Kumis, Baalbek, Damashq kabi shaharlari, Bag'dod hamda Turkiyaning katta qismi egallanadi. 1402 yilda Anqara yaqinidagi jangda Boyazid Yildirim qo'shini yakson qilingach, Kichik Osiyo ham Temur hokimiyatini tan oladi.

1405 yili Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash avj oldi. Amir Temurning bu kurashda g'olib chiqqan o'g'li Shohruh Samarqand taxtini egalladi va 1409 yilda o'g'li Ulug'bekni Samarqand taxtiga o'tqazib, Movarounnahr hukmdori etib tayinladi. Ulug'bek davrida (1409-1449 yillar) mamlakatda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Ammo Mirzo Ulug'bek o'ldirilganidan keyin taxt uchun kurashlar yana avj oldi. 1451 yili Samarqand taxtini Mironshohning nabirasi Abu Said Mirzo egalladi. Uning vafotidan (1469 yil) keyin hokimiyat uchun kurashlar yana avj oldi, feodal tarqoqlik kuchaydi. Dashti Qipchoqda yashagan Shayboniyxon qo'shinlari Movarounnahrda yurish boshladilar. Bu vaqtda, ya'ni 1500 yili Andijon hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxtini egallab, uni mustahkamlay boshladi. Biroq 1501 yili Shayboniyxon bilan to'qnashuvda yengilib, Hindistonga ketishga majbur bo'ldi. Shunday qilib qudratli temuriylar saltanati inqirozga uchradi.

Amir Temur davlatining siyosiy tuzumi haqida gapiradigan bo'lsak, u o'z davlatini barpo qilishda o'tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Mazkur davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra ko'pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Qudratli hukmdor tarix faniga ixlos qo'yanidan bo'lsa kerak, qadimgi va o'rta asr Sharq mamlakatlaridagi turli davlatlar va ularning siyosiy hamda ma'muriy usuli, boshqaruv tizimlari haqida keng tasavvurga ega edi. Biroq uning davlat boshqaruv tizimi qo'l ostidagi butun hududda yagona markaz-

lashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan bo'lib, bu sohadagi tajribalar o'rta asrlardagi O'rta Osiyo davlatlarida keng qo'llanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi.

Boshqaruv ikki idoradan: *dargoh* va *vazirlik* (devon)dan iborat bo'lgan. Dargohni oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo'lgan.

Oliy devonda — ijroiya hokimiyatda bosh vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan. Sarhadlar va tobe' mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lgan va devonbegiga hisobot berib turgan. Markaziy hokimiyat tizimida *shayxulislom*, *qozikalon*, *qoziyi axdos* (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi), *qozi askar*, *sadri a'zam* (vaqf yerlari mulklari mutasaddisi), *dodxoh* (shikoyatlarni ko'ruvchi), *eshikog'a*, *saroy vaziri*, *yasovul* (hukmdorning shaxsiy buyrug'ini bajaruvchi), *qalaqchi* (xiroj miqdorini aniqlovchi), *muhassil* (soliq undiruvchi), *tavochi* (asosiy qo'shinlarni to'plash ishiga mutasaddi amaldor), *qorovulbegi*, *qutvol* (qal'abon), *muhtasib* (shariat qoidalari ijrosini, bozor tartiblarini nazorat qiluvchi) va boshqalar bo'lgan.

Shuningdek, dargohda *bosh hojib*, *hojiblar*, *xazinabon*, *xonsolar jibachi*, *qushchi*, *bakovul*, *kotiblar*, *bitikchilar*, *tabiblar*, *sozandalar*, *dorixonachilar* bo'lgan.

Amir Temur davrida Movarounnahrda aholining yashash darajasi va sharoiti yaxshilangan. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bilan oddiy aholining tinch va osuda yashab, mehnat qilishiga shart-sharoitlar yaratildi.

Mo'g'ullar istilosi davrida va undan keyin Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etguniga qadar O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarning xalq ommasi nihoyatda og'ir azob-uqubatlar, qiyinchiliklar bilan hayot kechirayotgan edi. Mo'g'ullarning vayrongarchilik va buzg'unchilik ishlari tufayli mehnatkash aholining yashash sharoiti quyi darajaga tushib qoldi. Xo'jalikni qayta tiklash ishlari e'tiborsiz bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ullar

xalq boshiga turli soliqlar soldilar, ular orasidan ba'zilarini qullarga aylantirdilar.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u mamlakatda qayta tiklash ishlari, obodonchilik, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratdi. Turli toifaga mansub mulk sohiblarini bir qo'l ostida birlashtirdi. Qattiq intizom har qanday zodagonni o'z hukmdori oldida bosh egishga majbur qilar edi. Mehnatkash xalq, jumladan hunarmand qatlamiga mansub kishilarning yashash darajasi ancha yaxshilandi. Shaharlarda, madaniyat markazlarida yaratuvchilik, obodonchilik ishlari nihoyatda kuchayib ketdi.

Amir Temur davlatining sarhadlari keng edi. U nafaqat hozirgi O'rta Osiyo balki, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Kavkaz, Qozog'iston, Iroq singari mamlakat va hududlarni o'z tarkibiga olgan edi. Ijtimoiy tuzum masalasida to'xtalganimizda, aynan shu joylardagi aholining turli qatamlari, ularning o'zaro nisbati, bir-biriga aloqadorligini nazarda tutishimiz mumkin.

Ijtimoiy tuzumni biz mulk egaligisiz tasavvur qila olmaymiz. XV asrda ziroatchilik bilan mashg'ul qishloq ahli orasidan ma'lum qismi imtiyozli haq-huquqlar egasi bo'lgan. Ular davlatga juda oz miqdorda soliq to'lashgan. Aholining juda katta qismini ijarachi-chorikorlar va jamoatchi dehqonlar tashkil qilgan. Qishloqlar *jamo*a yoki *qariya* deb nomlangan. Uning mulki butun jamoa ahliga qarashli edi.

Hunarmandchilik sohasida asosiy ishlab chiqaruvchi ijtimoiy toifa vakili erkin hunarmandlar bo'lgan. Ular shaharda yashovchi savdogarlar bilan bir qatorda madaniy markazning o'rta hol toifalari vakillari sanalganlar. Bular jumlasiga amaldorlar va o'rta hol islom peshvolarini ham kiritish mumkin.

Amir Temur o'ziga tobe mamlakatlarning sipohu raiyat kayfiyatini, turmushini biror kishi ularga jabr sitam qilsa, ularni jazolash tadbirlarini o'z qonunlarida qayd etib o'tgan.

Har bir shaxs o'z qobiliyati va o'z xohish irodasiga ko'ra, shuningdek, bilim va tajribasiga muvofiq muayyan vazifani egallay olar edi. Albatta, u o'sha ishni va amalni uddalay olsa, o'z

harakatiga muvofiq ijtimoiy qatlamning yuqoriroq darajasiga ko'tarilardi.

Temuriylar davrida esa mamlakatda tez-tez sodir bo'lib tura-digan ichki urushlarga qaramasdan XV asrda ham Movarounnahr va Xuroson shahar hamda qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshiriladi.

Bu davrda temuriylar va ularning viloyat hokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida, Tus vodiysida hamda Hirot va uning uning atrofida yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, ayrim dehqonchilik viloyatlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug'orish ishlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh olgan, Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi bo'ldi. Bu kanal orqali Zarafshon daryosi oqimining bir qismi bu davrda kam suvli Qashqadaryo vohasiga tashlanib, uning adog'ida joylashgan dehqonchilik yerlari suv bilan ta'minlanadi.

Buxoroning qadimgi sug'orilgan yerlari bo'ylab olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, mo'g'ullar bosqini oqibatida butunlay vayron etilgan voha suv xo'jaligi XV asrga kelib to'la tiklanadi. Uning dehqonchilik yer maydoni bir muncha kengaydi. Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Butun asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning asosan to'rt shakldagi „mulki devoniy“ – davlat yerlari, „mulk“ – xususiy yerlar; „mulki vaqf“ – madrasa va ibodatxonalar tasarrufidagi yerlar va nihoyat „jamo'a yerlari“ bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarda avvalgidek mamlakat hukmdori Sulton yoki amirlar egalik qilardi. Temuriylar davrida davlat yerlarini „suyurg'ol“ tarzida in'om qilish keng tarqaladi. Suyurg'ol yerlari hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega bo'lgan shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lingan. Odatda shahar yoki

viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan.

Temuriylar davrida Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlari aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining namunali hunarmandchilik va gavjum savdo markaziga aylanadi. Hunarmandchilikning rivoj topib, uning turli-tuman tarmoqlari bo'yicha ixtisoslanishining kuchayishi shaharlarni ham o'zgartirib yuboradi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'cha-ko'ylar, timlar va toqilar (usti gumbazli bozor) paydo bo'lgan. Ko'pgina shaharlarda *zargarlik*, *miskarlik*, *ignasozlik*, *sovutsozlik*, *toshtarashlovchilar*, *shishasozlar*, *ko'nchilik* kabi hunarmandchilik mahallalari bo'lgan.

Shaharlarda, xususan Samarqand va Hirotda *zargarlik* rivoj topadi. Shahar zargarlari orasida oltin, kumush, va jez qotishmalaridan turli xil zeb-ziynatlar va qimmatbaho buyumlar yasaydigan va ularga nozik did bilan nafis badiiy ishlov beruvchi mohir ustalar soni ko'payadi. Odatda naqshinkor badiiy buyumlar boylik hashamlari hisoblanib, ular faqat mulkdor tabaqalargagina mansub edi. Bunday qimmatbaho jihozlarni yasaydigan hunarmand-zargarlar mutlaq mulkdorlarga xizmat qilishar va ular bilan yaqindan aloqada bo'lardi.

Samarqand hunarmandchiligida, ayniqsa, *qog'oz ishlab chiqarish* alohida o'rin tutadi. Shahar yaqinida, Obirahmat anhuri sohilida qog'oz ishlab chiqaradigan maxsus objuvozlar va korxonalar bo'lgan. Samarqand qog'ozi o'rta asr sharqi hattotligida g'oyat mashhur bo'lib, uning ma'lum bir qismi chet o'lkalarga chiqarilgan.

XV asrda temuriylar davlati uzoq va yaqin qator qo'shni mamlakatlar: Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rusiya, Volga bo'yi va Sibir bilan muntazam savdo-sotiq qilardi. Xitoydan asosan

ipak, shoyi, matolar, xususan atlas va parchalar, chinni, la'l, nil bo'yoqlari, xushbo'y ziravotlar; Erondan surp, marvarid, durlar; Rusiya, Tatariston va Sibirdan qimmatbaho mo'yna, teri, va mo'm olib kelinar edi. Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar orasida farang gazmollari, movuti, cherkas pichog'i bor edi.

Samarqanddan chet mamlakatlariga, xususan Rusiya, Tatariston va Sibirga arzon narxli ip matolar, asosan *bo'z duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta va kalava* (yigirilgan ip)lar chiqarilgan.

Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishda temuriylarning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik aloqalarida katta rol o'ynaydi. XV asrning birinchi choragida Ulug'bek va Shohruh davlatlari bilan Xitoy o'rtasida muntazam ravishda elchilar almashib turiladi. Xitoy temuriylar bilan savdo qilishdan manfaatdor edi. Movarounnahr va Xurosondan u *yilqi* sotib olardi. Har ikkala davlat o'rtasidagi savdo va elchilik aloqalari bu davrda yanada rivoj topadi.

XV asrda, xususan uning birinchi yarmida mamlakatning iqtisodiy hayotida, ayniqsa hunarmandchilik va ichki savdo munosabatlarida sodir bo'lgan taraqqiyot ma'lum darajada shu davrda o'tkazilgan pul islohoti bilan ham bog'liq edi. Ma'lumki, Ulug'bek 1428 yilda muomalada *fulusiy* pullar islohotini amalga oshirdi. Mehnatkash aholini ichki chakana savdo munosabatlariga kengroq jalb etish maqsadida Ulug'bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni man etdi. Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida u Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettirdi va muomalaga chiqardi. Eski chaqalar qisqa vaqt ichida yangi fuluslarga almashtirib olingach, mis pullar zarbini markazlashtirish maqsadida faqat Buxoro zarbxonasi saqlanib qolinib, boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham beriladi.

Ulug‘bekning bu yangi mis fuluslari Movarounnahrning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqd pul bilan to‘la ta‘min etadi.

10. Shayboniylar, ashtarxoniylar davlatlari va Xorazmning siyosiy va iqtisodiy geografiyasi (XVI-XVIII asrning birinchi yarmi)

Dashti Qipchoqdan bostirib kelgan Shayboniyxon boshliq qo‘shinlar qariyb 10 yil (1501-1510 yillar) ichida Sirdaryodan Markaziy Afg‘onistongacha bo‘lgan hududlarni, jumladan temuriylarning Movarounnahr va Xurosondagi barcha mulklarini qo‘lga kiritdilar. 1510 yili Shayboniyxon Eron shohi Ismoil I bilan bo‘lgan jangda yengilib, qatl qilindi. Xuroson Ismoil I qo‘liga o‘tdi.

Movarounnahrni shayboniy avdodlari o‘z qo‘llarida saqlab qoldilar. Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin Ko‘chkun-chixon (1510-1531 yillar) va Abu Sa‘id (1531-1533 yillar) davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar o‘rtasida nizo kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqdi va Turkiston yerlari parchalandi. O‘zaro urushlarga birmuncha barham bergan Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o‘g‘li Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo‘lgan bo‘lsa, 1533 yildan butun markazlashgan o‘zbek davlatining oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chirdi.

Shayboniylar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar natijasida Movarounnahr ikkiga bo‘linib, mustaqil Xiva xonligi ajralib chiqdi. Shayboniylardan Abdullaxon II hukmronligi davrida (1557-1598 yillar) Movarounnahrda feodal tarqoqliklarga barham berilib, oltin va kumush tangalar zarb qilindi, karvonsaroylar, sug‘orish inshootlari (Abdullaxon bandi) qurildi. Buxoro mamlakat markaziga aylandi. Abdullaxon II vafotidan keyin taxtni egallagan shaybo-

niylarning so‘ngi vakili Abdulmo‘min feodal zodagonlar tomonidan o‘ldirildi.

Shayboniylardan keyin Buxoro taxtini egallagan sulola — *ashtarxoniyalar* (kelib chiqishi Astraxandan bo‘lganligi uchun) yoki *joniylar* (sulola asoschisi Jonibek sulton nomidan olingan) hukmronligi o‘zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr hisoblanadi. Oliy hokimiyatni 150 yildan ortiqroq (1601-1756 yillar) davr mobaynida o‘z qo‘llarida saqlab kelgan ashtarxoniyalar davrida markaziy davlat hokimiyati juda zaiflashdi, o‘zaro urushlar nihoyatda avj oldi. Abdullaxon II ning sa‘y-harakati bilan barpo etilgan ulkan Buxoro xonligi hududi qisqarib ketdi. Markaziy hokimiyat mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilolmaganligi, hududiy yaxlitlikni ta‘minlay olmaganligi sababli XVII asr boshlaridayoq Xurosonning katta qismi qo‘ldan boy berildi. Xorazmda mustaqil Xiva xonligi barpo etildi. XVIII asr boshiga kelib esa xonlikning shimoliy chegaralarida Qo‘qon xonligiga asos solindi.

Ashtarxoniyalar davlati tizimi o‘z tuzilishi, mohiyatiga ko‘ra shayboniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmas edi. Xon rasman oliy hokimiyat boshlig‘i bo‘lib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog‘liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinardi. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy qilinar, uning nomidan tangalar zarb qilinar, xonning nomi xutbada qo‘shib o‘qilar edi. Lekin amalda ko‘pgina ashtarxoniy hukmdorlar yirik saroy amaldorlari qo‘lida to‘plangan bo‘lsa, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo‘lib, davlat tizimining beqarorligiga, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarga olib kelar edi.

Ashtarxoniyalar davrida Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo‘lib, uni taxt vorisi boshqarar edi. Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo‘lib, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi.

Ashtarxoniyalar davrida Buxoro xonligi hududi keskin qisqarib, XVII asr boshlariga tegishli manbalarda xonlikka bo‘ysunuvchi oltita viloyat - Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O‘ratepa, Shahrisabz

va G'uzor viloyatlari tilga olinadi, xolos. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Balx viloyatlari qayta bo'ysundirilgan bo'lsa-da, Xurosondagi bir necha yirik viloyatlar (Hirot va boshqa hududlar) va Xorazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqdi. Xonlikka bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'pgina viloyatlar, xususan Hisor, Shahrisabz amalda yarim mustaqil boshqarilib, Buxoroga nomigagina tobe hisoblanardi. Viloyatlar xuddi shayboniylar davridagidek tumanlarga va boshqa ma'muriy birliklarga bo'lingan.

Xorazm xonlari (Abulg'ozixon, Anushaxon) Buxoro va Samarqand atroflarini tez-tez talab turdilar. Eron va Hindiston hukmdorlari Movarounnahr ichki ishlariga aralasha boshladilar. Ubaydullaxon davrida (1701-1711 yillar) feodal tarqoqlik kuchayishidan foydalangan Mahmudbiy otaliq (qatag'on urug'idan) 1706 yili Balxda hokimiyatni qo'lga oldi. Ubaydullaxon o'ldirilgach, uning o'rniga taxtga o'tirgan Abulfayzxon (1711-1747 yillar) nomigagina xon bo'lib, aslida hokimiyat bir guruh nufuzli amirlar qo'lida edi. 1740 yili Abulfayzxon davlati Eron shohi Nodirshohga qaram bo'lib qoldi. 1747 yili Abulfayzxon saroy fitnachilari tomonidan o'ldirildi. Abulfayzxonning taxtga o'tqazilgan 9 yashar o'g'li Abdulmo'min ham bir yildan keyin o'ldirildi. Uning o'rniga ukasi Ubaydullo nomigagina xon bo'lib, aslida davlat ishlari mang'it urug'i boshlig'i, otaliq Muhammad Rahim qo'lga o'tdi. Muhammad Rahim davlat boshliqlari va ruhoniylarni ko'ndirib, 1753 yili Buxoro taxtini egalladi. Shundan boshlab Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlandi.

Iqtisodiyotni tartibga solish, savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida 1507 yilda pul islohoti o'tkazilib, markaziy shaharlarda vazni bir xil bo'lgan (5,2 gramm) kumush va mis chaqa pullar zarb qilindi. Asosan markaziy hokimiyatning siyosiy, iqtisodiy mavqeini kuchaytirish, shayboniy xonlari va beklari hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan bu islohot Shayboniyxon vafotidan keyin kuchayib ketgan o'zaro urushlar natijasida yaxshi natija

bermadi va pul qadrsizlandi. 1515 yilda oliy hukmdor Ko'chkunchixon pul islohoti o'tkazishga majbur bo'ldi. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida o'tkazilgan pul islohotlari xonlik iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etib, markaziy hokimiyatning kuchayishi, xazinaga foyda tushishi va savdo-sotiqning jonlanishiga yordam berdi. Pul islohotini bosqichma-bosqich o'tkazgan Abdullaxon II oltin, kumush, mis pullarni otasi nomidan (1560-1583 yillar) chiqarganda mamlakatda bir qancha shaharlarda pul zarb qilingan bo'lsa, mustaqil hokimiyatni boshqargan yillarda (1583-1598) asosan Buxoroda markazlashgan pul zarb qilishni yo'lga qo'ydi. Manbalarga qaraganda, Abdullaxon II ba'zan Balx, Samarqand hamda Toshkentda kam miqdorda pul chiqarishga ruxsat bergan.

Iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish asosiy rol o'ynaganligi sababli shayboniylar davrida suv inshootlari qurilishiga ancha e'tibor berildi. 1502 yilda Zarafshon daryosida qurilgan suv ayirg'ich, 1556-1585 yillarda Qashqadaryo, Zarafshon, Amudaryo, Murg'ob va Vaxsh daryolaridan chiqarilgan kanallar, suv ayirg'ich va suv omborlari buning yaqqol misoli bo'la oladi.

Xonlik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik bo'lib, yer asosiy boylik hisoblangan. Shayboniylar davrida mulkiy munosabatlarda aytarli o'zgarishlar yuz bermadi. Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbeklar yer egaligi munosabatlarini boshidan kechirayotgan bo'lib, ular Movarounnahrda yangi ishlab chiqarish munosabatlarini olib kelganlari yo'q, balki temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qabul qildilar hamda unga moslashdilar.

Yer egaligining *mulki sultoniy* (davlat yerlari), *mulki xolis* (xususiy yerlar), *vaqf* (diniy mahkamalarga qarashli yerlar) va *qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar* kabi asosiy turlari bo'lib, ular *iqto*, *suyurg'ol*, *tanho* va *jog'ir* ko'rinishida bo'lgan. Davlat oldidagi xizmatlari uchun harbiy-ma'muriy amaldorlarga va din arboblari beriladigan bunday yerlarda yersiz dehqonlar ishlaganlar. Ular ham amaldorga ham davlatga soliq to'laganlar. Shayboniylar davrida

chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan bo'lib, ular yetishtirgan mahsulot ichki va tashqi bozorlarda sotilgan. Hindiston, Eron, Rossiya kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilingan.

Ashtarxoniylar davrida tashqi savdo aloqalari rivojlandi. Xususan, Rossiyaning turli savdo shaharlari, (Astraxan, Orenburg, Sibirdagi shaharlar) Hindiston, Eron, Qoshg'ar, Turkiya bilan savdo-sotiq olib borildi. Tashqi bozorga, asosan, turli qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqarilardi. Bu davrda *paxta, teri, jun, turli matolarning* asosiy xaridori sifatida Rossiya katta ahamiyatga ega bo'la boshladi. Rossiyaga, shuningdek, Hindistonda tayyorlanadigan mahsulotlarni olib borishda ham O'rta Osiyolik savdogarlar muhim rol o'ynar edilar. Rossiyadan O'rta Osiyoga olib kelinadigan mahsulotlarga talab ancha kattaligi bois, Buxorolik savdogarlar bu yerda ko'pgina imtiyozlarga ega edilar. Manbalarda ta'kidlanishicha, Buxoro savdogarlarining Sibir shaharlarida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi o'z savdo rastalari bo'lib, ular bu shaharlarda nafaqat savdogar, balki bilimdon va o'qimishli kishi sifatida ham katta mavqega ega bo'lishgan.

Buxoro xonligi bilan Xiva xonligi o'rtasida garchi o'zaro nizolar bo'lib turganligiga qaramasdan, ikki o'rtadagi iqtisodiy savdo aloqalari to'xtab qolmaganligini ham aytib o'tish lozim.

Savol va topshiriqlar

1. *O'rta Osiyo hududida ilk feodal davlatlarning tashkil topishi va ularning tarixiy-siyosiy geografiyasiga tavsif bering.*

2. *O'rta Osiyoda arablar bosqiniga qarshi qanday harakatlar bo'lib o'tgan?*

3. *Tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlarining tarixiy geografiyasi (chegaralari, iqtisodiy aloqalari, shaharlari)ga oid ma'lumot to'plang.*

4. *O'rta Osiyoning qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlatlari davri tarixiy geografiyasiga doir tarixiy karta yarating.*

5. Mo'g'ullar bosqini va unga qarshi O'rta Osiyo xalqlarining ozodlik harakatlari haqida nimalarni bilasiz?

6. Internet veb-sahifalaridan Amir Temur va temuriylar davlatining ma'muriy-siyosiy chegaralari, iqtisodi haqida ma'lumot to'plang.

7. Shayboniylar, ashtarxoniylar va Xorazm davlati davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasining xususiyatli jihatlari nimalardan iborat?

Mavzuga doir manba

«Книга Большому Чертежу» (XVII asr birinchi choragi) da qayd etilgan Qirg'iz (qozoq) dashtlari va Turkiston o'lkasi geografik nomlarining alifbo ko'rsatkichi

Oqboshli, Akbashl, Akbalish — ko'l. Oqsoqol-barbi yoki Oqsoqoltov ko'li, Irgiz daryosiga quyiladi.

'Akkal — Oqko'l ko'li, Jilanchik daryosiga quyiladi.

Aknurg'on — Oqqo'rg'on shahri, Turkiston va Toshkent o'rtasida. Hozirda mavjud bo'lmagan va o'rni noma'lum.

Amudaryo, Amedariya — Amudaryoning o'ng tarmog'i (shohobchasi).

Ara-kum — Qumliklar, Orol dengizi, ehtimol, kichik Barsuklar hududlariga qadar tutushgan.

Araltov tog'i — Orol-tov, ehtimol, Ural tizmasining janubiy qismi bo'lib, Ural bo'ylab Orskka tomon yo'nalgan.

Arzas, Argas, Azar, Arzan, Arza — Orol va Kaspiy dengizlari oralig'idagi mavjud bo'lmagan irmoq.

Arkan, Yarkan — Turkiston ortidagi shahar, ehtimol, O'tror.

Aspaga, Asputa — Ural daryosiga yetib bormagan daryolardan biri, ehtimol, Buldurti.

Barsuk-qum — katta Barsuq qumliklari, Orol dengiziga qadar tutashgan.

Katta No'g'aylar – xalq. Qirg'iz (qozoq) dashtlarining g'arbiy qismida istiqomat qilishgan.

Bo'zin – Ginchal – Ilgen, Bo'zin – Ginchan – ilgin, Bo'zin – Ginchal – Ilgen – daryo, ehtimol, Ulkayak, To'rg'ayning o'ng shoxobchasi.

Buxoro shahar.

Buzuvluk – Buzuluk daryosi, Samarga quyilgan.

Vor – Or daryosi, Orsk yaqinida Ural daryosiga quyilgan.

Qizilboshlilar yerlari – Persiya (Eron).

Qo'sh Yoyiq – Orol, Ilek daryosining Uralga quyilishi yerida, Kazak shaharchasi joylashgan yerda.

Kuuyey, Kuyey – Uralga etmaydigan daryo, Qaldig'ayti daryosi bo'lsa kerak.

Oil – Uil daryosi, Qorako'l ko'liga quyiladi.

Sairyam – Sayram shahri, Chimkentdan 20 verst sharqda. Sarsa,

Sarsu – Sarisuv daryosi, Sirdaryoga tomon oqib, unga etmasdan Teleko'l ko'liga quyiladi.

Sauk – To'rg'ay daryosining ehtimol quyi qismi, Sariko'l ko'lidan to uning Irgiz daryosi bilan qo'shilishigacha bo'lgan qismi.

Sinee dengizi – Orol dengizi.

Sorillar – uchta daryo, Ulatovdan boshlanib, ehtimol yuqori daryo Tersakan Ishim daryosiga quyilgan, o'rta va quyisi Sari va Qora To'rg'ay.

Sunak – Saganak, Sunak shahri, Julek ortida joylashgan.

Sungurluk – daryo, so'l tomondan Ilek daryosiga quyilgan, ehtimol Xobda.

Sir – Sirdaryo daryosi.

Tokshur, Tashkun, Tashkur – Toshkent shahri.

Temirsu, Temir, Temirisu, Termisu, Temir – Temir daryosi, so'l tomondan Embaga quyiluvchi daryo.

Tustebe, Turtebe yoki Tuzli tog' – Tuzitepa yoki Tuzli tog', Ilesk qo'rg'onida.

Tyurkistan - Turkiston shahri.

Urus, Ugus, Agus – qadimgi Oksus daryosi, Amudaryo.

Ulutova yoki Ulug' tog' – Ulutov tog'lari, To'rg'ay va Oqmola viloyatlari chegaralarida.

Xvalim dengizi – Kaspiy dengizi.

Gem – Emba daryosi, Kaspiy dengiziga quyilgan. Zelenchik, Zelanichik – Jilanchik daryosi, Oqko'l ko'liga quyilgan.

Ilez, Izle – Ilek daryosi, Ilesk shaharchasi yaqinida Ural daryosiga quyilgan.

Inder, Ayder – tog', Ural daryosi yaqinidagi sho'r suvli Inder ko'li.

Irgiz – daryo, To'rg'ay daryosi bilan qo'shib, Oqsoqol-barbi ko'liga quyilgan.

Kogon – shahar, Xiva xonligidagi Kat shahri bo'lishi mumkin.

Qaynar-Saksiz – Sagiz daryosi, Kaspiyga quyilmagan, Embadan shimolroqda.

Kazak shaharchasi – Orolchada, Ilek daryosining Uralga quyilishi yerida, bu haqda ko'p chalkash tasavvurlar mavjud.

Kazak o'rdasi – xalq, o'zlarini kazaklar (qozoqlar) deb atashadi, bu yerda (kitobda) qirg'iz deb atalgan.

Qalmiqlar – xalq, XVI asrda Jung'oriya va Qirg'iz (qozoq) dashtlarining sharqiy qismida istiqomat qilishgan.

Qorabas tog'i, tog'da esa shahar – Tyanshan tog'lari, shahar esa ehtimol, Samarqand bo'lishi mumkin.

Qoraqum; Parqum, Araqum, Arashka – qumliklar. Orol dengizi va Sir daryosigacha qadar yoyilgan.

Qoragol, Qoragul yoki Qora ko'l – Qorako'l ko'li, Uil daryosi quyilgan.

Qorachatov tog'i – Qoratov tog'lari, Tyanshan tog'larining tarmog'i, parallel yo'nalishda Sir daryosining o'rta oqimiga qadar cho'zilgan va Julak yaqinida tugagan.

Kenderlik, Kanderlik – daryolar, Ulatov tog'idan boshlanib, biri Sir daryosiga, ikkinchisi esa Sarisuv daryosiga quyilgan.

Birinchisi hozirda mavjud emas, ikkinchisi Kingir nomi bilan ataladi.

Yurgench, Yurgen – Xiva xonligidagi Urganch shahri.

Yurgen, Yunger, Yungern, Yurgechen, Yurgevsk yerlari – Xiva hududlari.

Yuryuk, Yurok, Uryuk, Uruk, Uruk – Ayyurk tog‘i va umuman Mug‘ojar tog‘lari.

Yuryuk-Irgiz – Chit-Irgiz daryosining Ulu Irgizning quyi qismi bilan birgalikdagi nomi.

Yoyiq – Ural daryosi.

Yasirvon – Sauran shahri, Turkistonga etmasdan.

Yungurgan – Yangiqo‘rg‘on shahri, Turkiston va Toshkent o‘rtasida, hozirda mavjud bo‘lmagan va o‘rni aniqlanmagan.

(Макшеев А. Географические сведения Книги Большого Чертежа о Киргизских степях и Туркестанском крае// Изв. РГО.- Т. XIV. 1878)

V BOB.

O'RTA OSIYO XONLIKLARINING XVIII ASR IKKINCHI YARMI-XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

1. O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy tarixiga tavsif

Buxoro taxtiga mang'it urug'idan bo'lgan Muhammad Rahim otaliq o'tirgan (1753 yil)dan keyin ham feodal tarqoqlik tugamadi. Xiva xoni o'zini mustaqil deb e'lon qildi. XVIII asr boshlarida o'zbeklarning ming urug' boshliqlari Qo'qon xonligini tashkil etdilar. Shahrisabz, Hisor, Badaxshon hokimlari Buxoro amiriga bo'ysunmay qo'ydilar. Faqat amir Shomurod davrida (1785-1800 yillar) hokimiyat bir muncha mustahkamlandi. Amir Nasrullo davrida (1826-1860 yillar) amirlik hududiga Amudaryo bo'ylari, janubi-sharqida Surxondaryogacha bo'lgan yerlar, Marv va Balx kirar edi. 1842 yili Qo'qon xonligi ham qisqa muddatda zabt etildi.

1512-yili Xiva xonligiga o'zbeklar xoni Elbarsxon tomonidan asos solingan edi. Xonlikning poytaxti dastlab Vazir, keyinchalik Urganch va Xiva bo'lgan. Buxoro amirligi tomonidan bir necha bor bosib olingan Xiva xonligi XVIII asr o'rtalarida yana mustaqillikni qo'lga kiritdi. 1763 yilgi taxt uchun davom etgan kurashlardan so'ng o'zbek urug'laridan bo'lgan *qo'ng'irot inoqlari* taxtni egalladilar. Muhammad Rahimxon I davrida (1806-1825 yillar) Xiva xonligi to'la birlashtirildi, qo'shni mayda bekliklar, Orol bo'yi qabilalari qo'shib olindi.

Qo'qon xonligiga *ming urug'*idan chiqqan Shohruhbiy 1710 yili asos solgan bo'lib, Norbo'tabiy davrida (1769-1800 yillar) Chust, Namangan, Xo'jand bekliklari bo'ysundirildi. Olimxon davrida (1800-1809 yillar) Toshkent, Chimkent, Sayram bekliklari bosib olindi. Muhammad Alixon (1822-1842 yillar) 1826 yili

xitoylarga qarshi qo'zg'olon ko'targan Sharqiy Turkiston aholisiga yordam berib, Oqsuv, Qoshg'ar, Yorkent va Xo'tan viloyatlarini qo'lga kiritdi.

1842 yili Qo'qonga bostirib kelgan Buxoro amiri Nasrullo Muhammad Alixon va uning qarindoshlarini qatl ettirdi. Shundan keyin Qo'qon xonligida taxt uchun kurashlar boshlandi. 1845 yili taxtga o'tirgan Xudoyorxon ruslar bostirib kelgandan keyin, ular bilan bitim tuzib, Rossiya vassaliga aylandi. Bunga qarshi Farg'ona vodiysi aholisi qo'zg'olon ko'tardi. 1876 yili chor Rossiyasi harbiylari qo'zg'olonni bostirdilar va bahonada Qo'qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligiga qo'shib yuborildi.

2. Xonliklarning ma'muriy-hududiy chegaralari

XIX asrga kelib, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjuy shaharlari uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun

Buxoro amirligi bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida tez-tez urushlar bo‘lar, bu shaharlar qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turardi.

Buxoro amirligi 27 beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘, G‘uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo‘y, Hisor, Ko‘lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho‘g‘non-Ro‘shon, Qo‘rg‘ontepa, Qabodiyon Kalif, Bo‘rdalik, Qobog‘li va Xorazm bekliklaridan iborat edi. Bekliklar mahalliy qabila boshliqlari, katta mulk egalari tomonidan boshqarilgan.

Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo‘yiladigan hokimlar - beklar idora qilgan. Hokim huzurida yuzlab mahalliy ma‘murlar xizmat qilgan. Manbalar, amirlikda mahalliy ma‘murlar soni 30 ming kishini tashkil etganligidan guvohlik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to‘lovlar hisobiga tirikchilik qilganlar.

Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo‘ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko‘hna Urganch, Xazorasp, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O‘rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo‘lgan Xiva shahri 1598 yildan boshlab xonlikning poytaxti bo‘lgan. Shahar ikki qism – **Ichan qal’a** (shaharning ichki qismi) va **Dishon qal’a** (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qal’ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842 yilda Dishan qal’a qurilib, devor bilan o‘rab olingan. Dishan qal’ada *hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar*, qisman *dehqonlar* istiqomat qilganlar.

Ma‘muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko‘hna-Urganch, Qo‘shko‘prik, Pitnak, G‘azovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz, Ambor-manoq, Urganch,

Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'iro't kabi beklik va viloyatlarga bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyotqo'ng'iro't noibliklari ham bo'lgan. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar huzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p mansabdorlar bo'lgan.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan.

Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markaziy shaharlari Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan Farg'ona vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi.

Qo'qon xonligi 15 beklik, ya'ni harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig'i ham edilar. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zlari moddiy jihatdan ta'minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da'vati bilan o'z qo'shinlari bilan belgilangan joyga yetib kelishlari shart edi. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtacha sipohni yig'a olardi.

3. Xonliklarning aholisi va iqtisodiy geografiyasi

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilar edi. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik

hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari — Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin kishi istiqomat qilardi.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm-urug'lardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida *mang'it, saroy, qo'ng'iroq, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz* qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular, asosan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilar edilar.

Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi *o'zbek, shuningdek, tojik, qirg'iz, qozoq, uyg'ur, qoraqalpoqlardan* iborat edi. Bular bilan yonma-yon *yahudiy, tatar, hind* va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar.

Xiva xonligida aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari *qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq* qabilalari edi. O'zbek qabilalari, asosan, Amudaryo tarmoq yoygan qismda, kanal bo'ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to'rt dan birini) *turkmanlar* tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forscha so'zlashuvchi mahalliy xalqlar va o'zbeklar bilan qorishib ketgan edi.

Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg'uloti edi.

Buxoro amirligida aholining aksariyat qismi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'oriladigan yerlarda *paxta,*

bug'doy, sholi, jo'xori ekilib, bog' va poliz mahsulotlari ham yetishtirilgan. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l yetishtirish; hunarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, tegirmonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moyjuvoqlik, sovungarlik keng rivojlangan.

Amirlikning iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg'unlik hollari mavjud edi, aholining turmushi past darajada edi. Yerga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelmoqda edi. Shuningdek, aholiga solinadigan soliq va jarimalar haddan tashqari ko'p edi. Aholining sotib olish qobiliyati pastligi hunarmandchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Hunarmandlar ozgina daromadga ham qanoat qilardi, ustaxonalarni kengaytirishga mablag' topolmasdi.

Qo'qon xonligida 1803 yilda bunyod etilgan Xon va Zarbak, 1819 yildagi Yangiariq kanallari vodiya sug'orish ishlarining unumini ancha oshirdi.

Xiva xonligida Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida o'tkazilgan soliq islohoti, bojxonaning joriy etilishi, oltin pul chiqarilishi xo'jalik ishlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z vaqtida yig'ib olingan soliqlar xonlik xazinasi, daromadini oshirdi. Xonlikda sun'iy sug'orish borasida oldingi asrlarga qaraganda ko'p ish qilingan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgan, bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoro amirligining siyosiy-ma'muriy tuzilishi qanday tartibda bo'lgan?

2. Xiva, Qo'qon xonliklarining ma'muriy-hududiy bo'linishini kartadan belgilang.

3. Xonliklarning xo'jalik hayoti haqida nimalarni bilasiz?

4. *Xonliklarning aholisi va savdo aloqalari haqida tarixiy manbalardan ma'lumot to'plang.*

5. *Xonliklarda hukmronlik qilgan sulolalar tarixiga doir ma'ruza tayyorlang.*

Mavzuga doir manba

Xiva va xivaliklar haqida

Xiva mulklarini Kaspiy dengizi tomonidan turkmanlar bilan Eron hududlari, keyin Buxoro va qisman jung'or mulklari qoraqalpoqlar, orolliklar va qirg'iz-qaysoqlar bilan chegaradosh yerlar o'rab turadi. Buxoro, Balx va Badaxshondan Orenburgga yo'l olgan savdo karvonlari Xiva mulklarini chetlab o'tolmaydilar. Shuning uchun ham Orenburg tijoratida Xiva shahri asosiy markaz hisoblanadi. Xiva xoni va o'zbeklariga hurmatsizlik qilish yaxshi emas. Chunki ular ushbu savdo munosabatlariga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bu savdoning rivoji ular bilan munosabatlarga bog'liq. Rossiya fuqaroligi ostida bo'lgan qirg'iz-qaysoq dasht xalqi (ular orqali Orenburgga va Orenburgdan kelayotgan savdo karvonlari Xiva mulklari orqali ham o'tishi lozim) tinchgina yashayotganligi va xivaliklar tomonidan ularga hech qanday zarar yetkazilmayotganligi, Orenburg guberniyasi bilan chegaradosh bo'lganligi bois ham u yerlar haqida muhim bo'lgan keng tafsilotlarni berish lozim.

...Mahalliy xalqlar hamma xivaliklarni Urgenech deb ataydilar va ularni qadimiyliklari uchun izzat qiladilar. Shuning uchun ham Xiva karvonlari Buxoro yoki boshqa davlatda bojxona to'lovini to'lamaydilar. Ammo o'zlari har qanday karvondan to'lov undiradilar. Haqiqiy xivaliklar ko'pchilikni tashkil etmasalar-da, o'zbeklar, turkmanlar va orolliklar evaziga Xiva xonligi katta kuchni tashkil etadi. Hozirgacha ham turkmanlar va orolliklar ko'p hollarda xonga o'z xohishi bilan xizmat qiladilar. Aytishlaricha, u xalqlar bilan birgalikda Xiva harbiy kuchlari 20 mingdan 30

mingacha to‘plangan, ammo hozir uncha kuch to‘plash mushkul. Ba’zi hollarda xivaliklar qirg‘iz-qaysoqlarning birlashgan kuchidan cho‘chiydilar va agar qirg‘iz (qozoq)lar birlashib, ularga qarshi chiqsa, xivaliklar qiyin ahvolda qolishini kuzatish mumkin. Xullas, Xiva Orenburgdan janubda 12-15 kunlik karvon yo‘li masofasida joylashgan.

Qirg‘iz-qaysoq cho‘li (dasht) orqali qulay yo‘l, chunki yo‘l bo‘ylab o‘t-o‘lan va suv bor. Sirdaryodan tashqari bironta katta kechuv yo‘q. Biroq qirg‘iz-qaysoqlar ehtiyot bo‘lishlari kerak. Ular o‘zlarining odatlariga ko‘ra o‘g‘irlik qilishdan toymaydilar va otlarni olib qochadilar. Xiva shahri Orol dengiziga quyiladigan Uludaryodan chiqarilgan kanallar bo‘yida joylashgan. Shuning uchun Orol dengizidan bu shahar yaqiniga borish mumkin. Xiva to‘rtburchak shaklidagi loydan qad ko‘targan mudofaa devorlariga ega. Burchaklarida va xavfli joylarida qorovullar uchun maxsus joy qilingan. Unda 3 ming yoki undan ortiqroq uylar bo‘lib, bir qator qilib loydan qurilgan. Uylarning hovlisi yo‘q. Ko‘chalari bir tekis. Chorva uchun aholi *xutor* (ruscha) — shahar tashqarisidagi dala hovliga egadirlar. Ular ham loydan qurilgan. Shaharda barcha ko‘chalar tor. Abulxayrxonga Orenburg komissiyasidan xizmatga yuborilgan injener ofiserlardan biri bu shahar uchun loyiha ishlab chiqqan edi. U loyiha hozirda Orenburg guberniyasi devonxonasi tashqi ishlar bo‘limida saqlanmoqda.

Xiva mulklarida Xivadan tashqari 11 ta yirik shahar mavjud. Orenburg tomonda ulardan Gurnok, Vazirkent, Shavak, Kazabat shaharlari va Xivaning qarama-qarshi tomonida Urganch, Adarus, Betnak va Oqsaroy joylashgan. Ulardan tashqari yana turli aholi maskanlari va ko‘pgina qishloqlar mavjud. Yuqoridagi shaharlarda hukmdor Xiva beklari yoki shahzodalari emas, shaharlar vakillaridir. Biroq ular hammasi Xiva xoniga bo‘ysunadilar. Xon Xiva shahrida shohona hayot kechiradi. U xalqni o‘ziga bo‘ysundirgani bilan xivaliklarda qadimdan bir odat borki, agar ular xondan jabr ko‘rsalar unga fitna uyushtirib, o‘ldirib

yuboradilar va bir necha yillardan so'ng boshqa sulola vakillaridan o'zlariga xon tayinlaydilar.

Hozirda ularda qirg'iz-qaysoq Botir Sultonning o'g'li Xaipxon, avval esa Abulxayrxonning o'g'li Nuralixon edi. Abulxayr ham Xivada xon bo'lgan, keyin qirg'iz-qaysoqlarga xon bo'lgandan so'ng u yerga o'g'li Nurali tayinlanadi. 1740 yilda Eron shohi Nodir qo'shin bilan Xivaga bostirib keladi va qarshiliksiz shaharni egallaydi, ammo Nodirshoh o'limi bilan xivaliklar u qoldirgan askarlarni mamlakatdan haydab chiqarib, ozod bo'ladilar.

Xivaliklar don mahsulotlarini ko'p ekadilar. Ularda g'alla, tariq, sorochino bug'doyi, paxta va tamaki o'sadi. Ipak ko'p bo'lmasa-da, biroq har qalay o'zlarida yetishtiriladi. Eron va Buxoro bilan savdo qiladi. Meva va sabzavot, uzum yetarlicha yetishtiriladi. Ot va chorva kam boqishadi, chunki ularda yaylovlar kam, shuning uchun otlarni qirg'iz va qora-qalpoqlardan sotib oladilar. Amudaryo yoki Uludaryo bo'ylab quyi tomon yurilsa orolliklar, yuqoriga Buxoro va boshqa yerlarga boriladi. Xiva mulklarining Orol dengizi yonida joylashgan tog'larida oltinga boy kon mavjud deyishadi. Ammo undan foydalanish uchun hech kimga ruxsat berilmagan.

Toshkent mulklari haqida

Toshkent aholisi ko'p sonli shahar. Orenburgdan janubga o'rtacha 20 kunlik masofa uzoqlikda. Katta qismi tekis joyda bino qilingan: eniga va uzunligiga 4 vyorst masofani egallaydi. Unda hech qanday daryo yo'q, ammo undan 10 vyorst uzoqlikdagi masofada Sirdaryoga quyiluvchi Chirchiq oqib o'tadi. Undan shahargacha uncha katta va chuqur bo'lmagan kanallar qazilgan hamda ularning soni ko'p. Bundan tashqari shaharda quduq va ko'llar qazilgan. Toshkentda 6000 va undan ko'proq uylar bo'lib, hammasi paxsali va bitta derazali. Tomlari qamishdan, yog'ingarchilikdan yaxshi himoya qilmaydi. Bunday uylarni loy bilan, ichkaridan esa suvoq loy bilan shaklli suvashadi. Shaharda

8 ta katta ko'cha bo'lib, ularning har birining chiqishida yog'och, ba'zan esa g'ishtdan darvozalar qurilgan.

Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Samarqand.
2. Beshyog'och.
3. Terseren (Tersariq).
4. Shixon-tauger (Shayxontohur).
5. Taxtakus (Taxtapul).
6. Tarsaxon (Darxon).
7. Qopqon (Qopqa).
8. Kukchi (Ko'kcha).

Boshqa ko'chalar juda tor bo'lib, 1,5 va undan kamroq sajenni tashkil etadi. Katta bozor shahar markazida bo'lib, Igiston (Registon) deb nomlanadi. U yerda sun'iy toshlardan qurilgan hovuz bor. Hovuz uzunasi va eniga 10 sarjindan, chuqurligi esa 2 arshinga to'g'ri keladi. Suv bilan to'ldirilgan va atrofiga tutlar ekilgan. Undan tashqari boshqa mayda bozorlar ham bo'lib, ularda kichik paxsali rastalar bor. Bu rastalarda paxta, rang-barang buyumlar va qog'oz sotiladi. Rossiya mollaridan ko'proq *movut, suv qunduzi, chelaklar, brusnoviy bo'yoq va mo'yna* sotiladi. Toshkentda 150 dan ortiq masjid bo'lib, ularning hammasi paxsali yoki g'ishtli. Qadimiy va yaxshi qurilgan binolar borki, ular xristian cherkovlariga o'xshash gumbazli qismiga ega va ichki qismi yaxshi bezalgan. Mahalliy an'analarga ko'ra, ular *madrasa* deb ataladi, ya'ni o'quv yurti. Qadimiy masjidlarning birida Baroqxon ko'milgan. Ushbu masjid boshqalariga nisbatan yaxshi bezalgan, chunki unda ko'proq tillo va suyakdan bezaklar ishlatilgan.

Toshkent bog'larida ko'plab *uzum, shaftoli, vino* tayyorlanadigan *mevalar, olma va nok* yetishtiriladi. Dalalarda esa *g'alla tariq, sorochino bug'doyi, arpa va paxta* ekiladi. Ulardan ko'p hosil olinadi. Ipakning turli xillarini o'zlari ishlab chiqarishadi, ammo Toshkentda yirik zavodlar yo'q. Tog'larda *temir, mis* va *qo'rg'oshin* ko'p topiladi.

Toshkent atrofida paxsa devordan tashqari, hech qanaqa mudofaa inshootlari yo‘q. U yerlarning havosi iliq, yog‘ingarchilik yetarli, qish ham 3 oydan ortiq bo‘lmaydi. Hukumatni avval mahalliy aholi boshqargan, keyinchalik katta O‘rda qirg‘iz (qozoq) lari egallashgan. Ular bu shaharga kamdan-kam yashashga kelishadi. Hozirda Toshkent Zyungor (jung‘or) hukmdori ta‘sirida, u esa aytishlaricha, bu shaharga o‘z odamlaridan hokim tayinlagan.

*(Топография Оренбургской губернии.
Сочинение П.И.Ричкова 1762 года. –
Оренбург.: Тип. Б.Бреслина. 1887).*

VI BOB.

O'RTA OSIYONING CHOR ROSSIIYASI BOSHQARUVI DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. 1917-1920 YILLARDA TURKISTON

1. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishi

O'rta Osiyo xonliklari hududlarini bosib olishni maqsad qilib olgan chor Rossiyasi harbiy ma'murlari 1847 yili Sirdaryoning Orol dengiziga quyilish joylarini egallab oldilar. Rossiya harbiy qo'shinlari 1853 yili Qo'qon xonligiga qarashli Oqmachit qal'asini egallab oldilar. Xonlikning qal'ani qaytarib olish uchun urinishlari behuda ketdi. General Chernyayev boshchiligidagi 2500 dan oshiq rus qo'shinlari 1862-1864 yillarda Pishpak, To'qmoq, Avliyoota, Turkiston va Chimkent shaharlarini egalladilar. Qo'qon xonligining Alimqul boshchiligidagi qo'shinlari rus qo'shinlarini Chimkentdan haydab yuborishga erishdilar. Biroq bu vaqtda Qo'qonga hujum uyushtirgan Buxoro amiri Nasrullo qo'shinlarini qaytarish uchun Alimqul shoshilinch ravishda Qo'qonga jo'nashga majbur bo'ldi. Bundan foydalangan rus qo'shinlari Chimkentni yana egallab oldilar. 1865 yil 14 iyunda ruslar Toshkentga hujum qildilar. Uch kunlik jangdan so'ng shahar taslim bo'ldi. 1866 yil rus qo'shinlari Xo'jand va Jizzax shaharlarini ham egalladilar. 1867 yil O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi bosib olgan yerlari, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari tarkibida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

1866 yili imperiya harbiylari Buxoro amirligiga qarashli Xo'jand va Jizzax tumanlarini, 1868 yilda esa general Kaufman, general Abramov boshchiligidagi Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan tortib Zirabuloqqacha bo'lgan yerlar hamda Zarafshonning yuqori oqimlarini bosib oldilar. Zirabuloq tepaliklaridagi bo'lgan jangda

amir Muzaffar qo‘shinlari yengildi va Buxoro amirligi 500000 so‘m tovon to‘lab, Rossiyaga qaram davlatga aylandi. Amirlikning so‘nggi yillarida uning qo‘l ostida Buxoro, Chorjo‘y, Qaboqli, Nurota, Karmana, Ziyovuddin, Xatirchi, Zirabuloq, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, G‘uzor, Qarshi, Chiroqchi, Boysun, Sherobod, Karki, Denov, Hisor, Baljuvon, Qobodiyon, Qo‘rg‘ontepa, Ko‘lob, Qorategin, Darvoz beklilklari bor edi.

1873 yili Xiva xonligi ham taslim bo‘ldi. Muhammad Rahimxon (Feruz) 2500000 so‘m tovon to‘ladi. Xiva xonligi ham qaram davlatga aylandi. 1872-1876 yillarda Farg‘ona vodiysida ko‘tarilgan Po‘latxon (Yetimxon) qo‘zg‘olonini bostirish baho-nasida vodiya kelgan Skobelov boshchiligidagi rus qo‘shinlari Qo‘qon xonligini tugatdilar va uning hududlarini Turkiston general-gubernatorligi ixtiyoriga qo‘shib yubordilar. Xudoyorxon Orenburgga surgun qilindi.

Bu vaqtda general Golovachev boshchiligidagi rus qo‘shinlari turkman urug‘larini bo‘ysundirish uchun urush olib bordilar. Turkmanlar qariyb 10 yil davomida o‘z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun tengsiz jang qildilar. Biroq kuchlar nisbati teng bo‘lmaganligi, harbiy tajribasizligi tufayli katta talofat ko‘rib yengildilar. 1881 yil Go‘ktepa (Ashxobod) ruslar tomonidan egallandi. 1884 yili Marv vodiysi Rossiya harbiylari ixtiyoriga o‘tdi. 1885-1887 yillarda Afg‘oniston bilan chegaralar belgilab olindi.

Shunday qilib, asrlar davomida ilm-fani, ma‘rifati va san‘ati bilan jahon e‘tiboriga tushgan Turkiston o‘lkasi Rossiya mus-tamlakasiga aylandi.

2. Chor istilosiga qarshi milliy-ozodlik kurashlari geografiyasi

Turkistonda chorizmning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi harakatlar XIX asrning 70-yillaridan boshlandi. 1875-1876 yillarda Farg‘onada Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon, 1871 yildagi

Yetimxon boshchiligidagi Mingtepadagi g'alayon chorizm ma'murlarini jiddiy tashvishga soldi.

1892 yil yozida Toshkentda ham yirik qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon tarixga „vabo isyoni“ nomi bilan kirgan. Shaharda vabo tarqalishi bilan 12 ta qabriston yopib qo'yildi va yangi 4 ta qabriston ochilishigina e'lon qilindi. Va'da qilingan 4 ta qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Natijada xalq ommaviy qo'zg'olon ko'tardi. Lekin qo'zg'olon qurollangan harbiylar tomonidan bostirildi.

1898 yilda Andijonda Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olon ham Rossiya imperiyasining o'lkadagi jabr-zulmiga qarshi ko'tarilgan ommaviy harakat edi. Qo'zg'olon rahbari Muhammadali eshon 1898 yil 17 may kuni xalqqa murojaat qilib, ularni mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga da'vat etadi. Qo'zg'olonchilar dastlab Andijon habiy lageriga hujum qiladilar. Marg'ilon va O'sh uyezdlaridagi harbiy garnizonlariga hujum uyushtirish esa amalga oshmay qoladi. Chunki chor amaldorlari bundan xabar topib, mudofaa uchun zarur choralarini ko'rib ulguradilar. Qo'zg'olon haqidagi xabarlar Namangan uyezdi va Yettisuv viloyatiga ham etib bordi va bu yerdagi aholi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Qo'zg'olon garchand Rossiya mustamlakachilari tomonidan bostirilgan bo'lsa-da, bu ozodlik kurashining yorqin namunasi bo'lib qoldi.

Birinchi Jahon urushining boshlanishi Turkistondagi shunday ham og'ir hayotni yanada og'irlashishiga olib keldi. Shunday sharoit hukm surayotgan bir paytda 1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II ning mardikorlikka olish to'g'risidagi farmoni e'lon qilinadi. Unga ko'ra Turkiston aholisidan ham 250 ming kishi mardikorlikka olinishi kerak edi. Ammo bu harakatga qarshi Turkistonda yirik qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi. 1916 yil 4 iyulda Xo'jand xalqi qo'zg'olon ko'tardi, ayni paytda, Samarqand, Jizzax, va Kattaqo'rg'on tumanlarida ham g'alayonlar boshlandi. Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiy viloyatlarida avj olgan g'alayonlar keskinlashib, yirik

xalq qo'zg'oloniga aylandi. Bu qo'zg'olonlar ham chor ma'murlari tomonidan ayovsiz bostirilgan. Turkiston o'lkasidan 1916 yil sentyabridan 1917 yil fevraligacha 123 ming kishi mardikorlikka olingan. Podsho hukumati ag'darilgandan so'ng 1917 yil bahorida mardikorlar orasida norozilik harakatlarining kuchayishi natijasida Muvaqqat hukumat mardikorlarni o'z yurtlariga qaytarishga majbur bo'lgan.

3. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi

O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin chor hukumati bu yerda mustamlakachilik siyosatini boshlab yubordi. 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, o'lkani boshqarish Harbiy vazirlikka bo'ysundirildi.

Turkiston general-gubernatorligi XX asr boshlariga kelib besh viloyatga bo'lindi: Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari. Ularni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o'zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan. Ular harbiy fuqaro hokimiyatini o'z qo'lida tutishgan. Harbiy sohada ular viloyatlardagi qo'shinlar (diviziya yoki korpus) qo'mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo'lishgan. Barcha ma'muriy polisiya va sud hokimiyati ham ularning izmida bo'lgan.

Harbiy gubernatorlar qoshida viloyat boshqarmalari bo'lib, ular guberniya boshqarmasi huquqlariga ega bo'lishgan. Viloyat ijtimoiy hayotining barcha masalalari shu boshqarmalarda ko'rilgan. Viloyatlar o'z navbatida tumanlarga (uyezdlarga) bo'linib, ularni tumanboshilar idora etishgan. Tumanlar Turkiston general-gubernatori ma'muriy tuzilmasining asosini tashkil etgan. Ular aholining turmushi, hududning xususiyatlari, millatlari yo elatlaridan qat'i nazar, rus amaldorlari xohishicha o'zboshimchalik bilan tuzilavergan. Podsho

hukumati milliy, elat va tarixiy xususiyatlardan kelib chiqmagan holda musamlakachilik nuqtai nazaridan bu masalaga yondashgan.

O'lkaning tub viloyatlari hisoblangan Sirdaryo, Farg'ona, Samarqanddan tashqari Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari ham shu asosda tumanlarga bo'linib idora qilingan.

Sirdaryo viloyati quyidagi tumanlarga bo'lingan: Toshkent, Avliyoota, Qozoli, Perovsk, Chimkent, Amudaryo tumani ham shu viloyatga bo'ysungan. *Farg'ona viloyatiga* Marg'ilon, Andijon, Qo'qon, Namangan, O'sh tumanlari qaragan. *Samarqandga* Jizzax, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, Samarqand tumanlari; *Yettisuvga* Verniy, Jarkent, Kopal, Lepsinek, Pishpak, Prjevalsk; *Kaspiyorti viloyatiga* Ashxobod, Krasnovodsk, Mang'ishloq, Marv va Tajan tumanlari kirgan.

1886 yil 12 iyunda Rossiya imperatori tomonidan „Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom“ tasdiqlangandan keyin ham ma'muriy qurilish bo'yicha e'tirozlar davom etdi. Ammo imperator Turkiston o'lkasida sobiq general-gubernatorlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda unga ba'zi o'zgartirishlar kiritdi, xolos.

„Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom“ bo'yicha Turkistonning viloyatlarga bo'linishi aholining etnografik, maishiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganish asosida emas, balki o'lkani bosib olish jarayoni bilan bog'liq holda amalga oshirildi. Uezdlarga bo'linish esa aholining rus bosqinigacha bo'lgan markazlarida tashkil etilgan edi.

Shunday qilib, Turkiston o'lkasida Rossiya hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to'ldirib, o'zgartirilib turildi. Buning siri juda oddiy edi. Chor Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruvi tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.

4. 1917-1920 yillar siyosiy-tarixiy geografiyasiga tavsif

1917 yil 25 oktyabrda bolsheviklar Petrograd da Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni zo'ra vonlik yo'li bilan egallashdi. Rossiyaning markazida ro'y bergan bu voqealarning ta'siri oradan ko'p vaqt o'tmay Turkistonga ham yetib keldi.

28 oktyabrda Toshkentning yangi shahar qismida yevropalik ishchilar va harbiylar bolsheviklarning qo'llab-quvvatlashi bilan qurolli to'qnashuvlarni boshlab yuborishdi. 1 noyabrda esa ular Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasini qamoqqa olib, Toshkentda sho'rolar hokimiyatini o'rnatishdi.

1917 yil 26 noyabrda Qo'qon shahrida o'lka musulmonlarining IV favqulodda s'ezdi ish boshladi. Unda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil hozir bo'ldi. Kun tartibiga o'lkani boshqarish shakli, Turkiston Markaziy musulmonlar sovetini qayta saylash, Turkiston ta'sis majlisi, milisiya, moliya va boshqa masalalar qo'yildi. 28 noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlatning nomi „Turkiston Muxtoriyati“ deb ataladigan bo'ldi. Hokimiyatni esa Ta'sis s'ezdi chaqirilgunga qadar Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston xalq (Milliy) Majlisi qo'lida bo'lishi ta'kidlandi. Toshkentdagi sovet hukumati Turkiston Muxtoriyatini o'zi uchun xavfli deb bildi va qanday bo'lmasin uni yo'qotishga tayyorgarlik boshladi. Ular Qo'qondagi voqealarni diqqat bilan kuzatib, uning rivojiga o'z ta'sirini o'tkazishga urindilar.

Lekin 1918 yil 18 fevralda „Ulamo“ jamiyati tashabbusi bilan Muxtoriyatda to'ntarish yuz berdi. Mustaf o'cho'qay o'g'li boshchiligidagi hukumat mahkamasi ag'dariladi va hukumat Qo'qon shahar milisiyasi boshlig'i Kichik Ergashga o'tadi. 18 fevraldan 19 fevralga o'tar kechasi Toshkentdan o'lka harbiy komissari Ye.Perfilev boshchiligidagi zambaraklar bilan qurollangan qo'shin yetib keldi. Ye.Perfilev shaharni uch tarafdin o'rab olib, 19 fevral kuni ertalab Kichik Ergashga talabnoma yo'llaydi. Kichik Ergash uning talablarini bajarishdan bosh tortgach, Ye.Perfilev Qo'qon shahrini

12 zambarakdan o'qqa tutdi. Kunduz soat birda boshlangan o'q yomg'iri shomgacha shaharni vayronaga aylantirdi. Ammo shunga qaramay, muxtoriyatchilar taslim bo'lmadilar. Har bir binoni, har bir do'konni, har bir karvonsaroyini mardlarcha himoya qildilar. Muxtoriyatchilar shaharni qizil gvardiyachilar, avstro-venger harbiy asirlari va arman birlashmalari (dashnoqlar)dan tashkil topgan sovet qo'shinlari hujumidan uch kun himoya qildilar. Ammo tinch yo'l bilan hokimiyatni olishga ishongan Turkiston Muxtoriyati o'zini himoya qilishga qodir emas edi. Chunki ular yaxshi qurollanmagan bo'lib, ularning quroli asosan tayoq, bolta, ketmon oshpichoqdan iborat edi. Shu tariqa Turkiston Muxtoriyati tugatildi.

1918 yil 20 aprelda Toshkentda sovetlarning V o'lka s'ezdi ish boshladi. 1918 yil 30 aprelda s'ezd „Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to'g'risida Nizom“ ni qabul qildi. Bu nizomga ko'ra Turkiston o'lkasining hududi „Rossiya Sovet Federasiyasining Turkiston Sovet Respublikasi“ deb e'lon qilindi. Uning tarkibiga Turkistonning barcha hududi o'zining geografik chegarasi bilan kiritildi. Xiva bilan Buxoro esa bundan mustasno edi. Turkiston respublikasi muxtoriyat tarzida boshqarilib o'zining barcha faoliyatini RSFSR hukumati bilan muvofiqlashtirar va uni e'tirof qilardi. Rossiya bilan o'zaro munosabatlarini belgilash uchun s'ezd 5 kishidan iborat komissiyani sayladi.

S'ezd birinchi marta oliy qonun chiqaruvchi organ - Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasini (TurkMIQ) 36 kishidan iborat qilib sayladi. MIQ a'zolaridan 18 kishi bolsheviklardan, 18 kishi eserlardan edi. A'zolar orasida mazkur partiyalarga mansub bo'lgan mahalliy millat vakillaridan - H.Ibrohimov, D.Mirzaboyev, A.Sh.Sharafutdinov, O.Yusupov, Q.Otaboyev va boshqalar bor edi. Biroq ular ozchilikni tashkil etardi. MIQ raisi qilib P.A.Kobozev, ikkinchi rais qilib bolshevik A.F.Solkin saylandi. Tub aholi vakillari bo'lmagan kishilar MIQ rahbarlari qilib saylangan edi.

S'ezdda F.I.Kolesov boshchiligidagi 14 kishidan iborat xalq komissarlari kengashi ham (7 kishi bolshevikdan va 7 kishi so'l eserlardan) saylandi. Turkiston hukumati tarkibiga birinchi marta

mahalliy millat vakillari O.Tursunxo‘jayev, X.Ibrohimov va Ashurxo‘jayev ham saylandi. S‘ezdda saylangan 14 xalq komissarlaridan tashqari yana 2 xalq komissari - temir yo‘llar hamda pochta va telegraf komissarlari saylandi. Shunday qilib, Turkiston Respublikasi hukumatining a‘zolari qilib hammasi bo‘lib 16 kishi saylandi, ulardan faqat uch kishi mahalliy aholi vakillari edi. Holbuki, mahalliy aholi o‘lka aholisining 95 foizini tashkil etardi.

Shu tariqa, Moskvaning ko‘rsatmasi bilan Turkistonni sovet muxtor respublikasi deb e‘lon qilgan sovetlarning V o‘lka s‘ezdiga qadar bo‘lganidek, ko‘p millionli mahalliy aholi vakillaridan o‘lkani boshqarishda ishtirok etishi arzimas darajada qolaverdi. Avvalgidek Turkistonni mahalliy aholi vakillari bo‘lmagan, bolsheviklar va so‘l eserlar partiyalariga mansub ishchilar, soldatlar, ziyolilardan chiqqan tor doira vakillari boshqarishni davom ettirdi. Ular o‘zlari xohlagan tarzda, Markaz manfaatlarini hisobga olgan holda o‘lka xalqlari taqdirini hal qila boshladilar.

1917-1920 yillar faqat Turkiston xalqlari uchungina emas, balki Xiva va Buxoro xalqlari uchun ham jiddiy larzalar keltirgan davr bo‘ldi.

1917 yilning boshlarida O‘rta Osiyo xonliklari Rossiya protektorati ostida edi. O‘sha yili sodir bo‘lgan fevral inqilobi natijasida chor samoderjaviyesi ag‘darilib, Buxoro va Xivada esa amirlik va xonlik tuzumi saqlanib qoldi. Chorizmga vassal bo‘lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ko‘rinishidan mustaqil davlatlar bo‘lsa-da, ular aslida o‘z mustaqilligini yo‘qotgan va amalda chorizmning mustamlakasiga aylangan edilar.

Xiva xonligida ham ahvol murakkab bo‘ldi. Asfandiyorxon o‘z hokimiyatining mamlakatda keskin tus olgan siyosiy vaziyatga qarshi kurash olib borish uchun zaifligini his qilib, 1918 yil 22 yanvarda Junaidxonga xonlikni birgalikada boshqarish va bolsheviklarga qarshi kurash olib borishni taklif etdi. Junaidxon 1917 yil sentyabrda Erondan Xivaga qaytib keldi. Asfandiyorxon poytaxtga yetib kelgan Junaidxonni qo‘shinlar qo‘mondoni (sardori karim) qilib tayinladi va mamlakatdagi butun hokimiyatni to‘laligicha unga topshirdi.

Biroq Asfandiyorxon taxt tepasida ko'p o'tirmadi. Oradan ko'p o'tmay u o'zining bir necha yaqin kishilari bilan birga Junaidxonning ko'rsatmasiga muvofiq o'ldirildi. Junaidxon taxtni egallamadi, aksincha, an'anaga sodiq qolgan holda, taxtga (marhum xonning akasi) Said Abdulloxonni o'tqazdi, o'zi esa haqiqatda mamlakatning hukmdori bo'lib qolaverdi.

Turkiston Avtonom Respublikasi, xususan, uning Amudaryo bo'limi bilan Junaidxon o'rtasida qurolli to'qnashuv muttasil kuchayib bordi. Turkiston Avtonom Respublikasi va uning Amudaryo bo'limi Xiva xonligining ichki ishlariga doimiy aralashib, u yerga Naumov, Leyggold, Kanoplyov va boshqalar boshchiligidagi jazo otryadlarini yuborib turdilar. Mamlakatning tinch aholisini esa muttasil taladilar. Sovet Turkistoni ayrim rahbarlari bu bilan cheklanmasdan mustaqil Xiva xonligiga bevosita qurolli hujum qilish va uni TASSRga qo'shib olish rejalarini o'ylab yurardilar.

1919 yil 22 dekabrda Turkkommissiya direktivasiga binoan Turkkommissiya va Turkfront vakili Skalov va Amudaryo qo'shinlari guruhi qo'shininning qo'mondoni Shcherbakov Xiva xonligi hududiga „uning qo'zg'olon ko'targan xalqiga yordam ko'rsatish uchun“ bostirib kirish to'g'risida buyruq berdilar. Amudaryo (Xiva) qo'shinlari guruhining qismlari ikki otryadga: N.A.Shaydakov qo'mondonligidagi shimoliy va N.M.Shcherbakov qo'mondonligidagi janubiy otryadlarga bo'lindi. 23 dekabrda sovet qo'shinlarining xonlik hududiga bostirib kirishi boshlandi. Janubiy otryad tarkibida xivalik qochoqlardan (yosh xivaliklar, kommunistlar va hokazolar) tashkil topgan ko'ngilli otryad ham kurashdi. Sovet qo'shinlari ilgarilab borgan sari ularga turkman va o'zbek aholisidan tashkil topgan qo'zg'olonchilar otryadlari qo'shilaverdilar. 28 dekabrda ularga Guchmamadxon Yaxshigeldi, Murodbaxshi, G'ulomali otryadlari qo'shildi. Tez orada xivalik qo'zg'olonchilarning umumiy soni 3 ming kishiga yetdi. Sovet qo'shinlari Junaidxon qo'shilmalari qarshiligini yengib, qo'zg'olonchilar otryadlari bilan birgalikda Ko'hna Urganch, Eminqal'a, Porsu, Ilyali, Toshhovuzni qo'lga kiritdi. Qizil armiya qismlari va qo'z-

g'olonchilar otryadlari 1920 yil yanvarning ikkinchi yarmida Junaidxon qo'shinlariga G'ozovot tumanida jiddiy zarba berib, poytaxtga yaqinlashib keldilar va 1 fevralda shaharga jangsiz kirdilar.

1920 yil 27-30 aprelda Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyi Xiva xonligini bekor etilgan deb e'lon qildi va mamlakatni Xorazm Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qildi. Qurultoy Xorazm Xalq Sovet Respublikasining Muvaqqat Konstitusiyasini qabul etdi. Qurultoy ro'y bergan to'ntarilishni va uning natijasida o'rnatilgan tuzumni *antimonarxistik, antifeodal, xalq-demokratik* xususiyatiga ega bo'lgan tuzum sifatida aks ettirdi. Ayni vaqtda Konstitusiyada RSFSRning hokimiyat shakli bo'lgan *sovet andozasi* qabul qilindi, lekin Xorazmdagi sovetlar o'z mazmuniga ko'ra proletar diktaturasini ifoda etmasdi, u demokratik xususiyatga ega edi. Qurultoy sobiq yosh xivaliklar a'zosi bo'lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Hukumat sobiq yosh xivaliklar, turkman urug'lari rahbarlari va kommunistlardan tashkil topdi. Qizil askar nayzalari yordamida o'rnatilgan bu tuzumni o'z kuchlari bilan saqlab va mustahkamlab bo'lmasligini yaxshi tushungan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi rahbarlari RSFSRning ko'magiga umid qilishga intildi.

1920 yil 13 sentyabrda RSFSR bilan XXSR o'rtasida Ittifoq shartnomasi, shuningdek, harbiy-siyosiy va iqtisodiy bitimlar tuzildi. Bu hujjatlar, bir tomondan mamlakatdagi to'ntarilish natijasida o'rnatilgan tuzumni mustahkamlashga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning RSFSRga to'liq qaramligini qonunlashtirdi.

Buxoro amirligidagi voqealar ham aynan shunga o'xshash asosda xotima topdi. Moskva va Toshkentda ishlab chiqarilgan rejaga asosan 1920 yil 23 avgustda kommunist Beshim Sardor qo'mondonligidagi turkmanlar polki Sakarni egalladi, keyin qizil armiya qismlarining qo'llab-quvvatlashi bilan 29 avgust erta tongda Eski Chorjo'yni bosib oldi. Shundan so'ng Beshim Sardor boshchiligida inqilobiy qo'mita tashkil qilindi. Chorjo'y inqilobiy qo'mitasi oldindan kelishilgandek, o'sha kuniyoq sovet hukumatiga yordam so'rab

murojaat qildi. O'sha kuniyoq ilgari tayyorlab qo'yilgan sovet qo'shinlariga tegishli ko'rsatmalar yuborildi. „Qo'zg'olon ko'targan Buxoro xalqi“ ga yordam ko'rsatishga kirishish to'g'risida Turkfront bo'yicha buyruq berildi.

Bolsheviklar rejimining harbiy jihatdan ancha ustun qo'shinlari 1920 yil 28 avgustdan 29 avgustga o'tar kechasi buxorolik “inqilobiy tuzilmalar“ ishtirokida amirlik hududiga shiddat bilan bostirib kirdilar. Ular Qarshi, Kitob, Shahrisabzni bosib olib, amirlik poytaxtiga yaqinlashib qoldilar. Lekin bu yerda bosqinchilar amir qo'shinlarining qat'iy qarshiligiga duch keldilar. Turkfront qo'mondonligi buyrug'i bilan Eski Buxoro samolyotlardan bombardimon qilindi, to'plar va bronepoyezdlardan turib qattiq o'qqa tutildi. Amirlik poytaxti ostidagi janglar 4 kecha-kunduz davom etib, 1920 yilning 2 sentyabrda amirlikning so'nggi tayanchi – Ark mag'lub bo'ldi.

Amirlik poytaxti bosib olingandan keyin hokimiyat muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasi ixtiyoriga o'tdi. Muvaqqat Inqilobiy qo'mita darhol Turkkommissiya rahbariga ilgari tayyorlab qo'yilgan Manifestni e'lon qildi. Unda Buxoro davlati “Mustaqil Buxoro Sovet Respublikasi“ deb ko'rsatilgan edi. 1920 yil 11 sentyabrda inqilobiy yosh buxoroliklar partiyasi tarqatib yuborildi, uning ko'pchilik a'zolari F.Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro kommunistik partiyasi tarkibiga kirishdi. 1920 yil 14 sentyabrda Buxoro kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi Muvaqqat Umumbuxoro inqilobiy qo'mitasi va Xalq Nozirlar Kengashining birlashgan majlisida Abdulqodir Muhitdinov boshchiligidagi Umumbuxoro inqilobiy qo'mitasi - oliy qonun chiqaruvchi organ va Fayzulla Xo'jayev raisligidagi respublika hukumati - Xalq Nozirlar Kengashi tashkil qilindi.

1920 yil 6 oktyabrda amirning yozgi saroyi — Sitorai Mohi Xosada xalq vakillarining I Umumbuxoro qurultoyi ish boshladi. Qurultoy Buxoroni Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qilish haqida qaror qabul qildi. 1921 yil 4 martda Moskvada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi bilan RSFSR o'rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy

bitim tuzildi. Bu hujjatlar Xorazm Xalq Sovet Respublikasi kabi Buxoro Xalq Sovet Respublikasining ham RSFSRga harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaram bo'lganligini qonun yo'li bilan mustahkamladi.

5. XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Turkistonda iqtisodiy hayot

O'rta Osiyoni chor Rossiyasi istilo etgach, o'lkani arzon xom ashyo manbai va rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozorga aylantirishga harakat qildi. O'lkaning soliqlar miqdori ham yil sayin oshirib borilgan. Agar XIX asrning oxirida yer solig'i 4 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 1914 yilga kelib u 75 foizga ko'paydi. Rossiyaning Turkistondan oladigan daromadi 300 foizga oshdi va 1916 yilga kelib 38329 ming so'mni tashkil qildi.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o'z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi. Agar 1885 yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo'lsa, 1915 yilga kelib u 541,9 ming tanobga yetdi, ya'ni 13 barobarga o'sdi.

Rus mustamlakachilari Turkistondan 1914-1916 yillar mobaynida 59 million pud paxta, 8,5 million paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 447 ming pud baliq olib ketdilar.

XIX asrning oxirlarida o'lkada sanoat ishlab chiqarishi asosan aholining maishiy ehtiyojlariga xizmat ko'rsatuvchi mayda hunarmandchilikdan iborat edi. Sanoat ibtidoiy bosqichda edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyadan sanoat mahsulotlarining keltirilishi ortib borgan sari mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi inqirozga uchray boshladi.

O'lka zabt etilgandan so'ng mahalliy sanoatning rivojlanishi paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lib qoldi. 1880-1914 yillar orasida qariyb 220 ta paxta tozalash zavodi qurildi. Bunday zavodlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham barpo etilgan. Masalan, Buxoro amirligida 1905 yilda 9 ta, 1913 yilda esa 26 ta

paxta zavodi ishlab turgan. Xiva xonligida esa 1917 yil boshlarida 36 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta yog' va sovun ishlab chiqarish zavodlari bo'lgan.

Rossiyani o'lka bilan bog'lagan temir yo'llar ishga tushirilgach, rus va chet el kapitalining Turkistonga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi. O'rta Osiyo (1880-1898 yillar), Toshkent-Orenburg (1901-1906 yillar) temir yo'llari davlat xazinasi mablag'i hisobiga, Farg'ona (1911-1916 yillar), Buxoro (1914-1916 yillar), Yettisuv (1912-1917 yillar) temir yo'llari esa hissadorlik jamiyatlari hisobiga qurildi.

XX asr boshlarida o'lkaning sanoat jihatidan rivojlanishi Rossiyaga qaraganda ancha pastroq darajada edi. 1908 yilgi sanoat korxonalari ro'yxati ma'lumotlariga qaraganda, bu yerda 378 ta sanoat korxonasi mavjud bo'lib, u butun Rossiya imperiyasidagi barcha sanoat korxonalarining atigi 2 foizini tashkil etgan. Sanoat korxonalarining 60 foizi o'lkaning yirik shaharlarida joylashgan.

Shu tariqa XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida Turkiston rayonlari o'zaro savdo aloqalariga kengroq jalb etila bordi. Xuddi shu davrda Turkistonda yagona ichki bozorning shakllanishi boshlandi. Bu jarayon Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi, O'rta Osiyo temir yo'lining qurilishi va Amudaryoda kema qatnovining rivojlanishini ancha tezlashtirdi. Shu bilan birga, chorizmning Turkistondagi savdo siyosati shuni ko'rsatdiki, Turkiston o'lkasining savdo-sotiq ishlarida *paxtachilik*, *ipakchilik* va *gazlama* mahsulotlari asosiy o'rinni tutsa-da, ammo keragicha rivojlanmadi. Chorizm siyosati mahalliy to'qimachilik sanoatining paydo bo'lishiga to'sqinlik qildi. Shunga qaramay, mustamlakachilik sharoitida Turkiston bozori umumimperiya bozorining salmoqli qismini tashkil qilar va imperiya iqtisodiyoti manfaatlariga xizmat qilardi. Turkiston o'lkasining Rossiya sanoati uchun xom ashyo manbai bo'lishi bu yerda mehnatning kapitalistik taqsimoti tadrijida, shuningdek, tuzumning umumiy taraqqiyotiga to'sqinlik qildi. Bu holda Turkiston o'lkasida yagona milliy

ichki bozorning qaror topishiga va aholi iqtisodiy hayotining yaxshilanishiga mone'lik qildi.

1917 yil kuzidan o'lkadagi mavjud ishlab chiqarish ustidan qat'iy ishchi nazorati o'rnatila boshladi. Ayni chog'da Turkiston sanoatining butun-butun tarmoqlarini milliyashtirish boshlandi. 1918 yilning dastlabki oylarida bu yerdagi sanoatning yetakchi tarmoqlari — *paxta tozalash, yog'-moy zavodlari, bosmaxonalar, banklar, temir yo'llar, ko'mir, neft konlari* va shu singarilar milliyashtirilib, davlat tasarrufiga olindi. Ularning soni 330 ga yetardi.

Shuningdek, yer to'g'risidagi dekret asosida yer-mulklarini musodara qilish va so'ngra milliyashtirish jarayonining o'tkazilishi ham joylarda keskin noroziliklarning kehb chiqishiga sabab bo'ldi. Asrlar davomida xususiy tarzda xo'jalik yuritib kelgan mahalliy aholi sho'rolarning bu tadbirlarini xayrixohlik bilan qabul qila olmadi. Ayniqsa, sho'ro hokimiyatiga qarshi Turkistonda boshlanib ketgan qurolli harakatning kuchayishi o'lka bolsheviklari hokimiyatini tang ahvolga solib qo'ydi.

1920 yil oxiriga kelib, Turkistonda 1075 ta sanoat korxonasi (ularning ko'plari mayda korxonalar edi) zo'rlik yo'li bilan milliyashtirildi. Natijada davlat korxonalari barcha ishchilarning 90 foizini va o'lka sanoatida band bo'lgan mexanik dvigatellarning 80 foizini qamrab oldi. Yalpi sanoat mahsulotining deyarli 3/4 qismi davlat sektori ulushiga to'g'ri kelardi. O'lka ishlab chiqarishining o'ziga xos muhim an'anaviy tarmog'i bo'lgan hunarmandchilik va ularning turlari ham ma'muriy usullar bilan birlashtirilib, hunarmandchilik artellariga aylantirildi. 1920 yil oxirlariga kelganda Turkistonda 800 taga yaqin shunday hunarmandchilik artellari faoliyat yuritdi. Ular asosan, davlat va harbiy tashkilotlarning buyurtmalarini bajarganlar.

Sovetlarning Turkistonda yuritgan qattiqqo'l iqtisodiy siyosati o'lka hayotini izdan chiqarib, millionlab shahar va qishloq ahlining an'anaviy turmush tarzi negizlarini vayron qildi. Uni mislsiz moddiy qiynchiliklarga mahkum etdi.

Savol va topshiriqlar

1. O'rtta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi haqida ma'ruza tayyorlang.

2. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi, chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi haqida nimalar bilasiz?

3. Rossiya-Buxoro (1868 y) va Rossiya-Xiva (1873 y) urushlari oqibatida chegaralar qay tarzda o'zgardi?

4. XIX asrning 80-90-yillari va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishini kartadan aniqlang.

5. O'rtta Osiyoning 1917-1920 yillar tarixiy geografiyasiga doir ma'lumot to'plang.

Mavzuga doir manba

...Samarqand — Samarqand viloyatining ma'muriy markazi, Zarafshon daryosining chap qirg'og'idan 7 verst uzoqlikda, Cho'ponota tepaligidan janubi-g'arbda joylashgan. Yuqorida joylashganligi (dengiz sathidan 2580 fut balandlikda) bois shahar o'zining salqin yozi va ijobiy sanitar shart-sharoitlari bilan janubiy Turkistonning boshqa shaharlaridan keskin ajralib turadi.

...Samarqand aholisi 89693 (1910 yil) kishini tashkil etib, 11794 ko'chmas mulk 8250000 rublga baholangan. Shahar daromadi 231929 rublni, harajatlari 223899 rublni tashkil etgan.

...Qo'qon — Qo'qon xonligining sobiq poytaxti, hozirda Farg'ona viloyatining uyezd shahri hisoblanib, shu nomli temir yo'l bekatidan uzoq bo'lmagan yerda, dengiz sathidan 1300 fut balandlikda joylashgan. Aholisi 113000 kishini tashkil etadi. Turkistonning muhim savdo shaharlaridan bo'lib, Toshkent va Buxorodan keyingi o'rinni egallaydi.

...Andijon — Farg'ona viloyatining uyezd shahri bo'lib, qariyb 1500 fut balandlikda joylashgan. Qoradaryodan qazilgan Andijonsoy arig'i bo'yida, yo'llar tutashgan markazda bo'lib, bu yerdan

Farg'onaning turli qismlariga, Yettisuv, Qoshg'ar va Pomirga borish mumkin.

...Shaharda 76367 aholi bo'lib, ulardan 2840 nafari ruslarni tashkil qiladi. Shahar daromadi (1909 yil) 140000 rublni, xarajatlari 165000 rublni tashkil etgan.

...Amudaryoning so'li sohilida, Amudaryo bo'limining qarama-qarshisida Xiva xonligi joylashgan bo'lib, xonlikning maydoni 59250 kv. verstni, aholisi esa 600000 kishini tashkil etadi. Xiva shahrining aholisi esa 20000 kishi atrofida.

...Buxoro amirligida ham ahamiyatli bo'lgan aholi markazlari mavjud; taxminiy ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahrida 80000-100000 kishi, Qarshida 60000-70000 kishi, G'uzorda 20000 kishi istiqomat qiladi.

...Xiva xonligida shahar aholisi 5 foizni, Buxoro amirligining esa shahar markazlari soni ko'p bo'lganidan bu ko'rsatkich yuqoriroq, aniqrog'i, 12-14 foizni tashkil etadi.

...Turkiston aholisining asosiy qismi shaharlardan tashqarida yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Shahar aholisi rus viloyatlarida umumiy aholining atigi 13,8% tashkil etib, ahamiyatli shaharlar qadimdan madaniyatli xalqlar yashab kelgan hamda o'lkaning yirik aholi, savdo va ma'muriy markazlari mavjud bo'lgan janubiy qismida joylashgan.

Viloyatlar	Shaharlar soni	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Shaharlardan tashqari aholi maskanlari soni
Yettisuv	6	6,4%	93,6%	668
Sirdaryo	7	13,9%	86,1%	1848
Farg'ona	7	18,1%	81,9%	1177
Samarqand	6	15,7%	84,3%	1104
Kaspiyorti	8	10,9%	89,1%	972
Jami	34	13,8%	86,2%	5769

(Россия. Полное географическое описание нашего отечества.

Под ред. П.П.Семенова-Тянь-Шанского.

- СПб.: Изд. Ф. Девриена. 1913)

VII BOB.

O‘ZBEKISTONNING TARIXIY GEOGRAFIYASI (1924-1991 YILLAR)

1. O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi

1924 yil 15 sentyabrda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi ning navbatdan tashqari sessiyasi ish boshladi. Uning kun tartibida bitta masala: milliy-hududiy chegaralanish masalasi turardi. Mazkur masala yuzasidan Islomov ma‘ruza qildi. Umu-man bu ma‘ruzada avvalgi bosqichlarda ilgari surilgan barcha g‘oyalar va qoidalarni yaqqol takrorlashdan iborat bo‘ldi. Ma‘ruzada milliy-hududiy chegaralanishni „millatlarni o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi“ni to‘liq amalga oshirish, yangi „milliy davlat tuzilmalari“ni tashkil etish kerak sifatida tushunish kerakligiga asos solindi. Shu bilan birga Islomov ma‘ruzasida, milliy-hududiy chegaralanish „xalqning xohish-irodasini bildirish akti“, degan tezis birinchi bor ochiq aytildi: *“Turkiston xalqlari bilan birgalikda Buxoro va Xorazm xalqlari ham milliy chegaralanish to‘g‘risida o‘z xohish-irodasini bildirdilar. Ular ham barchi qirg‘izlar o‘zbeklar va turkmanlarni yagona davlatga birlashtirish yo‘li bilan qilingan tarixiy adolatsizlik oqibatlarini tuzatishga intilmoqdalar“*. Bu 1924 yil 16 sentyabrda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi sessiyasida chegaralanish to‘g‘risida qabul qilingan qarorda o‘z ifodasini topdi.

Birmuncha keyinroq tojiklarning milliy o‘z taqdirini o‘zi belgilash shakli bir oz o‘zgardi. 1924 yil 4 oktyabrdagi majlisda milliy-hududiy chegaralanish bo‘yicha O‘zbekiston byurosi Tojikiston komissiyasining Tojikiston Avtonom Respublikasi va uning O‘zbekiston ittifoqdosh respublikasiga kirishi to‘g‘risidagi qarorga rozilik berdi. Mana shu majlisning o‘zida uzoq torti-

shuvdan keyin Panjikent va O'ratepa tumanlarining Tojikiston tarkibiga kirishiga qaror qilindi.

1924 yil 14 oktyabrda RSFSR Bolsheviklar Markaziy Ijroiya Qo'mitasi II sessiyasi Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasining milliy-hududiy chegaralanish to'g'risidagi qarorini tojik xalqiga nisbatan ayrim o'zgarishlar bilan tasdiqladi. Tojik xalqiga Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi sessiyasi va Umum-buxoro qurultoy qarorida ko'rsatilgandek, O'zbekiston Respublikasi tarkibida muxtor viloyat emas, balki Tojikiston Avtonom Respublikasi tashkil etish huquqi berilishi maqsadga muvofiq ekanligini e'tirof qildi. Shu tariqa Bolsheviklar Markaziy Ijroiya Qo'mitasi sessiyasi qaroriga muvofiq O'rta Osiyoda O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari, Tojikiston Avtonom Respublikasi, Qoraqalpog'iston va Qirg'iziston Avtonom viloyatlari tashkil topdi.

1924 yil 27 oktyabrda SSSR Bolsheviklar Markaziy Ijroiya Qo'mitasi II sessiyasi Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Sovetlarning Umumbuxoro V qurultoyi va Sovetlarning Umum-xorazm V qurultoyi favqulodda sessiyasining milliy-hududiy chegaralanish va yangi respublikalar hamda viloyatlar tashkil etish to'g'risidagi iltimosini qondirish va „*mehnatkash xalqning erkin xohish bildirilishi eng yuqori qonundir*“, degan ifoda bilan tasdiqladi.

SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining qarorida „SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Rayosatiga O'rta Osiyoda yangi tashkil etilayotgan respublikalarni ana shu respublikalar Sovetlar qurultoylari qaroriga muvofiq rasmiylashtirishni amalga oshirish“ vazifasi topshirildi.

Shunday qilib, 1924 yil sentyabr-oktyabrda milliy-hududiy chegaralanish O'rta Osiyo respublikalari, Rossiya Federasiyasi va SSSR davlat hokimiyati yuqori organlari qarorlarida qonun yo'li bilan rasmiylashtirildi.

SSSR Bolsheviklar Markaziy Ijroiya Qo'mitasi II sessiyasi qaroridan keyin qisqa muddat ichida yangi tashkil topgan milliy tuzilmalarning haqiqatda rasmiylashtirilishi amalga oshirildi. Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining 1924 yil noyabrda

bo'lib o'tgan maxsus sessiyalari o'z-o'zini tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qildilar. Yangi tashkil etilgan respublikalarda inqilobiy qo'mitalar tuzilib, ular yangi respublikalar va viloyatlar ta'sis s'ezdlarini chaqirish yuzasidan tayyorgarlik ishlariga boshchilik qildilar.

Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

— Turkiston ASSR dan 9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi;

— Buxoro respublikasining 9 ta viloyati;

— Xorazm respublikasining 23 ta tumani.

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312394 kv. km. ni, aholisi 4 million 447 ming 55 kishini tashkil etar edi. 1926 yil ma'lumotlari bo'yicha, milliy tarkibiga ko'ra aholining 74,2 foizini o'zbeklar, qolganlarini esa boshqa millatlar tashkil etgan.

O'zbekiston SSR ning dastlabki poytaxti **Buxoro** bo'lgan. Biroq ko'p o'tmay — 1925 yil aprelda poytaxt **Samarqand** qilib belgilandi. 1930 yil oxirida poytaxt **Toshkentga** ko'chirildi. O'zbekiston SSRda butun hokimiyat O'zbekiston SSR sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar Muvaqqat Inqilobiy qo'mita ixtiyoriga berildi. **Buxoro** respublikasi hokimiyati raisi, taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasi raisi qilib tasdiqlandi.

1924 yil 5 dekabrda Inqilobiy Qo'mita butun O'zbekiston xalqiga murojaat qilib, O'zbekiston SSR tuzilgani, uning tarkibiga Tojikiston ASSR kirganligi ma'lum qilindi.

1925 yil 13 fevralda Buxoroda O'zbekiston SSR Sovetlarining I s'ezdi ochildi. U 17 fevralda „O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to'g'risidagi deklarasiya“ni qabul qildi. Deklarasiya O'zbekiston SSR tashkil topganligini qonunan rasmiylashtirdi va O'zbekiston SSRning ixtiyoriy ravishda SSSR tarkibiga kirganligini e'lon qildi. Deklarasiyada qayd qilib o'tilganidek, „*shu kundan e'tiboran o'zbek xalqi hududida Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon,*

Surxondaryo va Xorazm viloyatlarini o'ziga olgan bu xalq tarixida birinchi marta ishchi va dehqonlarning ittifoqdosh O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi ta'sis etildi, unga Tojikiston Avtonom SSR kirdi".

1925 yil 13 mayda SSSR Sovetlarining III s'ezdi Turkmaniston va O'zbekiston respublikasining SSSR tarkibiga kirishi to'g'risida shu respublikalar „xalqlarining erkin xohishi“ni inobatga olib tasdiqladi.

Shu tariqa, O'zbekiston ittifoqdosh respublikasining qonunan rasmiylashtirish jarayoni tugallandi va jahon xaritasida SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublika bo'lgan O'zbekiston milliy sovet respublikasi paydo bo'ldi.

1937 yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitusiyasida yozib qo'yilgan respublikaning suvereniteti, erkinligi, tengligi va mustaqil rivojlanish huquqiga ega ekanligi haqidagi qoidalar faqat „qog'ozda“ edi, xolos. Amalda esa, O'zbekiston mustamlaka mavqeini egallab, hamma jihatdan metropoliyaga butunlay qaram bo'lib qolgan edi. 20-yillarning boshlarida partiya X, XII, XIV, s'ezdlari tomonidan ilgari surilgan xalqlarning iqtisodiy va madaniy qoloqligini tugatish vazifasi ham hal qilinmadi, bu boradagi partiya qarorlari bajarilmadi. Bu davrga kelib milliy respublikalar huquqlari butunlay cheklab qo'yildi. Ular yangi Konstitusiyaga muvofiq eng muhim va asosiy masalalarni hal qilishi u yoqda tursin, hatto, viloyat va tuman bo'linishlari chegaralarini belgilash huquqiga ham ega emas edilar.

1925 yil may oyida O'zbekiston SSSR tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitusiyasi, uning asosiy qonun-qoidalari O'zbekiston SSR hududida bevosita ishlaydigan bo'ldi. 1927 yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR ning birinchi va 1937 yilda qabul qilingan ikkinchi Konstitusiyasi ham amalda SSSR Konstitusiyasining ko'chirma nusxasi edi. Chunki O'zbekiston qog'ozdagi „suveren“ respublika bo'lib, amalda markazga tobe va qaram bir o'lka edi, xolos. U o'z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani ittifoq hukumatidan

xoli ravishda mustaqil hal eta olmasdi. Bunga uning haddi sig‘masdi. Binobarin, respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat hukmron markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham ittifoq hukumati roziligini so‘ramasdan 1929 yilda Tojikiston ASSR O‘zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirildi hamda SSSR ga qabul qilindi.

2. XX asrning 20 – 80-yillarida Qoraqalpog‘iston

XX asrning 20-yillarida qoraqalpoqlar Turkiston ASSR Amudaryo viloyatining Chimboy (butun aholisi 81096 kishi bo‘lib, qoraqalpoqlar 58604 kishi, ya‘ni 71 foizini tashkil qiladi), Sho‘roxon uyezdlarida (butun aholisi 90736 kishi bo‘lib, ulardan qoraqalpoqlar 81100 kishini, ya‘ni 89 foizni tashkil qilardi) va Qo‘ng‘irot (butun aholisi 80988 kishi, shundan qoraqalpoqlar 79,5 foizni tashkil qilardi) okrugiida zich yashardilar.

Bu statistik ma‘lumotlar Xorazm, Qoraqalpog‘iston, O‘zbekiston va Qozog‘iston vakillari o‘rtasida munozaralar va shiddatli tortishuvlar ob‘ekti bo‘ldi. Qoraqalpoq xalqining qat‘iyati, sobit qadamligi, sabot-matonati ittifoq rahbar organlarini ko‘p asrlar davomida o‘z milliy mustaqilligi uchun kurashib kelgan qoraqalpoq xalqining ovozigga quloq solishga majbur etdi.

1924 yil 14 oktyabrda Butunittifoq Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining ikkinchi sessiyasi Rossiya Federasiyasining Qozog‘iston Avtonom Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tashkil etilganligini tasdiqladi.

Qoraqalpoq xalqining ezgu orzusi ushalgandek bo‘lib tuyular edi. Biroq bu o‘z mohiyati bilan unitar (qo‘shma) davlat bo‘lgan. SSSRdagi davlatchilik qurilishining bolsheviklar andozasidagi „matryoshka“ prinsipi edi: *ittifoqdosh respublika — avtonom viloyat — avtonom okruglar va tumanlar*. Qoraqalpoqlar chinakam

mustaqillik va haqiqiy suverenitetga erishish uchun uzoq mashaqqatli yo'lni bosib o'tishlari lozim edi.

1925 yil 12-19 fevralda viloyat markazi To'rtko'1 shahrida bo'lib o'tgan Qoraqalpog'iston avtonom viloyati Sovetlarining birinchi s'ezdi „Qoraqalpog'iston avtonom viloyati tashkil topganligi to'g'risida Deklarasiya“ qabul qilib, „qoraqalpoq xalqining milliy davlatchiligi“ tashkil etilganligini qonunan rasmiylashtirdi.

Qoraqalpog'iston avtonom viloyati 160000 kv. km. dan ortiq hududni egallagan bo'lib, to'rtta ma'muriy okrug — To'rtko'1, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglaridan tashkil topgan edi.

Viloyat ko'p millatli edi: *qoraqalpoqlar* — 38,1 foiz, *qozoqlar* — 28,5 foiz, *o'zbeklar* — 27,5 foiz, *turkmanlar* — 3,2 foiz, *boshqa millatlar* — 2,7 foizni tashkil etardi. Qoraqalpog'iston avtonom viloyatining boyligi uncha katta emas: 5 foizini o'rmon massivlari, 280745 bosh chorva, 800000 so'm pul bo'lib, ular chegaralanish vaqtida taqsimlangan edi.

1932 yil 20 martda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Rayosati „Qoraqalpog'iston avtonom viloyatini Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirish va uning RSFSRga kirishi to'g'risida“ qaror qabul qildi. Avvalgidek Markaz rejalariga muvofiq avtonom respublikaga qishloq xo'jalik xom ashyosi va chala mahsulotlar yetkazib berish vazifasi yuklatildi. Paxta tozalash va baliqchilik avtonom respublika sanoatining yetakchi tarmoqlari bo'lib qoldi.

1936 yil 5 dekabrda SSSRning yangi Konstitusiyasi qabul qilindi, unda Qoraqalpog'istonning O'zbekiston SSR tarkibiga kirishi ko'zda tutilgan edi. Bu markazning o'z manfaatlarini ko'zlab „SSSRning paxta mustaqilligi“ ni qo'lga kiritish uchun O'rta Osiyo respublikalari zimmasiga rejalashtirgan navbatdagi murakkab vazifani qonunlashtirishi edi. Ana shu vazifa barcha O'rta Osiyo xalqlarini bir-biri bilan yaqinlashtirdi va bir maqsad yo'lida birlashtirdi.

1946 yilda Qoraqalpog'istonda 425 ta jamoa xo'jaligi bo'lib, 154,8 ming gektar sug'oriladigan yerga, shu jumladan respublika

chigit ekiladigan 54 ming gektar maydonga ega edi. 1946-1950 yillarda 42 ming gektar yer o'zlashtirildi, 1950-1960 yillarda esa chigit ekiladigan maydonlar yana 35 ming gektarga ko'paytirildi. 1960 yilga kelib bu ko'rsatkich 131,5 gektarni tashkil qildi.

Qoraqalpog'istonda 1964-1984 yillar mobaynida 7 million 144 ming tonna paxta yetishtirildi. Markaz O'zbekiston kabi Qoraqalpog'iston sanoatini ham asosan paxtachilik bilan bog'lagan holda rivojlantirishni mo'ljallagan bo'lib, sanoatnig boshqa tarmoqlariga e'tibor qaratilmadi.

1950 yilda Markazning Bosh Turkman kanali qurilishi to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Bu kanal Xorazm vohasi orqali Shimoliy Turkmaniston bo'ylab o'tar va Amudaryoning qadimgi O'zboy o'zani bo'ylab Kaspiy dengizigacha borar edi. Belgilangan rejalar amalga oshiriladigan bo'lsa, mintaqadagi ekologik vaziyatni jiddiy ravishda o'zgartirardi, lekin Orol dengizini halokatga olib kelmas edi. Biroq 1952 yilda Bosh Turkman kanalining qurilishi boshqa loyiha bo'yicha bordi, uni amalga oshirish natijasida Qoraqum kanali yuzaga keldi.

1956 yilda respublikada Taxiatosh GRESini qurish boshlandi. Qisqa muddat ichida energetiklar shahri vujudga keldi. Taxiatosh GRESining birinchi navbati 1961 yilda foydalanishga topshirildi.

60-70-yillarda Qoraqalpog'iston sanoatining rivojlanishi asosan yengil sanoat, ya'ni paxta tozalash va oziq-ovqat sanoatlarini ustuvor rivojlantirilishi evaziga ancha yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat sanoatida Mo'ynoq baliq-konserva zavodi yiliga 17.4 million banka quvvat bilan ishladi, lekin Orolning qurib borishi natijasida baliq zahiralari keskin kamaydi va bu soha ham inqirozga yuz tutdi.

60-80-yillardagi islohotlar o'zining ziddiyatli ekanligiga qaramay, har holda Qoraqalpog'istonning ishlab chiqaruvchi kuchlarini nisbatan rivojlantirishga yordam berdi. Xalq xo'jaligining moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlandi. Irrigasiya-meliorasiya inshootlarining butunlay yangicha tizimi tashkil etilib, qo'riq yerlarni o'zlashtirish va sug'orishda muhim omil bo'ldi.

3. O'zbekistonning aholi geografiyasi (XX asrning 20-80-yillari)

O'rta Osiyoda milliy — hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng ham respublika ko'p millatli edi: O'rta Osiyoda jami 8131062 kishi istiqomat qilgan bo'lsa, bu aholining 3963285 tasi O'zbekiston SSRga o'tdi. Ulardan *o'zbeklar* 3381579 kishini, ya'ni respublika aholisining 3/4 qismini tashkil etgan. Haqiqatda, O'rta Osiyo hududida yashovchi barcha o'zbeklarning qariyb 90 foizi O'zbekiston SSR hududida edi.

1926 yilda respublika aholisining umumiy soni 4 million 621 ming kishiga etib, ularning 1 million 12 mingi shaharlarda, 3 million 657 mingi esa qishloq joylarida istiqomat qilgan. Umumiy aholiga nisbatan shahar aholisi 21,9 foizni, qishloq aholisi esa 78,1 foizni tashkil etgan. O'zbekiston hududida ko'pgina millatlarning vakillari *yig'noq guruhlar* sifatida istiqomat qilishardi. 1926 yilgi aholi ro'yxatiga binoan bu yerda 490 ming *tojik*, 130 ming *qozoq*, 81 ming *qirg'iz*, 72 ming *arab*, 36 ming *uyg'ur* mavjud edi va hokazo.

1930 yillarda O'zbekiston aholisining umumiy soni 4 million 926 ming kishini tashkil etib, ularning 1 million 12 mingi shaharlarda, 3 million 847 mingi esa qishloq joylarida istiqomat qilgan.

O'tgan asrning 40-yillariga kelib esa respublika aholisining umumiy soni 6 million 551 ming kishini tashkil etib, ularning 1 million 606 mingi shaharlarda, 4 million 945 mingi esa qishloq joylarida istiqomat qilgan. Shahar aholisi 25 foizni, qishloq aholisi esa 75 foizni tashkil etgan.

Stalin boshliq markaziy hokimiyat amalga oshirgan milliy siyosatning zarari, adolatsizligi odamlarning qattiq qatag'on qilinishi bilan chegaralanib qolmadi. Uning mudhish ekanligi yana shundaki, ko'plab xalqlarning milliy davlatchiligi buzildi, respublikalar va muxtor viloyatlarning haq-huquqlari poymol qilindi.

1937-1938 yillarda mustabid tuzum zo‘ravonlik bilan Rossiyaning Uzoq Sharq o‘lkasidan 74500 koreys aholisini majburiy ravishda ko‘chirilib, O‘zbekiston hududiga olib kelindi. Uzoq Sharq o‘lkasidan koreys aholisi majburiy ravishda ko‘chirilishiga asosiy sabab SSSR bilan Yaponiya o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi edi. Chunki bu davrda Koreya yarim orolining bir qismi Yaponiya tomonidan bosib olingan bo‘lib, bu yerdagi koreys aholisi bilan Uzoq Sharq koreyslarining etnik kelib chiqishi bir edi. Shu sababdan mustabid Sovet davlati 1937 yil 21 avgustda qabul qilgan „Uzoq Sharq o‘lkasi chegara rayonlaridan koreys aholisining ko‘chirish to‘g‘risida“gi qaroriga binoan 170 ming koreyslar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududiga majburan ko‘chirib olib kelingan edi. Bu davrda O‘zbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari shunchalik ko‘p miqdordagi koreys aholisini qabul qilish va joylashtirishga qurbi etmasdi. Lekin shunga qaramasdan o‘zbek xalqi koreys aholisiga nisbatan markaziy hukumatning „munosabatidan“ qat’i nazar ularga o‘zining milliy mehmondo‘stligini, bag‘rikengligini ko‘rsatdi. Ularni uy-joy, ish bilan imkon darajasida ta‘minladi, madaniy o‘choqlar yaratdi, bolalarining o‘qishi, ta‘lim olishi uchun maktablar qurib berdi.

O‘tgan asrning 40-yillari o‘rtalarida Volganing quyi oqimi va Kaspiy dengizi qirg‘oqlarida yashovchi *qalmoqlar*, Shimoliy Kavkazda yashovchi *qorachoylar*, *chechenlar*, *ingushlar* va *bolqarlar*, 1944 yilda esa *qrim tatarlari*, *greklar*, keyinroq *mesxeti turklari* ham o‘z vatanlaridan Sibir va O‘rta Osiyoga surgun qilindilar.

Jumladan O‘zbekistonga 175 mingdan ortiqroq *chechenlar*, 157 ming *ingushlar*, 150 mingdan ortiqroq *qrim tatarlari*, 4500 *bolqarlar*, o‘n minglab *mesxeti turklari*, *greklar* ko‘chirib keltirildi. O‘zbek xalqi ularni beg‘araz kutib olib, yashash uchun uy-joy, oziq-ovqatlar bilan yordam berdi. Mahalliy hokimiyat ularga hosildor yerlardan tomorqa yer, uy qurish va xo‘jalik yuritish uchun kredit mablag‘lari ajratdi. Ko‘chirib keltirilganlar

ancha mashaqqatlar bilan yangi joylarga asta-sekin moslashib bordilar.

O'zbekistondan Ikkinchi jahon urushiga safarbar etilganlardan 263005 kishi halok bo'ldi, 132670 kishi bedarak yo'qoldi, 60452 kishi nogiron bo'lib qaytdi. Shubhasiz, bu raqamlar urushdan keyingi bir necha yillar davomida ham respublikamizning demografiyasi va mehnat resurslariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib turdi.

50-yillar o'rtalariga kelib respublika aholisining umumiy soni 7 million 170 ming kishini tashkil etib, ularning 2 million 319 mingi shaharlarda, 4 million 851 mingi esa qishloq joylarida istiqomat qilgan. Umumiy aholiga nisbatan shahar aholisi 32,3 foizni, qishloq aholisi esa 67,7 foizni tashkil etgan.

O'tgan asrning 70-yillari o'rtalariga kelib respublika aholisining umumiy soni 13 million 778 ming kishini tashkil etib, ularning 5 million 300 mingi shaharlarda, 8 million 430 mingi esa qishloq joylarida istiqomat qilgan. Respublika aholisining 38,5 foizi shaharlarda yashagan. Bu davrda O'zbekistonning barcha yerida o'zbeklar (63 foizga yaqin), *ruslar* (13,6 foiz - asosan shaharlarda), Qoraqalpog'iston ASSRda *qoraqalpoqlar* (2 foizdan ortiq) yashagan. *Tojiklar* (3,8 foiz) va *qozoqlar* (3,8 foiz), shuningdek, anchagina *tatarlar* (5,5 foiz) ham va boshqa xalqlar ham yashagan.

O'zbekiston vohalarida aholi zichligi sobiq SSSR da eng yuqori bo'lib ba'zi yerlarda 1 kv. km. da 400 kishigacha va bundan ham ko'proq to'g'ri kelgan; cho'l hududlarida (Qoraqalpog'iston ASSR, Buxoro viloyatida) 1 kv. km. ga 3-5 kishi to'g'ri kelgan.

O'rta Osiyodagi yirik shaharlarning ko'pchiligi O'zbekistonda bo'lib, 59 mingdan ortiq aholi bo'lgan 14 shahardan 9 tasi O'zbekistonda joylashgan. 1970 yil boshidagi ma'lumotlarga qaraganda, respublika poytaxti Toshkentda 1 million 385 ming kishi istiqomat qilgan. U Volga va Kaspiydan sharqdagi eng katta shahar, O'rta Osiyoning eng yirik iqtisodiy va madaniy markazi hisoblangan. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Chirchiq va Qo'qonning har birida 100 mingdan ortiq aholi

yashagan. O'tgan asrda O'zbekistonda eski shaharlar — o'sishi bilan bir qatorda ko'pgina yangi sanoat korxonalari qurilishi munosabati bilan ko'pgina yangi shaharlar (Bekobod, Chirchiq, Ohangaron, Yangiyo'l, Quvasoy, Kattaqo'rg'on, Navoiy va boshqalar); Mirzacho'lning sug'oriladigan qismida yangi shaharlar — Guliston va Yangiyer barpo etilgan.

O'tgan asrning 90-yillariga kelib respublika aholisining umumiy soni 20 million 322 ming kishini tashkil etib, ularning 8 million 282 mingi shaharlarda, 12 million 40 mingi esa qishloq joylarida istiqomat qilgan. Umumiy aholiga nisbatan shahar aholisi 40,8 foizni, qishloq aholisi esa 59,2 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga, sobiq sho'rolar davrida O'zbekistonda yosh bolalar o'rtasida o'lim darajasi yuqori bo'lgan. Masalan, 1975 yilda har ming nafar tug'ilgan boladan 53 tasi bir yoshga etmay o'lgan. Bu salbiy ko'rsatkich 1985 yilda 45 tani tashkil etganligi ham ijtimoiy masalalar to'liq hal etilmaganligini ko'rsatadi.

4. XX asrning 20-80-yillarida O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasi

O'zbekiston hukumati 1922 yilda sug'orish ishlariga katta miqdorda mablag' ajratdi. Bu ishlar O'zbekiston SSR tuzilgach, yanada avj oldirib yuborildi. Urushgacha bo'lgan davrda respublikada Darg'om, Narpay, Savay, Dalvarzin, Log'on, Katta Farg'ona kanallari, Kattaqo'rg'on suv ombori kabi ko'plab suv inshootlari qurildi.

Chirchiq-Ohangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo irrigasiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929-1933 yillarda bu sohaga 234,9 million rubl sarflandi. Birgina 270 km. bo'lgan Katta Farg'ona kanali 45 kun ichida qurib bitkazildi (1939 yil). Buning natijasida Farg'ona vodiysida 60 ming gektar bo'z cho'lli yerlar o'zlashtirilib, 500 ming gektar yerni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Sovetlar hokimiyatining o'tgan asming 20-30-yillarida amalga oshirgan ma'muriy-buyruqbozlik va zo'rvonlik siyosatining yorqin ifodasi qishloqda o'tkazilgan jamoalashtirish jarayonida namoyon bo'ldi.

1929 yilning ikkinchi yarmi va 1930 yil boshlarida bu jarayon O'zbekistonda ham boshlanib ketdi. O'zbekiston partiya va hukumatining 1930 yil 17 fevraldagi „Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida“gi qarorida respublikaning 17 ta tumanida yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish vazifasi belgilangan edi. 1929 yil oktyabrda qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3,4 foizi kolxozlarga kiritilgan holda, 1930 yil martga kelib dehqon xo'jaliklarining 47 foizi kolxozlashtirilgan edi.

Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'rvonlik, iqtisodiy terror usullari va shu kabi ta'sir choralarini uzluksiz qo'llanilishi natijasida kolxoz qurilishi sezilarli sur'atlarda rivojlantirib borildi. 1932 yil oxiriga kelib umuman O'zbekistonda jamoalashtirilgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizini birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgan edi.

Bu davrga kelib paxtachilik tumanlarida jamoalashtirish asosan tugallangan, ularning ekin maydonlari 1927 yildagi 530 ming gektardan 1932 yilga kelib 928 ming gektarga ko'paygan edi. Shu tariqa paxta maydonlari kengayib bordi. Masalan, 1935 yilda O'zbekistonda 1 million tonna paxta tayyorlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1939 yilda 1,5 million tonnani, 1941 yilga kelib esa 1,6 million tonnadan ko'proqni tashkil etdi. Bu sobiq Ittifoq bo'yicha tayyorlangan paxtaning 60 foizdan ziyodrog'ini tashkil qiladi.

30-yillar davomida respublika qishloq xo'jaligi tizimida paxta yakkahokimligi mustahkam o'rin egallab bordi. Jumladan, agar 1933 yilda paxta mahsuloti respublika yetishtirib tayyorlab beradigan qishloq xo'jaliklari mahsulotlari umumiy hajmining 81,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1937 yilga kelib bu ko'rsatkich 93,4 foizga yetdi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida O'zbekiston

paxtakorlari davlatga 4 million 806 ming tonna paxta xom ashyosi yetkazib berdilar. Qishloqni jamoalashtirish jarayoni ham o'zining yakunlovchi pallasiga kirib bordi. Chunonchi, 1937 yilda dehqon xo'jaliklarinig jamoalashtirish darajasi 95 foizga etgan bo'lsa, 1939 yilda u 99,2 foizni tashkil etdi.

1956 yilda sobiq Ittifoq hukumatining Mirzacho'ldagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish to'g'risidagi qaroriga asosan bu yerda 1956-65 yillar davomida 84 ming gektar yangi yer o'zlashtirildi. 1957 yilda Yangiyer va 1961 yilda Guliston shaharlari vujudga keldi hamda 1963 yil 16 fevralida O'zbekiston tarkibida markazi Guliston shahri bo'lgan Sirdaryo viloyati tashkil etildi.

Jizzax cho'lida 70 ming gektardan ziyod yangi yerlar o'zlashtirilib, bu yerlarda *Mirzacho'l* (1967 yil), *Do'stlik* (1970 yil), *Zafarobod* (1973 yil), *Arnasoy* (1977 yil) tumanlari tashkil etildi. 1973 yilning 29 dekabrda esa respublika tarkibida yangi — *Jizzax viloyati* tashkil etildi.

Shuningdek, Markaziy Farg'ona, Qarshi, Surxon-Sherobod va Quyi Amudaryo yerlarida minglab gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. 50-60-yillarda Kosonsoy, Qamashi, Farg'ona, Pachkamar, Chorvoq, Quyimozor, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on, Toshkent, Ohangaron suv omborlari bunyod etildi.

O'zbekiston hududida 1946-1965 yillarda qariyb 600 ming gektar yangi sug'oriladigan yerlar ishga tushirilgan bo'lsa, 1966-1985 yillarda 1,6 million gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Buning natijasida paxtachilik ekin maydonlari ko'paydi.

Bu davrda O'zbekiston sanoati ancha rivojlandi va yangi sanoat tarmoqlari barpo etildi. 7-Shahrixon GESi, ikkita Namangan GESlari, ikkita Bo'zsuv GESlari, Chorvoq GESi, Xo'jakent GESi qurib ishga tushirildi. Gaz bilan ishlaydigan Angren, Taxiatosh, Navoiy, Sirdaryo, 2-Angren GRES lari barpo etildi.

1985 yilda O'zbekiston elektrostansiyalarining umumiy quvvati 9,9 million kilovatt dan ortdi. Shu yili 47,9 milliard kilovatt-soat, ya'ni 1940 yilga nisbatan 100 baravar, 1950 yilga nisbatan 18 baravar ko'p elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Yoqilg'i sanoati o'sdi. 50-yillarda Sharg'un toshko'mir koni o'zlashtirildi. 60-yillarda esa Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi Gazli, Jarqoq, Sho'rtepa, Qarantay yangi neft konlari o'zlashtirildi. 70-yillarda Farg'ona vodiysida ham yangi neft konlari ishga tushirildi. 1959 yili qurilib foydalanishga topshirilgan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ancha kengaytirildi.

Shuningdek, respublikada yirik gaz sanoati bunyod etildi. Gaz sanoati Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yirik gaz konlarining izlab topilishi va o'zlashtirilishi bilan bog'liq ravishda yuksalib bordi. Muborak, O'rtabuloq, Qultaq, Shapatti, Uchqir, Jarqoq, Sariatosh, Qorovulbozor neft va gaz konlari topildi.

Kimyo sanoatida mineral o'g'it ishlab chiqarish yetakchi o'rin egalladi. Shu sababli 50-yillarda Samarqand superfosfat zavodi, 1962 yilda Farg'ona azot o'g'iti zavodi, 1965 yilda Navoiy kimyo kombinati, 1969 yilda Olmaliq kimyo zavodi qurilib ishga tushirildi.

O'zbekiston metallurgiya sanoati taraqqiy etdi. Bunda Olmaliq-Angren tog' sanoati rayoni muhim o'rin egalladi.

Respublikada 60-yillarda *oltin* qazib olish sanoti bunyod etildi. Muruntov, Chodak, Konbuloq oltin konlari, Farg'ona vodiysidagi daryo o'zanlaridagi *sochma oltin*, Nurota, Qurama, Zarafshon, Hisor, Pomir tog'larida *oltin tarkibli kvas tomirlari va rudalar* mavjudligi aniqlandi. Respublika hududida jami 30 ta oltin koni aniqlandi. Oltin qazib oluvchi Muruntov tog' boyitish kombinati, Marjonbuloq kombinati qurildi.

50-80-yillarda mashinasozlik sanoati ko'p tarmoqli sohaga aylandi. 1985 yilda sanoatda faoliyat ko'rsatgan 1549 ta ishlab chiqarish birlashmalari, kombinatlari va korxonalarining 100 dan ortig'i mashinasozlik tarmog'iga tegishli bo'lib, ularda tayyorlangan mashinalar salmog'i butun sanoat mahsulotining 16 foizini tashkil etardi. Bu sohada paxtachilik, to'qimachilik sanoati *mashinasozligi* muhim o'rin tutadi.

1941 yilda Ximki shahridan ko'chirib keltirilgan zavod asosida *aviatsiya* zavodi barpo etilib, 1972 yilda yirik Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Urushgacha bir necha qurilish sanoatiga ixtisoslashgan zavodlar mavjud bo'lsa, 60-80-yillarda Bekobod, Quvasoy, Angren, Ohangaron, Navoiy, Qumqo'rg'on yirik sement zavodlari barpo etildi. O'zbekistonda jami 34 ta *marmar* koni bo'lib, Toshkent, G'azalkent, Ohangaron, Kitob va G'azg'onda marmarni qayta ishlash, undan qurilish materiallari tayyorlash zavodlari va kombinatlari ishladi.

Respublikada 80-yillarda 107 ta *paxta tozalash zavodi* ishladi. 70-80-yillarning boshlarida Buxoro, Andijon, Nukus, Jizzaxda *to'qimachilik, ip-gazlama* va *paxta yigiruv* kombinatlari ishga tushirildi.

O'zbekistonda mahalliy xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan ko'p tarmoqli *oziq-ovqat sanoati kompleksi* barpo etildi. Uning *yog'-moy, konserva, non, qandolat, go'sht, sut, baliq, choy, tamaki, vino* yetishtiruvchi tarmoqlari yetakchi sohalar bo'lgan. 1980 yillarning o'rtalariga kelib, oziq-ovqat sanoati kompleksida 271 ta korxonalar faoliyat ko'rsatgan.

Respublikada bu davrda anchagina yirik sanoat korxonalari qurilgan bo'lsa-da, biroq ular mustaqil ravishda tayyor mahsulot ishlab chiqarolmas edi. Ularning ko'pchiligi Rossiya va sobiq Ittifoqning g'arbiy respublikalaridagi korxonalariga qaram edi.

50-80-yillarda *temir yo'l transporti* ancha rivojlandi. 50-yillarda uzunligi 627 km. bo'lgan Chorjo'y—Qo'ng'iro't, 1962 yilda esa uzunligi 280 km. bo'lgan Navoiy—Uchquduq, 1970 yilda Samarqand—Qarshi (144 km), 1974 yilda Termiz—Qo'rg'ontepa (218 km), 1972 yili esa uzunligi 408 km. bo'lgan Qo'ng'iro't—Beynov temir yo'li qurilib ishga tushirildi. Respublika temir yo'llarining uzunligi 1985 yilda 3,5 ming km. ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti ham tez sur'atlar bilan o'sdi. 50-70-yillarda respublikada zamonaviy avtomobil yo'llari — Katta O'zbekiston trakti (Toshkent—Termiz) ta'mirlandi, Toshkent—Olmaliq, Toshkent—Buxoro—Nukus, Mo'ynoq—Zarafshon, Samarqand—Chorjo'y, Farg'ona halqa yo'li, Toshkent halqa yo'li qurilib foydalanishga topshirildi.

Respublika iqtisodiyotida *havo transportining* ahamiyati ortib bordi. Toshkent aeroporti orqali sobiq Ittifoqning markaziy shaharlari, respublikalarning poytaxtlari, yirik sanoat markazlari o'rtasida muntazam havo yo'llari qatnovi yo'lga qo'yildi. O'zbekiston havo yo'llarining uzunligi 60 ming km. ga etdi. 1985 yilda respublika aeroportlarida 5,5 millionga yaqin yo'lovchi, 63,4 ming tonna yuk tashildi.

O'rta Osiyoda yagona hisoblangan *Toshkent metropolitenining* birinchi yo'nalishi (12,1 km) 1977 yilda, ikkinchi yo'nalishi esa 80-yillarda foydalanishga topshirilishi ham respublika poytaxtida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini ancha kengaytirishga xizmat qildi.

Savol va topshiriqlar

1. *O'zbekistonning 1924-1938 yillardagi chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi qanday bo'lgan?*

2. *O'zbekistonning XX asr 40-80-yillaridagi ma'muriy-hududiy bo'linish tizimini kartadan ko'rsating.*

3. *Sho'rolar hukmronligi davrida O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston chegaralari o'zgarib turganmi?*

4. *O'zbekistonning 40 – 80-yillardagi iqtisodiy geografiyasiga oid nimalarni bilasiz?*

5. *O'zbekistonning sho'rolar hukmronligi davridagi aholi geografiyasi haqida ma'lumot tayyorlang.*

Mavzuga doir manba

O'zbekiston aholisining milliy tarkibi

	Ming kishi			
	1959 yil	1970 yil	1979 yil	1989 yil
Barcha aholi	8105,5	11799,0	15389,3	19810,1
O'zbeklar	5038,3	7724,4	10569,0	14145,5
Qoraqalpoqlar	168,3	230,3	297,8	411,9

	Ming kishi			
	1959 yil	1970 yil	1979 yil	1989 yil
Tojiklar	311,4	448,5	594,6	933,6
Ruslar	1090,3	1473,5	1665,7	1653,7
Qozoqlar	335,3	476,3	620,1	802,2
Tatarlar	444,8	573,7	648,8	656,6
Qirg'izlar	92,7	110,7	142,2	174,9
Koreyslar	138,5	147,5	163,1	183,1
Turkmanlar	54,8	71,0	92,3	121,1
Ukrainlar	87,9	111,7	113,8	153,2
Armanlar	27,4	34,2	42,4	50,5
Ozarbayjonlar	40,5	38,9	59,8	44,4
Beloruslar	9,5	16,9	19,1	29,4
Boshqa millatlar	265,8	341,4	360,6	452,7

(Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 г. - М., 1962; Итоги Всесоюзной переписи населения 1970 г. Ч. 1. Кн. 2. - М., 1972; Итоги Всесоюзной переписи населения 1979 г. - Т., 1972; Итоги Всесоюзной переписи населения. Населения Республики Узбекистан 1989 г. - Т., 1992)

VIII BOB.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARIXIY GEOGRAFIYASI

1. O'zbekistonning tabiiy-geografik tavsifi

O'zbekiston Turkistonning markaziy qismida joylashgan. Uning hududining asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo'lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida o'rnashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli-sharqida, Orol dengizi qirg'og'ida bo'lib, 45°31' shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi esa Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo'lib, 37°11' shimoliy kenglikka to'g'ri keladi. Respublikaning eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida 56°00' sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa O'zbekiston bilan Qirg'iziston chegarasida, O'zgan shahri yaqinida bo'lib, 37°10' sharqiy uzoqlikdadir. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan eng janubiy nuqtalari orasidagi masofa 925 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan eng sharqiy nuqtalari orasidagi masofa esa 1400 km O'zbekiston janubi-sharqda Tojikiston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, janubi-g'arbda esa Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda O'zbekiston torgina Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan chegaradosh. Bu yerda Afg'oniston bilan O'zbekiston chegarasi Amudaryo orqali o'tadi.

Respublikamiz hududi 448,9 ming kv. km ni tashkil etib, Norvegiya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O'zbekistonning maydoni Belgiya, Gollandiya va Daniya kabi davlatlarning yer maydonlarini qo'shib hisoblaganda ham ulardan 4 marta kattadir. Respublika hududi Shveysariya davlati hududidan esa 10 marta ziyoddir.

O'zbekiston geografik o'rni juda qulay. Chunki uning hududi Turkistonning markazidagi tabiiy sharoiti qulay va tabiiy boyliklarga serob bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning ko'p qismining tekislikdan iborat bo'lishi hamda serunum vohalarning – Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryoning mavjudligi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga qulay sharoit yaratib bergan.

O'zbekiston hududi janubi-sharqdan shimoli-g'arbga cho'zilib, o'sha tomonga qarab pasayib boradi. Respublika yer usti tuzilishi jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining 71 foizini dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tekisliklar va tog' oldi tekisliklari tashkil etadi.

O'zbekiston tabiiy sharoiti xilma-xil bo'lib, yozda ham qor va muzlar bilan qoplangan. Balandligi 4688 metrga yetuvchi Hazrati Sulton cho'qqisi bilan birga dengiz sathidan 12 metr chuqurlikda Mingbuloq botig'i bor.

O'zbekiston hududi o'zining geologik taraqqiyoti mobaynida murakkab jarayonlarni boshidan kechirgan. Shuning uchun uning relefi xilma-xildir.

Respublikaning sharqiy va janubi-sharqiy qismini O'rta Osiyoning eng baland tog'lari Tyanshan va Pomir-Oloy tizmalarining tarmoqlari qoplab olgan. Bu tog'lar g'arb va shimoli-g'arb tomon pasayib boradi, sharq va janubi-sharqda esa ularning balandligi dengiz sathidan 7495 metrga etadi. O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismi esa Turon tekisligining markaziy qismi bilan band. Shunday qilib, O'zbekiston hududi yer usti tuzilishi jihatidan ikkita katta qismga, ya'ni tog'li va tekisliklarga bo'linadi. Bu qismlar o'z maydonlarining katta-kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbekiston hududining 70% ga yaqini tekislik, qolgan 30% qismini esa tog'lar egallaydi. Bu qismlarning chegaralari nihoyatda egri-bugri bo'lib, tog'larning ba'zi bir tizmalari tekislik qismining ichkarisiga surilib kirgan, ayrim joylarda tekislik ham tog' tizmalari orasiga qo'ltiq shaklida kirib qolgan.

O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda, Yevrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi tufayli *kontinental iqlimga* ega bo'lib, osmoni nihoyatda ochiq. Seroftob, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan, shu geografik kenglik uchun birmuncha sovuq qish bilan tavsiflanadi. O'zbekistonda iqlimning barcha unsurlarining yillik o'zgarishi orasida katta tafovutlar mavjud bo'lib, ular eng avvalo iqlim hosil qiluvchi omillarning xususiyatlariga bog'liq.

O'zbekiston iqlimi uning geografik o'rni va u bilan bog'liq holda *Quyosh radiyasi, atmosfera sirkulyasiyasi, relefi, yer yuzasining holati, iqlimga kishilar xo'jalik faoliyatining (antropogen) ta'siri* natijasida tashkil topadi. O'zbekiston iqlimini hosil qiluvchi omillar ichida eng muhimlaridan biri - uning geografik o'rni va u bilan bog'liq Quyosh radiyasi. Quyosh radiyasi barcha tabiiy jarayonlarning *energetik negizi* (bazasi) hisoblanadi. Quyosh radiyasi esa o'z navbatida joyning geografik kengligiga, havoning ochiqligiga va quyoshning nur sohib turadigan davriga uzviy bog'liqdir.

Ma'lumki, O'zbekiston cho'l zonasida, asosan subtropik kengliklarda, okeanlardan ichkarida joylashgan. Bu esa uning iqlimidagi ba'zi xususiyatlarni, chunonchi, Quyoshni ufqdan baland turib uzoq vaqt yoritib va isitib turishini, kam bulutli bo'lishligini shakllanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston ancha janubiy kengliklarda (taxminan $37^{\circ}11'$ va $45^{\circ}36'$ shimoliy kengliklarda) joylashganligi tufayli yozda Quyosh nuri ancha tik tushib (iyunda shimolda $71-72^{\circ}$, janubda 76° balandda turadi) uzoq vaqt nur sohib turadi. Qishda O'zbekiston shimolida Quyosh 21° , janubda esa 29° burchak hosil qilib turadi. Respublika hududining shimoldan janubga $8^{\circ}25'$ cho'zilganligi tufayli Quyoshning nur sohib turish davri va u bilan bog'liq holda yalpi Quyosh radiyasiyasing miqdori ham o'zgaradi. Shu sababli Toshkentda Quyosh yiliga o'rta hisobda 2889 soat nur sohib tursa, eng janubda joylashgan Termizda bu ko'rsatkich 3095 soatni tashkil etadi. O'zbekistonda yil bo'yi, ayniqsa, yozda

havo ochiq bo'lib, bulutli kunlar juda kam, shu tufayli respublikada qishloq xo'jalik ekinlarining pishib yetishadigan davri hisoblangan may-oktyabr oylarida Toshkentda Quyosh 1749 soat nur sochib tursa, Termizda 2012 soatga teng.

O'zbekiston iqlimining vujudga kelishida atmosfera sirkulyasiyasining (havo massalarining almashinib turishi) ham ahamiyatga ega. Respublika hududiga yil bo'yi uchta asosiy havo massalari ta'sir etib turadi: *arktika*, *mo'tadil* (qutbiy) va *tropik*.

O'zbekiston hududida atmosfera sirkulyasiyasining o'zgarib turishi xususiyatlari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lish maqsadida yilning issiq (yoz) va sovuq (qish) fasliga bo'lib tavsif beramiz. Qishda O'zbekiston hududi ko'proq arktika va mo'tadil (qutbiy) havo massalari ta'sirida bo'lib, ular shimoli-g'arbdan, shimoldan va shimoli-sharqdan kirib keladi. Ma'lumki, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston qishda Sibir antisiklonidan vujudga kelgan yuqori bosimli barometrik o'qdan janubdan joylashgan. Natijada o'sha yuqori bosimli barometrik o'qdan, ya'ni shimoli-sharqdan O'zbekiston hududiga havo massasi kirib keladi.

Qishda O'zbekiston hududiga ba'zan iliq tropik havo massalari Eron, Afg'oniston tomondan kirib keladi. Natijada, Turkistonning janubiy qismida mo'tadil mintaqa sovuq havosini Eron va Afg'onistondan kirib kelgan iliq tropik havosidan ajratib turuvchi qutb fronti vujudga keladi. Front chizig'i atrofida ob-havo beqaror bo'lib, siklonlar harakati kuchayib, Kaspiy dengizining janubiy va Kopedtog' bilan Parapamiz tog'larining oralig'ida Tajan va Murg'ob vodiylari orqali Turkistonga kirib keladi hamda shimoli-sharq tomonga qarab harakat qiladi. Oqibatda Qozog'iston hududida u kuchsizlanib qoladi.

Yilning issiq faslida O'zbekistonda havo sirkulyasiyasi qish faslidan keskin farqlanadi. Chunki may oyidan boshlab Turon tekisligi havosi tezda qizib ketishi oqibatida past bosimli markaz – termik depressiyasi vujudga keladi. Natijada havo o'ta qizib, mahalliy kontinental Turon tropik havosi shakllanadi. Bu davrda O'zbekistonda harorat ko'tarilib, Termizda 50° ga yetishi

kuzatilgan. Bunday ob-havo (termik depressiyali kunlar) yoz davrining 15% ni tashkil qiladi.

O'zbekiston tog' oldi qismlariga yiliga o'rtacha 300- 500 mm (Denovda — 360 mm, Qamashida — 327 mm, Samarqandda — 328 mm, Toshkentda — 359 mm, Jizzaxda — 425 mm, Kitobda — 545 mm) gacha yog'in tushadi. Respublikada eng ko'p yog'in uning tog'li qismiga, xususan G'arbiy Tyanshan, Zarafshon va Hisor tog'larining g'arbiy va janubi-g'arbiy yonbag'irlariga to'g'ri kelib, o'rtacha yillik yog'in miqdori 550 — 900 mm, ayrim joylariga esa 900 mm dan ham ortiq yog'in tushadi (Hazrati Bashirda — 550 mm, Sharg'unda — 625 mm, Chimyonda — 787 mm, Xumsonda — 879 mm, Omonqo'tonda — 881 mm).

O'zbekiston Turkistonning markazida, materikning ichki qismida joylashganligi tufayli uning daryolari okean va dengizlarga quyilmaydi, binobarin berk havzaga qaraydi. Respublika daryolari hudud bo'yicha notekis joylashgan bo'lib, o'ziga xos *gidrologik* xususiyatga ega.

O'zbekiston hududida daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emas. Respublika yer maydonining 71% ni ishg'ol qilgan tekislik qismida daryo tarmoqlari juda siyrak joylashib, har kv. km. maydonga 2 metr uzunlikdagi daryo to'g'ri keladi. Vaholanki, MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) hududi bo'yicha daryo tarmoqlarining o'rtacha zichligi har kv. km maydonga 140 metrdir.

Respublika hududining 17% ni ishg'ol qilgan adirlar qismida esa daryo tarmoqlari nisbatan zichlashib boradi. Lekin bu yerlardan juda ko'p sug'orish shoxobchalari (ariq, kanal) boshlanib, ularning suvini har tomonga tarqatib, sug'orishga sarflab yuboradi.

O'zbekiston yer maydonining 12% ni ishg'ol qilgan tog'li qismida har kv.km maydonga o'rtacha 140-150 metr uzunlikdagi daryo tarmoqlari to'g'ri keladi. Respublika hududida daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emasligi eng avvalo uning *relefiga*, *iqlimiy* xususiyatlariga bog'liq. Shu sababli relefi *baland*, *sernam*, yog'inga nisbatan (haroratning pastligi tufayli) *bug'lanish kam*

bo'lgan (potensial bug'lanish) tog'li qismida yoqqan yog'inning ko'p qismi oqimga aylanib, soy va daryolarni hosil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra respublika tog'larining g'arbiy qismida yiliga 1000-1500 mm. gacha yog'in tushadi. Bu esa tog'larning g'arbiy yonbag'ridan boshlanuvchi Norin, Zarafshon Chirchiq, Qoradaryo kabi daryolarning sersuv bo'lishiga sababchi bo'lgan. Respublika tekislik qismida esa, aksincha, yoz *issiq, quruq, seroftob* bo'lib, yillik yog'in miqdori 80-200 mm atrofida. Lekin mumkin bo'lgan bug'lanish esa 1500- 2000 mm ga yetadi. Bunday iqlimiy sharoitda oqimning vujudga kelishi juda qiyin. Shu tufayli O'zbekiston tekislik qismida daryo tarmoqlari juda siyrak.

Shunday qilib, O'zbekiston tog'li qismi bu qor-muz, yomg'ir suvi yig'iladigan, yer usti va yer osti suvlari vujudga keladigan mintaqa bo'lsa, aksincha, uning tekislik qismi esa o'sha tog'lardan oqib kelayotgan suvlarni sarflaydigan mintaqadir.

O'zbekiston daryolari asosan uning tog'li qismidan hamda Qirg'iziston va Tojikiston hududidagi tog'lardan suv oladi. Agar Amudaryo va Sirdaryo havzalarida vujudga keladigan yillik oqimni 100% desak, shundan Amudaryoning 8%, Sirdaryoning 10% oqimi O'zbekistonning hududida vujudga keladi, xolos. Shuningdek, O'zbekistonning eng muhim daryolari hisoblangan **Norin**, Qoradaryo, So'x, Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryolarning ham yuqori oqimlari respublika hududidan tashqarida joylashib, o'sha joylardan suv to'playdi va to'plagan suvini o'rta va quyi oqimida, ya'ni respublika hududiga sarflaydi.

O'zbekiston suv to'playdigan uning tog'li qismida oqimning vujudga kelish miqdori, rejimi va tarqalishi hamma qismida bir xil emas. Bu eng avvalo tog'larning *orografik tuzilishiga, balandligiga, yog'inlarning miqdoriga bog'liq*. Haqiqatan ham tog' tizmalarining nam havo oqimiga ochiq va ularning yunalishiga ro'para bo'lgan tog'larning janubi-g'arbiy va g'arbiy yog'in ko'proq tushadigan yonbag'irlarida suv yig'adigan maydonlari suvga eng serob hisoblanadi. Shu sababli Hisor tog'ining janubi-g'arbiy yonbag'ridan, G'arbiy Tyanshanning janubi-g'arbidan suv oluvchi

daryolar (Pskom, Ugom, Ko'ksuv, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim irmoqlari) ning oqim moduli (suv yig'ilish maydonlarining nisbiy sersuvligi) katta. Bu joylarda tog'larning 3000 metr balandliklarida bir kv. km. maydondan sekundiga 30-50 litr oqim vujudga keladi. Aksincha, respublika tog'larining shimoliy, sharqiy yonbag'irlarida, xususan, Oloy, Turkiston, Zarafshon, Hisor tog'larining shimoliy, sharqiy yonbag'irlarining 3000 metr baland qismlarida bir kv. km. maydonda sekundiga 7-12 litr oqim to'planadi.

O'zbekiston yer osti suvlari ham umumiy suv resursining bir qismi sifatida xalq xo'jaligi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

2. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi hududi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 1992 yil 9 yanvarda suveren respublika huquqini olgan. Ushbu respublika Amudaryoning quyi qismlarida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 166,6 ming kv. km ni tashkil etadi hamda mamlakatimiz maydonining 38 foizini egallagan. Bu yerda 1543,3 ming kishi yashaydi. Poytaxti Nukus shahri hisoblanadi. Qoraqalpog'iston tarkibiga 15 qishloq tumanlari va 12 shahar kiradi.

Andijon viloyati 1941 yil 6 martda tashkil topib, Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Maydoni 4,2 ming kv. km ni tashkil qiladi. Aholisi eng zich viloyatlardan biri bo'lib, 2253,5 ming kishi yashaydi. Viloyat aholisining 3/1 qismi shaharlarda istiqomat qiladi. Viloyat tarkibida 14 qishloq tumanlari va 11 shahar mavjud. Viloyat markazi – Andijon shahri.

Buxoro viloyati respublikamizda dastlab tashkil topgan viloyatlardan. Viloyat mamlakatimiz janubida joylashgan bo'lib, Qizilqum cho'lining kattagina qismini egallagan. U

1938 yil 15 aprelda paydo bo'lgan. Viloyat egallagan maydon dastlab juda katta bo'lib, 144,3 ming kv. km ga teng edi. 1982 yil Navoiy viloyati tashkil topgach, Buxoro viloyatining kattagina qismi ana shu viloyat uchun ajratildi. Hozirda Buxoro viloyati 40,3 ming kv. km ga teng, aholi soni 1460,6 ming kishini tashkil etadi. Viloyat tarkibida 11 qishloq tumanlari va 11 shahar mavjud. Buxoro shahri viloyatning ma'muriy markazidir.

Jizzax viloyati 1973 yil 29 dekabrda tashkil topgan bo'lib, maydoni 21,2 ming kv. km ga teng. Aholisi 1011,1 ming kishi. Barcha aholining 30,1 foizini shahar va qolgan 69,9 foizini qishloq aholisi tashkil etadi. Viloyat tarkibida 12 qishloq tumanlari va 7 shahar mavjud. Jizzax shahri viloyat markazi sanaladi.

Navoiy viloyati 1982 yilning 20 aprelida tashkil topgan. 1988 yil 6 sentyabrda tugatilib, 1992 yil 28 iyunda qaytadan tiklangan. Navoiy viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 111,0 ming kv. km ni tashkil etadi. Aholisining soni 798,7 ming kishi. Shahar aholisi 40,2 foizni tashkil etadi. Viloyat tarkibida 8 qishloq tumanlari va 6 shahar mavjud. Viloyat markazi 1958 yilda tashkil etilgan Navoiy shahridir.

Namangan viloyati 7,4 ming kv. km ni tashkil etadi. U 1941 yilning 6 martida tashkil etilib, 1960 yil 25 yanvarda tugatilgan va uning yerlari Andijon va Farg'ona viloyatlariga bo'lib berilgan edi. 1967 yil 18 dekabrda viloyat qayta tiklangan. Aholisining soni 1988,7 ming kishidan iborat. Aholining 37,6 foizi shaharlarda, 62,4 foizi qishloqlarda yashaydi. Viloyat tarkibida 11 qishloq tumanlari va 8 shahar mavjud. Viloyat markazi Namangan shahridir.

Samarqand viloyati 1938 yil 15 yanvarda tashkil topgan. Viloyat respublikamizning markaziy qismida, Zarafshon daryosining o'rta oqimi havzasida joylashgan. Maydoni 16,8 ming kv. km ga teng. Aholisi esa 2758,4 ming kishini tashkil etadi. Viloyat tarkibida 14

qishloq tumanlari va 11 shahar mavjud. Samarqand shahri viloyat markazi bo'lib, u 1924 yildan 1930 yilgacha O'zbekiston poytaxti ham bo'lgan.

Sirdaryo viloyati 1963 yil 16 fevralda tashkil topgan. Viloyat Sirdaryoning chap sohilida joylashgan. Maydoni 4,3 ming kv. km ga teng. Aholisi esa 660,8 ming kishini tashkil etib, ularning 32 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Guliston shahri viloyat markazi bo'lib, viloyat tarkibida 9 qishloq tumanlari va 5 shahar mavjud.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubida joylashgan bo'lib, 1941 yil 6 martda tashkil topgan. Maydoni 20,1 ming kv. km ga teng. Aholisi esa 1805,0 ming kishini tashkil etadi. Viloyatda aholining 19,7 foizigina shaharlarda yashaydi. Termiz shahri viloyat markazi bo'lib, viloyat tarkibida 14 qishloq tumanlari va 8 shahar mavjud.

Toshkent viloyati respublikamizning markaziy viloyati bo'lib, respublikamizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. U 1938 yil 15 yanvarda tashkil topgan. Maydoni (Toshkent shahrini qo'shib hisoblaganda) 15,6 ming kv. km ga teng. Bu respublika maydonining 3,5 foizi demakdir. Aholisi esa (Toshkent shahrini qo'shib hisoblaganda) 4560,3 ming kishini tashkil etadi. Toshkent shahri viloyat markazi bo'lib, viloyat tarkibida 15 qishloq tumanlari va 17 shahar mavjud.

Farg'ona viloyati respublikamizning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, 1938 yil 15 yanvarda tashkil topgan. Maydoni 6,7 ming kv. km ga teng. Aholisi esa 2741,6 ming kishini tashkil etadi. Aholining 71 foizi qishloqlarda istiqomat qiladi. Viloyat tarkibida 15 qishloq tumanlari va 9 shahar mavjud. Farg'ona shahri viloyat markazi sanaladi.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, Orol-Kaspiy pasttekisligining bir qismini egallagan. Viloyat 1938 yilning 15 yanvarida tashkil topgan. Maydoni 6,1 ming kv. km ga teng. Aholisi esa 1371,8 ming kishini tashkil etib, ularning 23,3 foizi shaharlarda yashaydi.

Viloyat tarkibida 10 qishloq tumanlari va 3 shahar (Urganch, Pitnak, Xiva) mavjud. Urganch shahri viloyat markazidir.

Qashqadaryo viloyati Pomir-Oloy tog‘ tizmasining g‘arbiy chekkasida joylashgan bo‘lib, 1943 yilning 20 yanvarida tuzilgan. 1960 yilning yanvariga kelib esa viloyat Surxondaryo bilan birlashtirilgan edi. 1964 yilning 7 fevralida esa Qashqadaryo viloyati qayta tiklangan. Maydoni 28,6 ming kv. km ga teng. Aholisi esa 2257 ming kishini tashkil etadi. Aholining 25,2 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Viloyat tarkibida 13 qishloq tumanlari va 12 shahar mavjud. Qarshi shahri viloyat markazidir.

3. Davlat hokimiyatining tashkil etilishi

Oliy Majlis. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palata — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat bo‘lib, ularning vakolat muddati — besh yil.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Qonun asosida saylanadigan 150 deputatdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a‘zolaridan (senatorlardan) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — 6 kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 16 nafar a‘zosi fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan

eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e‘tirof etilgan uchta asosiy davrga bo‘linadi:

Birinchi davr (1991-1994 yillar).

Ikkinchisi (1995-2004 yillar).

Uchinchi davr (2005 yildan hozirgi paytgacha).

Birinchi davr (1991-1994 yillar). O‘tish davri parlamenti deb atash mumkin bo‘lgan oxirgi chaqiriq Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan bir qator qonunlarni qabul qildi.

Ikkinchi davr (1995-2004 yillar). Oliy Kengash o‘rniga O‘zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti — Oliy Majlis shakllantirildi. Birinchi chaqiriq (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O‘zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan 69 nafar, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 47, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan 14 va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan 7 nafar deputat bo‘lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko‘rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ikkinchi chaqiriq (2000-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhlari ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraktsiyasi, 10 nafar deputatdan iborat “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraktsiyasi, 20 nafar deputatga ega bo‘lgan “Vatan taraqqiyoti”

partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputat tashkil etgan Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq-demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi.

Oliy Majlisning qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamentga o'tish (2004 yil, dekabr-2005 yil, yanvar). Ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitutsion islohotlar, shuningdek, asosiy konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida qonunchilik palatasiga saylov o'tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo'ldi. Saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'qrisida"gi qonunga muvofiq, saylov uchastkalariga bo'lingan 120 ta saylov okrugi tashkil etdi. Saylovning birinchi bosqichi 2004 yil 26 dekabr kuni o'tkazilib, 62 nafar xalq noibi. 2005 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi bosqichda qonunchilik palatasiga 58 nafar deputat saylandi. Saylovlar ham O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ham saylovchilarning tashabbuskor guruhleri ko'rsatgan deputatlikka nomzodlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Saylovda quyidagi siyosiy partiyalar ishtirok etdi: O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasi (2000 yilning iyunida "Fidokorlar" partiyasi "Vatan taraqqiyoti" partiyasi bilan birlashgan), O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, shuningdek, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi.

Uchinchi davr (2005 yildan hozirgi paytgacha). Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobida belgilab berilgan. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i sifatida fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili, O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi. Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘rib, muzokaralar olib boradi hamda O‘zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi.

Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi - O‘zbekiston Respublikasining Hukumati - iqtisodiyot, ijtimoiy va ma‘naviy sohalarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga, qonunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta‘minlovchi O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydagi №818-XII sonli “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga oid bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va mazkur

Qonunga muvofiq o'zining vakolatiga kiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvining barcha masalalarini hal etishga haqlidir.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining barcha hududidagi fuqaro, rahbar xodim, korxonalar, tashkilot, birlashma va barcha organlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qaror va farmoyishlar chiqaradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari. Viloyatlar, tumanlar, shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Mahalliy davlat hokimiyati asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida belgilab berilgan.

Sud hokimiyati. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun va ijro hokimiyati, siyosiy partiya, boshqa jamoat birlashmalaridan qat'iy nazar faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida sudlarning faoliyati "Sudlar to'g'risida" (2000 yil 14 dekabrda yangi tahriri)gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahrining sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman(shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman(shahar) sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahrining xo'jalik sudlari, harbiy sudlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy yurisdiksiya sudlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman(shahar) sudi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman(shahar) sudi, harbiy sudlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sudlovi doirasining oliy sudlov hokimiyati organidir.

4. Respublikaning aholi geografiyasi

O'zbekiston aholisi 2002 yil boshida 25,2 millionga teng bo'lgan. Agar O'rta Osiyo tarkibiga kirgan to'rt davlat O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Qozog'istonda yashovchi jami aholini 100 foiz deb oladigan bo'lsak, birgina O'zbekistonda uning qariyb yarmi istiqomat qiladi. MDH davlatlari ichida O'zbekiston aholisi soni jihatidan faqat Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi.

Mamlakatimiz aholisi yiliga qariyb 450 ming kishiga ko'paymoqda. Oxirgi 100 yilning 60 yili ichida respublika aholisi 2 marta ko'paygan bo'lsa, keyingi 2 marta ko'payish uchun 23 yil kerak bo'ldi. Bundan keyin tug'ilish darajasining bir oz pasayib borayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, aholini 2 marta ko'payishi uchun hisob-kitoblarga qaraganda 33 yil kerak bo'ladi.

Respublika aholisi o'sish sur'atlarining boshqa mintaqalarga nisbatan muttasil tarzda ildamroq borishi MDH davlatlari aholisining umumiy sonida respublikamiz salmog'i muntazam ravishda ortib borayotganida yaqqol ko'rinmoqda. Masalan, 1926 yili O'zbekiston aholisi hozirgi MDH mamlakatlari aholisining 3 foizidan sal ko'prog'ini tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich 7 foizdan oshib ketdi.

O'zbekistonda, ayniqsa, qishloq aholisi tez o'smoqda. Bu hol asosan, qishloqda tug'ilishning yuqoriligi bilan ifodalanib,

respublikamiz uchun xos bo'lgan xususiyat sanaladi. 1940 yildan to 2002 yilgacha bo'lgan davr ichida qishloq aholisining soni uch martadan ko'proq oshdi (1940 yildagi 4945 mingdan 2002 yilgi 15854 minggacha).

O'zbekiston hududlari bo'ylab aholi notekis joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi jihatidan mamlakatimiz MDH tarkibidagi qator davlatlar, jumladan O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istondan oldinda turadi. O'zbekistonda aholi sonining yil sayin tez ortib borishi tufayli, har bir kvadrat kilometr maydonga to'g'ri keladigan aholi zichligi ham ortib bormoqda. 1999 yili O'zbekistonda aholining o'rtacha zichligi har bir kvadrat kilometrغا 46, 3 kishini tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu raqam 56 kishidan ortib ketdi. Ma'lumki, aholi zichligining o'zgarib borishi asosan aholi sonining o'zgarishi bilan bog'liq.

Ammo aholi zichligi bo'yicha respublika hududlari bir-biridan farq qiladi. Bu, eng avvalo, O'zbekistonning xilma-xil tabiiy-iqlimiy sharoitlari bilan, ya'ni respublikada suvsiz qum cho'llari, go'zal vohalar, tog'li hududlar mavjudligi bilan bog'liq.

Aholining asosiy qismi yashash uchun qator qulayliklarga ega bo'lgan vohalarda ko'proq joylashgan. Masalan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida respublika aholisining uchdan biriga yaqini istiqomat qiladi. Holbuki maydoni jihatidan bu mintaqa respublikaning bor-yo'g'i 4 foizdan ko'proq qismini egallaydi, xolos.

Respublikamizning qumliklardan iborat iborat bo'lgan g'arbiy hududlarida aholi zichligi juda past, ya'ni u yerlarda aholi kam yashaydi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha aholi zichligi har bir kvadrat kilometr maydonga 9 kishiga, Navoiy viloyatida esa undan ham kam — 7 kishiga to'g'ri keladi. Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholi juda zich joylashgan. Andijon viloyatida har bir kvadrat kilometr maydonga 536,5, Farg'ona viloyatida esa 409,2 kishi to'g'ri keladi.

O‘zbekiston – ko‘p millatli davlat. Hozirgi kunda respublikamizda 100 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Aholining asosiy qismini mahalliy xalq – o‘zbeklar tashkil etadi. Ularning umumiy aholi sonidagi salmog‘i yil sayin ortib bormoqda.

O‘zbekiston aholisining deyarli yarmini 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. 55 va undan yuqori yoshdagi kishilar jami aholining 8 foiziga teng.

Jinsiy tarkibda ayollar ko‘pchilikni tashkil etadi. Hozirgi kunda umumiy aholi orasida ayollar salmog‘i qariyb 50,1 foizni tashkil etadi. Keyingi yillarda aholining jinsiy tarkibida ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda, ya’ni erkaklar soni bilan ayollar soni orasidagi farq asta-sekin kamayib bormoqda. Masalan, 1980 yil ma’lumotlari bo‘yicha O‘zbekistonda ayollar erkaklarga nisbatan 268 ming ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, 2002 yilga kelib, bu raqam 60,6 mingga tushib qoldi. Mamlakatimizda hozir har ming erkakka 1006 ayol to‘g‘ri keladi. Ayollar soni bilan erkaklar sonining asta-sekin bir-biriga yaqinlashib borishi ko‘p tomondan muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Sanoat va qishloq xo‘jaligi geografiyasi

O‘zbekiston sanoatida yetakchi o‘rinni og‘ir sanoat egallaydi. Ma’lumki, bu sanoat tarmog‘iga yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi. Mamlakat jami sanoatining 2/3 qismini deyarli og‘ir sanoat tarmoqlari tashkil etadi. Og‘ir sanoat xalq xo‘jaligining qator tarmoqlarini yangi texnika jihozlari bilan ta’minlaydi hamda sanoat, transport va qishloq xo‘jaligini qayta qurishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ammo og‘ir sanoat faoliyati bu ishlar bilangina chegaralanmaydi. Uning asosiy maqsadi barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirish, iste’mol mollarini ko‘plab tayyorlashdan iborat. Bir so‘z bilan aytganda, eng muhim hisoblangan og‘ir sanoat yengil, oziq-ovqat sanoatlari va

qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ishlab chiqarish negizlarini mustahkamlashga olib keladi.

O'zbekiston sanoatida mashinasozlik asosiy tarmoqlardan hisoblanadi. Bu sanoat tarmog'i xalq xo'jaligining qator tarmoqlarini texnik jihatdan qaytadan jihozlash asosi bo'lib hisoblanadi. Mashinasozlik sanoati korxonalarida qator yangi materiallar, mexanizmlar, asbob-anjomlar tayyorlanadi. Ular jumlasiga turli xil paxta teruvchi mashinalar, paxta chigitini aniqlikda tekshiruvchi mashinalar, yigiruv mashinalari, paxtani qop-qanorsiz tashiydigan ag'dargich tirkamalar, sug'orish mashinalari va hokazolarni kiritish mumkin.

Respublika poytaxti Toshkent shahrida aviasiya sanoatining yirik korxonalaridan biri V.Chkalov nomidagi aviasiya ishlab chiqarish birlashmasi davlat aksiyadorlik jamiyati joylashgan. Ushbu yirik sanoat korxonasi Moskva yaqinidagi Ximki shahridan ko'chirib kelingan zavod negizida 1941 yili ish boshlangan. Birlashma tarkibiga Toshkent, Farg'ona, Andijon zavodlari ham kiradi.

Mashinasozlik sanoat tarmog'ida o'nlab korxonalar va birlashmalar ishlab turibdi. Toshkent traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Chirchiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi kabi qator korxonalar ana shular jumlasidandir.

O'zbekiston elektr quvvati ishlab chiqarish va uni iste'mol qilish bo'yicha Hamdo'stlik mamlakatlari orasida Rossiya, Ukraina, Qozog'istondan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda chiqariladigan elektr quvvatining asosiy qismi issiqlik bilan ishlaydigan (TES) qator yirik stansiyalarga to'g'ri keladi. Ana shunday yirik stansiyalar qatoriga Sirdaryo, Toshkent, Navoiy, Angren, Taxtiatosh elektr stansiyalarini kiritish mumkin. Suv yordamida ishlaydigan (GES) qator stansiyalar - Farhod, Chorvoq, Xo'jakent va Chirchiq daryosida o'tgan yillar mobaynida qad ko'targan 19 stansiya ham elektr quvvati ishlab chiqarishga

o‘z hissasini qo‘shmoqda. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan energetika tizimi respublikaning elektr quvvatiga bo‘lgan talab-ehtijojini to‘la qondiradi. 1999 yili O‘zbekistonda 45372 million kilovatt soat elektr energiya yetkazilgan bo‘lsa, 2001 yilga kelib bu raqam 47961 million kilovatt-soatni tashkil etdi. Hozir O‘zbekistonda energetikani rivojlantirishning 2010 yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rinni *yoqilg‘i sanoati* egallaydi. Yoqilg‘i-energetika majmuining mavjudligi va rivojlanish darajasiga qarab davlatning kuch-qudrati belgilanadi. Bu sanoat tarmog‘iga *neft, tabiiy gaz, ko‘mir* qazib chiqarish kiradi. Tabiiy gaz zahirasi O‘zbekistonda 2,5 trilion kubometrni tashkil qilib, u yildan-yilga oshmoqda. Masalan, 1991 yilda respublikada gaz qazib olish 41,8 mlrd. kubometrni tashkil etgan bo‘lsa, 2001 yilga kelib 57,4 mlrd. kubometrga yetdi.

Keyingi paytlarda yoqilg‘i sanoatida neftning ahamiyati ortib bormoqda. Bu borada Qashqadaryo va Namangan viloyatlaridagi neft konlari katta istiqbolga ega. 1990 yilda respublikada 2810 ming tonna neft qazib olindi. Mustaqillikning dastlabki yili – 1991 yilda Rossiya va boshqa qo‘shni davlatlardan 4,5 million tonna neft va neft mahsulotlari olib kelingan. Mustaqillikning tarixiy qisqa davrida respublikada neft qazib olish qariyb 3 marta o‘sdi va 2001 yili uning hajmi 7256 ming tonnadan oshdi. Shunday qilib respublikamiz neft borasida mustaqillikka erishdi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z qora metallurgiya sanoatiga ham ega. Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan va 1946 yili qurilib ishga tushirilgan yagona metallurgiya kombinati Toshkent viloyatining Bekobod shahrida joylashgan.

Respublika xalq xo‘jaligida yetakchi o‘rinlardan birini *kimyo sanoati* egallaydi. *Neft, gaz, ko‘mir, oltingugurt, ozokerit, osh tuzi va rangli metallurgiya* chiqindilari, qayta ishlangan paxta va kanop chiqindilari kimyo sanoati uchun xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi. Paxtachilikni mineral o‘g‘itlar bilan ta‘minlashda kimyo sanoati, ayniqsa, muhim o‘rin egallaydi.

Sanoatning bu tarmog‘i mineral o‘g‘itlardan tashqari qishloq xo‘jaligi ekinlarini zararkunandalardan saqlash uchun zaharli moddalar, turli xil sun‘iy tolalar, xilma-xil bo‘yoqlar ishlab chiqaradi. Kimyo sanoatining boshqa bir shoxobchasi aholining kundalik turmushida kerak bo‘ladigan mahsulotlar ishlab chiqaradi. Kimyo sanoatiga kiruvchi qator korxonalar respublikaning Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Chirchiq, Navoiy, Olmaliq kabi ko‘pgina shaharlarida mavjud. Shu bilan birga boshqa qator sanoat korxonalari ham ishga tushirildi. Ular qatoriga Qizilqum fosforit zavodi va „Kimyotola“ ishlab chiqarish birlashmasi, qayta ta‘mirlangan Andijon, Qo‘qon va Yangiyo‘ldagi biokimyo zavodlarini kiritish mumkin.

Mamlakatimizda *elektrotexnika, qurilish materiallari, yengil va to‘qimachilik, oziq-ovqat* sanoatlari ham ancha rivoj topgan. Yirik *dehqonchilik* mintaqasi bo‘lmish respublikaning o‘ziga xos sharoitida ko‘p tarmoqli *yengil sanoati paxta tolasi, ip va shoyi gazlamalar, kanop tolasi, ayollar va erkaklar uchun paypoqlar, trikotaj kiyim-kechaklar, poyafzal* kabi mahsulotlar ishlab chiqaradi. Toshkent, Samarqand, Quvasoy *chinni* zavodlari ham shuhrat qozongan. Ularda ishlab chiqarilgan ajoyib va go‘zallikda o‘ziga xos bo‘lgan chinni idishlar jahon bozorida raqobat qila oladi.

O‘ziga xos tabiiy sharoitga ega bo‘lgan O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi va uning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan paxtachilikda asosan sun‘iy sug‘orishdan keng foydalaniladi. Biroq shuni ham aytish kerakki, sug‘oriladigan yerlarning salmog‘i uncha katta emas. Ular barcha dehqonchilik yerlarining 15 foizini tashkil etadi, xolos. Boshqacha qilib aytganda, sug‘oriladigan bunday yerlar 4,2 million gektarni tashkil etadi. Dehqonchilik qilinadigan yerlarning ko‘pchilik qismini sahro va chala sahrolar egallagan. Shunga ko‘ra mamlakat qishloq xo‘jaligi ekinlarining hammasi sun‘iy sug‘oriladigan maydonlarga to‘g‘ri keladi.

2001 yil ma‘lumotlariga qaraganda qishloq xo‘jaligida (o‘rmon xo‘jaligi qo‘shib hisoblanganda) ish bilan band bo‘lgan barcha aholining 33,5 foizi to‘g‘ri keladi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida *paxtachilik* uning yetakchi tarmog‘iga aylangan bo‘lib, shu bilan bir qatorda *sholikorlik*, *bog‘dorchilik*, *uzumchilik*, *ipakchilik*, *chorvachilik* ham taraqqiy etgan. Qishloq xo‘jaligida yetakchi o‘rinni egallagan paxtachilik tabiiy va iqlim sharoiti, aholi qo‘lga kiritgan ishlab chiqarish malakasi, tajribasi va hosil qilingan mehnat vositalaridan samarali foydalanishga imkon beradi. Respublikada paxtadan tashqari texnik ekinlardan kanop va jut ekiladi. U ekinlar asosan, Toshkent viloyatida yetishtiriladi. Samarqand viloyatidagi Urgut tumani yuqori sifatli *tamaki* yetishtirish bilan nom chiqargan. Tamaki qishloq xo‘jaligining eng serdaromad mahsulotlaridan biri hisoblanadi.

Respublikaning deyarli barcha hududlarida g‘alla ekinlari, asosan, *bug‘doy* yetishtiriladi. Ammo shu paytgacha mamlakatimizning g‘allaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun respublika ko‘p miqdorda xorijiy mamlakatlardan g‘alla olib kelishga majbur edi. Endilikda samarali agrar siyosatni amalga oshirish tufayli g‘alla mustaqilligiga erishildi. Agar 1990 yili mamlakatimizda 2 million tonnadan ortiqroq g‘alla olingan bo‘lsa, 2002 yilga kelib bu raqam 5 million 400 ming tonnani tashkil etdi. O‘zbekistonda *sholichilik* ham ma‘lum o‘rin egallaydi. Sholi yetkazadigan asosiy hududlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidir. Sholi mintaqalararo ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda chorvachilik, ayniqsa, uning asosiy tarmog‘i bo‘lgan *qo‘ychilik* katta o‘rin tutadi. Qo‘ychilikda esa o‘ziga munosib o‘rinni *qorako‘lchilik* egallaydi. Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston qorako‘lchilikning asosiy hududlari hisoblanadi. Qorako‘l terilariga jahon bozorida talab katta. Qorako‘lni „yumshoq oltin“ deb aytishlari bejiz emas. Qorako‘lchilik o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu soha bilan suv taqchil va qurg‘oq joylarda, ayniqsa, boshqa tarmoqlarni rivojlantirish imkoni bo‘lmagan va aholini band etishda

muammolar yuzaga keladigan mintaqalarda shug'ullaniladi. Faqat qorako'l qo'ylar ob-havoning keskin o'zgarishi va suvsizlikka moslashgan. O'zbekistondagi yaylovlarning 4/5 qismi sho'r suv manbalariga ega. Qorako'l qo'ylar ana shu suvlarni ichadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligining qadimiy tarmoqlaridan biri bo'lgan pillachilik ham o'lkamiz iqtisodiyotida ko'zga ko'rinarli o'rinni egallaydi. Respublika dunyoda kishi boshiga pilla ishlab chiqarish bo'yicha birinchi, umumiy mahsulot hajmi bo'yicha 5 o'rinni egallab turibdi. Tarmoq korxonalarida 15 ming kishi ish bilan band.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida respublikada *fermer* xo'jaliklarining safi kengaymoqda. Hozir respublikada bunday xo'jaliklar soni 55 mingdan ortib ketdi. Iqtisodiy islohotlar davrida xususiy yordamchi xo'jaliklarni ham taraqqiy ettirishda ham e'tibor ortib bormoqda. Shaxsiy tomorqalarda ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'plab tayyorlanyapti. Bu mahsulotlar orasida, ayniqsa, *sut-qatiq, jun, go'sht, sabzavot va poliz ekinlari* katta o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sohasida dehqonlarning shaxsiy tomorqalariga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Yer o'zining haqiqiy egasini topdi, uning mohiyati har bir dehqon qalbida o'ziga xos o'rinni egalladi.

Qishloq ahliga ajratilgan yer, yaratilgan shart-sharoitlar, qo'lga kiritilayotgan samaradorlik tufayli endilikda mamlakatimizda mavjud bo'lgan *qora mollar*, shu jumladan *sigirlar, qo'y va echkilar, parrandalarning* asosiy qismi dehqonlarning yordamchi xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i shaxsiy tomorqa xo'jaliklari hisobiga to'g'ri keladi.

Republikada 2001 yili yetishtirilgan *kartoshkaning* 85,1, *sabzavotning* 74,5, *poliz ekinlarining* 62,3, *uzumning* 38,2 foizi dehqon xo'jaliklarida yetishtirildi.

6. Transport va aloqa yo'llari

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholining hayot darajasini ko'tarishda *transportning* o'rni va mohiyati beqiyosdir. Transport ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi mamlakatning turli-tuman yuklar va yo'lovchilarini tashishga bo'lgan talab-ehtiyojini qondirish, mintaqalar orasida mehnat taqsimotini ta'minlash va tashqi iqtisodiy aloqalarini kuchaytirishdan iborat.

Transport ishlab chiqaruvchi kuchlarning mamlakat bo'ylab joylashishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra qudratli va aniq ishlaydigan transportsiz har qanday ko'lamdagi biror-bir davlatning samarali va oqilona ishlashi mushkul. Transport ham sanoat, ham qishloq xo'jaliginig turli xil mahsulotlarini yaratishda va ularni iste'molchilarga yetkazib berishda faol qatnashadi. Yo'lovchilarni bir manzildan ikkinchi manzilga tashishda ham transportning ahamiyati katta. Transport hududlar taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'satish bilan birga transport taraqqiyotining o'zi ham iqtisodiyot rivojidir. Texnika taraqqiyoti darajasi bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi transporti *temir yo'l, avtomobil, havo transporti, quvurlar va daryo transportini* o'z ichiga oladi. Respublikada mavjud transport vositalari bilan har yili katta miqdorda yuklar va yo'lovchilar tashiladi.

Turli xil yuklar va yo'lovchilarni tashishda temir yo'l transporti yetakchi o'rinni egallaydi. Temir yo'l transportining eng muhim afzalligi shundan iboratki, uning yuk va yo'lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori va yil bo'yi ob-havoning qanday bo'lishidan qat'i nazar muntazam tarzda ishlaydi. Bu bilan u havo va daryo transportidan farq qiladi. Respublikamiz hududlarini bir-biri bilan bog'labgina qolmay, o'z doirasidan tashqarida bo'lgan hududlarni ham bog'laydigan temir yo'l tarmoqlari qurilgan va ishga tushirilgan.

O'tgan asming yigirmanchi yillari boshida respublika temir yo'llarining umumiy uzunligi 1589 km ni tashkil etgan bo'lsa, endilikda u 6,3 ming km. ga yetdi. O'zbekiston temir yo'llarining uzunligi bo'yicha qo'shni Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston respublikalarini orqada qoldiradi va maydoni katta bo'lgan Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Temir yo'llar orqali O'zbekistonga asosan o'rmon mahsulotlari, metall va metallardan yasalgan asbob-uskunalar, qurilish materiallari keltiriladi. O'zbekistondan chetga esa respublika uchun an'ana bo'lib qolgan mahsulotlar: paxta tolasi, ipak, o'simlik moyi, tabiat noz-ne'matlari, xilma-xil meva, uzum, sabzavot, qovun-tarvuzlar bilan bir qatorda avtomobillar va boshqa turli-tuman sanoat mahsulotlari chiqariladi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish davrida temir yo'l transporti katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayrim temir yo'llari elektrlashtirildi.

Xorijiy mamlakatlarga, jumladan, janubdagi mamlakatlarga chiqishda Mashhad—Saraxs—Tajan temir yo'li qurilganligi katta ahamiyat kasb etdi. 1996 yil 13 mayda uzunligi salkam 300 km bo'lgan ushbu temir yo'l ishga tushdi. Bu yo'l eng qisqa masofa orqali O'rta Osiyoni Fors qo'ltig'i bilan bog'ladi va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

2002 yili kuzida „Navoiy-Uchquduq-Miskin-Sulton Uvays-Nukus“ temir yo'li ishga tushdi. 800 km ga yaqin uzunlikdagi bu yo'l bor-yo'g'i 5 yilda qurilib ishga tushirildi. Holbuki sobiq Ittifoq davrida masofasi ancha qisqa bo'lgan Navoiy—Uchquduq temir yo'lini qurish uchun 12 yil ketgan edi.

Respublikaning *transport kommunikasiyalarini*, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yer osti konlarini o'zlashtirish loyihalari amalga oshirilishini jadallashtirish, mamlakat janubiy mintaqalarining ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi 2003 yil 30 yanvarida „Toshg‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on“ yangi temir yo‘l qurilishini jadallashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Ushbu yo‘l mo‘ljallangan manzillar orasidagi yo‘lni qariyb ikki marta qisqartiribgina qolmay, balki qo‘shni Turkmaniston hududidan o‘tishdan xoli qiladi. Ma‘lumki, hozirgi temir yo‘l vagonlari eng janubiy hudud bo‘lgan Surxondaryo viloyatiga borish uchun deyarli 200 km ga yaqin masofani shu qo‘shni davlat maydonidan o‘tishi kerak bo‘lar edi. Natijada manzilga yetish uchun ko‘p vaqt sarf bo‘libgina qolmay, xarajat ham ko‘payib ketar edi. Yuqorida aytib o‘tilgan qaror asosida qurilayotgan yangi temir yo‘l mamlakatimiz hududinigina bosib o‘tadi. Bu esa yuklar tashishga ketadigan yuklar tannarxini qisqartiradi. Natijada mablag‘ tejab qolinadi. Qurilishi tezlatilishi lozim bo‘lgan yo‘lning uzunligi 220 km dan ortiqroq bo‘lib, uning atrofida iqtisodiy va ijtimoiy inshootlar qurilmoqda.

Yo‘lovchilar tashishda *avtomobil transporti* yetakchi o‘rinni egallaydi. 1990 yilda respublikada avtomobil transportida 2555 ming aholi tashilgan bo‘lsa, 2001 yilga kelib bu raqam 3169 mingga yetdi. Ana shu vaziyatni e‘tiborga olib, mamlakatimiz hukumati Toshkent-O‘sh yo‘lining Angren suv omboridan to Farg‘ona vodiysiga kirib borgungacha bo‘lgan qismini qayta qurish bo‘yicha qaror qabul qildi. Shu maqsadni ko‘zlab, Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil qatnovi uchun mo‘ljallangan tunnellar qurildi. Qamchiq tunnelining uzunligi 890 metr, Rezak tunnelining uzunligi esa 368 metrga teng. Ushbu tunnellingarning ishga tushishi tufayli Qamchiq dovoni orqali bu manzilda avvallari transport harakatida ro‘y berib turadigan xavf-xatarlarga chek qo‘yildi. Tunnellar orqali bir kecha-kunduzda minglab avtomobillar o‘tishiga imkon yaratildi. Bu yo‘l Farg‘ona vodiysi hududlarini O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan bog‘lab turadigan eng yaqin va eng qulay yo‘l bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda avtomobil transportida nodavlat sektor yetakchi o'rinni egallamoqda. Mulkning nodavlat turidagi korxonalar tomonidan avtomobil transportida yuk tashishlarning 70 foizi va yo'lovchi tashishlarning deyarli 100 foizi amalga oshiriladi.

2010 yil birinchi choragi mobaynida respublikaning barcha avtomobil transporti vositalari bilan jami 203,6 million tonna yuk va 1 milliard 198 million yo'lovchi tashilib, ushbu ko'rsatkich 2009 yilning shu davriga nisbatan tegishli ravishda 113,0 va 103,7 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi 3 milliard 488 million tonna km ni (2009 yilning shu davriga nisbatan 104,7 foiz), yo'lovchilar aylanmasi esa 13 milliard 114 million yo'lovchi km ni (2009 yilning shu davriga nisbatan 108,1 foiz) tashkil qildi.

Agarda avtomobil transporti faoliyatining 2001-2009 yillardagi asosiy ko'rsatkichlarini qiyoslasak, unda 2009 yil yakunlarida yo'lovchilar tashish hajmi 2001 yildagi ko'rsatkichdan 76,2 % ga o'sgan, yo'lovchi aylanmasi esa mos ravishda 2,6 marotaba ko'paygan.

Avtomobil transporti orqali yuk tashishlarning suratlari ham aynan shunday. 2009 yil yakunlariga ko'ra yuk tashish hajmi 2001 yil ko'rsatkichiga qaraganda 48,3 % ga o'sgan, yuk aylanmasi mos ravishda 2,7 marotaba ko'paygan. Ayniqsa, agrosanoat va qurilish majmualari yuklarini avtomobil orqali tashish hajmlari o'sgan.

Barcha turdagi transportlarda amalga oshiriladigan tashuvlar ichida avtomobil transporti hissasi yo'lovchi tashishda 97,9 foizga teng bo'lib, bu respublika yo'lovchi aylanmasining 88,5 foiziga to'g'ri keladi. Tashilgan yuklar miqdori va yuk aylanmasi bo'yicha avtomobil transportining solishtirma ulushi esa mos ravishda 89,2 foiz va 29,7 foizga teng.

2010 yil birinchi choragining o'zida ham Samarqand viloyatida 190 ta, Buxoro viloyatida 50 ta, Farg'ona viloyatida 37 ta,

Toshkent viloyatida 22 ta va boshqa viloyatlarda yana ko‘plab “ISUZU” rusumli avtobuslar sotib olinib, aholiga xizmat ko‘rsatish uchun yo‘nalishlarga chiqarildi.

Mamlakatimizda havo transporti ham katta ahamiyatga ega. Respublikada havo transportining parvozi 1924 yili boshlangan edi. O‘sha yilning 12 may kuni Toshkent–Bishkek–Olmaota orasida havo transporti orqali yo‘lovchilar tashilgan edi. Ana shundan beri o‘tgan davr ichida havo transporti taraqqiyotida ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Hozir havo transporti orqali asosan, yo‘lovchilar tashilmoqda. Shu bilan birga bir manzildan ikkinchi bir manzilga tez yetkazish zarur bo‘lgan yuklarni va tez buziladigan mahsulotlarni tashishda ham havo transportidan foydalanilyapti.

Respublika mustaqilligi e‘lon qilingandan keyin jahonning qator mamlakatlari bilan mustaqil tarzda *havo transportini* keng yo‘lga qo‘yish imkoni paydo bo‘ldi. 1992 yil yanvarida „O‘zbekiston havo yo‘llari“ Milliy aviakompaniyasi tashkil topdi. Ana shu kompaniya xizmati tufayli Toshkentdan Nyu-York, Tokio, London, Istanbul, Dehli, Pekin, Tel-Aviv, Seul, Kuala-Lumpur, Jidda, Urumchi, Frankfurt, Qohira, Madrid kabi jahonning yirik shaharlari bilan havo transporti orqali aloqalar o‘rnatildi.

Savol va topshiriqlar

1. *O‘zbekistonning tabiiy-geografik va ma‘muriy-hududiy tuzilishining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?*

2. *O‘zbekiston Respublikasining siyosiy-ma‘muriy kartasidan foydalanib, uning ma‘muriy bo‘linishini ko‘rsating.*

3. *Respublikamizning aholisi, sanoati va qishloq xo‘jaligi geografiyasiga doir yangi ma‘lumotlar to‘plang.*

4. *O‘zbekiston Respublikasining transport va aloqa yo‘llari taraqqiyoti haqida nimalar bilasiz?*

Mavzuga doir manba

O‘zbekiston Respublikasida asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Mahsulotlar	O‘lchov birligi	1994 yil	1997 yil	2001 yil
Elektr quvvati	mlrd. kv. s	47,8	46,1	48,0
Neft	mln. tn.	5,5	7,9	7,3
Tabiiy gaz	mlrd. m ³	47,2	51,2	57,4
Ko‘mir	mln. tn.	3,8	2,9	2,7
Po‘lat	ming. tn.	364,0	397,0	452,6
Traktorlar	ming dona	1,7	2,9	3,0
Yengil avtomobillar	ming. tn.	-	64,9	58,8
Paxta tolasi	ming. tn.	1384,8	1125,0	1015,0
Mineral o‘g‘itlar	ming. tn.	811,0	954,4	711,3
Sement	ming. tn.	4,8	3,4	3,3
Ip-gazlama	mln. m ³	480,0	429,4	397,7

*(G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E.
Mustaqil O‘zbekiston. – T., 2003)*

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1. Tarixiy geografiyaning metodi, predmeti va vazifalari.
2. Tarixiy geografiyaning vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari.
3. Tarixiy geografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.
4. Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari.
5. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.
6. O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa va antik davrdagi tarixiy geografiyasi.
7. O'rta Osiyoning o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi.
8. O'rta Osiyo davlatlarining XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy geografiyasi.
9. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi. 1917-1924 yillarda Turkiston.
10. O'zbekistonning 1924-1938 yillardagi chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi.
11. O'zbekistonning XX asr 40-80-yillaridagi tarixiy geografiyasi.
12. Sho'rolar hukmronligi davrida O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston chegaralarining o'zgarishi.
13. O'zbekistonning xo'jaligi, aholi va tabiiy geografiyasi.
14. O'zbekiston Respublikasining tarixiy geografiyasi.
15. O'zbekistonda tarixiy geografiya fani taraqqiyoti vazifalari.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Tarixiy geografiyaning uslubi, predmeti va vazifalari. Uning fan sifatidagi o'рни va taraqqiyoti.

2. Tarixiy kartografiya va uning xususiyatlari. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.

3. O'rta Osiyodagi tarixiy hududlar va qadimgi xalqlarning joylashuvi. Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari davrida O'rta Osiyo.

4. O'rta Osiyoning salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlatlari davridagi tarixiy geografiyasi.

5. Qang', Dovon, Kushon davlatlari tarixiy geografiyasi.

6. Buyuk Ipak yo'li geografiyasi.

7. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi.

8. Arablarning O'rta Osiyoni istilo qilishi. Tohiriylar, somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar davri tarixiy geografiyasi.

9. Xorazmshohlar davlati tarixiy geografiyasi.

10. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoni istilo qilishi. Mo'g'ul uluslari davrida O'rta Osiyo.

11. Amir Temur va temuriylar davri tarixiy geografiyasi.

12. O'rta Osiyoning shayboniylar, ashtarxoniylar, Xiva xonligi (XVI-XVIII asr birinchi yarmi) davridagi tarixiy geografiyasi.

13. XVIII asrning ikkinchi yarmi-XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari tarixiy geografiyasi.

14. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va o'lka ma'muriy-hududiy chegaralarining o'zgarishi.

15. Mustamlaka davridagi O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi.

16. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-hududiy bo'linishi.

17. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida O'rta Osiyoda chor Rossiyasi istilosiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari geografiyasi.

18. 1917-1924 yillarda O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi. Turkistondagi milliy-hududiy chegaralanish.

19. Sho'rolar hukmronligi davrida O'zbekiston tarixiy geografiyasi.

20. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasining tarixiy geografiyasi.

ADABIYOT VA MANBALAR

1. Узбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.: Узбекистон. 2008.
2. *Karimov I.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Tanlangan asarlar. VII jild. Т.: O'zbekiston. 1999.
3. *Karimov I.* Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. - Т.: Ma'naviyat. 2008.
4. *Абдурахимова Н. А.* Система колониального управления в Туркестане. - Т., 1976.
5. *Абулғозихон.* Шажараи турк. - Т., 1992.
6. *Агаев Х.* Экспедиция Н.Н. Муравьева в Туркмению и её роль в укреплении русско-туркменских отношений // Изв. АН Туркм. ССР. 1957.
7. *Азатьян А.* Основные географические проблемы Средней Азии и их динамике.-Т.: Фан. 1974.
8. *Азатьян А. и другие.* История открытия и исследования Советской Азии.-М.: Мысль. 1969.
9. *Аминов О.* XVI-XX асрларда Ўрта Осиёнинг Россия билан тарихий ва иқтисодий алоқалари. - Т., 1958.
10. *Амир Темур жаҳон тарихида.* - Т., 1996.
11. *Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке.* Перевод с англ. Ю.В. Готье. - Л., 1937.
12. *Античная география.* Составитель М.С.Бондарский.-М.: Изд-во Геогр. лит. 1953.
13. *Ахмедов Б.* Государство кочевых узбеков.-М., 1965.
14. *Ахмедов Б.* Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (письменные памятники). — Т.: Фан. 1985.
15. *Ахмедов Б.* Буюк Амир Темур. - Т., 1996.
16. *Багров Л.С.* Карты Азиатской России. Исторические заметки.-Петроград., 1914.
17. *Баранский Н.Н.* Экономическая картография. Вып. 3. - М., 1940.
18. *Бартольд В.В.* Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. 1. - М., 1963.

19. *Бейкер Дж.* История географических открытий и исследований. - М.: Изд. иност. лит. 1950.
20. *Белов М.И.* О разработке теории советских историко-географических исследований // Первая Всесоюзн. научн. сессия по историч. географии. - М., 1974.
21. *Берг Л.С.* Очерки по истории русских географических открытий.-М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1949.
22. *Берлянт А.Н.* Карта рассказывает.-М.: Просвещение. 1978.
23. *Беруний Абу Райхон.* Қонуни Масъудий. Танланган асарлар. Т.В. - Т.: Фан. 1973.
24. *Бичурин И.Я.* Собрания сведений о народах Средней Азии в древние времена.- М.-Л., 1950.
25. *Бойназаров Ф.* Ўрта Осиёнинг антик даври. - Т.: Ўқитувчи. 1991.
26. *Булгаков П.Г.* Глобус Беруни // „Общественные науки в Узбекистане“. 1965, №1.
27. *Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А.* Мухаммад ал-Хорезми. -М.: Наука. 1983.
28. *Буриев О.* Устознинг хатосини тузатган шогирд // „Фан ва турмуш“. 1976, №5.
29. *Буриев О.* Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. - Т.: Ўзбекистон. 1997.
30. *Вязигин С.А.* Сведения Клавдия Птолемея по географии Туркменистана // Изв. Туркм. фил. АН СССР. 1964, №1.
31. *Геродот.* История в девяти книгах. Пер. и прим. Г.А.Стратановского.-Л.: Изд-во Наука. 1972.
32. *Голубцов И.А.* Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения.-М., 1963.
33. *Гольденберг Л.А.* О предмете исторической географии // Изв. ВГО. 1971, №6.
34. *Греков Б., Якубовский А.* Золотая Орда и её падения.-М.-Л., 1950.
35. *Гумбольдт А.* Центральная Азия. Пер. с франц. П.У.Бородзича. Т.1.-М., 1915.
36. *Гумилёв Л.Н.* Эфталиты и их соседы в IV в. //ВДИ, 1959, №1.
37. *Гумилёв Л.Н.* Древние тюрки.-М., 1967.

38. *Давидович Е.А.* Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Масудбека (XIII в).-М., 1972.
39. *Дементьев В.А., Андриющенко О.Н.* История география. Часть первая. - Минск., 1962.
40. *Дитмар Б.П.* Исторический очерк изображения территории СССР в иностранной картографии до XVIII века // Уч. зап. Яросл. Гос. пед. инс-та. Вып. VI (XVI). 1945.
41. Древние авторы о Средней Азии (VI до н.э-III в. н.э). Хрестоматия. Под ред. Л.В.Баженова.-Т., 1940.
42. *Дробижев В.З., Ковальченко И.Д., Муравьев А.В.* Историческая география СССР.-М., 1973.
43. *Дьяконов Н. М.* Древняя Бактрия.-М., 1954.
44. *Жуковский С.* Сношения России с Бухарой и Хивой за последние 300-летие // Тр. Общ-ва Русск. Ориенталистов.-Петроград., 1915.
45. *Зияев Ҳ.* Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII-XX аср бошлари). - Т.: Шарқ. 1998.
46. *Ибн Арабшоҳ.* Амир Темур тарихи. I-II китоб. - Т., 1992.
47. *Иброҳимов Н.* Ибн Баттута ва унинг Урта Осиёга саёҳати. - Т., 1993.
48. *Исаченко А.Г.* Развитие географических идей.-М.: Мысль. 1971.
49. *Йулдошев М.* Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. - Т., 1959.
50. *Камалиддинов Ш.С.* Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX-начала XIII вв.-Т.: Ўзбекистон. 1996.
51. *Камалиддин Ш., Мукминова Р.* Заметки о географической карте Средней Азии Абрахама Мааса // „O'zbekiston tarixi“. 2003, №1.
52. *Караваев З.Ф.* Некоторые вопросы создания исторических карт.-М., 1956.
53. *Карпини Плано.* История монголов. Введение, перевод и примечания А.И. Малеина.-СПб.: Изд. А.С. Суворина. 1911.
54. *Клавихо Р.Г.* Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406).-М., 1971.
55. *Кобзева О.П.* История изучения Великого Шелкового пути во второй половине XIX-начале XX вв.-Т.: Zar qalam. 2006.

56. *Корженевский Н.Л.* О старинных картах, хранящихся в Узбекистанском филиале Академии Наук СССР // Изв. Узб. Фил. АН СССР. 1941, №3.

57. *Корженевский Н.Л.* К истории развития картографии и географических представлений о территории Средней Азии и Узбекистана в XVIII веке // Изв. АН Уз ССР. 1949, №1.

58. Книга Большому Чертежу. Под ред. К.Н.Сербиной.-М. - Л.: Изд-во АН СССР. 1950.

59. *Крачковский И.Ю.* Арабские географы и путешественники // Изв. Всес. Геогр. Общ-ва. Т. 69. Вып. 5. 1937.

60. *Кузнецов С.К.* Русская историческая география. - М., 1910.

61. *Курций Руф.* История Александра Македонского. - М.: МГУ. 1963.

62. *Лунин Б.В.* Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. - Т., 1965.

63. *Лунин Б.В.* История Узбекистана в источниках. - Т.: Фан. 1984.

64. *Лунин Б.В.* История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и учёных XVI-первой половины XIX в.-Т.: Фан. 1988.

65. *Лунин Б.В.* История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и ученых (20-80-е годы XIX в.). - Т.: Фан. 1990.

66. *Любавский М.К.* Историческая география Россия в связи с колонизацией.-М., 1909.

67. *Магидович И.П., Магидович В.И.* Очерки по истории географических открытий. - М.: Просвещение. Тт. I-IV. 1982-1985.

68. *Макшеев А.* Географические сведения Книги Большого Чертежа о Киргизских степях и Туркестанском крае // Изв. РГО. Т. XIV. 1878.

69. *Маслова О.В.* Обзор русских путешествий и экспедиций в Среднюю Азию. В 4-х частях. - Т., 1955-1971. Т. I-IV.

70. *Массон М.Е.* Новые картографические данные о прошлом Туркменистана XVIII в.// Изв. АН Туркменской ССР. 1958, №1.

71. *Мирзалиев Т., Мухитдинов Н.М., Базарбаев А.* Атласное картографирование в Узбекской ССР.-Т.: Фан. 1990.

72. *Мушкетов М.В.* Туркестан. - Петроград.: Изд-во РГО. 1915.
73. *Муминов А.* Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган урни ва роли.-Т., 1993.
74. *Муҳаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н.* Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. - Т., 1957.
75. *Набиев Р.* XIV асрда Ўрта Осиёда сарбадорлар кузғолони. - Т., 1942.
76. *Парфенов Г.В., Югай Р.Л.* Неизвестные русские рукописные карты конца XVIII века как новый источник по географии, истории и археологии Узбекистана // „Общественные науки в Узбекистане“. 1964, №2.
77. *Пигулевская Н.В.* Маздакидское движение. // Изв. АН СССР. Т. I. 1949, №3.
78. *Пидаев Ш.* Поселения кушанского времени Северной Бактрии. - Т., 1978.
79. *Пидаев Ш.* Сирли кушонлар давлати. - Т., 1990.
80. *Постников А.В.* Исторические карты и их классификация // „Геодезия и картография“..1969. № 8.
81. *Постников А.В.* Развитие картографии и вопросы использования старых карт. - М.: Наука. 1985.
82. *Преображенский А.И. и др.* Составление и редактирование специальных карт. - М., 1961.
83. *Пьянков И.В.* Средняя Азии в известиях античного историка Ктесия. - Душанбе.: Дониш. 1975.
84. *Пьянков И.В.* Бактрия в античной традиции. - Душанбе.: Дониш. 1982.
85. Путешествие Марко Поло. Пер. старо-французского языка И.П.Минаева. Под ред. В.В.Бартольда // Зап. ИРГО по этногр. Т. XXVI. 1902.
86. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. Гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров.-М., 1882. Ч.1.
87. *Радкевич В.А.* Великий Шелковый путь.-М., 1990.
88. *Ртвеладзе Э.В.* Великий Шелковый путь.-Т., 1999.
89. *Райт К.Дж.* Географические представления в эпоху крестовых походов. - М.: Наука. 1988.

90. *Раҳимбеков Р.У., Донцова З.Н.* Урта Осиё табиатини географик урганиш тарихи. - Т.: Ўқитувчи. 1982.
91. *Реклю Э.* Всеобщая география. Земля и люди.-СПб.: Изд. Картографического зав. А. Ильина. Тт. I-XIX. 1876-1894.
92. *Риттер К.* Землеведение Азии. Пер. П. Семенова.-СПб.: Изд-во В. Головина. 1856.
93. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Под ред. П.П.Семенова-Тянь-Шанского.- СПб.: Изд. А.Ф.Девриена. 1913.
94. *Рубрук Вильгельм.* Путешествия в восточные страны. Введение, перевод и примечания А.И. Малеина.-СПб.: Изд. А.С. Суворина. 1911.
95. *Саар П.Г.* Источники и методы исторического исследования.-Баку., 1930.
96. *Сагдуллаев А.* Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. - Т.: Ўқитувчи. 1996.
97. *Саидбобоев З.* Урта асрларда Шарқ картографиясининг равнақи // „Имом ал-Бухорий сабоқлари“. 2002, №4.
98. *Саидбобоев З.* XVIII асрнинг биринчи ярмида Фарбий Европада тузилган карталарда узбеклар тарқалган ҳудудларнинг акс эттирилиши // „УзМУ хабарлари“. 2004, №4.
99. *Саидбобоев З.* XIX аср немис олимларининг Урта Осиёга доир тарихий-географик маълумотлари // „Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари“. 2005, №1.
100. *Саидбобоев З.* „Атлас Азиатской России“ как источник по истории Туркестана начала XX. // „O‘zbekiston tarixi“. 2008, № 1.
101. *Салищев К.А.* Картоведения.-М.: Из-во Моск. Университета. 1990.
102. *Северцов Н.А.* Путешествия по Туркестанскому краю.-М.: Гос. Изд-во. Геогр. лит. 1947.
103. *Семенов П.П.* Путешествие в Тянь-Шань в 1856-1857 годах.-М.: Гос. Изд-во Геогр. лит. 1947.
104. *Середонин С.М.* Историческая география.-Петроград., 1916.
105. *Сиверсь В.* Азия. - СПб.: Тип. Книгоизд. Т-ва «Просвещение». 1896.
106. Сирийские источники по истории народов СССР.-М.-Л., 1941.

107. *Спыцин А.А.* Русская историческая география.- Пет-роград., 1917
108. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. Пер. и прим. И.В.Пьянкова.-Душанбе.: Дониш. 1975.
109. *Страбон.* География в 17 книгах. XI. 5.-Л.: Изд-во Наука. 1964.
110. *Сухарова О.А.* Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов).-М.: Наука. 1976.
111. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ушлаштирилиши. - Т.: Шарқ. 2001.
112. Темур тузуклари.-Т., 1996.
113. *Герентьев М.А.* Карты и планы к истории завоевания Средней Азии. - СПб., 1906.
114. *Герентьев М.А.* История завоевания Средней Азии.- СПб., 1906. Т. I-II.
115. *Тешабаев М.* Картографические и геодезические работы Ал-Харезми и Беруни // Изв. Узб. Фил. Геогр. Общ-ва СССР. 1957.
116. *Толстов С.П.* Қадимги Хоразм маданиятини излаб. - Т.: Фан. 1964.
117. *Томсон Д.О.* История древней географии. Пер. с английского.-М.: Изд-во иност. лит. 1953.
118. Топография Оренбургской губернии. Сочинение П.И.Рычкова 1762 года.-Оренбург.: Тип. Б. Бреслина. 1887.
119. *Федченко А.П.* Путешествие в Туркестан.-М.: Географгиз. 1950.
120. *Хасанов Х.* Среднеазиатский географ-филолог XI в. // Изв. Узб. Фил. Геогр. Общ-ва СССР. Т.V. 1961.
121. *Хасанов Х.* Абу-Райхон Бируни о возможности существования западного материка // Изв. АН СССР. Серия географического. 1963, №1.
122. *Хасанов Х.* Памятники среднеазиатской картографии./ / Изв. Узб. Геогр. общ-ва. Т. VIII. 1964.
123. *Чабров Г.Н.* Русские поселения между Оренбургом и Ташкентом в XIX-начале XX вв (1824-1917) // Труды САГУ. Вып. ХС. Исторические науки.-Т.: Изд-во САГУ. 1957.
124. *Чориев З.* Туркистон мардикорлари: сафарбарлик ва унинг оқибатлари. - Т., 1999.

125. *Югай Р.Л.* О неизвестной карте Средней Азии и Казахстана // Изв. Узб. фил. Геогр. Общ-ва. Т. III. 1957.
126. *Югай Р.Л.* Карта Средней Азии, Казахстана и сопредельных с ними стран, составленная Иваном Лютовым // Изв. Узб. Фил. Геогр. Общ-ва. Т. IV. 1960.
127. *Югай Р.Л.* О географическом изучении пустыни Кызылкума в связи с её топонимикой // Изв. Узб. Фил. Геогр. Общ-ва СССР. Т.V. 1961.
128. *Якубовский А.Ю.* К вопросу об этногенезе узбекского народа.-Т., 1941.
129. *Яцунский В.К.* Предмет и задачи исторической географии // „Историк-марксист“. 1941, №5.
130. *Яцунский В.К.* Историческая география как научная дисциплина //”Вопросы географии”. 1950, №20.
131. *Яцунский В.К.* История географических знаний и историческая география СССР. - М., 1953.
132. *Яцунский В.К.* Историческая география. История её возникновения и развития в XIV-XVIII вв.-М., 1958.
133. *Умурзаков С.* Очерки по истории географических открытий и исследований Киргизии.-Фрунзе.: Кирг. Гос. Изд-во. 1959.
134. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. - Т.: Шарқ. 2001.
135. Ўзбекистоннинг янги тарихи. I-III жилд. - Т.: Шарқ. 2000.
136. Ўзбекистон тарихи атласи. - Т.: Узгеодезкадастр. 1999.
137. *Фуломов П.* Жуғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли лугати. - Т.: Уқитувчи. 1994.
138. *Ҳасанов Ҳ.* Урта Осиёга саёҳатлар. - Т., 1954.
139. *Ҳасанов Ҳ.* Урта Осиёлик географ ва сайёҳлар. - Т.: Уқитувчи. 1964.
140. *Ҳасанов Ҳ.* Сайёҳ олимлар. - Т.: Ўзбекистон. 1981.
141. *Ҳасанов Ҳ., Буриев О.* Ал-Хоразмий географияси. - Т.: Фан. 1983.
142. Annales d'histoire economique et sociale. 1937, Mars, №44.
143. An Historical Geography of England before A.D. 1800. Edited by Henry Clifford Darby.-Cambridge.: University Press. 1936.
144. *Bagrow L.* History of cartography. Edited by R.A.Skelton., C.A.Watts.-London., 1964.

145. *Baker*. The last hundred years of historical geography // History. December. 1936. Vol. XXI. №83.

146. *Barnes H.* A History of Historical Writing., 1938. What is historical geography?// „Geography“. №95. Vol. XVII. Part I. March. 1932.

147. *Brown L.A.* The story of maps.-Boston.: Little Brown and Co. 1950.

148. *Desjardins*. Geographie historique et administrative de la Gaule Romaine.-Paris., 1876-1878.

149. *Forbiger*. Handbuch des alten Geographie. T. I.-Leipzig., 1842.

150. *Gilbert*. What is Historical geography?// Scottish Geographical Magazine. 1932, №3.

151. Handbuch der alten Erdbeschreibung von d'Anville zum Gebrauch seines Atlas Antiquus in 12 Landkarten verfasst.

152. *Humboldt A.* Chaines de montagnes et volcans l'Asie Centrale.-Paris., 1843.

153. *Nebenzahl Kenneth*. Mapping the Silk Road and Beyond. 2,000 years of Exploring the East. - New York., 2005.

154. *Richthofen F.F.* China. Ergebnisse eigener Reisen und darauf gegründeter Studient.-Berlin.: Reimer Verlag. V. I-IV. 1877.

155. *Saidboboiev Z.* Information about Central Asian territory in the „Book of the big drawing“ written in Russia (XVII century) // The Second NII International Symposium. Nara Symposium for Digital Silk Roads. December 10-12, 2003. Nara, Japan.

156. *Saidboboiev Z.* The Representation of the Central Asia and the territories inhabited by Uzbeks on the historical maps made in West Europe (The first half of XVIII century) //Training workshop on material culture and archeological sources. Rabat, Morocco. 20-26 June, 2005.

157. *Schuyler E.* Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Kokand, Bukhara and Kuldja. Vols. I-II.-London., 1876.

158. *Skelton R.A.* Maps: A historical survey of their study and collecting. - Chicago-London., 1972.

159. *Wimmer*. Historische Landschaftskunde.-Insbruck., 1885.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	3
------------------	---

I BOB. TARIXIY GEOGRAFIYANING VAZIFALARI VA ASOSIY BO'LIMLARI. UNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

1. Tarixiy geografiya fani haqidagi ilmiy qarashlar	5
2. Tarixiy geografiyaning vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari	10
3. Tarixiy geografiyaning fan sifatida shakllanishi	15
4. Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi tarixiy fanlarning o'rni	17
5. O'rta Osiyo olimlari asarlarining tarixiy geografiya uchun ahamiyati	22

II BOB. TARIXIY KARTOGRAFIYA VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI. TARIXIY KARTOGRAFIYANING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

1. Karta va kartografiya haqida qisqacha tushuncha	34
2. Tarixiy kartalar	39
3. Tarixiy kartografiya	41
4. O'zbekistonda kartografiya fani tarixi	44
5. Antik davr mualliflarining O'rta Osiyoga doir kartografik tadqiqotlari	47
6. XIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy-geografik va kartografik ma'lumotlar	51
7. Rossiyada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy-kartografik ma'lumotlar	59
8. O'rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari	64

III BOB. O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA VA ANTIK DAVRDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

1. O'rta Osiyoning tosh asri manzilgohlari tarixiy geografiyasiga tavsif	72
2. O'rta Osiyoning eneolit, bronza va ilk temir davri manzilgohlari tarixiy geografiyasi	77
3. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari va davlat birlashmalari	80
4. Ahamoniylar hukmronligi va Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi	85
5. Miloddan avvalgi IV asr oxiri-milodiy IV asrning boshlarida O'rta Osiyoning siyosiy va iqtisodiy geografiyasi	87
6. Buyuk Ipak yo'li: uning asosiy yo'nalish va tarmoqlariga tarixiy-geografik tavsif	91

IV BOB. O'RTA OSIYONING O'RTA ASRLARDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

1. Eftalitlar va turk xoqonligi siyosiy-tarixiy geografiyasi	96
2. Xo'jalik va savdo munosabatlari	100
3. O'rta Osiyo arab xalifaligi tarkibida	103
4. Arab istilochilariga qarshi xalq harakatlari	105
5. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahrda mustaqil davlatlar va ularning siyosiy tarixiy geografiyasi	108
6. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi	113
7. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini va unga qarshi ozodlik harakatlari	115
8. Mo'g'ul (Chig'atoy) ulusi davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi	118
9. Amir Temur va temuriylar davlati tarixiy geografiyasi	120
10. Shayboniylar, ashtarxoniylar davlatlari va Xorazmning siyosiy va iqtisodiy geografiyasi (XVI-XVIII asrning birinchi yarmi)	128

V BOB. O'RTA OSIYO XONLIKLARINING XVIII ASR IKKINCHI YARMI-XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

1. O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy tarixiga tavsif	137
2. Xonliklarning ma'muriy-hududiy chegaralari	138

3. Xonliklarning aholisi va iqtisodiy geografiyasi	140
--	-----

**VI BOB. O'RTA OSIYONING CHOR ROSSIYASI
BOSHQARUVI DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI.
1917-1920 YILLARDA TURKISTON**

1. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishi ...	148
2. Chor istilosiga qarshi milliy-ozodlik kurashlari geografiyasi	149
3. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi	151
4. 1917-1920 yillar siyosiy-tarixiy geografiyasiga tavsif	153
5. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Turkistonda iqtisodiy hayot	159

**VII BOB. O'ZBEKISTONNING TARIXIY
GEOGRAFIYASI (1924-1991 YILLAR)**

1. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi. O'zbekiston SSRning tashkil topishi.....	164
2. XX asrning 20-80-yillarida Qoraqalpog'iston.....	168
3. O'zbekistonning aholi geografiyasi (XX asrning 20-80-yillari)	171
4. XX asrning 20-80-yillarida O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasi	174

**VIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARIXIY
GEOGRAFIYASI**

1. O'zbekistonning tabiiy-geografik tavsifi.....	181
2. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi	187
3. Davlat hokimiyatining tashkil etilishi.....	190
4. Respublikaning aholi geografiyasi	195
5. Sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi	197
6. Transport va aloqa yo'llari.....	203

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	209
MUSTAQIL ISH MAVZULARI	210
ADABIYOT VA MANBALAR	212

ZOKIRJON SAIDBOBOYEV

TARIXIY GEOGRAFIYA

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya qilingan*

Toshkent — «Noshir» — 2010

*Muharrir: S. Mirzaxo'jayev
Texnik muharrir: D. Mamadaliyeva
Rassom: Sh. Odilov
Musahhih: D. Umarova
Sahifalovchi: S. Po'latov*

Bosishga ruxsat etildi 27.07.2010 y. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.
«Times TAD» garniturasida. Bosma tabog'i 14,0. Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 36.

«NOSHIR» nashriyoti, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi pastki savdo rastalari.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasining
bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi pastki savdo rastalari.



nothir

ISBN 978-9943-353-29-9



9 789943 353299